O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

A.N. XOLIQULOV

IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

O‘QUV QO‘LLANMA

S A M A R Q A N D 2 0 2 3

UO'K: 005.52:657.6(075.8)
X 72
KBK: 65.053ya73

Xoliqulov A.N. ***Iqtisodiy tahlil*** *[Matn]: O'quv qo'llanma / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. – Samarqand.: «FAN BULOG'I» Nashryoti, 2023 - 208 bet.*

Taqrizchilar:

M.Q.Pardaev – SamISI, "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrasi professori, i.f.d.,
D.Q. Usmanova – SamDU dotsenti, i.f.n.

Mazkur o'quv qo'llanma Oliy talim muassasalarida tahsil olayotgan 5230100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 5230200 – Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 5230400 – Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavr talabalari uchun "Iqtisodiy tahlil va audit" fanining "Iqtisodiy tahlil" qismi bo'yicha tayyorlangan.

O'quv qo'llanmada iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari atroflicha yoritilgan. Xususan, bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotda iqtisodiy tahlilining tutgan o'rni va vazifalari, predmeti, uslubiyati, usullari, uni tashkil qilish va o'tkazish tartibi va boshqa jihatlari bugungi talabga Yangi O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'liga mos ravishda qarab chiqilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalarga, magistrlar va professor-o'qituvchilarga mo'ljallangan. Undan ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, iqtisodiy tahlil faniga qiziquvchi soha mutaxassislari va keng kitobxonlar ommasi ham foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2023 yil 28 apreldagi 9-sonli qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-5608-8-8

© A.N. Xoliqulov, SamISI 2023 y.
© «FAN BULOG'I» Nashryoti, 2023 y.

KIRISH

Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatda har bir korxona, mulk shaklidan qat’iy nazar, erkin raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsatadi. Raqobat, o‘z navbatida, har bir korxonani qandaydir o‘zining strategiyasi va taktikasiga ega bo‘lishni, shu yo‘l bilan raqobatga yengilib, sinib ketmaslikning faqat o‘ziga xos yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bu esa har bir korxonada ishlab chiqarish, texnologik, tijorat kabi jarayonlarning sir saqlanishini, bu sirni boshqa sub’ektlarga oshkora qilmaslikni, undan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishlikni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida, xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish zaruratini keltirib chiqardi.

Iqtisodiy tahlilning vujudga kelishiga faqat yuqorida keltirilgan dalillargina sabab bo‘lmasdan, balki mamlakatimizda xalqaro andozalar talabiga mos bo‘lgan «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» ishlab chiqilishi va ularning amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilinishi ham tahlilda shunday tarzdagi tarkibning paydo bo‘lishiga olib keldi. Shuningdek, bugungi amaliyot korxonalarning boshqaruv hisobi va hisobotini hamda moliyaviy hisob va hisobotini yuritishni taqozo qilmoqda. Hisob va hisobotlar odatda, iqtisodiy tahlilning birinchidan, asosiy ma’lumotlar yetkazib beruvchi axborot manbalari bo‘lsa, ikkinchidan, axborotlar shunchaki axborot uchun emas, balki korxonani boshqarish va uning samaradorligini oshirish uchun tuziladi. Bu ham amaliyotga iqtisodiy tahlilning joriy qilinishini taqozo qiladi.

Mutaxassislar bu fanni chuqur o‘rganishlarida o‘quv adabiyotlarning ko‘p bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy talim muassasalarida tahsil olayotgan 5230100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), 5230200 – Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), 5230400 – Marketing (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavr talabalari uchun tayyorlangan “Iqtisodiy tahlil va audit” fanidan o‘quv qo‘llanma katta hissa qo‘shadi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni erkinlashtirish va iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish bosqichidagi eng dolzarb masalalardan biri – rejali iqtisodiyot sharoitida shakllangan iqtisodiy tahlil va audit usullarini mazmun jihatdan yangilash hisoblanadi. Bular jumlasiga iqtisodiy tahlil va auditning ikki qismga (iqtisodiy tahlil,audit) bo‘linishi, unda iqtisodiy tahlilning o‘rni va rolini ochib berish masalalari ham kiradi. Jahon tajribasiga ko‘ra xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy tahlili

ikki turga bo‘lingan. Birinchisi boshqaruv tahlili, ikkinchisi esa, moliyaviy tahlildir.

Bu o‘quv qo‘llanma iqtisodiy tahlil va audit fanining namunaviy va ishchi o‘quv dasturida ko‘rsatilgan iqtisodiy tahlil qismi mavzulari asosida ishlab chiqilgan va dasturlarga to‘liq mos keladi. Har bir mavzu ham nazariy, ham amaliy jihatdan to‘liq yoritilib berilgan. Mavzularni mukammallashtirish uchun qisqacha tayanch so‘z va iboralar, savolnomalar tushunarli tarzda bayon etilgan.

Mazkur ishda iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari atroflicha yoritilgan. Xususan, bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotda iqtisodiy tahlilining tutgan o‘rni va vazifalari, predmeti, uslubiyati, usullari, uni tashkil qilish va o‘tkazish tartibi va boshqa jihatlari bugungi talabga Yangi O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘liga mos ravishda bayon etilgan.

Ishda korxonalar tomonidan ishlab chiqarish va uni sotish bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish mavzusiga oid masalalarni ko‘rib chiqishga ko‘proq o‘rin berilgan. Bulardan tashqari mahsulot hajmiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish usullari ham atroflicha bayon etilgan. Unda hukumatimizning korxonalar ishini takomillashtirishga doir qarorlari, ko‘rsatmalari, yo‘riqnomalari nizomlaridan hamda ushbu fan sohasida xorijiy mualliflarning yangi darsliklaridan keng foydalanilgan. Ish asosan “Iqtisodiyot”, “Menejment”, “Marketing” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Undan iqtisodiyotga oid boshqa ixtisoslik bo‘yicha saboq olayotgan talabalar ham keng ravishda foydalanishlari mumkin.

Shuningdek, mazkur ish kadrlarning iqtisodiy tayyorgarligini tubdan yaxshilash va ularni qayta tayyorlash kabi muhim va dolzarb masalani hal qilishda ham yaqindan yordam beradi.

I BOB. IQTISODIY TAHLILNING PREDMETI, VAZIFALARI VA MAZMUNI

1. Iqtisodiy tahlil fanining mohiyati.
2. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti va ob’ekti
3. Iqtisodiy tahlil fanining bozor iqtisodiyoti sharoitida zaruriyati.
4. Iqtisodiy tahlil fanining vazifalari

1.1. Iqtisodiy tahlil fanining mohiyati

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshayotgan iqtisodiy islohatlarni jadallashtirish muammosi hozirgi kunda o‘ta dolzarb masalalardan biridir. Bu o‘z navbatida rejali iqtisodiyot sharoitida shakllangan barcha iqtisodiy dastaklarning mazmun jihatidan yangilanishini taqozo qiladi. Bular qatoriga iqtisodiy tahlil ham kiradi.

Iqtisodiy tahlilning maqsadi hozirgi sharoitda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha firma va korxonalar xo‘jalik faoliyatini ularni boshqaruvchilarga yoqqol ko‘rsatib berishdan, kamchiliklarni ochib tashlashdan, ichki imkoniyatlarni (rezervlarni) ishga soladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqarishdan iboratdir. Bu jarayonda tahlil qilinayotgan ob’ektning moliyaviy barqarorligiga, uning raqobatbardoshligiga, moliyaviy va iqtisodiy potensialidan qanday foydalanayotganligiga ham ob’ektiv baho beriladi. Bularning hammasi oxir oqibatda tahlil faniga, uning nazariy asosiga, xususan bozorli iqtisodiyot sharoitida tutgan o‘rni va roliga alohida tuxtalishni taqozo qildi.

Shunday qilib, tahlil fanining bozorli iqtisodiyot sharoitidagi tutgan roli, o‘rni va vazifalari oshmoqda. Bu esa o‘z navbatida bu fanni shu sharoitga mos ravishda uning tarkibiy tuzilishi qayta takomillashtirishni talab qiladi. Uning predmeti, ob’ekti va metodini bozorli iqtisodiyot nuqtai nazaridan yangicha yoritishni, olimlar fikrini jamlab bugungi talabga mos ravishda uning qoidalarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. SHu bois ushbu ishda iqtisodiy tahlilning predmeti, ob’ekti va metodiga alohida tuxtalishga to‘g‘ri keldi.

Bozorli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlilning predmeti, ob’ekti va metodi bilan birgalikda uning vazifalari ham mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ammo iqtisodiy adabiyotlarda bu masala ham to‘liq yoritilgan emas. Buni inobatga olib ushbu ishda iqtisodiy tahlilning bozorli iqtisodiyot sharoitidagi vazifalariga ham alohida o‘rin berildi.

Iqtisodiy tahlil amaliyot uchun o‘ta zarur va dolzarb xo‘jalik dastagidir. Ammo uning hozirgi sharoitdagi tutgan o‘rni, boshqa fanlar

bilan o‘zaro aloqalari ham yangicha yondoshishni talab qiladi. Chunki hozirgi paytda juda ko‘p yangi fanlar kirib kelish bilan birgalikda ancha fanlar o‘z mohiyati jihatidan bugungi kunda kerak bo‘lmasdan qoldi. Xullas, bozorli iqtisodiyotga mos bo‘lgan yangi fanlar tizimi shakllanmoqda. Bu fanlar o‘rtasida iqtisodiy tahlil fanining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Shundan kelib chiqqan holda ushbu ishda iqtisodiy tahlilning boshqa fanlar o‘rtasida tutgan o‘rni ular o‘rtasidagi chegara va xususiyatlar ham alohida qaralgan.

Hozirgi sharoitda xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy tahlili jahon tajribasidan kelib chiqqan holda ikki turga bo‘linishi ko‘zda tutilgan. Birinchisi moliyaviy tahlil, ikkinchisi esa, boshqaruv tahlilidir. Biroq, chet el firmalarida moliyaviy tahlil bir xil usullarda amalga oshirilmaydi. Fikrimizcha , bu tahlilda bir xil metodologik asos bo‘lishi lozim, chunki har qanday korxona, mulk shaklidan qat’iy nazar, davlat, jamiyat manfaati nuqtai nazaridan ham qaralishi tabiiy. Zero jamiyatdagi har bir iqtisodiy jarayon, moddiy boylik shu jamiyatniki, chunki korxonaning o‘zi shu jamiyatda, shu davlat xududida joylashgan, uning egasi esa shu davlat fuqarosi. Davlat o‘z fuqarolarining, huquqlarini himoya qiladi, ular mulklarining daxlsizligini ta’minlaydi. Shu tufayli tahlil ham fuqarolar, korxonalar va davlat manfaatlari mushtarakligini ta’minlashga xizmat qilmog‘i lozim. Hech mahal shu uchta manfaatning qaysidir birini yuqori qo‘yib, qolganini ikkinchi va uchinchi darajaga tushurib bo‘lmaydi. Bu esa tahlilning metodologik asosini ma’lum darajada bir xil bo‘lishini ta’minlaydi.

Iqtisodiy tahlil nazariyasida yuqorida ta’kidlangan masalalar bilan birgalikda iqtisodiy jarayonlarni, xususan xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘layotgan holatlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni ham ko‘rib chiqish lozim. Chunki tahlil paytida asosan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Shu tufayli tahlilchi ko‘rsatkichlar tizimini, ularni tasniflash yo‘llarini yaxshi bilishi lozim. Bularni inobatga olib ishda iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlarga, ularni tasniflash belgilari va tasniflash usullariga alohida ahamiyat berildi.

Har qanday ko‘rsatkichlar bir jihatdan natija ko‘rsatkichi sifatida nomoyon bo‘lsa, ikkinchi jihatidan omil shaklida ham kelishi mumkin. Tahlilning asosiy vazifasi korxonaning xo‘jalik faoliyati natijalariga ta’sir qiluvchi omillarni hisoblash va uni yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat. Shu jihatdan ishda korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillari, ularning tasnifi, aniqlanish yo‘llari ham ko‘rsatib berilgan.

Ammo natija o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni bitta yoki birnecha usul bilan aniqlab bo‘lmaydi. Bularni aniqlash uchun iqtisodiy tahlilning juda ko‘p usullaridan foydalaniladi. Shu tufayli ishda iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan barcha usullar ikki guruhga bo‘lingan holda (an’anaviy va matematik) keltirilgan. Ularning aniq qo‘llanilish yo‘llari ham ko‘rsatib berilgan.

Xo‘jalik faoliyatining tahlili uni ifoda etuvchi axborotlar manbaiga asoslanadi. Ular buxgalteriya, statistik, tezkor hisob va hisobotlardan, reja, me’yor kabi boshqa ma’lumotlardan iborat. Tahlil nazariyasida bular haqida to‘liq ma’lumot berish lozimligidan kelib chiqib, maxsus bob shu mavzuga bag‘ishlandi. Hozirgi paytda hisob va hisobotlar chuqur islohatlar davrini boshidan kechirmoqda. Bular bevosita tahlilga qulay va aniq ma’lumotlarni etkazib berishi lozim. SHu tufayli tahlil hozirgi bosqichda va kelajakda ham bu borada o‘z gapini aytaoladigan bo‘lishi lozim. Shu tufayli tahlilchi axborot manbalari to‘g‘risida to‘liq nazariy va amaliy ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim. Iqtisodiy tahlil nazariyasining tarkibiy qismida uning turlari va shakllari ma’lum o‘ringa ega bo‘lishi lozim. Tahlilning turi juda ko‘p. Uning biri bo‘lgan iqtisodiy tahlil ham birqancha turli shaklga, ko‘rinishga, xillarga ega. Shu tufayli ishda iqtisodiy tahlilning turlari va shakllariga alohida o‘rin berildi. Juda ko‘p iqtisodiy adabiyotlarda uning shakli va turlari bir xil deb qaraladi. Ushbu ishda shu ikki narsaning iqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan farqi borligini isbotlashga harakat qilindi.

Iqtisodiy tahlilning shakllaridan biri kompleks tahlildir. U alohida boshqa tahlillarda takrorlanmaydigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu tufayli kompleks tahlil metodologiyasiga alohida e’tibor berilgan. Ushbu bo‘limda xo‘jalik faoliyatini kompleks baholash usullari atroflicha yoritilgan. Bu bejiz emas, albatta, chunki bozorli iqtisodiyot sharoitida korxonalar reytingini aniqlash, shu orqali ularning istiqbolini belgilash muhim ahamiyatga ega. Kompleks ko‘rsatkichlar ana shu savollarga javob beradi.

1.2. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti va ob’ekti

Erkin iqtisodiyot sharoitiga mos iqtisodiy tahlil fanining predmeti yaratilmog‘i lozim. Bizning fikrimizcha, u quyidagi talablarga javob berishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan,u erkin iqtisodiyot sharoitida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning xo‘jalik faoliyatini o‘zida ifodalashi kerak.

Ikkinchidan, asosan iqtisodiy tahlilda o‘z echimini topadigan ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sirini aniqlash zarurligi ko‘rinib turishi lozim.

Uchinchidan esa, iqtisodiy tahlil o‘z chegarasiga, faoliyat doirasiga ega bo‘lish uchun butun xo‘jalik faoliyatidan o‘ziga tegishli sohani ajratib ko‘rsatishi maqsadga muvofiq. Bunga, bizning fikrimizcha, korxonalar xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va xodisalar natijasining ma’lumotlar manbaida ifodalangan axborotlarni olishni kiritish mumkin.

Bu borada o‘zimizning chop qilgan adabiyotlarimizda ham aytgan edik. Uni takomillashtirib yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib iqtisodiy tahlil fani predmetiga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti deganda erkin iqtisodiyot sharoitida ishlayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning (korxonalarning) xo‘jalik faoliyatida ob’ektiv (tashqi) va sub’ektiv (ichki) omillar ta’sirida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va xodisalar natijalarining ma’lumotlar manbaida (reja, hisob, hisobot va boshqalar) ifodalangan ko‘rsatkichlar tizimi (sistemasi) orqali, uning holatiga baho berish va yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqishni o‘rganish tushiniladi.

Iqtisodiy tahlilning ushbu ta’rifini nazariy jihatdan quyidagicha isbotlash mumkin. Iqtisodiy tahlilning predmetida ob’ektiv (tashqi) va sub’ektiv (ichki) omillar alohida o‘rin tutadi, chunki iqtisodiy jarayonlar o‘z - o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Ular ma’lum ichki va tashqi omillar ta’siri ostida ro‘y beradi. Shu omillar ta’sirini boshqa fanlar iqtisodiy tahlil darajasida atroflicha o‘rgatmaydi. Bu faqat shu iqtisodiy tahlil fanida o‘rganiladi va uning predmetining asosini tashkil qiladi. Shuningdek, xo‘jalik faoliyati natijasiga to‘g‘ri baho bermasdan, unga ta’sir qilgan ijobiy va salbiy omillarni o‘rganmasdan turib ko‘zda tutilgan maqsadga erishish qiyin. Shu tufayli tahlil fani predmetining markazida ob’ektiv va sub’ektiv omillar turganligi bejiz emas.

Tadqiqotlar ko‘rsatdiki, iqtisodiy tahlilning predmetini o‘rganishda faqat sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanib qolish mutlaqo etarli emas ekan. Tahlildan maqsad mavjud natijaga odilona baho berish bilan birgalikda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va shu orqali tahlil qilinayotgan ob’ektning iqtisodiy va moliyaviy ahvolini yaxshilashdan iboratdir. Bu esa sodir bo‘lgan va bo‘layotgan jarayonlarga to‘g‘ri baho berib, bo‘ladigan jarayonlar andozasini ham ko‘rsatib berishni taqozo qiladi. Bu xulosa

tahlilning predmetini o‘tgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘z ichiga qamrab olishini ko‘rsatadi.

Shuni inobatga olish joizki, barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasi ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. Ko‘rsatkichlar esa asosan ma’lumotlar manbaida (rejalarda, me’yorlarda, hisoblarda, hisobotlarda va h.k.) o‘z aksini topadi. Ob’ektda iqtisodiy jarayonlar yakka-yakka bo‘lib emas, balki bir-biriga dialektik bog‘liq ravishda birdaniga sodir bo‘ladi. Uning har bir jihati alohida ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. SHu tufayli xo‘jalik faoliyatini o‘rganishda bitta ko‘rsatkich emas, balki ko‘rsatkichlar tizimidan (sistemasidan) foydalaniladi. Bu esa o‘z navbatida tahlil predmetini o‘rganishda ma’lumotlar manbaida ifodalangan ko‘rsatkichlar sistemasiga asoslanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ma’lumki, jamiyatda sodir bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlarni o‘rganadigan juda ko‘p iqtisodiy fanlar mavjud. Lekin ularning ichida tahlil fani xo‘jalik faoliyatining natijasiga odilona baho bera oladi. Undagi ijobiy va salbiy o‘zgarishlarga omillar ta’sirini aniqlaydi. Shularga asosan xo‘jalik faoliyatini yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqadi. Bu xususiyatlar faqat tahlilga xos bo‘lganligi uchun ham uning predmetida natijaga to‘g‘ri baho berish va yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqish lozimligi ko‘rsatilgan.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy tahlil fani mustaqil fan bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga o‘zining betakror predmetiga ega. Tahlilda o‘rganiladigan iqtisodiy jarayonlar va ularning muhim jihatlari aynan shu tarzda boshqa fanlarda o‘rganilmaydi va takrorlanmaydi. Shu tufayli har bir mustaqil fan singari taxlil fanining ham o‘ziga xos predmeti shakllandi, tarkib topdi, nazariy jihatdan boyib yildan-yilga aniqliklar kiritilib takomillashib bormoqda.

Boshqa fanlar singari iqtisodiy tahlil fanining ham ob’ekti bo‘lishi lozim. Ammo shu fanning nazariyasiga bag‘ishlangan eng so‘nggi adabiyotlarda ham bu masala etarlicha yoritilmagan. SHu tufayli fanning predmeti bilan ob’ektini ko‘p hollarda bir xil tushunchalar deb qaraladi. Bu esa o‘z navbatida nazariy jihatdan asossiz va chalkash xulosalarga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy tahlil fanining ob’ekti uning predmeti qaerlarda amalga oshishini ko‘rsatishi lozim. Tahlil fanining predmeti, hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda, ko‘p mulkchilikga asoslangan barcha huquqiy va jismoniy shaxslarning xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘layotgan jarayonlardir.

Iqtisodiy tahlilning ob’ekti deganda uning qaysi makonda (xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda) amalga oshirilishi tushuniladi. Shu tufayli iqtisodiy tahlil fanining predmeti amalga oshadigan ob’ektlariga davlat, jamoat tashkilotlari, korporatsiyalar, trestlar, birjalar, korxonalar, firmalar, tashkilotlar, birlashmalar va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar kiradi.

Mazkur ob’ektlarga iqtisodiy asosi jihatidan qaraladigan bo‘lsa ular davlat, jamoa, kooperativ, aksiyadorlik, xususiy, xorijiy va aralash kabi mulk shaklida faoliyat ko‘rsatadigan ob’ektlarga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘ziga xos va mos iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini tanladi. Bu mustaqil yo‘l bilan hamma sohada, xususan milliy hisoblar tizimida ham jahon andozalariga bosqichma-bosqich o‘tish ko‘zda tutilgan. Bu esa o‘z navbatida, mulk shaklidan qat’iy nazar, tahlilning bir xil metodologik usulini yoritishni taqozo qiladi.

Ob’ektning (makonning) va davrning (zamonning) qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ushbu fan predmetining mohiyati o‘zgarmasligi, ob’ekt esa tahlilning qaysi makonda o‘tkazilishiga qarab o‘zgarib turishi mumkin. Shu jihatdan uning predmeti ob’ektidan mazmun va mohiyati jihatidan ma’lum darajada bir-biridan farq qiladi.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlilning predmeti va ob’ekti bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitiga mos holda rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, iqtisodiy tahlil fanining o‘rni va vazifasi ham erkin iqtisodiyot sharoitiga mos tarzda nazariy jihatdan hamon etarli darajada talqin qilingan emas. Bu esa mazkur muammoni ham tadqiq qilishni taqozo qiladi.

1.3. Iqtisodiy tahlil fanining bozor iqtisodiyoti sharoitida zaruriyati

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor munosabatlarining takomillashishi, islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Chunki mulkdor iqtisodiy jarayonda asosiy sub’ekt sifatida ishtirok etadi. U o‘z mulkining ko‘payishidan, ko‘proq foyda olishidan manfaatdor. Bunga o‘z-o‘zidan erishib qolmaydi. Buning uchun tadbirkorlik, izchillik, ziyraklik va aql bilan ish ko‘rishi lozim. Bu esa o‘z navbatida mulkining holatini, ishlatilishi va saqlanishishni hamda undan samarali foydalanishni tahlil qilishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil, eng avvalo, mulkdor uchun o‘z mulkini oqilona boshqarish uchun kerak ekan.

Mulkdor o‘z mulkini ishlatish uchun turli korxonalarga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa boshqa kishilarni, mutaxassislarni, xodimlarni yollashiga to‘g‘ri keladi. Ular mehnat jamoasini tashkil qiladi. Korxonaning yaxshi, samarali ishlashi mehnat jamoasining farovonligini ta’minlaydi. Korxona qancha ko‘p daromad qilsa, mehnat jamoasi a’zolari, shuncha ko‘p mehnat haqi oladi. Bu esa mehnat jamoasining o‘zlari ishlayotgan korxona xo‘jalik faoliyatini muntazam tahlil qilib borishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil bevosita mehnat jamoasi uchun ham o‘z faoliyatini to‘g‘ri boshqarish uchun kerak ekan.

Har bir korxonaning xo‘jalik faoliyati natijasidan davlat ham manfaatdor. Chunki har bir korxona o‘z mulkidan, qilgan oboroti va olgan foydasidan soliq tulaydilar. Shu tufayli davlat nomidan soliq idoralari ham korxona faoliyatini chuqur tahlil qilib borishdan manfaatdor. Demak, iqtisodiy tahlil soliq idoralari xodimlari uchun ham soliq tushumini to‘g‘ri boshqarish uchun kerak ekan.

Ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy jarayonning, ya’ni korxona yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati natijasidan kim manfaatdor bo‘lsa u mazkur sub’ekt faoliyatini o‘rganishga, tahlil qilishga qiziqadi. Shunday qilib, iqtisodiy tahlil investorlarga, hamkorlarga, birlashmalarga, uyushmalarga, sug‘urta, bank, moliya kabi idoralariga ham kerakdir.

Odatda kimga nima kerak bo‘lsa o‘sha shu ish bilan shug‘ullanadi. Ammo har bir korxonada maxsus mutasaddi shaxslar borki, ularga xo‘jalikni boshqarishda u yoki bu soha topshirilgan bo‘ladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlil bilan korxonadagi deyarli hamma mutaxassislar shug‘ullanadi. Ammo hammasi ham korxona to‘g‘risida jamlangan batafsil axborotga ega bo‘lmaydi. Hamma o‘zi bajarayotgan u yoki bu soha bo‘yicha axborotga ega. Shu jihatdan hamma o‘zining sohasini muntazam tahlil qilib boradilar.

Lekin shuni e’tirof etish kerakki, xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida butun faoliyatni o‘zida jamlagan axborotlar buxgalteriyada moliyaviy hisobotlarda to‘planadi va qayta ishlanadi. Shu tufayli korxonaning kompleks iqtisodiy tahlili bilan buxgalteriya xodimlari, bevosita bosh buxgalterlar, menejerlar ham shug‘ullanadilar. Chunki unda korxonaning xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi barcha ko‘rsatkichlari mavjud. Ular asosan moliyaviy hisobotlarda o‘z aksini topganlar. Iqtisodiy tahlil uchun asosiy ma’lumot manbai bo‘lib moliyaviy, statistik va boshqa hisobotlarda ifoda etilgan ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ularning kompleks

tahlili bilan bosh buxgalterlar shug‘ullanadi. Ammo alohida sohalari bo‘yicha tahlil kimga kerak bo‘lsa o‘shalar shug‘ullanadilar. Tahlil tahlil qilish uchun emas, balki kerakli sohani o‘rganish uchun qilinadi. Demak kimga nima kerak bo‘lsa u shu sohani tahlil qilish bilan shug‘ullanar ekan.

Iqtisodiy tahlilni tashkil qilishda uning natijalarini rasmiylashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli tahlil natijalarini rasmiylashtirish, xulosa qilish va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish yo‘llarini ko‘rsatib berish ham hozirgi kundagi muhim muammolardan biridir.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish tahlilning muhim bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Bunda barcha hisob-kitoblar asosida tahliliy jadvallar tuziladi. Mazkur jadvallar korxona xo‘jalik faoliyatini to‘liq ifoda etishi lozim. Shuningdek jadvallar bitta korxonada har safar, korxonaning bo‘linmalarida bir vaqtning o‘zida yagona kelishilgan shaklda tuzilishi lozim. Bunday yondoshuv ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish va umumlashtirish imkonini beradi.

Jadvallarda ko‘rsatkichlarning nomi, uning qaysi davrga to‘g‘ri kelishi, ularning farqi, o‘zgarish sur’atlari kabi ifodalar ko‘rsatiladi. Jadvallar natija o‘zgarishiga omillar ta’sirini hisoblash jarayonida ham tuziladi. Bu holda jadvalning egasida ta’sir qiluvchi omillar bilan birga natija ko‘rsatkichining nomi ifodalanadi. Uning kesimida esa qaysi davr natijalari tahlil qilinayotganligi, shu davrda yuz bergan o‘zgarishlar va ularga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun hisob-kitob qilinadigan usullarning aloqadorligi ko‘rsatiladi.

Hozirgi paytda hisob-kitob ishlari asosan kompyuterlarda amalga oshirilmoqda. Buning imkoniyati juda katta. Shu tufayli tahlilda amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari jadvallar bilan birgalikda turli chizmalar va diagrammalarda ham ifoda etilmoqda. Bu esa korxona xo‘jalik faoliyatidagi o‘zgarishlarni juda tez ilg‘ash imkonini beradi. Mazkur usullar iqtisodiy tahlilning u yoki bu jihatini aniqlashda qo‘llaniladi. Masalan, chizmalar (grafiklar) ko‘rsatkichlarining dinamikasini ifodalashda juda qulay. Korxona xo‘jalik faoliyatidagi tarkibiy tuzilmalar, ularning o‘zgarishi diagrammalarda ifodalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chizma va diagrammalarning qulayligi shundaki, u korxona xo‘jalik faoliyati natijasini har qanday kishi uchun ham tez va tushunarli tarzda ifoda etadi. Masalan, korxonada beshta bo‘linma bo‘lsa ularning o‘tgan yilga nisbatan birorta ko‘rsatkichning o‘sishini ustunli diagramma qilinsa eng yuqori natijaga erishganligi eng baland ustun sifatida yaqqol ko‘rinib

turadi. Bu har bir bo‘linma xodimlarining aqliy-ruhiy kayfiyatiga ham ta’sir qiladi. Eng yuqori ustunga erishgan bo‘linma xodimlarida faxrlanish, mag‘rurlik hissi tug‘ilsa eng past ustunga ega bo‘lgan bo‘linma xodimlarida o‘z jamoasi uchun istirob hissi bo‘lishi mumkin. Unisi ham bunisi ham ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun kurashish tuyg‘usini o‘yg‘otishi tabiiy. Bu ichki omillar o‘ta muhim, ortiqcha mablag‘ talab qilmaydigan, ammo korxona xo‘jalik faoliyatiga ijobiy ta’sir qilib, uni yaxshilaydigan omillardir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, islohatlarning chuqurlashuvi korxonalar o‘rtasida erkin raqobat muhitini tug‘dirmoqda. Bu esa o‘z navbatida korxona xo‘jalik faoliyatini tezkor tarzda kundalik natijalarni o‘rganib borishni taqozo qiladi. Bu ham hisob-kitoblarga kompyuterlarni qo‘llash natijasida ancha osonlashadi. Har kuni ish kunining oxirisida xo‘jalik faoliyatining bir kunlik natijasi qanday bo‘lganligini aniqlash mumkin. Bu esa yutuq va kamchiliklarni juda tez anglash, yutuqlarni ko‘paytirish, kamchiliklarni bartaraf qilishga asos bo‘ladi. Tahlilning ushbu shakli boshqaruvni ham tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

Kunlik natijalar har kuni jamlanib borilsa hisobot davrining xoxlagan kunida qanday natijaga erishganligini bilib olish mumkin. Masalan, bir oyning o‘n oltinchi kuni qanday natijaga erishganligini kunlik hisobotni jamlab borish orqali aniqlash mumkin. Shu, 16-chi kuni qanday natijaga erishdik va o‘tgan 16 kun mobaynida erishgan umumiy ahvolimiz qanday degan xulosani chiqarish uchun ham tegishli axborot mazkur kompyuterda mavjud bo‘ladi. Bu esa korxona xo‘jalik faoliyatini tezkor boshqarish, kamchiliklarni o‘z vaqtida, hisobot davri tugamasdan bartaraf qilish imkonini beradi.

Agar korxonaning barcha bo‘linmalarida kompyuterlar o‘rnatilgan va ular yagona tarmoqga (setga) ulangan bo‘lsa boshqarishda yangi usulni, ya’ni **qog‘ozsiz va jonli muloqotsiz boshqarish usulini** joriy qilish mumkin. Korxona menejeri har bir bo‘linmadan tegishli axborotlarni olib bir joyda umumlashtiradi va xulosa chiqaradi. Xulosa natijasida ishlab chiqarilgan chora-tadbirlar va tegishli topshiriqlarni ham kompyuter tarmog‘i orqali jo‘natish mumkin. Bu mutaxassis va bo‘linma rahbarlarining turli majlislarga, yig‘ilishlarga ketadigan vaqtini ham tejaydi.

Hisobot davri tugagach tahlil natijasi tezkor tarzda jadvallarda, chizmalarda, turli diagrammalarda tuzilib qog‘ozga chiqariladi va mutaxassislar tomonidan yozma ravishda xulosa yoziladi. Xulosada

barcha erishilgan yutuqlar bilan birga yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, ularning sabablari va qanday oqibatga olib kelganligi ko‘rsatiladi. Ayniqsa yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarda kim aybdorligi ochiq-oydin ko‘rsatilishi lozim. Chunki bu tadbir kelajakda mazkur shaxsning shu kamchilikka yo‘l qo‘ymasligini ta’minlaydi.

Iqtisodiy tahlilning natijalari bo‘yicha tuzilgan barcha axborotlar, yozma xulosalar jamlanib korxona rahbariga, mulkdorga topshiriladi. Rahbar tahlil natijasiga asosan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Qaror qabul qilishda birqancha mutaxassislarni, bo‘linmalar rahbarlarini taklif qilib chuqur o‘ylangan va puxta ishlangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Agar korxona yirik bo‘lsa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda «Fikrlar hujumi» usulidan ham foydalanishi mumkin. Buning uchun mazkur korxonada ijodiy guruh tashkil qilingan bo‘lishi lozim. Mazkur ijodiy guruhning vazifasi korxona xo‘jalik faoliyatini yaxshilashga qaratilgan bo‘ladi.

Iqtisodiy tahlil natijalari boshqaruv bilan birga auditorlarning xulosa chiqarishi uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Auditorlar oldingi taftishchilardek taftish bilan emas, endilikda tahlil bilan shug‘ullanishlari lozim. Shu tufayli tahlil usullarini, uni amalga oshirish metodologiyasini buxgalterlar qancha bilsa, auditorlar ularga nisbatan ikki karra ko‘p va puxta bilishlari shart. Zero, auditorlik xulosasini chiqarish uchun faqat tahlil natijalaridan foydalanish mumkin, xolos.

1.4. Erkin iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlilning vazifalari

Bozor munosabatlari sharoitida xo‘jalik faoliyati tahlilining roli keskin oshadi, chunki boshqarishda oldingi ma’muriy buyruqbozlik tizimidan voz kechib yangi, erkin, iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanadi. Oldin tahlil asosan reja ko‘rsatkichlarini asoslashga uning bajarilishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa, endilikda esa har bir xo‘jalik subekti, mulk shaklidan kat’iy nazar, o‘z faoliyatini yuqoridan berilgan ko‘rsatmani, buyruqni bajarishga qaratmasdan, balki o‘zlari mustaqil ravishda o‘zining iqtisodiy qudratini takomillashtirish maqsadida erkin boshqarishga qaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, tahlilning rolini yanada oshiradi. Iqtisodiy tahlil orqali har bir ob’ektida mavjud bo‘lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularning amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. SHu tufayli hozirgi hayot har qanday korxonani to‘g‘ri boshqarish uchun tahlil qilishni taqozo qiladi.

Bu maqsadlardan tahlilning vazifasi kelib chiqadi. Tahlil qilishning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi asosiy vazifalari:

1) korxonaning biznes-rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta’minlash;

2) biznes-rejaning bajarilishini, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashini, uning iqtisodiy qudratini yaxshilashini, har bir xo‘jalik sub’ektining raqobatbardoshligini oshirish uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni o‘rganish;

3) har bir yunalishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta’sirini hisoblash va shu omillarni ishning samaradorligini oshirishga safarbar qilish;

4) xo‘jalikda mavjud mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarda samarali foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish;

5) korxonaning iqtisodiy va moliyaviy potensialiga, uning to‘lovga qodirligi va qobiliyatliligiga baho berish hamda bu natijaga erishish uchun tezkor chora-tadbirlarni qo‘llash yo‘llarini ishlab chiqish;

6) korxonaning tijorat sirini saqlagan holda uning moliyaviy ahvolini keng jamoatchilikka ko‘rsata bilish va tashqi investorlarni korxona faoliyatini yaxshilashga jalb qilish;

7) korxonani boshqarishning eng qulay va nafli usullarini ishlab chiqish kabilardan iboratdir.

Tahlilning birinchi vazifasi bevosita uning biznes-reja bilan bog‘liqligidan kelib chiqadi. Tahlil jarayonida bir tomondan biznes-rejaning amalga oshganligini o‘rgansa, ikkinchidan xo‘jalik faoliyatini batafsil o‘rganib kelgusi davr uchun biznes-rejani tuzishda tegishli axborotlarni to‘plab beradi. Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari yuqoridan berilar edi. Shu tufayli tahlilni yuqori tashkilotlar amalga oshirib kelgan. Endi bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida vaziyat tubdan o‘zgardi. Har bir korxona o‘z faoliyati uchun o‘zi mas’ul. O‘zi rejalashtiradi, o‘zi hisobotni tuzadi va o‘zi nazorat qiladi. Bunday sharoitda korxona xo‘jalik faoliyatini yuqori tashkilot emas, balki uning o‘z mutaxassislari, menejerlari tahlil qiladi. Shu tufayli tahlilning roli va vazifasi biznes-rejani tuzishda kundan kunga oshib bomoqda. Chunki biznes-rejaning har bir ko‘rsatkichi iqtisodiy jihatdan asoslangan bo‘lishi lozim. Bu esa tahlil orqali amalga oshiriladi.

Tahlilning ikkinchi vazifasi korxonada biznes-rejaning bajarilishini o‘rganish bilan bog‘liq. Hozirgi paytda biznes-rejani tuzish, unga kiritiladigan ko‘rsatkichlar bo‘yicha qat’iy belgilangan andoza yo‘q.

Bunday bo‘lishiga fikrimizcha zarurat ham bo‘lmasa kerak. Chunki juda ko‘p korxonalar bir soha bilan shug‘ullansa ham ularning ish uslubi har xil, o‘zlariga xos bo‘lishi mumkin. Bu esa oldingidek hamma korxona faoliyatiga bir xil yondoshish imkonini bermaydi. Ammo umumiy yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi bir-biriga yaqin bo‘lishi tabiiy. Masalan, har bir korxona yuqori rentabellikka erishishga intilishi, moliyaviy barqarorlikni ta’minlashi, o‘zining iqtisodiy qudratini yaxshilashi uchun harakat qiladi. Demak, bu tahlilning ham barcha korxonalar uchun metodologik asos bo‘ladigan usullarining bo‘lishini taqozo qiladi. Shu tufayli tahlil jarayonida biznes-rejaning bajarilish darajasini chuqur o‘rganish shu orqali uning faoliyatiga ob’ektiv baho berishdek muhim vazifa ham ushbu fan zimmasiga yuklatilgan.

Biznes-rejani bajarish jarayonida ma’lum qonuniyatga ega omillar bilan birga ko‘zda tutilgan tasodifiy omillar ta’sir qilishi ham mumkin. Tahlilning uchinchi vazifasi shu omillarni aniqlash va har birining ta’sirini hisoblashdan iboratdir. Bu esa bozor munosabatlarining shakllanish jarayonida vujudga kelgan ko‘pgina yangi ko‘rsatkichlar va omillar ta’sirini aniqlaydigan omilli tahlil usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Omilli tahlil natija ko‘rsatkichiga ta’sir etuvchi omillarni hisoblash yo‘li bilan shu tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichni yaxshilashni, ichki va tashqi imkoniyatlarni aniqlash va uni kelgusi davr uchun safarbar qilish yo‘llarini ishlab chiqish imkonini beradi. Hozirgi ishlab chiqarish korxonalarini davlat tomonidan moliyalashtirish asosan barham topgan bir paytda, ichki imkoniyatlarni axtarib topish va uni xo‘jalik faoliyatiga safarbar qilish tahlil orqali amalga oshiriladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida tahlilning asosiy vazifalaridan biri natijaga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganish orqali ichki imkoniyatlarni axtarib topish va ularni xo‘jalik faoliyatining samaradorligini oshirishga safarbar qilishdan iboratdir.

Tahlilning to‘rtinchi vazifasi iqtisodiy jarayonlarning dialektik bog‘liqligidan kelib chiqadi. Qaysi soha bo‘lmasin, iqtisodiy jarayon sodir bo‘lishi uchun mehnat vositasi, mehnat predmeti va jonli mehnatning mujassamligi lozim bo‘ladi. Iqtisodiyotning bu elementlari samaradorligini oshirmay turib boshqa ko‘rsatkichlar miqdorining yuqori bo‘lishiga erishib bo‘lmaydi. SHu tufayli tahlil jarayonida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunda moddiy-texnika bazasining boshqa elementlarga to‘g‘ri kelishini ta’minlashga katta

e’tibor bermoq lozim. Masalan, yuqori mehnat unumdorligiga ega bo‘lgan, ilg‘or texnologiyaga asoslangan uskuna mavjud. Lekin shu uskunani ishlata oladigan, shunga malakasi etarli bo‘lgan mutaxassis kerak bo‘ladi. Agar korxonada yuz kishi bo‘lsa (uning shtatida shuncha kishi band bo‘lsa), lekin tegishli mutaxassis bo‘lmasa bunday holatda korxonaning moddiy texnika bazasi ham, mehnat resurslari ham samarasiz bo‘ladi. Shu tufayli ular bir-biri bilan dialektik bog‘liqlikda. Texnika va texnologiya takomillashdimi, demak xodimlarning malakasi ham shunga mos ravishda oshib borishi lozim. SHundagina tegishli, ko‘zda tutilgan natijaga erishish mumkin. Aks holda qilingan tadbirlar, sarflangan harakatlar tegishli samara bermasligi tabiiy. Bu holatlarning hammasi tahlil orqali aniqlanadi va aniqlangan vaziyatdan tegishli xulosa qilinadi. Shu tufayli tahlilning roli korxonalar, ularning mulk shaklidan qat’i nazar, samaradorligini oshirishda yanada oshmoqda. Korxonaning umumiy samaradorligi bevosita uning moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarining samaradorligiga bog‘liq.

Tahlil jarayonida moddiy-mehnat va moliyaviy resurslarning samaradorligini alohida o‘rganish, ularning bir-biriga bog‘liqligini va umumiy natijaga ta’sirini ham ko‘rib chiqish lozim. Demak, tahlilning vazifasi shu ko‘rsatkichlarni dialektik bog‘lig‘likda o‘rganish va iqtisodiy jihatdan asoslangan xulosa qilishdan iboratdir.

Tahlilning beshinchi vazifasi korxonalarning erkin raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsatayotganligidan kelib chiqadi. Hozirgi paytda tahlil asosan buxgalteriya balansidagi ma’lumotlar bilan cheklanib qolganligi tufayli uning iqtisodiy salohiyati (potensiali) to‘liq o‘rganilmayapti. Iqtisodiy potensialga buxgalteriya balansida ko‘rsatilgan asosiy va aylanma kapital hamda nomoddiy aktivlar bilan birgalikda mehnat resurslari ham kiradi. Ta’kidlanganidek, ushbu elementlar o‘zaro bog‘liq ravishda ishlatilishi uchun moliyaviy potensialning ahamiyati katta. Iqtisodiyotning har xil bosqichida moliyaviy potensial tarkibi turlicha bo‘lishi mumkin. Hozirgi bank krediti uchun to‘lanadigan foizning korxona imkoniyatlariga nisbatan balandligini inobatga olinadigan bo‘lsa korxonalar o‘z faoliyatini asosan xususiy mablag‘lari evaziga yuritgani yaxshi. Agarda iqtisodiyot barqarorlashib, pulning qadrsizlanish darajasi kamaygandan so‘ng bank kreditining foizi kamayadi va nihoyat undan foydalanish mumkin bo‘ladi. Hozirgi paytda korxona moliyaviy potensialning tarkibi, ulardan qanday foydalanilayotganligi, qanday o‘zgarishlar ko‘zda tutilayotganligi, istiqboli qanday bo‘lishi kabilarni o‘rganish hayot taqozosi. Bu esa tahlil orqali amalga oshiriladi. Shu tufayli iqtisodiy

tahlilning asosiy va eng muhim vazifalaridan biri korxona iqtisodiy va moliyaviy potensialiga baho berish, ularni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tahlilning oltinchi vazifasi ham bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyotning shakllanishi bilan vujudga keldi. Tahlil jarayonida korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyatini moliyaviy tahlil usullarini qo‘llagan holda, undagi mavjud tijorat sirini esa boshqaruv hisobi ma’lumotlarini tahlil qilish evaziga amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Tahlil orqali korxonaning moliyaviy ahvoli, uning istiqboli aniq va ravshan bo‘ladi. Barcha ijobiy natijalar bo‘lsa, albatta tashqi investorlar xabardor bo‘lishi lozim. Lekin qaysi ko‘rsatkichlarni, qachon va qanday holatda oshkor qilish muhimligini hamma ham hamisha bilavermaydi. Tashqi investorlarning kapital qo‘yilmalarini jalb qilish maqsadida faqat shu korxonaga xos bo‘lgan ish usullarini, ba’zi faoliyat jarayoni va uning natijalarini oshkora qilmaslik kerak. Bu har bir korxonaning tijorat siri. Shu tufayli tijorat sirini oshkora qilmagan holda korxona moliya-xo‘jalik fao-liyatini ko‘z-ko‘z qilish ham tahlilning asosiy vazifalaridan biridir.

Tahlilning yettinchi vazifasi rejali iqtisodiyot sharoitida ham mavjud edi. Ammo u paytda faoliyatning hamma sohasi, jumladan boshqaruv ham yuqoridan berilgan rejaning bajarishiga qaratilgan edi. Ko‘p hollarda asosiy reja ko‘rsatkichi bajarilar edi, ammo u korxona, davlatga qanchalik qimmatga tushayotganligi bilan hech kim qiziqmas edi. Masalan, savdo korxonalarining asosiy reja ko‘rsatkichi uning tovar oboroti. Uni boshqarish uchun hamma safarbarlik amalga oshirilardi. Lekin uning qancha xarajat talab qilishi hech kimni qiziqtirmas edi. Oqibatda, juda ko‘p savdo korxonalari tovar oborotini bajarish bilan birga faoliyat natijasi zarar bilan yakunlanar edi. Natijada yuqori tashkilotlardan uning oborot mablag‘larini “to‘ldirish” uchun juda ko‘p mablag‘ ajratilar edi. Endi bunday ishlarga barham berildi. Korxonani boshqarish yuqori tashkilot manfaatini hisobga olib emas, balki bevosita shu subektning manfaatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan bo‘ldi. Bu esa har bir korxona faoliyatini o‘rganish va tahlil qilishni taqoza qiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki tahlilning vazifasi ushbu bandlarda keltirilgan vazifalar bilan cheklanmaydi. Korxona faoliyati serqirrali. Tahlil jarayonida uning hamma tomonlarini o‘rganish lozim. Shunday ekan, tahlil vazifasini ham ko‘p qirralidir. Shu tufayli biz ularning eng asosiylarini keltirdik, xolos.

Tahlil jarayonida barcha kamchiliklar aniqlandi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa aniqlangan kamchiliklarga kelgusida yo‘l qo‘yilmaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Shu tariqa kamchiliklar bartaraf qilinib, xo‘jalik faoliyatining uzluksiz ravishda takomillashuvi va uning samaradorligining oshib borishi ta’minlanadi.

Ko‘rinib turibdiki, tahlilning vazifasi bozor munosabatlari shakllanayotgan bugungi sharoitda ham, kelajakda ham korxonalar xo‘jalik faoliyatining uzluksiz yaxshilanib borishi uchun iqtisodiy dastak sifatida muhim ahamiyatga ega ekan.

“Iqtisodiy tahlilning predmeti, vazifalari va mazmuni” mavzusi bo‘yicha TAYANCH IBORALAR

- tahlil so‘zining mazmuni;
- analiz va sintez xodisa va jarayonlarni batafsil o‘rganish yo‘li;
- tahlil va boshqaruv;
- iqtisodiy tahlil fanining mazmuni;
- fan predmetining ta’rifi;
- fanning asosiy vazifalari;
- boshqaruv vositalari;
- iqtisodiy tahlilning asosiy prinsiplari.

“Iqtisodiy tahlilning predmeti, vazifalari va mazmuni” mavzusi bo‘yicha NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy tahlil fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi baholang?
2. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti va obyekti nimadan iborat?
3. Iqtisodiy tahlil fanining bozor iqtisodiyoti sharoitida zaruriyati nimalarda ko’rinadi?
4. Iqtisodiy tahlil fanining vazifalari hamda kutiladigan natijalari nimalardan iborat?
5. O’zbekistonda iqtisodiy tahlilning shakllanish va rivojlanish bosqichlari qaysilar?

“Iqtisodiy tahlilning predmeti, vazifalari va mazmuni” mavzusi bo‘yicha
TEST SAVOLLARI

1. XIX asrda buxgalteriya balansidagi ba’zi ko‘rsatkichlarga izoh berish...?

a) tahlil fanini vujudga kelishi uchun ob’ektiv asos bo‘lgan

b) auditni vujudga keltirgan

c) reviziyaga asos solgan

d) hech qanday ta’siri bo‘lmagan

2. XIX asrda xo‘jalik faoliyatini chuqurroq o‘rganish ..... talab qildi?

a) buxgalteriya balansidagi ba’zi ko‘rsatkichlarga izoh berishni

b) auditni tashkil qilishni

c) reviziyani tashkil qilishni

d) iqtisodiy tushuntirishlarni

3. Omilli tahlilga ta’rif bering?

a) Xo‘jalik faoliyati natijasiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta’sirini hisoblash usullarini majmuasini o‘zida aks ettiradigan tahlildir

b) Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt istiqbolini, biznes-rejasini, invistisiya loyihalarini asoslash uchun hali sodir bo‘lmagan, ya’ni bo‘lishi kutilayotgan iqtisodiy jarayonlarni o‘rgatadigan tahlildir

c) Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir

d) Xo‘jalik yurituvchi sub’yekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o‘rganishga qaratilgan tahlildir

4. Tahlil so‘zining lug‘aviy mazmuni nimani anglatadi?

a) “tahlil” grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman” ma’nosini anglatadi

b) “tahlil” frantsuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, “butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman” ma’nosini anglatadi

c) “tahlil” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman” ma’nosini anglatadi

d) “tahlil” inglizcha so‘zdan olinib, “butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman” ma’nosini anglatadi

5. Boshqaruv tahliliga ta’rif bering.

a) korxona rahbariyati, egasiva mutaxassislari tomonidan ichki imkoniyatlarni ishga solish va samaradorlikni oshirish maqsadida qilinadigan tahlildir

b) xo‘jalik yurituvchi sub’yekt faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir

c) xo‘jalik faoliyati natijasiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashva ularning ta’sirini hisoblash usullarini majmuasini o‘zida aks ettiradigan tahlildir

d) xo‘jalik faoliyatida natija va omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik funksional bog‘liq bo‘lmagan sharoitda, ularning bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan tahlildir

6. Investitsiyaning shartli ravishda qanday turlarini ajratish mumkin?

a) moliyaviy investitsiyalar, moddiy investitsiyalar, aqliy investitsiyalar

b) aqliy investitsiyalar, moddiy investitsiyalar

c) moddiy investitsiyalar

d) intellektual investsiyalar

7. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish nechta bosqichda amalga oshiriladi?

a) 5

b) 2

c) 3

d) 1

8. Iqtisodiy tahlil ....ga bo‘linadi.

a) moliyaviy va boshqaruv

b) maxsus va iqtisodiy

c) umumiy va iqtisodiy

d) ijtimoiy va iqtisodiy

9. Iqtisodiy tahlil fani metodining o‘ziga xos jihati -

a) ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish

b) umumlashtirish hamda taqqoslash

c) dunyoqarashni shakllantirish hamda baholash

d) modellashtirish

10. Iqtisodiy tahlil fani qaysi fan bilan ko‘proq chambarchas bog‘liq?

a) buxgalteriya hisobi va audit

b) makro hamda mikro iqtisodiyot

c) makro va mikro statistika

d) iqtisodiy nazariya

11. Iqtisodiy tahlil fani ob’ekti bo‘lib nima hisoblanadi?

a) korxonalar, ishlab chiqarish birlashmalari, sexlar, uchastkalar

b) iqtisodiy tumanlar

c) milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari hamda davlat korxonalari faoliyati

d) tarmoqlar

12. Iqtisodiy tahlil fanini pirovard maqsadi nima?

a) xo‘jalik rezervini topish va ulardan to‘la-to‘kis foydalanish

b) mahsulot tannarxini hisoblash hamda korxoning tayyor mahsuloti kalkulyatsiyasi

c) mehnat unumdorligini aniqlash

d) asosiy vositalardan samarali foydalanish hamda asosiy vositalarni ko'paytirish

II BOB. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA UNDA QO‘LLANILADIGAN USULLAR

1. Iqtisodiy tahlil fanining metodologik asoslari va ularning tavsifi.
2.Tahlilda analiz va sintez, induksiya va deduksiya va boshqa uslublardan foydalanish.
3.Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an’anaviy usullar:
3.1.Solishtirish usuli
3.2.Muvozanat usuli
3.3.Ķayta hisoblash usuli
3.4.Zanjirli almashtirish usuli
3.5. Nisbiy miqdorlardan foydalanish usuli
3.6. Indeks usuli
3.7. Farqlash usuli
3.8. Integral usuli
3.9.Kichik sonlardan foydalanish usuli
4. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan matematik modellarning tiplari

2.1. Iqtisodiy tahlil fanining metodologik asoslari va ularning tavsifi

Iqtisodiy tahlilning metodi va metodologiyasini farqlamoq lozim. Metod deganda asosan shu fanning predmetini o‘rganish usuli tushuniladi. Metodologiya deganda esa, sodda qilib aytadigan bo‘lsa, shu fanning predmetini o‘rgatish usuli, o‘rgatishda qo‘llaniladigan yondoshuvlar, usullar majmuasi tushuniladi.

Iqtisodiy tahlilning metodologik asosi, ya’ni uni o‘rgatishda qo‘llaniladigan yondashuvlar turli yo‘nalishda bo‘lishi ta’biiy. SHu tufayli ularni, eng avvolo, to‘g‘ri tasniflash lozim. Bizning fikrimizcha, ularni o‘rganishda qanday yondashishiga qarab ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. O‘rganilayotgan ob’ektga dialektika nuqtai nazaridan yondashish.
2. O‘rganilayotgan ob’ektga sistemali uzluksizlikni ta’minlagan holda yondashish.

Birinchi yondashish bo‘yicha tahlil qilinsa barcha iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda, harakatda va doim o‘zgarishda deb qarash lozim bo‘ladi. Bundan kelib chiqadigan bo‘lsa shuni ta’kidlash joizki, iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydigan ko‘rsatkichlar ham bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda va o‘zgarishda deb qaraladi. Bu yondashuv, ayniqsa, natijaviy ko‘rsatkichlarga omillar ta’sirini aniqlashda keng qo‘llaniladi.


Ikkinchi yondashuv bo‘yicha tahlil qilinganda o‘rganilayotgan ob’ektni murakkab iqtisodiy jarayonlar majmuasidan iborat deb baholab, ularning barcha qismlari bir-biri bilan o‘zoro o‘zviy bog‘liqlikdaligidan kelib chiqib, ularni o‘rganishda barcha jihatlarini tartibga solgan holda yaxlit xulosaga kelguncha qilinadigan xodisalarga uzluksiz ravishda sistemali tarzda yondashish lozimligini taqozo qiladi. Bunga o‘rganilayotgan ob’ektni detallashtirish, sistemalashtirish (tartiblashtirish) va umumlashtirish orqali erishish mumkin.

O‘rganilayotgan ob’ektni **detallashtirish** deganda murakkab iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirish va ulardan to‘g‘ri va yaxlit xulosa qilish uchun ularni mayda bo‘laklarga bo‘lib o‘rganish tushiniladi.

Sistemalashtirish (tartiblashtirish) deganda o‘rganilayotgan ob’ektni o‘rganish uchun unga mantiqan ketma-ketlikni ta’minlagan holda tartibga solish tushiniladi. Chunki iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda. Shu tufayli ularni har tomonlama, chuqur o‘rganish uchun ketma-ket ravishda batafsil tahlil qilish lozim. Masalan, natija ko‘rsatkichi o‘zgarsa unga ta’sir qiluvchi barcha ijobiy va salbiy omillar batafsil tahlil qilinadi, ularning ta’siri ketma-ket ravishda xisoblab chiqiladi.

O‘rganilayotgan ob’ektni tahlil qilganda **umumlashtirish** deganda uning barcha jihatlarini atroflicha o‘rganib yaxlit xulosaga kelish tushiniladi. Bu yo‘nalish tahlilning boshqaruv funksiyasidan kelib chiqadi. Boshqaruv uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishda tahlil orqali o‘rganilayotgan ob’ekt xaqida tegishli to‘g‘ri va yaxlit xulosaga kelish lozim.

Iqtisodiy tahlilning metodologik asoslarini ifodalovchi chizma qo‘yidagi 3.1- chizmada aks etirilgan.



2.1. - Chizma. **Iqtisodiy tahlil metodologiyasi tasnifi**

Ushbu chizmada keltirilgan birinchi yo‘nalish bo‘yicha keltirilgan kategoriyalarning qisqacha mazmuniga to‘htalish maqsadga muvofiqdir.

2.2. Tahlilda analiz va sintez, induksiya va deduksiya va boshqa uslublardan foydalanish

Induksiya va deduksiya kategoriyalari iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu kategoriyalar iqtisodiy tahlilning ketma-ketligini ta’minlaydi. Masalan, induksiya deganda o‘rganilayotgan ob’ektning xususiylikdan umumiylikga qarab o‘rganilishi tushiniladi. Bunga misol qilib mehnat unimdorligi tahlilini olish mumkin. Unga vaqt nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak uni bir soatlik mexnat unimdorligi, bir kunlik, o‘n kunlik, bir oylik, bir choralik, yarim yillik, to‘qqiz oylik, bir yillik mehnat unimdorligi darajasigacha umumlashtirish mumkin. Yoki aynan ushbu ko‘rsatkichni makon nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, oldin bir kishining mehnat unimdorligi, bir bo‘linmaning mehnat unimdorligi va butun mehnat jamoasining umumiy mehnat unimdorligi darajasigacha o‘rganish mumkin.

Deduksiya metodida tahlil qilinayotgan ob’ekt umumiylikdan xususiylik sari, ya’ni umumiy ko‘rsatkichlardan xususiy (kichik) ko‘rsatkichlarga qarab o‘rganish tushiniladi. Bu usulga misol qilib birlashmada foyda rejasining bajarilishini olish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich oldin butun birlashma bo‘yicha o‘rganiladi, so‘ngra uning alohida korxonalari (firmalari) bo‘yicha, ularning alohida bo‘linmalari bo‘yicha ketma-ketlikda o‘rganilib, umumiy natijaga qaysi bug‘in va bo‘linmalarning ijobiy yoki salbiy ta’sir qilganligi to‘g‘risida xulosa qilinadi.

Induksiya va deduksiya usullarining bir-biri va amaliyot bilan bog‘liqligini quyidagi chizmada ifodalash mumkin:

Induksiya	Deduksiya
Xususiylikdan umumiylik sari o‘rganish	Umumiylikdan xususiylik sari o‘rganish

Makon va zamon kategoriyalari ham iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslaridan biridir. Zero, barcha iqtisodiy jarayonlar makonda (xo‘jalik yurituvchi sub’ektda) ma’lum bir zamon doirasida (vaqt mobaynida) sodir bo‘ladi. Shu tufayli zamonning o‘tishi bilan makondagi natija o‘zgaradi va uning teskarisi, ya’ni makonning o‘zgarishi bilan zamon o‘tgandan keyin natija boshqacha bo‘lishi mumkin.

Masalan, makonga korxonalarni, ish joylarini, firma kabi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni misol keltirish mumkin. Bular tahlilining ob’ekti.

Zamon deganda esa ularning ma’lum bir hisobot davri tushiniladi. Makonda sodir bo‘lgan jarayonlar ma’lum bir hisobot davri (zamon) o‘tgach jamlanadi va umumlashtiriladi. Bu ham shu hisobot davrini tahlil qilish uchun ma’lumot manbai bo‘lib hisoblanadi.

Makon va zamon o‘rtasidagi hamda ularning amaliyot bilan bog‘liqligini quyidagicha ifodalash mumkin:

MAKON	ZAMON
Korxonalar, firmalar kabi xo‘jalik yurituvchi su’bektlar	Hisobot davri (oy, chorak, yarim yillik va yillik)

Analiz va sintez. (Tahlil va umulashtirish) kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Tahlil deganda bir butun yaxlit predmetni alohida bo‘laklarga bo‘lib o‘rganish tushiniladi. Umumlashtirish (sintez) esa o‘rganilayotgan ob’ekt to‘g‘risida yaxlit xulosaga kelish uchun foydalaniladi. Unda ob’ektning barcha bo‘laklari bo‘yicha qilingan xulosa umumlashtiriladi.

O‘rganilayotgan ob’ekt yoki iqtisodiy jarayon haqida yaxlit va aniq xulosaga kelishi uchun u tahlil qilinadi va barcha xulosalar umumlashtiriladi.Taxlil bor joyda umumlashtirish, umumlashtirish uchun esa tahlil qilish lozim. Shu tufayli ushbu kategoriyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda qaraladi.

Ammo shuni e’tirof etish lozimki tahlilning turi juda ko‘p. U tabiatda, jamiyatda va inson tafakkurida sodir bo‘ladigan jarayonlarni o‘rganadi. Biz o‘rganadigan tahlil iqtisodiy tahlilning faqat mikroiqtisod darajasiga mansub xolos. Demak, ko‘rinib turibdiki tahlil keng ma’noda qaralar ekan. Lekin bozorli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil, tahlillar tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Tahlil bilan umumlashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlikning iqtisodiy tahlilga tegishli qismini quyidagicha ifoda etish mumkin:

Taxlil (analiz)	Umumlashtirish (sintez)
Hisobot yilining natijasi choraklari, oylari bo‘yicha o‘rganiladi.	Hisobot yilining umumiy natijasi bo‘yicha o‘rganiladi.
Korxona faoliyatini alohida bo‘linmalari bo‘yicha o‘rganiladi.	Korxonaning umumiy natijasi bo‘yicha o‘rganiladi

Sabab va oqibat kategoriyasi ham bevosita iqtisodiy tahlilning metodologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy tahlilda natija va omillar tushunchasi mavjud. Iqtisodiy faoliyat natijasini ifoda etgan birorta ko‘rsatkich natija ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Buni falsafiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak oqibatdir. Ammo shu oqibat o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Uning zamirida birqancha sabablar bor. Bu sabablarni iqtisodiy tahlilda omillar deb qaraladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (oqibat) birqancha omillarga, ya’ni hodimlar soni, ularning malakasi, mehnat unimdorligi, qo‘llanilayotgan texnalogik jarayoni, xom ashyoning o‘z vaqtida sifatli ta’minoti kabi omllarga (sabablarga) bog‘liq.

Iqtisodiy tahlilda natija o‘zgarishiga omillar ta’siri aniq ma’lumotlar asosida aniqlanadi. Demak sababning oqibatga ta’siri o‘rganiladi. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

SABAB	**OQIBAT**
OMILLAR	**NATIJA**
Xodimlar soni, mehnat unumdorligi va h.k.	Mahsulot hajmi

Sabab oqibatga olib kelganidek, omillar ta’siri ham biror natijaga olib keladi. Ijobiy sabab yaxshi oqibat, ijobiy omil yuqori natijaga olib kelganidek, salbiy sabab yomon oqibatga, omillarning salbiy ta’siri natijaning pasayishiga olib keladi.

Shakl va mazmun kategoriyasi ham bevosita iqtisodiyotga, xususan, iqtisodiy tahlilga aloqador. Shaklning o‘zgarishi mazmun o‘zgarishiga, mazmunning o‘zgarishi shakl o‘zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda ushbu bog‘liqlik juda yorqin nomoyon bo‘ladi. Masalan, ayollar sumkasining shakli chiroylik va chidamlik bo‘lishi uchun, unga qimmatbaxo materiallar, turli bezaklar ishlatiladi. Natijada uning mazmuni chidamliligi, narxining nisbatan qimatliligi bilan o‘zgaradi. Yoki oddiy material o‘rniga sifatli material ishlatib uning mazmunini boyitish kerak bo‘lsa albatta shakli ham o‘zgaradi.

Shu jihatdan iqtisodiy tahlilda shakl va mazmun bir-biri bilan uzviy dialektak aloqada bo‘lganligi bilan ham metodologik asos sifatida qo‘llaniladi. Masalan, biror birlashma tarkibida korxonalar soni uning shaklini tashkil qilsa, ularning nima bilan shug‘ullanishi, qanday texnologiya ishlatilishi, qanaqa kadrlar bilan ta’minlanganligi kabi

jihatlar uning mazmunini tashkil qiladi. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

Shakl	Mazmun
Mahsulot turi	**Uning sifati, tarkibi va x.k.**


Miqdor va sifat kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilda ayniqsa iqtisodiy jarayonlar natijasini ko‘rsatkichlarda ifodalashda keng qo‘llaniladi. Ko‘rsatkichlar mazmuni bo‘yicha miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga bo‘linadi. Masalan, korxonada band bo‘lgan hodimlar soni miqdor ko‘rsatkichi bo‘lsa, ularning mehnat unimdorligi sifat ko‘rsatkichidir. Korxonaning foydasi muhim natijaviy ko‘rsatkich. Ammo u iqtisodiy mazmuni jihatidan miqdor ko‘rsatkichi bo‘lsa, rentabellik darajasi uning sifat ko‘rsatkichidir. Yana boshqa bir misol. Jamoa xo‘jaligining bir yilda etishtirgan paxtasi 50,0 ming tonnani tashkil qildi. Bu miqdo ko‘rsatkich. Uning 60 foizi birinchi nav, 20 foizi ikkinchi, 15 foizi uchinchi va 5 foizi to‘rtinchi navga topshirildi. Bular paxtaning sifat ko‘rsatkichlari. Yoki yana shu paxtadan sof tolaning chiqish miqdori 35 foizni tashkil qiladi. Bu ham uning sifat ko‘rsatkichlariga misol bo‘ladi.

Ular o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Miqdor	Sifat
Foyda	**Rentabellik**
Paxta hajmi	**Tolaning chiqishi**

Ushbu bobda iqtisodiy tahlilning ayrim metodologik asoslariga to‘xtaldik. Falsafiy kategoriyalar hayot inikosi. Iqtisodiy jarayonlar esa ishtimoiy hayotning bir bo‘lagidir. Shu tufayli iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishga bog‘ishlangan iqtisodiy tahlil shu falsafiy kategoriyalarga asoslanadi.

2.3.Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan an’anaviy usullar



2.2-Chizma. **Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan usullar tasnifi (klassifikatsiyasi).**

2.3.1. Solishtirish usuli.

Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda qo‘llaniladigan usullarning eng ko‘p uchraydigani solishtirish usulidir. Bu usulni qo‘llash bilan tahlil boshlanadi. Shu usul orqali tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichning farqi aniqlanadi. Qolgan barcha usullar solishtirish natijasida aniqlangan farqni isbotlashga, aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Solishtirishda asos qilib miqdorlar olinadi. Miqdorlarga statistika fanida juda katta ahamiyat beriladi, chunki iqtisodiyotning o‘lchami miqdorlarda ifodalanadi. Jumladan, yangidan yaratilgan milliy yalpi ichki mahsulotning bir yillik miqdori, tovar oborotining (aylanmasining) miqdori, milliy daromadning miqdori va h.k.

Miqdor ko‘rsatkichlari asosan buxgalteriya hisobi va hisobotida o‘z ifodasini topadi, chunki sodir bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar birinchi galda buxgalteriya hisobida aks ettiriladi va hisobotida jamlanadi.

Tahlil qilish uchun miqdor ko‘rsatkichlarining barcha turlari : mutloq miqdor, nisbiy miqdor, o‘rtacha miqdor kabilar qo‘llaniladi.

Mutloq miqdor har qanday miqdorning asosi, iqtisodiy jarayonlarni sanaydigan va o‘lchaydigan boshlang‘ich raqamdir. Masalan, savdo korxonalari soni, korxonada ishlaydigan xodimlar soni, korxonadagi jihozlar soni, ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni kabilarni sanash yo‘li bilan aniqlasa, ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot, tovar mahsuloti, tovar oboroti kabilar bevosita o‘lchash yo‘li bilan aniqlanadi. Bunday mutloq miqdorlar hajm ko‘rsatkichlari deb ataladi.

Mutloq miqdordan tahlilda foydalanishda asosan qo‘shish va ayirish amallari ishlatiladi.

Mutloq miqdorlar o‘lchov birligiga qarab nutura, shartli natura, pul va kompleks turlarga bo‘linadi. Rejali iqtisodiyot sharoitida ko‘rsatkichlar asosan pul birligida ifodalanar edi. Endilikda pulning qadrsizlanish jarayoni davom etib turgan paytda va ko‘p mulkchilik shaklidagi iqtisodiyotning vujudga kelishi tahlil kilishda natura, shartli natura va kompleks ko‘rsatkichlardan keng foydalanish zaruratini tug‘dirdi.

Umuman olganda iqtisodiy jarayonlar ayniqsa ularni ma’lum raqamlarda ifodalash shunchalik murakkabki unda faqat bir xil o‘lchovga ega bo‘lgan ko‘rsatkich bilan cheklanib bo‘lmaydi. Shu tufayli uni tahlil qilishda birqancha ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Bularsiz tahlil qilish, umuman ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga baho berish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish qiyin. Shu bilan birgalikda faqat mutloq miqdor orqali xo‘jalik faoliyati haqida chuqur va batafsil xulosa qilish ham mumkin emas. Shu tufayli tahlil uchun mutloq miqdor bilan birgalikda nisbiy miqdorlardan ham keng foydalaniladi.

Nisbiy miqdorlar tahlil qilishda dastlabki va eng muhim xulosa chiqarish uchun asos bo‘ladi. Nisbiy miqdorlardan tahlilda foydalanishda asosan bo‘lish va ko‘paytirish usullari ishlatiladi. Bularning hajmini solishtirish va farqini aniqlash uchun ayirish amalidan foydalaniladi.

Nisbiy miqdor tahlil jarayonida asosan mutloq miqdorlarni bir-biriga bo‘lish natijasida vujudga keladi va iqtisodiy jarayonlar haqida aniq ma’lumotlarni beradi. Masalan, biror ko‘rsatkich bo‘yicha rejaning bajarilishi, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, me’yorga nisbatan erishilganlik darajasi kabilar.

Tahlil jarayonida nisbiy miqdorning nimani ifodalash mohiyatiga qarab, birqancha turlari qo‘llaniladi:

- reja topshirig‘i va bajarilishini ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- o‘zgarish sur’atini ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- tarkibni ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- me’yorga (standartga, o‘rtachaga) nisbatan erishilgan darajasini ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- intensivlik darajasini ifodalovchi nisbiy miqdor va h. k.

Bu nisbiy miqdorlar hajmi tahlil uchun to‘laroq xulosalarni chiqarish uchun asos bo‘ladi. Masalan, reja topshirig‘i do‘konda 105 foizga bajarildi, o‘tgan yilga nisbatan korxonaning yalpi daromadi 107 foizga oshdi, shu ob’ektning umumiy tovar mahsulotidagi ulushi 15 foizni tashkil qildi, mehnat unumdorligi etalonga nisbatan 15 foizga kam bo‘ldi, tovar mahsulotining 80 foiz o‘sish sur’ati intensiv omillar evaziga vujudga keldi va h. k.

Mana shu keltirilgan har bir ko‘rsatkich tahlil qiluvchi uchun ma’lum xulosaga kelishda real asos bo‘lib xizmat qiladi. Tahlil jarayonida mutloq va nisbiy miqdorlar bilan birgalikda o‘rtacha miqdorlardan ham keng foydalaniladi.

O‘rtacha miqdorlar tahlilda iqtisodiy xodisa va jarayonlardagi ma’lum qonuniyatlarni va umumiy yo‘nalish tendensiyalarini aniqlashda qo‘llaniladi. Bu miqdorni qo‘llashning zarurligi shundaki iqtisodiy jarayonlar alohida ob’ektlar bo‘yicha o‘rganilganda vaqtinchalik tasoddiflar ta’sirida bo‘lishi mumkin. Masalan, korxona chet mamalakat xom ashyosi asosida ishlaydi. Xom ashyo bir yilda to‘liq keltirildi. Bu korxonaning shu yilgi ko‘rsatkichi juda yuqori, ammo ikkinchi yilda xom ashyoni keltirish imkoni bo‘lmadi. Bu yil esa korxonaning ishlab chiqarish ko‘rsatkichi juda past bo‘lishi tabiiy. Albatta bu tasoddifiy hol, chunki ishchilarning malakasi, moddiy texnika bazasi, uning texnologik darajasi o‘zgarmasdan qolishi mumkin. Boshqa bir misol. Bir xil mahsulot ishlab chiqarishga mo‘ljallangan bir qancha korxona mavjud. Ammo shulardan yarmi xom ashyoni o‘z vaqtida keltirishga muvoffaq bo‘lsa faqat ana shu korxonalar ishi yaxshi bo‘lishi mumkin. Qolgan korxonalarda faqat shu omil evaziga ishlab chiqarish darajsi past bo‘lishi tabiiy. SHunga o‘xshash tasoddiflarni bartaraf qilish uchun o‘rtacha miqdorlardan foydalaniladi.

O‘rtacha miqdorlarni aniqlashning bir qancha usullari mavjud.: o‘rtacha arifmetik, o‘rtacha garmonik, o‘rtacha xronologik kabilar. Bu usullar statistika fanining “O‘rtacha miqdorlar” bobida batafsil

o‘rganiladi. Shu tufayli ushbu bobda yana o‘sha mavzuga murojaat qilishni tavsiya qilamiz.

2.3.2. Muvozanat usuli.

Ushbu usul buxgalteriya hisobi, statistika, rejalashtirish kabi iqtisodiy ishlarda keng qo‘llaniladi. Bu usul omillar bilan natija o‘rtasida funksional bog‘lanish bo‘lganda omillar ta’sirini hisoblashda, xo‘jalik faoliyatidagi muvozanatni saqlashda qo‘llaniladi.

Muvozanat usulining qo‘llanilishi iqtisodiyotning hamma sohalarida tuziladigan tovar va boshqa moddiy boyliklar muvozanati misolida ko‘rish mumkin. Bunda asosan tovar muvozanati formulasidan foydalaniladi:

$$\boldsymbol{Z_{yb} + KT = T + Xch + Z_{yo}}$$

Bunda

Z_{yb} - *tovar zaxirasining hisobot yili boshidagi qoldig‘i ;*

KT - kelib tushgan tovarlarning hisobot yilidagi hajmi;

T - tovar oboroti (hisobot davrida sotilgan ovarlarning hajmi);

Xch- tovarlarning turli sabablar bilan chiqib ketishi (tabiiy kamayishi, chirishi, sinishi va boshqalar) ;

Z_{yo} - *tovar zaxiralarining hisobot yili oxiridagi qoldig‘i* .

Yuqoridagi formulaga asosan har bir miqdorni qolganlarining algebraik yig‘indisi ko‘rinishida tasvirlash mumkin. Masalan, tovar oboroti hajmini quyidagi funksional bog‘liqlikda ifodalash mumkin :

$$\boldsymbol{T = Z_{yb} + KT - Xch - Z_{yo}}$$

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki tovar oborotiga to‘rtta omila ta’sir qilgan. Tovar zaxiralarining boshlang‘ich qoldig‘i va kelib tushgan tovarlar hajmining ko‘payishi tovar oborotiga ijobiy ta’sir qilsa, tovarlarning har xil chiqimlari va tovar zaxiralarining yil oxiridagi qoldiq summasining ko‘payishi natijasiga salbiy ta’sir qiladi.

Tovarlarning yil oxiridagi qoldig‘i o‘zgarishining tovar oborotiga ta’siri (ΔTzyb) ni topish uchun tovar zaxiralarining hisobot yilidagi miqdoridan (Zyb_1) shu ko‘rsatkichning asos yilidagi miqdorini (Zyb_0) ayirib tashlanadi, ya’ni :

$$\boldsymbol{\Delta T_{zyb} = Zyb_1 - Zyb_0}$$

Tovar kelib tushishining tovar oboroti hajmiga ta’sirini (Δ Tkt) topish uchun uning hisobot yilidagi miqdoridan (KT_1) asos yilidagi miqdori (KT_0) ayirib tashlanadi, ya’ni :

$$\Delta T_{kt} = KT_1 - KT_0$$

Tovarlarning har xil chiqib ketishining tovar oboroti hajmiga ta’sirini (Δ Txch) topish uchun uning hisobot davridagi miqdoridan (Xch_1) asos davridagi miqdori ayrilib tashlanadi (Xch_0) , ya’ni :

$$\Delta T_{xch} = Xch_1 - Xch_0$$

Tovar zaxirasi qoldig‘ining hisobot davri oxiridagi o‘zgarishining tovar oborotiga ta’sirini

(Δ Tzox) topish uchun, uning hisobot davridagi miqdoridan (Zox_1) asos davridagi miqdori (Zox_0) ayiriladi, ya’ni :

$$\Delta T_{zox} = Zox_1 - Zox_0$$

Omillar ta’siri hisobining to‘g‘riligini aniqlash uchun hamma omillar ta’sirini qo‘shish lozim. U holda umumiy farq barcha omillar ta’siriga teng bo‘ladi :

$$\Delta T = \Delta T_{zyb} \pm \Delta T_{kt} \pm \Delta T_{xch} \pm \Delta T_{zox}$$

Muvozanat usulini qo‘llab natijaga omillar ta’sirini hisoblash quyidagi misolda keltirilgan (7.1-jadval).

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tovar oboroti hajmi hisobot davrida rejadagiga nisbatan 97,2 ming so‘mga oshgan. Ushbu o‘zgarishga tovar kelib tushishining 106,3 ming so‘mga oshishi va tovarlarning har xil chiqib ketishining 0,1 ming so‘mga kamayishi tovar oborotiga ijobiy ta’sir qilgan. Boshqa omillar esa tovar oborotining o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, tovar zaxiralarining hisobot davrining boshida me’yorga nisbatan 6,2 ming so‘mga kam bo‘lishi, shu davrning oxirida esa me’yordan 3,0 ming so‘mga oshiqcha bo‘lgani tovar oborotiga salbiy ta’sir qilgan. Shunday qilib, tovar oborotining umumiy farqi 97,2 ming sum vujudga kelgan:

- 6,2 + 106,3 + 0,1 - 3,0 = + 97,2

2.1- jadval

Tovar oboroti hajmining o‘zgarishiga tovar muvozanati ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq omillar ta’sirini aniqlash.

(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Rejada	Hisobot-da	Farqi (+,-)	Omillar ta’siri
1.Tovar zaxiralari-ning boshlang‘ich qoldig‘i (Zyb)	648,0	641,8	- 6,2	- 6,2
2.Kelib tushgan to-varlar (KT)	3069,8	3176,1	106,3	+ 106,3
3.Tovarlarning har xil chiqib ketishi (Xch)	0,4	0,3	- 0,1	+ 0,1
4.Tovar zaxiralari-ning oxirgi qoldi-g‘i (Zox)	695,9	698,3	+ 3,0	- 3,0
5.Tovar oboroti (T)	3021,5	3118,7	+ 97,2	x

Ushbu tahlil natijasi tovar oborotini ko‘paytirishning ichki imkoniyatlarini topish uchun asos bo‘ladi. Agar hisobot yilida tovar zaxiralarining boshlang‘ich va oxirgi g‘oldiqlari me’yor darajasida bo‘lganda edi tovar oboroti yana 9,2 ming so‘mga (6,2 + 3,0) ko‘paygan bo‘lar edi. U holda haqiqiy tovar oboroti 3118,7 ming so‘m emas, balki 3127,9 ming so‘mni (3118,7 + 9,2) tashkil qilgan bo‘lar edi. Uning o‘tgan yilgi yoki asos yiliga nisbatan farqi 97,2 ming so‘m emas, balki 106,4 ming so‘mni (97,2 + 9,2) tashkil qilgan bo‘lar edi. Tovar oborotining ko‘payishi evaziga boshqa ko‘rsatkichlar ham yaxshilanar edi.

2.3.3. Qayta hisoblash usuli.

Bu usul ham omilli tahlilda keng qo‘llaniladi. Bu usul natijaga bitta yoki ikkita omil ta’sir qilgan paytlarda qo‘llanilishi qulay. Uning mohiyati rejadagi natijani birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblab olinishidan iboratdir. Masalan, tovar oboroti (T) asosiy kapitalning o‘rtacha qiymati (Ak) va shu kapitalning samaradorligi bilan funksional bohliq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi:

$$\mathbf{T} = \boldsymbol{Ak} * \boldsymbol{Ks}$$

Bunda Ks- Asosiy kapitalning samaradorligi.

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki, natijaga ikkita omil ta’sir qiladi. Har bir omilning ta’sirini hisoblash uchun natijani qayta hisoblab olamiz. Bu birinchi omilning haqiqiy miqdorini (Ak_1) ikkinchi omilning rejadagi miqdori bilan ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi(Ks_o), ya’ni:

$$\boldsymbol{T_{qh} = Ak_1 * Ks_0}$$

Omillarning tovar oborotiga ta’sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim.

1. Tovar oborotining asosiy kapitalining o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini (Δ Tak) topish uchun tovar oborotining qayta hisoblangan miqdoridan (Tkx) uning rejadagi hajmini ayirish kifoya (T_o) :

$$\boldsymbol{\Delta T_{ak} = T_{qh} - T_0 = Ak_1 * Ks_0 - Ak_0 * Ks_0}$$

2. Tovar oboroti o‘zgarishiga asosiy kapital samaradorligining ta’sirini (Δ Tks) aniqlash uchun tovar oborotining haqiqiy so‘mmasidan (T_1) uning qayta hisoblangan miqdorini (Tkx) ayirish kifoya :

$$\boldsymbol{\Delta T_{ks} = T_1 - T_{qh} = Ak_1 * Ks_1 - Ak_1 * Ks_0}$$

Ikki omilning ta’siri tovar oboroti farqining umumiy so‘mmasiga teng bo‘lishi kerak :

$$\boldsymbol{\Delta T = \Delta T_{ak} \pm \Delta T_{ks}}$$

Ushbu nazariy tavsiyani aniq ma’lumotlarni qo‘llab echish yo‘lini quyidagi jadval orqali ko‘rish mumkin (2.2-jadval).

2.2 - jadval

Tovar oboroti hajmiga asosiy kapital va ular samaradorligining ta’sirini qayta hisoblash usulini qo‘llab aniqlash.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilda	Hisobot yilida	Qayta hisoblangan	Farqi (+,-)		
					SHu jumladan	
				Jami	Ak evaziga	Ks evaziga
Tovar oboroti, ming so‘m	42850,0	44520,0	42636,3	+1670,0	- 213,7	+1883,7
Asosiy kapitalning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m	26664,5	26531,6	26531,6	- 132,9	x	x
Asosiy kapitalning samaradorligi, so‘m	160,7	167,8	160,7	+ 7,1	x	x

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tovar oboroti hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 1670,0 ming so‘mga oshgan. Bu quyidagi omillar evaziga vujudga kelgan :

1. Asosiy kapital o‘rtacha yillik qiymatining 132,9 ming so‘mga kamayishi tovar oboroti hajmini 213,7 ming so‘mga kamaytirdi:

4236,3 - 42850,0 = - 213,7 ming sum

2. Asosiy kapital samaradorligining hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 7,1 so‘mga oshganligi tovar oboroti hajmini 1883,7 ming so‘mga oshirdi :

44520,0 - 42636,3 = + 1883,7= ming so‘m

Ushbu usullar mavjud bo‘lgan ichki rezervlarni aniqlash imkonini beradi. Bizning misolimizda tovar oborotini oshirish uchun asosiy fondlarni ko‘paytirish lozimligi aniqlandi. Agarda asosiy fondlar hisobot davrida hech bo‘lmaganda o‘tgan yil hajmida qolganda edi tovar oboroti yana 132,9 ming so‘mga ko‘paygan bo‘lar edi. U holda haqiqiy tovar oboroti hajmi 44520,0 ming so‘m emas, balki 44652,9 ming so‘mni (44520,0 + 132,9) tashkil qilgan bo‘lar edi. Tovar oboroti rejasining bajarilishi 103,9 % emas, (44520,0 . 100 : 42850,0), balki 104,2%ni (44652,9 . 100 : 42850,0) tashkil qilgan bo‘lar edi.

3.3.4. Zanjirli almashtirish usuli.

Bu usul tahlilida keng qo‘llaniladigan usullardan biridir. Natija o‘zgarishiga uchta va undan ko‘p omillar ta’sir qilsa, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik funksional bo‘lsa ushbu usuldan foydalaniladi. Masalan, tovar oboroti (T) o‘zgarishi xodimlarning ro‘yxatdagi soni (X), ularning o‘rtacha ish kunlari (K) va bir kunlik mehnat unumdorligi (M) ko‘rsatkichlari bilan funksional bohliqdir. Bu quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathbf{T= } \boldsymbol{X} * \boldsymbol{K} * \boldsymbol{M}$$

Ushbu formula asosida natijaga uchta omil ta’sir, qilganligini ko‘ramiz. Omilli tahlilning asosiy vazifasi natijaning shu har bir omil evaziga o‘zgarishini topishdan iboratdir. Zanjirli almashtirish usulidan foydalanadigan bo‘lsak rejadagi natijani har bir omil evaziga qayta hisoblab olish lozim. Bu uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

1. Tovar oboroti hajmining xodimlarning ro‘yxatdagi soni o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini topish uchun birinchidan shu ko‘rsatkich rejasini xodimlarining ro‘yxatdagi sonining haqiqiy miqdori bilan hisoblab olinadi:

$$\boldsymbol{T_x = X_1 * K_0 * M_0}$$

Bunda “ 1 “ va “ O “indekislari ko‘rsatgichlarning haqiqiy va rejadagi miqdorini ifodalaydi.

Ikkinchidan esa, shu qayta hisoblngan miqdordan rejadagi tovar oboroti ayirib tashlanadi:

$$\boldsymbol{\Delta T_x = T_x - T_0 = (X_1 * K_0 * M_0) - (X_0 * K_0 * M_0)}$$

Bunda ΔTx - tovar oborotining xodimlarning ro‘yhatdagi sonining o‘zgarishi ta’sirida o‘zgargan qismi.

2. Tovar oborotining ikkinchi omil, ya’ni xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha ish kunining o‘zgarganligi evaziga o‘zgarishini (Δ Tk) topish uchun birinchi omil bilan hisoblongan miqdorini ikkinchi omilning miqdori bilan hisoblab olinadi:

$$\boldsymbol{T_k = X_1 * K_1 * M_0}$$

Shu chiqqan natijadan birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan hisoblangan tovar oboroti hajmi olib tashlanadi:

$$\Delta T_k = T_k - T_x = (X_1 * K_1 * M_0) - (X_1 * K_0 * M_0)$$

3. Natijaning uchinchi omil - mehnat unumdorligining ta'siri evaziga o'zgarishini topish uchun tovar oborotining haqiqiy so'mmasidan (T_1) uning ikkinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblangan (T_k) miqdori ayrilib tashlanadi:

$$\Delta T_m = T_1 - T_k = (X_1 * K_1 * M_1) - (X_1 * K_1 * M_0)$$

Bu uchta omilning ta'siri tovar oborotining umumiy farqiga (Δ T) teng bo'lishi kerak:

$$\Delta T = \Delta T_x \pm \Delta T_k \pm \Delta T_m$$

Keltirilgan hisob-kitoblarga aniq ma'lumotlarni qo'llagan holda echiladigan bo'lsa quyidagicha jadval tuzilishi mumkin (2.3-jadval).

2.3- jadval.

Natijaga omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usuli yordamida hisoblash yo'llari.

Ko'rsatkichlar	Belgi-si	Reja da	Haqi-qatda	Zanjirli almashtirish		
				1	2	3
1. Xodimlarning o'rta-cha ro'yxatdagi soni, kishi	X	X_o	X_1	X_1	X_1	X_1
2. Har bir xodimga to'g'-ri keladigan ish ku-ni, kun	K	K_o	K_1	K_o	K_1	K_1
3. Xodimlarning o'rta-cha bir kunlik meh-nat unumdorligi, so'm	M	M_o	M_1	M_o	M_o	M_1
4. Tovar oboroti, ming so'm	T	T_o	T_1	T_x	T_k	Tm

Ushbu jadvalga asosan tovar oborotining o'zgarishiga omillar ta'sirini quyidagicha aniqlash mumkin.

1. Tovar oborotining xodimlar sonining o'zgarishi evaziga o'zgarganligini (ΔTx) topish uchun quyidagi amalni bajarish lozim. :

$$\Delta T_x = T_x - T_0 = (X_1 * K_0 * M_0) - (X_0 * K_0 * M_0)$$

2. Tovar oborotining har bir xodimning o‘rtacha ish kunining o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini (Δ Tk) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi :

$$\Delta T_k = T_k - T_x = (X_1 * K_1 * M_0) - (X_1 * K_0 * M_0)$$

3. Tovar oborotining har xodimning bir kunlik mehnat unumdorligining o‘zgarganligi evaziga o‘zgarishini aniqlash uchun quyidagi amalni bajarish lozim :

$$\Delta T_m = T_1 - T_k = (X_1 * K_1 * M_1) - (X_1 * K_1 * M_0)$$

Barcha omillar ta’siri natijaning umumiy farqiga teng bo‘lishi lozim:

$$\Delta T = \Delta T_x \pm \Delta T_k \pm \Delta T_m$$

Ushbu nazariy usulning bevosita amaliyotga qo‘llanilishini ko‘rib chiqish uchun natija ko‘rsatkichi sifatida tovar oborotini (T) olish mumkin. Bu ko‘rsatkichga aholining soni (A), ularning o‘rtacha pul daromadlari (D) va tovar oborotining pul daromadini qamrab olish darajasi (O) ta’sir qiladi. Bu bog‘liqlikni quyidagi formula bilan tasvirlash mumkin :

$$T = \frac{A * D * O}{100}$$

Bu formulaga zanjirli almashtirish usulini qo‘llab har bir ko‘rsatkich bo‘yicha amaliy ma’lumotlardan foydalangan holda natijaga omillar ta’sirini aniqlash mumkin (2.4-jadval).

2.4 - jadval.

Chakana tovar oborotiga aholining soni va ularning pul daromadi bilan bog‘liq bo‘lgan omillar ta’sirini zanjirli almashtirish usulini qo‘llab echish yo‘llari.

Ko‘rsatkichlar	Reja-da	Haqi-qatda	Zanjirli almashtirish		
			1	2	3
Aholining o‘rtacha yillik soni, kishi	50265	50986	50986	50986	50986
Bitta aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha pul daromadi, so‘m	778,2	781,6	778,2	781,6	781,6
Aholi pul daromadi-ning tovar oboroti bilan qamrash dara-jasi, %	72,5	76,4	72,5	72,5	76,4
CHakana tovar oboroti, ming so‘m	28359,6	30446,3	28766,4	28892,1	30446,3

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, hisobot yilida tovar oborotining hajmi 2086,7 ming so‘mga (30446,3 - 28859,6) oshgan. Bu o‘zgarish quyidagi omillar ta’sirida sodir bo‘lgan :

1. Aholining o‘rtacha yillik soni rejaga nisbatan 721 kishiga oshganligi tovar oboroti hajmini 406,8 ming so‘mga (28766,4 - 28359,6) ko‘paytirgan.

2. Aholining o‘rtacha pul daromadi hisobot yilida 3,4 so‘mga oshgan. Bu omil tovar oborotini 125,7 ming so‘mga (28892,1 - 28766,4) ko‘paytirish imkonini bergan.

3. Pul daromadining aholiga sotilgan tovar oborotining qamrab olish darajasi 3,9% ga oshganligi umumiy tovar oboroti so‘mmasini 1554,2 ming so‘mga (30446,3 - 28892,1) ko‘paytirgan.

Ko‘rinib turibdiki, tovar oborotining o‘zgarishiga uchala omil ham ijobiy ta’sir qilgan. Natijada umumiy farq kelib chiqadi :

406,8 + 125,7 + 1554,2 = + 2086,7 ming so‘m.

Zanjirli almashtirish usulidan faqat ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanish ko‘paytma shaklidagina emas, balki bo‘linma shaklidagi bog‘lanishlarda ham foydalanish mumkin. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichini olaylik. Bu quyidagicha bog‘liqlikka ega :

$$R = \frac{F}{Ak + Am}$$

Bunda R - rentabellik darajasi ; F - foyda so‘mmasi ;
Ak - asosiy kapitalning o‘rtacha yillik qiymati ;
Am - aylanma kapitalning o‘rtacha yillik qiymati.

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki rentabellik darajasiga uchta omil : foyda so‘mmasi, asosiy kapital, aylanma kapitallarning o‘zgarishlari ta’sir qiladi. Rentabellik darajasiga foyda so‘mmasining ta’sirini (ΔRf) zanjirli almashtirish usuli bilan hisoblash uchun rentabellik darajasini foyda so‘mmasining haqiqiy darajasi bilan qayta hisoblanadi va undan rentabellik darajasining rejadagi miqdori ayriladi:

$$\Delta R_f = \left(\frac{F_1}{Ak_0 + Am_0}\right) - R_0$$

Rentabellik darajasining asosiy kapitalning o‘rtacha yillik so‘mmasining o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini (ΔRak) aniqlash uchun rentabellik darajasini asosiy kapitalning o‘zgarishi bilan qayta hisoblanadi va undan rentabellik darajasining foyda so‘mmasi bilan qayta hisoblangan miqdori ayriladi:

$$\Delta R_{ak} = \left(\frac{F_1}{Ak_1 + Am_0}\right) - \left(\frac{F_1}{Ak_0 + Am_0}\right)$$

Rentabellik darajasiga aylanma kapitalning o‘rtacha yillik so‘mmasi o‘zgarishining ta’sirini (ΔRam) aniqlash uchun rentabellik darajasining haqiqiy miqdoridan uning asosiy kapitalning o‘zgarishi bilan qayta hisoblangan hajmini ayirib tashlaydi:

$$\Delta R_{am} = R_1 - \left(\frac{F_1}{Ak_0 + Am_0}\right)$$

Bunda ham barcha omillar ta’siri natijaning umumiy farqiga teng bo‘lishi kerak:

$$\mathbf{\Delta R} = \Delta R_f + \Delta R_{ak} + \Delta R_{am}$$

Ushbu bog‘lanishni aniq ma’lumotlarni qo‘llagan holda zanjirli almashtirish usulini qo‘llab echilishini ko‘rish mumkin (2.5-jadval).

2.5 - jadval.

Rentabellik darajasiga foyda, asosiy va aylanma kapitallar o‘zgarishining ta’sirini zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash yo‘llari.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilda	Hisobot yilida	Zanjirli almashtirishlar		
			1	2	3
1. Foyda, ming so‘m	51,7	62,7	62,7	62,7	62,7
2. Asosiy kapitalning o‘rtacha qiymati, ming so‘m	985,6	997,2	985,6	997,2	997,2
3. Aylanma kapitalning o‘rtacha qiymati , ming so‘m	245,0	231,5	245,0	245,0	231,0
4. Rentabellik dajasi, %	0,042	0,051	0,051	0,050	0,051

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, rentabellik darajasi hisobot yilida 0,009 % ga oshgan (0,051 - 0,042) . Bu o‘zgarish quyidagi omillar evaziga vujudga kelgan :

1. Foyda so‘mmasining 11,0 ming so‘mga (62,7 - 51,7) ko‘payishi rentabellik darajasini 0,009 % ga (0,051 - 0,042) oshirgan.

2. Asosiy kapitalning o‘rtacha qiymati hisobot davrida o‘tgan yilga nisbatan 11,2 ming so‘mga oshgan (997,2 - 985,6) . Ammo bu tegishli samara bermagan. Oqibatda rentabellik darajasi 0,001 % ga (0,050 - 0,051) kamaygan.

3. Aylanma kapitalning o‘rtacha yillik so‘mmasi tahlil davrida 13,5 ming so‘mga (231,5 -245,0) kamaygan. Bu o‘z navbatida aylanma kapital bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p omillar, xususan xarajatlarning kamayishiga olib kelgan. Oqibatda, rentabellik darajasi 0,001 % ga oshgan (0,051 - 0,050) .

Barcha omillar ta’sirida rentabellik darajasining umumiy faqi kelib chiqadi: 0,009 - 0,001 + 0,001 = + 0,009.

Shunday qilib, ta’kidlash lozimki, xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda zanjirli almashtirish usuli keng qo‘llaniladi. Eng muhimi bu usul ham boshqa usullar singari ichki imkoniyatlarni (rezervlarni) aniqlashga yordam beradi. Masalan, bizning oxirgi misolimizda ko‘rinib turibdiki

korxonaning rentabelligini oshirish uchun asosiy kapitalning samaradorligini oshirish lozim ekan.

2.3.5. Nisbiy miqdorlardan foydalanish usuli.

Bu usul ham omilli tahlilda keng qo‘llaniladi, chunki amalda mutloq raqamlar bilan birgalikda nisbiy miqdorlarning qo‘llanilishi ham tez uchrab turadilar.

Nisbiy miqdordan foydalanish usulining mohiyati natijaga omillar ta’sirini aniqlashda ularning nisbiy o‘zgarishi natijaning nisbiy o‘zgarishidagi ulushida ifodalanishidir. Masalan, ishlab chiqarish korxonasi yalpi mahsuloti hajmi (M), ishchilar soni (I) va ularning mehnat unumdorligi darajasiga (MU) bog‘liq. Bu quyidagi formulada ifodalandi :

M = I x MU

Nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalanish uchun ushbu formuladagi natija va omillarning o‘sish sur’atlari olinadi. Hisob-kitoblarda ana shu nisbiy ko‘rsatkichlar ishtirok etadi. Masalan, yalpi mahsulotning ishchilar sonining o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini topish uchun ishchilar sonining o‘sish sur’atini (ΔI) yuzga ko‘paytirib yalpi mahsulotning o‘sish sur’atiga bo‘linadi (ΔM) :

$$\Delta M_i = \frac{\Delta \mathrm{I} * 100}{\Delta \mathrm{M}}$$

Natijaga ikkinchi omilning - mehnat unumdorligining ta’sirini (ΔMmu) aniqlash uchun yuzdan shu chiqqan natija miqdori, ya’ni birinchi omilning natijaga ta’siri ayriladi :

$$\Delta M_{mu} = 100 - \frac{\Delta \mathrm{I} * 100}{\Delta \mathrm{M}}$$

Odatdagidek ikki omilning umumiy ta’siri natija o‘zgarishiga teng bo‘lishi kerak. Bu holda ikki omil ta’siri 100 ga teng bo‘ladi.

Masalan, yalpi mahsulot hisobot davrida 20 % ga, ishchilar soni esa 4 % ga oshdi. Bu holda yalpi mahsulotning ishchilar soni evaziga o‘zgarganligi 20 % ni tashkil qiladi :

$$\left(\frac{4 * 100}{20}\right)$$

Natijaning mehnat unumdorligi evaziga o‘zgarganligi 80 % ni (100 - 20) tashkil qiladi.

Bu usulni aniq ma’lumotlarni qo‘llab quyidagi javdal misolida ham ko‘rish mumkin (2.6-jadval).

2.6 - jadval

Nisbiy miqdolardan foydalanish usulini qo‘llab natijaga omillar ta’sirini hisoblash.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan Yilda	Hisobot yilida	O‘sish sur’ati
1. Yalpi mahsulot, ming so‘m (M)	29450	30245	102,7
2. Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni, kishi (I)	1980	2010	101,5
3. Mehnat unumdorligi, ming so‘m (MU)	14,9	15,0	100,7

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, yalpi mahsulot hajmining o‘tgan yilga nisbatan 2,7 % ga oshganligini ishchilarning 1,5 % ga ko‘payganligi va mehnat unumdorligining 0,7 % ga oshganligi evaziga vujudga kelgan. Bularning nisbiy ko‘rsatkichdagi ta’siri quyidagicha :

1. Yalpi mahsulotning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’atini 100 % ga teng deb olsak, uning 55,6 % (1,5. 100 : 2,7) ishchilar sonining ko‘payishi evaziga sodir bo‘lgan.

2. Yalpi mahsulot o‘sishining 44,4 % (100-55,6) mehnat unumdorligi oshishi evaziga vujudga kelgan.

Ushbu amallarni bajarib bo‘lgandan so‘ng natijaga omillar ta’sirini mutloq miqdorda ham aniqlash mumkin. Bizning misolimizda yalpi mahsulot hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 795,0 ming so‘mga (30245 - 29450) oshgan. Shundan 442,0 ming so‘mi (795,0 . 55,6 : 100) xodimlar sonining ko‘payganligi evaziga vujudga kelgan. Mehnat unumdorligi oshganligi evaziga yalpi mahsulot hajmi 353,0 ming so‘mga (795,0 . 44,4 : 100) ko‘paygan. Ikki omil ta’siri umumiy natijani beradi, ya’ni:

442,0 + 353,0 = + 795,0 ming so‘m.

2.3.6. Indeks usuli.

Bu usul statistika nazariyasi fanida batafsil yoritilgan. Tahlil fani buxgalteriya uchyoti va statistika fanlari asosida vujudga kelganligini oldingi boblarda ta’kidlagan edik. Shuningdek tahlil fani statistika fanining birqancha usullarida foydalanadi. Shulardan biri indeks usulidir.

Bu usul juda ko‘p qirrali mavzu. Biz esa ushbu bobda shu usulning omilli tahlilida qo‘llanilishini ko‘ramiz xolos.

Indeks usulida juda ko‘p qo‘llaniladigan bog‘lanish : mahsulot hajmining (Q) o‘zgarishi uning miqdori (q) va bahosiga (r) bog‘liq ekanligini ko‘rish mumkin. Mahsulotning rejadagi hajmini (q_o p_o) va haqiqatdagi hajmini (q_1 p_1) tegishli formulada ifodalab olinsa, uning reja bajarilish indeksi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi :

$$J_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_o p_o}$$

Mahsulotning hisobot davridagi o‘zgarishining mutloq miqdorini aniqlamoqchi bo‘lsak uning sur’atidan maxrajini ayirish kifoya :

$$\Delta Q = \sum q_1 p_1 - \sum q_o p_o$$

Formuladan ko‘rinib turibdiki natijaga ikkita omil ta’sir qiladi. Bu omillar ta’sirini hisoblash uchun birinchidan, mahsulot hajmining haqiqiy miqdorini rejadagi (asos yilidagi) narxda ifodalash lozim, ya’ni q_1 p_o. Natija o‘zgarishiga mahsulot miqdorining ta’sirini (ΔQ_q) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$\Delta Q_q = \sum q_1 p_o - \sum q_o p_o$$

Mahsulot hajmining baho evaziga o‘zgarganligini topish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir :

$$\Delta Q = \sum q_1 p_1 - \sum q_1 p_o.$$

Ushbu hisob - kitobni aniq ma’lumotlarni qo‘llab ham amalga oshirish mumkin (2.7-jadval).

2.7 - jadval

Mahsulot hajmining o‘zgarishiga uning miqdori va bahosining ta’sirini indeks usuli bilan aniqlash

Maxsulot turlari	**Miqdori, dona**		**Bahosi, so‘m**		**Mahsulot hajmi**	
	Rejada	**Haqi-qatda**	**Rejada**	**Haqi-qatda**	**Rejada**	**Haqi-qatda**
A	450	500	15	16	6750	8000
B	230	235	8	6	1840	1410
V	670	710	7	9	4690	6390
Jami					**13280**	**15800**

Jadval ma’lumotlari asosida mahsulot hajmi bo‘yicha rejaning bajarilish indeksi 1,190 ga teng :

$$Jqp = \frac{15800}{13280} = 1{,}190 \text{ yoki } 119{,}0\ \%.$$

Natijaning umumiy mutloq farqi 2520 so‘mni (15800 - 13280) tashkil qiladi. Mahsulot fizik hajmining agregat indeksi (mahsulotning rejadagi va haqiqatdagi miqdori bir xil bahoda hisoblanganda) quydagini tashkil qiladi:

$$J_q = \frac{\sum q_1 p_o}{\sum q_0 p_o} = \frac{(500 \times 15) + (235 \times 8) + (710 \times 7)}{13280} = \frac{14350}{13280} = 1{,}081 \text{ yoki } 108{,}1\ \%.$$

Shunday qilib, hisobot davrida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning miqdori ko‘payishi mahsulot hajmini rejadagiga nisbatan 8,1 % yoki 1070 so‘mga (14350 - 13280) oshirgan.

Baho agregat indeksi (suratida mahsulot miqdori va bahosi rejada) 1,101 ni tashkil qilgan.

Demak, mahsulotning umumiy hajmi baho omili ta’sirida 10,1% ga oshgan, mutloq miqdori esa 1450 so‘mga (15800 - 14350) ko‘paygan.

Natijada shu ikki omilning ta’siri nisbiy va mutloq miqdorda ham aniqlash mumkin. Ikki omil indeksining ko‘paytmasi umumiy indeksga teng bo‘lishi kerak:

1,,081 . 1,101 = 1,190

Natija o‘zgarishining mutloq miqdorini topish uchun shu ikki omil yig‘indisi olinadi:

1070 + 1450 = + 2520 so‘m

Indeks usulidan foydalanganda omillar ta’sirini individual indekslar orqali ham hisoblash mumkin. Masalan, poyafzal buyumlari bo‘yicha tovar oboroti hajmiga xizmat ko‘rsatilayotgan aholining soni (A), o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol darajasi (I) va o‘rtacha baho (R) ta’sir qiladi. Bu bog‘liqlik quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathbf{Q = A * I * R}$$

Bunda Q - poyafzal buyumlari bo‘yicha tovar oborotining umumiy hajmi.

Ushbu omillarning tovar oborotiga ta’sirini aniqlash uchun ularning individual indekslari aniqlanadi (3.8-jadval).

Poyafzal sotilishining umumiy hajmiga omillar ta’sirini individual indeksini qo‘llab echadigan bo‘lsak u quyidagi bog‘lanishga ega bo‘ladi :

$$\mathbf{JQ} = i_a * i_i * i_p$$

2.8 - jadval

Tovar oboroti o‘zgarishiga ko‘rsatkichlarning individual indekslarini aniqlash yo‘li bilan omillar ta’sirini hisoblash usuli.

Ko‘rsatkichlar	Asos yilida	Hisobot yilida	Individual indekslar
1. Aholining soni, ming kishi (A)	10,4	10,9	1,048
2. O‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol darajasi, juft (I)	2,6	2,9	1,115
3. O‘rtacha bahosi. so‘m (R)	36,2	37,4	1,034
4. Poyafzal mahsuloti bo‘yicha tovar oboroti, ming so‘m (Q)	978,8	1182,2	1,208

Natijaga omillar ta’siri quyidagicha aniqlanadi :

1. Aholi sonining asos yiliga nisbatan 0,5 ming kishiga (10,9 - 10,4) oshishi poyafzal mahsulotlariga bo‘lgan talabni oshirgan va shuning evaziga poyafzal sotilishining umumiy hajmi 47,0 ming so‘mga ko‘paygan :

$Qa = (Q_0 \cdot i_a) - Q_0 = (978,8 \cdot 1.048) - (978.8) = 1025.8 - 978,8 = +47.0$ ming so‘m.

2. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan poyafzal buyumlariga bo‘lgan iste’mol darajasining 0,3 juftga (2,9 - 2,6) oshishi poyafzal sotilishi hajmini ko‘paytirishning asosiy omili bo‘lgan. Bu omil ta’sirida o‘rganilayotgan ko‘rsatkich 118,0 ming so‘mga oshgan:

$Qi = (Q_0 \cdot i_a \cdot i_i) - (Q_0 \cdot i_a) = (1025,8 \cdot 1,115) - 1025,8 =$
$= 1148,8 - 1025,8 = +118,0$ ming so‘m.

3. Poyafzalning o‘rtacha bahosi 1,2 so‘mga oshgan. Bu omil evaziga tovar oboroti 38,4 ming so‘mga ko‘paygan:

$\Delta Q_r = (Q_0 \cdot i_a \cdot i_i \cdot i_r) - (Q_0 \cdot i_a \cdot i_i) = 1143,8 \cdot 1,034 - 1148,8 = 1182,2 - 1148,8 = +38,4$ ming so‘m.

Hamma omillar ta’sirining yig‘indisi poyafzal sotilishi umumiy hajmining hisobot yilida, asos yiliga nisbatan umumiy farqini beradi:

$$\Delta Q = \Delta Q_a \pm \Delta Q_i \pm \Delta Q_r = 47,0 + 118,0 + 38,4 = + 203,4 \text{ ming so‘m.}$$

Omilli tahlilda qo‘llaniladigan usullardan ancha qo‘layi indeks usulidir, chunki bu usulni qo‘llash jarayonida bir vaqtning o‘zida omillarning natijaga ham mutloq, ham nisbiy ta’sirini aniqlash mumkin.

3.3.7. Farqlash usuli. Ushbu usul natijaga omillar ta’sirini hisoblashda keng qo‘llaniladi. Xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bunda bir ko‘rsatkich natija deb qaralsa, shunga bog‘liq bo‘lgan qolgan ko‘rsatkichlar ta’sir qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladilar.

Farqlash usulining mohiyati shundaki, natija ko‘rsatkichiga omillar ta’sirini aniqlash uchun hisoblanayotgan omilning farqi olinib qolgan omillarning joylashish tartibiga qarab asos yoki hisobot davridagi miqdori olinadi. Masalan, natija ko‘rsatkichi (tovar oboroti) bilan unga ta’sir qiluvchi omillar: xodimlarning ro‘yxatdagi soni (X) va mehnat unumdorligi (MU) o‘rtasidagi bog‘lanish quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\mathbf{T} = \boldsymbol{X} * \boldsymbol{MU}$$

Ushbu formuladagi omillarning ta’sirini farqlash usuli bilan aniqlaydigan bo‘lsak, birinchi omil, ya’ni xodimlarning ro‘yxatdagi sonining tovar oborotiga ta’sirini (ΔT_x) hisoblash uchun shu omilning farqini (X_1-X_0) ikkinchi omil, ya’ni mehnat unumdorligining asos (reja) ko‘rsatkichiga (MU_0) ko‘paytiriladi:

$$\boldsymbol{\Delta T_x = (X_1 - X_0) * Mu_0}$$

Ikkinchi omil, ya’ni mehnat unumdorligining tovar oboroti hajmi o‘zgarishiga ta’sirini (ΔTmu) topish uchun shu omilning farqi olinadi (MU_1 - MU_0) birinchi omil - xodimlarning o‘rtacha yillik ro‘yxatdagi sonining hisobot davridagi miqdoriga (X_1) ko‘paytiriladi:

$$\boldsymbol{\Delta T_{mu} = X_1 * (Mu_1 - Mu_0)}$$

Shu ikki omilning ta’siri natijaning umumiy farqiga teng bo‘lishi lozim:

$$\Delta T = \Delta T_x \pm \Delta T_{mu}$$

Ushbu bog‘lanishni aniq misollar yordamida ko‘rib chiqish mumkin. Bu esa tavsiya qilinayotgan nazariy hisob-kitoblarning amaliyotga qullanilishidan ham dalolat beredi (2.9 - jadval).

2.9 - jadval

Tovar oboroti hajmiga xodimlarning ro‘yxatdagi soni va mehnat unumdorligi o‘zgarishining ta’sirini farqlash usuli bilan aniqlash yo‘llari.

Ko‘rsatkichlar	Reja -da	Haqi-qatda	Farqi (+,-)		
			Jami	Shu jumladan	
				Xodimlar soni evaziga	Mehnat unumdor-ligi evaziga
1. Xodimlarning o‘rtacha yillik ro‘yxatdagi soni, kishi	8038	8057	+ 19	x	X
2. Mehnat unumdorligi, so‘m	6282,0	6365,5	83,5	x	x
3. Tovar oboroti, ming so‘m	50495	51287	+792,0	+119,3	+ 672,7

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tovar oboroti rejaga nisbatan 792,0 ming so‘mga ko‘p bo‘lgan. Bunga quyidagi omillar ta’sir qilgan :

1. Xodimlarning o‘rtacha yillik ro‘yxatdagi sonining 19 kishiga ko‘payganligi tovar oboroti hajmini 119,3 ming so‘mga ko‘paytirgan: (19 . 6282,0 = + 119,3)

2. Hisobot yilida mehnat unumdorligining 83,5 so‘mga ko‘payishi tovar oborotini 672,7 ming so‘mga ko‘paytirishga muvoffaq bo‘lgan:

(8057 . 83,5 = + 672,7).

Ushbu ikki omil ta’siri tovar oborotining umumiy farqiga teng :

119,3 + 672,7 = + 792,0 ming so‘m.

Farqli usuli natijaga ta’sir etuvchi omillar soni uchta va undan ortiq bo‘lgan taqdirda ham, agar ular o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘paytirish bilan ifodalansa, qo‘llanilishi mumkin. U holda natijaga birinchi omilning ta’sirini topish uchun uning farqini qolgan ikki omilning rejadagi

miqdoriga ko‘paytiriladi. Chiqqan natija birinchi omil ta’siri bo‘lib hisoblanadi.

Natija o‘zgarishiga ikkinchi omilning ta’sirini topish uchun birinchi omilning haqiqiy miqdori ikkinchi omilning farqiga va uchinchi omilning rejadagi darajasiga ko‘paytiriladi. Chiqqan natija shu omilning ta’siri bo‘lib hisoblanadi.

Natijaga uchinchi omilning ta’siri ham xuddi shu tartibda hisoblanadi. Unda birinchi va ikkinchi omillarning haqiqiy miqdoriga uchinchi omilning farqi ko‘paytiriladi. Chiqqan natija uchinchi omil ta’siri bo‘lib hisoblanadi. Misol uchun quyidagi matematik bog‘liqlikni olaylik :

$$\mathbf{T} = \boldsymbol{SH} * \boldsymbol{Msh} * \boldsymbol{Tm}.$$

Bunda : T - tovar oboroti hajmi ;
SH - savdo shaxobchalarining o‘rtacha soni ;
Msh- har bir savdo shaxobchasiga to‘g‘ri keladigan savdo maydoni ;
Tm - bir kv. m. savdo maydoniga to‘g‘ri keladigan tovar oboroti hajmi .

Tovar oboroti o‘zgarishiga savdo shaxobchalari soni o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi :

$$\Delta T_{sh} = (SH_1 - SH_0) * Msh_0 * Tm_0$$

Chakana tovar oborotining bitta savdo shaxobchasiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha savdo maydoni o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi :

$$\boldsymbol{\Delta T_{msh} = SH_1 * (Msh_1 - Msh_0) * Tm_0}$$

Chakana tovar oboroti hajmining bir kv.m. savdo maydoniga to‘g‘ri keladigan tovar oboroti evaziga o‘zgarishini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz :

$$\boldsymbol{\Delta T_{tm} = Sh_1 * Msh_1 * (Tm_1 - Tm_0)}$$

Odatdagidek barcha omillar ta’siri tovar oborotining umumiy farqiga teng bo‘lishi lozim :

$$\boldsymbol{\Delta \mathbf{T} = \Delta T_{sh} \pm \Delta T_{msh} \pm \Delta T_{tm}}$$

Yuqorida keltirilgan usulning amaliyotda qo‘llanilishini aniq ma’lumotlarni qo‘llab isbotlash mumkin (2.10-jadval).

2.10 - jadval

Tovar oborotining o‘zgarishiga savdo shaxobchalari, ularning savdo maydoni va samaradorligining ta’sirini farqlash usuli bilan aniqlash hisobi.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,-)
1. Savdo shaxobchalarining soni, birlikda	128	130	+ 2
2. Bitta savdo shaxobchasiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha savdo maydoni,kv.m.	4,1	4,5	+0,4
3. Bir kv.m. savdo maydoniga to‘g‘ri keladigan tovar oboroti, ming so‘m	47,34	45,17	- 2,17
4. Tovar oboroti, ming so‘m	24845,6	26425,2	+ 1579,6

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki chakana tovar oboroti hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 1579,6 ming so‘mga ko‘paygan. Bu o‘zgarishga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan:

1. Savdo shaxobchalari sonining 2 taga ko‘payganligi tovar oboroti hajmini 388,2 ming so‘mga (2 . 4,1 . 47,34) ko‘paytirgan.

2. Bitta savdo shaxobchasiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha savdo maydonining 0,4 kv.m. ga ko‘payishi tovar oborotini 2461,9 ming so‘mga oshirgan : (130 . 0,4 . 47,34) .

3. Savdo maydoni samaradorligining, ya’ni bir kv.m. savdo maydoniga to‘g‘ri keladigan tovar oborotining 2,17 ming so‘mga pasayishini tovar oboroti hajmini 1268,5 ming so‘mga kamaytirgan: (130 . 4,5 . (- 2,17)).

Barcha omillarning ta’siri natijaning umumiy farqiga teng :

388,2 + 2461,9 - 1268,5 = + 1579,6 ming so‘m.

Ushbu omilli tahlil natijasiga asosan mazkur korxonada mavjud ichki imkoniyatlarni aniqlash mumkin. Bu imkoniyat savdo maydonidan samarali foydalanishdir. Agar hisobot yilida ushbu omil o‘tgan yilgi darajada bo‘lganda edi tovar oboroti yana 1268,5 ming so‘mga ko‘paygan bo‘lar edi. U holda tovar oborotining haqiqiy hajmi 26425,2 ming so‘m emas, balki 27693,7 ming so‘mga teng bo‘lar edi:

(26425,2 + 1268,5).

Tovar oborotining rejasi yoki o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati ham oshgan bo‘lar edi. hisobot davrida tovar oborotining o‘sish sur’ati 6,4 foizni tashkil qildi:

(26425,2 : 24845,6 . 100) - 100).

Agarda aniqlangan ichki rezevlardan to‘liq foydalanilganda edi hisobot yilida tovar oborotining o‘sish sur’ati 111,5 foizni tashkil qilgan bo‘lar edi:

(27697,3 : 24845,6 . 100) .

3.3.8. Integral usul.

Bu usul bir tomondan an’anaviy usullarga , ikkinchidan esa matematik usulga mansub takomillashgan usuldir. Natija ko‘rsatkichiga alohida omillar ta’sirini integral usuli bilan aniqlash farqlash, zanjirli almashtirish kabi usullarning takomillashgan shaklidir. Integral usulining ijobiy tomonidan biri shundan iboratki, agarda zanjirli almashtirish yoki farqlash usullarida omillar, ketma-ketligi o‘zgarsa, ularning natija o‘zgarishiga ta’sir har xil bo‘ladi. Bu usulda esa u yoki bu omilning ta’sirini hisoblashda ketma-ketlikka rioya qilishni talab qilmaydi. Omillarning ketma-ketligi o‘zgarishidan qat’iy nazar omillar ta’siri hamisha bir xil, eng muhimi to‘g‘ri topiladi.

Integral usuli determinal omili tahlilning bosh muammosini tushuntirishga yordam beradi. Bitta hisobot davr chegarasida omillar o‘zgarishi dinamikasi aniq bo‘lgan taqdirda omillar ta’sirini faqat integral usuli bilan ilmiy asoslab baholash mumkin.

Integral usuli bilan bog‘liq hisoblar bir tarafdan matematik tahlil asoslarini bilishni talab qilsa, boshqa tomondan zanjirli almashtirish usuliga nisbatan hisoblarni bajarishni taqozo qiladi. Shu sababli bu usulning qo‘llanilishi EXM sharoitida yaxshi samara beradi. Natija ko‘rsatkichga omillar ta’sirini hisoblashning turli shakllari mavjud. Natijaga ikkita omil ta’sir qiladigan bo‘lsa, quyidagi bog‘liqlik bo‘ladi :

$$\mathbf{U} = \boldsymbol{X_1} * \boldsymbol{X_2}$$

Bu holda omillar ta’siri quyidagicha aniqlanadi :

Natija o‘zgarishiga birinchi omilning ta’siri:

$$\Delta\, \boldsymbol{U_{x1}} = \boldsymbol{X_2^0} * \Delta \boldsymbol{X_1} + (\frac{\mathbf{1}}{\mathbf{2}} (\Delta \boldsymbol{X_1} * \Delta \boldsymbol{X_2}))$$

Natija o‘zgarishiga ikkinchi omilning ta’siri:

$$\Delta U_{x2} = X_1^0 * \Delta X_2 + (\frac{1}{2}(\Delta X_1 * \Delta X_2))$$

Yuqoridagi formulalarga asosan, natija ko‘rsatkichlariga omillar ta’sirini hisoblashni aniq misollarda ko‘rib chiqamiz. Masalan, mahsulot hajmiga ishlab chiqarish fondlari va ular samaradorligining ta’sirini hisoblash talab qilinsin. (2.11-Jadval).

2.11 - Jadval.

Yalpi mahsulotga asosiy fondlar va ular samaradorligining ta’sirini integral usulida aniqlash

Ko‘rsatkichlar	Shartli belgilari	Rejada	Haqiqat-da	Farqi (+,-)
Yalpi mahsulot, ming so‘m	M	43420	45850	+ 2430
Asosiy fondlarining o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m	AF	47115	47825	+ 710
Fondlar samaradorligii (bir so‘m fondga to‘g‘ri keladigan tovar mahsuloti), tiyin	FS	92,16	95,87	+ 3,71

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida natijaning o‘zgarishiga omillar ta’sirini integral usulida aniqlash mumkin.

1. Yalpi mahsulotning asosiy fondlar o‘rtacha yillik qiymati ta’siri evaziga o‘zgarishi 668,5 ming so‘mni tashkil qildi.

$$\Delta M_f = 710 * 92.16 + \frac{710*3.71}{2} = + 668{,}5 \text{ ming s}\bar{y}\text{m.}$$

2. Yalpi mahsulotning fondlar samaradorligi ta’siri evaziga o‘zgarishi 1761,5 ming so‘mni tashkil qildi :

$$\Delta M_{fs} = 3.71 * 47115 + \frac{710*3.71}{2} = + 1761{,}5 \text{ ming so‘m.}$$

Ikki omilning ta’siri birgalikda yalpi mahsulotning umumiy farqini beradi 668,5 + 1761,5 = + 2430 ming so‘m.

Natija o‘zgarishi uchta omilga bog‘liq bo‘lgan sharoitda integral usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan , “U” natija X_1 , X_2 , X_3 omillar o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lsa tenglama quyidagicha bo‘ladi :

$$U = X_1 * X_2 * X_3$$

Bu holda natija o‘zgarishga birinchi omilning ta’siri (ΔUx_1) quyidagicha aniqlanadi :

$$\Delta U_{x1} = \frac{1}{2}\Delta X_1 * \left(X_2^0 * X_3^1\right) + \left(X_2^1 * X_3^1\right) + \frac{1}{3}(\Delta X_1 * \Delta X_2 * X_3)$$

Natija o‘zgarishiga ikkichi omilning ta’sirini (ΔUx_2) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi :

$$\Delta U_{x2} = \frac{1}{2}\Delta X_2 * \left(X_1^0 * X_3^1\right) + \left(X_1^1 * X_3^0\right) + \frac{1}{3}(\Delta X_1 * \Delta X_2 * X_3)$$

Natija o‘zgarishiga uchinchi omilning ta’sirini (ΔUx_3) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi :

$$\Delta U_{x3} = \frac{1}{2}\Delta X_3 * \left(X_1^0 * X_2^1\right) + \left(X_1^1 * X_2^0\right) + \frac{1}{3}(\Delta X_1 * \Delta X_2 * X_3)$$

Ushbu nazariy usulni aniq ma’lumotlar qo‘llab amaliyotda foydalanish yo‘lini ko‘rib chiqamiz. Faraz qilaylik , tovar zaxirasining aylanish tezligi savdo zalida band bo‘lgan xodimlar mehnat unumdorligi (X_1) , ularning umumiy xodimlardagi ulushi (X_2) va tovar zaxiralarining xodimlar bilan ta’minlanganligi (X_3) ga bog‘liq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi :

$$\mathbf{U} = X_1 * X_2 * X_3$$

Ushbu bog‘liqlikni amaliy ma’lumotlar yordamida quyidagi jadvalda ko‘rib chiqiladi (2.12-jadval).

2.12 - jadval.

Tovar zaxiralari aylanish tezligiga ta’sir etuvchi omillarni integral usul bilan aniqlash yo‘llari.

Ko‘rsatkichlar	Shartli belgilar	Rejada	Haqiqatda	Farqi (+,-)
1.Savdo zali xodimlarining mehnat unumdorligi, ming so‘m	X_1	120,5	122,1	+ 1,6
2.Savdo zali xodimlarining umumiy xodimlardagi ulushi, %	X_2	65,2	63,4	- 1,8
3.Tovar zaxiralarining xodimlar bilan ta’minlanganligi, kishi	X_3	40,5	42,1	+ 1,5
4.Tovar zaxiralarining aylanish tezligi,marta	U	3,18	3,26	+ 0,08

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tovar zaxiralarining aylanish tezligiga savdo zali xodimlarining mehnat unumdorligi, savdo zali xodimlarining umumiy xodimlar sonidagi ulushi va xodimlarning tovar zaxiralari bilan ta’minlanganligi ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarning tovar zaxiralarning aylanish tezligiga ta’sirini topish uchun yuqorida keltirilgan bog‘lanishdan va integral usulidan foydalaniladi.

1. Savdo zali xodimlarnining mehnat unumdorligi oshishi tovar zaxiralari aylanish tezligini 0,05 marta oshirgan :

$$\Delta U_{x1} = \frac{1}{2} 1{,}6 * (65{,}2*12{,}1+63{,}4 * 40{,}5) + \frac{1}{3} 1{,}6 * (-1{,}8) * 1{,}5 =$$

$$= 0{,}8*(2744{,}92+2567{,}7)-1{,}44=0{,}8 * 5312{,}62-1{,}44=4250{,}1-1{,}44$$

= 4248,7 yoki 0,05 marta.

2. Savdo zali xodimlarining umumiy xodimlar sonidagi hissasining kamayishi o‘rganilayotgan ko‘rsatkichni rejaga nisbatan 0,09 martaga kamaytirgan:

$$\Delta U_{x2} = \frac{1}{2}(-1{,}8)* (120{,}5 * 42{,}1 + 122{,}1 * 40{,}5) + \frac{1}{3} 1{,}6 * (- 1{,}8) *1{,}5 =$$

$$=1{,}9 * (5073{,}05 + 4945{,}05)-1{,}44 =-0{,}9 * 10018{,}1 - 1{,}44 = - 9016{,}29 - 1{,}44 = - 0{,}9 * 10018{,}1 - 1{,}44 = - 9016{,}29 - 1{,}44 = - 9017{,}7$$ yoki - 0,09.

3. Tovar zaxiralarining xodimlar bilan ta’minlanganligining oshishi tovar zaxiralari aylanish tezligini ham 0,12 martaga oshirgan:

$$\Delta U_{x3} = \frac{1}{2} 1{,}5 (120{,}5 . 63{,}4 + 122{,}1 . 65{,}2) + \frac{1}{3} . 1{,}6 . (- 1{,}8) . 1{,}5 =$$

$$= 0{,}75 (7639{,}7 + 7960{,}2) - 1{,}44 = 0{,}75 (15600{,}62-1{,}44) =11700{,}5 - 1{,}44 =$$

= 11699,0 yoki 0,12 marta.

Hamma omillarning yig‘indisi natija o‘zgarishining umumiy farqiga teng bo‘ladi :

$$\Delta U =\Delta U_{x1} * \Delta U_{x2} * \Delta U_{x3} = 0{,}05 - 0{,}09 + 0{,}12 = + 0{,}08 \text{ marta.}$$

Amalda natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqliklar kasrli bo‘lishi ham mumkin. Masalan, mehnat unumdorligi (U) tovar oborotining hajmi (X_1) va xodimlar soni (X_2) bilan bevosita bog‘liqdir. Bu holda quyidagi tenglama kelib chiqadi:

$$\boldsymbol{U = \frac{X_1}{X_2}}$$

Ushbu formulaga integral usulini qo‘llab natijaga birinchi omilning, ya’ni tovar oboroti o‘zgarishining ta’sirini aniqlash lozim bo‘lsa quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\boldsymbol{\Delta U_{x1} = \left(\frac{\Delta X_1}{\Delta X_2}\right) * ln\left(\frac{X_2^0}{X_1^0}\right)}$$

Natijaning ikkinchi omil evaziga o‘zgarishini topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi :

$$\boldsymbol{\Delta U_{x2} = \Delta U - \Delta U_{x1}}$$

Juda ko‘p hollarda ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik darajasiga ta’sir qiluvchi omillarni hisoblashga to‘g‘ri keladi. Bu bog‘liqlikni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin :

$$U = \frac{X_1}{X_2 + X_3}$$

Bunda U - rentabellik darajasi ; X_1 - foyda summasi ;
X_2 - asosiy kapitalning o‘rtacha qiymati ;
X_3 - aylanma kapitalning o‘rtacha qiymati.

Ushbu formulaga asosan rentabellik darajasiga barcha omillarning ta’sirini aniqlash mumkin.

1. Rentabellik darajasining foyda summasi evaziga o‘zgarishini topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi :

$$\boldsymbol{\Delta U_{x1} = \frac{\Delta X_1}{\Delta X_2 + \Delta X_3} \ln\left(\frac{X_2^1 + X_3^1}{X_2^0 + X_3^0}\right)}$$

2.Rentabellik darajasining o‘zgarishiga asosiy kapitalninig ta’sirini (ΔUx_2) topish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir :

$$\Delta U_{x2} = \frac{\Delta U - \Delta U_{x1}}{\Delta X_2 + \Delta X_3} * \Delta X_2$$

3. Aylanma mablag‘lar (kapital) summasi o‘zgarishining rentabellik darajasiga ta’sirini topish uchun (ΔUx_3) quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$\Delta U_{x3} = \frac{\Delta U - \Delta U_{x1}}{\Delta X_2 + \Delta X_3} * \Delta X_3$$

Umumiy natijaning o‘zgarishi (Δ U) shu uchta omil ta’siriniga teng bo‘lishi kerak :

$$\Delta \text{ U } = \Delta U_{x1} \pm \Delta U_{x2} \pm \Delta U_{x3}$$

Shuni ta’kidlash lozimki, integral usuli ancha murakkab bo‘lib, ko‘proq mehnat va ortiqcha xarajatlar talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, omillar bo‘yicha farq unchalik katta bo‘lmagan taqdirda, ya’ni 10 % gacha bo‘lganda integral usuli bilan aniqlangan omillar ta’sirini zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlangani kabi deyarli farq qilmaydi. Bunday hollarda, ishni osonlashtirish maqsadida zanjirli almashtirish usulidan bemalol foydalanish mumkin. Agar omillar ketma-ketligi to‘g‘ri aniqlanib qo‘yilgan bo‘lsa barcha hollarda ham zanjirli almashtirish usulidan bemalol foydalanaverish mumkin.

Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishdan asosiy maqsad har bir ishlab chiqaruvchi, xizmat qiluvchi yoki boshqa faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mavjud bo‘lgan ichki imkoniyatlarni axtarib topishdan iboratdir. Bu tahlilda qo‘llaniladigan barcha usullar bilan ham aniqlanishi mumkin. Biroq tahlilchi qaysi usulni qachon qo‘llashni yaxshi bilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, tahlilda qo‘llaniladigan usullarni mukammal o‘zlashtirib olishni taqozo qiladi.

Kelajakda tahlilni takomillashtirish faqat unda qo‘llaniladigan usullarni takomillashtirib qolmasdan, balki faoliyatni to‘g‘ri ifodalaydigan ko‘rsatkichlarni ham tokomillashtirishni talab qiladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan bir paytda iqtisodiy ko‘rsatkichlar ham o‘zgarmoqda. Milliy hisob tizimi buxgalteriya hisobining milliy andozalari joriy qilinmoqda. Amaliyotda esa shularga mos ko‘rsatkichlar vujudga kelmoqda. Bular esa buxgalteriya va statistik hisobotlardagi ko‘rsatkichlar tizimiga ham tegishli o‘zgarishlar kiritishni taqozo qiladi.

2.3.9. Kichik sonlardan foydalanish usuli.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy - xo‘jalik faoliyatini to‘g‘ri va haqqoniy baholash lozimligini hayot taqozo qilmoqda. Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy faoliyat natijasini baholashning asosiy mezoni umumlashgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha rejaning bajarilishi edi. Endilikda faqat bunday ko‘rsatkichlar bilan natijaga to‘g‘ri baho berib bo‘lmaydi. Bu kamchilikni bartaraf qilish uchun tahlilda qo‘llaniladigan kichik sonlar usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bu usulning mohiyati shundaki, agar firma birdaniga birqancha faoliyat bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, yoki birqancha mahsulot ishlab chiqarayotgan bo‘lsa hammasidan foyda olishi, manfaatdor bo‘lishi lozim. Aks holda, hozirgi sharoitda bir qism faoliyat samarasiz bo‘ladi, u faqat firmaga zarar keltiradi. Masalan, firma 5 ta faoliyat bilan shug‘ullanadi deb faraz qilamiz. Uning natijasi quyidagicha (2.13-jadval).

2.13 - jadval.

Firma shug‘ullanayotgan faoliyat bo‘yicha moliyaviy natijaning holati.

Faoliyat turlari	**Sotish qiy-mati (daro-mad)**	**Tannarxi (xarajat-lari)**	**Foyda + (zarar)**	**Hisoblangan xarajati (tannarxi)**
1. Kiyim tikish	48530	41371	+7159	41371
2. Meva sharbati ishlab chiqarish	22450	23542	- 1092	22450
3. Savdo	51230	56213	- 4983	51230
4. Maishiy xizmat	4150	3186	+965	3186
5. Binolarni ta’mir-lash	11342	10111	+1231	10111
Jami :	137703	134423	+3280	128348

Firma shug‘ullanadigan beshta faoliyat bo‘yicha 3280 ming so‘m foyda olishga muvoffaq bo‘lgan. Umuman olganda bu ko‘rsatkich yomon natija emas. Ammo firma shug‘ullanayotgan beshta faoliyatning

ikkitasi zarar bilan yakunlangan. Oqibatda bu zarar qolgan uchta faoliyat evaziga qoplanib ketilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday natija bilan tugallanishi maqsadga muvofiq emas. Firma yoki boshqa xo‘jalik sub’ekti hozirgi sharoitda har qanday faoliyatdan foyda olishi lozim. Shu tufayli ushbu tahlil qilayotgan firmani 3280 ming so‘m foyda

olib ishlabdi deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Bu foyda zamirida uning qilgan zararlari ham qoplanib ketilgan. Shu tufayli bu jarayondan to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun kichik sonlar usulini qo‘llab echamiz.

Firma kiyim tikish bo‘yicha yaxshi ishlagan. Xuddi shunday hol maishiy xizmat va binolarni ta’mirlashda ham sodir bo‘lgan. U holda sotilgan mahsulot xarajatga nisbatan ko‘p bo‘lganligi tufayli kichik sonlar bilan hisoblanishi zarur bo‘lgan summaga harajatlar summasini olamiz. Meva sharbati ishlab chiqarishda va savdoda harajatlar ko‘p bo‘lgan. Ularni sotish qiymati darajasida bo‘lishi kerak edi deb faraz qilamiz va shu tur faoliyatlar bo‘yicha harajatlarni sotish qiymati miqdorida olamiz. Hammasi qo‘shilib chiqiladi va aniqlangan summasini haqiqiy harajat bilan solishtirib ko‘rilsa boshqa faoliyat evaziga qancha harajat qoplanganligi aniqlanadi. Bizning misolimizda bu miqdor 6075 ming so‘mni (134423 - 128348) tashkil qiladi, ya’ni ikkita zarar bilan ishlayotgan faoliyatning 6070 ming so‘m harajati (1092 + 4983) qolgan uchta faoliyat evaziga qoplanganligi aniqlanadi.

Ushbu usul orqali firma faoliyati mavjud bo‘lgan ichki imkoniyatlar aniqlanadi. Agar ushbu firma shu ikki faoliyat bo‘yicha zarar ko‘rmay ishlaganda, ya’ni uning faoliyatining foydalilik nuqtasi nolga teng bo‘lganda qancha foyda olish lozimligini aniqlash mumkin. Bu holda firma 3280 ming so‘m emas, balki 9355 ming so‘m (137703 - 128348) foyda olish mumkin ekan.

Kichik sonlarni reja bajarilishida ham qo‘llash mumkin. Firma 4 ta mahsulot ishlab chiqaradi deb faraz qilamiz. Bu bo‘yicha firma quyidagicha natijaga ega (2.14-jadval).

2.14 - jadval.

Firmaning mahsulot ishlab chiqarishi bo‘yicha biznes rejasining bajarilishi.

(ming so‘m)

Mahsulot turlari, nomlari	**Rejada**	**Haqiqat-da**	**Reja va ha-qiqatdagi kichik sonlar**	**Rejaning bajari-lishi**
O‘simlik yog‘i	5000	5000	5000	100,0
Sovun	6000	6100	6000	101,7
Kunjara	7000	6800	6800	97,1
Sariq yog‘	4000	4150	4000	103,8
Jami :	22000	24050	21800	109,3

Ushbu firmada reja 109,3 foizga bajarilganligi ushbu jadval natijasidan ko‘rinib turibdi. Ammo kunjara bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasi 2,9 foiz bajarilmaganligi tufayli umumiy ko‘rsatkichning miqdori 99,1 foizni tashkil qiladi.

(21800 : 22000) . 100 = 99,1 %

2.4. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan matematik modellarning tiplari

Iqtisodiy tahlil jarayonida juda ko‘p matematik modellar qo‘llaniladi. Ularning ko‘p uchraydiganlri qo‘yidagilardir: additiv model, multiplikativ model , kasirli model .

Additiv model natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik qo‘shuv bilan ifodalanganda qo‘llaniladi . Masalan , “U” natija birqancha omillar (X_1 , X_2 , . . . , X_p) yig‘indisidan iborat deb faraz qilamiz . U holda addititiv modelning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$\boldsymbol{U = \sum_{i=1}^{p} X_i = X_1 + X_2 + X_3 + \cdots + X_p}$$

Bunda ∑ - yig‘indi belgisi ; i - omillarning tartib soni (i = 1,p); p - omillarning umumiy soni ; Xi - i - omilning nomi .

Ushbu model amaliyotda juda ko‘p qo‘llaniladi. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlariga qarashli korxonalar ishlab chiqargan tovar mahsulotlarining hajmi, ularda band bo‘lgan ishchi va xizmatchilarining umumiy ro‘yxatdagi soni va h.k. Faraz qilamiz ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyatiga 10 ta kichik korxona qaraydi. Ularning har biri har xil hajmda mahsulot ishlab chiqargan. Barcha ishlab chiqargan mahsulotni aniqlash uchun additiv modeldan foydalanganda quyidagi formulaga ega bo‘linadi :

$$\boldsymbol{U = \sum_{i=1}^{10} X_i = X_1 + X_2 + X_3 + \cdots + X_{10}}\ \textbf{(i=1,10)}$$

Multiplikativ model ham tahlilda keng qo‘llaniladi. Bu model natija bilan omilning o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘paytirish bilan

ifodalanganda qo‘llaniladi. Masalan, “U” natija birqancha omillar (X_1, X_2, X_3 . . . , X_p) ko‘paytmasidan iborat deb faraz qilamiz. U holda multiplikativ modelning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$\boldsymbol{U = \prod_{i=1}^{p} X_i = X_1 * X_2 * X_3 * ... * X_p \quad (i=1,p)}$$

Bunda $\prod$ - ko‘paytirish belgisi ; i - omillarning tartib soni ;
$(i = 1,p)$; p - omillarning umumiy soni ;
Xi - i - omilning nomi.

Ushbu model ham tahlilda keng qo‘llaniladi, chunki juda ko‘p natija amaliyotda omilning ko‘paytmasidan iborat bo‘ladi. Masalan, tovar oborotining hajmiga ta’sir qiluvchi moddiy texnika bazasi bilan bog‘liq omillarni olaylik. Unga savdo shaxobchalarning soni (Sh), har bir savdo shaxobchasiga to‘g‘ri keladigan savdo maydoni (Msh), har bir kv.m. savdo maydoniga to‘g‘ri keladigan tovar oboroti (Tm) ta’sir qiladi. Natija bilan ushbu omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\mathbf{T} = \boldsymbol{SH * Msh * Tm}$$

Agar har bir omilni mos ravishda ketma-ket X_1 , X_2 , X_3 deb belgilasak, bu holda multiplikativ modelning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$$\boldsymbol{U = \prod_{i=1}^{3} X_i = X_1 * X_2 * X_3 \quad (i=1,3)}$$

Kasrli model ham tahlilda keng qo‘llaniladigan modellardan. U asosan natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘lish bilan ifodalanganda qo‘llaniladi. Bunga juda ko‘p misollar keltirish mumkin. Masalan, mehnat unumdorligi tovar oboroti hajmining xodimlarning ro‘yxatdagi soniga nisbati bilan aniqlanadi. Rentabellik darajasi foyda so‘mmasining tovar oborotiga nisbati bilan aniqlanadi. Fondlarning samaradorligi tovar oborotining fondlarning o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi va h. k.

Bunday hollarda kasrli model birqancha ko‘rinishga ega bo‘ladi :

$$U = \frac{X_1}{X_2} \qquad U = \frac{\sum_{i=0}^{n} X_i}{n} \qquad U = \frac{X_i}{\sum_{i=0}^{n} X_i}$$

Kasrli modelda bir vaqtning o‘zida hamma model turlari qo‘llanilishi mumkin. Ba’zan sur’atda additiv model bo‘lsa, maxrajida multiplikativ model bo‘lishi mumkin. Sur’atida multiplikativ model bo‘lishi maxrajida bitta omil ham ishtirok etishi mumkin. Amaliyotda sur’atida ham maxrajida ham bir xil modellar ishtirok etishlari ham mumkin.

“Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo‘llaniladigan usullar” mavzusi bo‘yicha TAYANCH IBORALAR

- fan metodining tushunchasi;
- iktisodiy taxlil metodining muhim hususiyatlari;
- iqtisodiy tahlilning an’anaviy usullari;
- taqqoslash usuli;
- guruhlashtirish usuli;
- absolyut va nisbiy ko‘rsatkichlarni aniqlash usuli;
- balansli bog‘liqlik usuli;
- zanjirli bog‘lanish usuli.
- iqtisodiy-matematik usullarining turlari;
- integral usuli;
- korrelyasion va regratsion usullar;
- evrestik tahlil;
- nazariy o‘rin va nazariy xizmat ko‘rsatish usullari

Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo‘llaniladigan usullar” mavzusi bo‘yicha NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy tahlil fanining metodologik asoslari va ularning tavsifi?
2. Tahlilda analiz va sintez, induksiya va deduksiya va boshqa uslublardan foydalanish qanday amalga oshiriladi?
3. Solishtirish usuli qanday usul?
4. Muvozanat usuli qanday usul?
5. Ḳayta hisoblash usuli qanday usul?
6. Zanjirli almashtirish usuli qanday usul?
7. Nisbiy miqdorlardan foydalanish usuli qanday usul?
8. Indeks usuli qanday usul?

9. Farqlash usuli qanday usul?

10. Integral usuli qanday usul?

11. Kichik sonlardan foydalanish usuli qanday usul?

12.Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan matematik modellarning tiplari nimalardan iborat?

Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan usullar" mavzusi bo'yicha
TEST SAVOLLARI

1. Natija ko'rsatkichiga omillar ta'sirini aniqlash uchun hisoblanayotgan omilning farqi, qolgan omillarning asos yoki hisobot davri miqdorlari olinib hisoblansa, qaysi usulga kiradi?

a) Farqli usuli
b) Indeks usuli
c) qayta hisoblash usuli
d) integral usuli

2. Natijaga omillar ta'sirini hisoblashda omillarning ketma-ketligiga rioya qilmasdan hisoblash mumkin bo'lgan usul qanday usul?

a) Integral usuli
b) Indeks usuli
c) qayta hisoblash usuli
d) farqli usul

3. Natija o'zgarishiga uchta va undan ko'p omillar ta'sir qilsa, ular o'rtasidagi bog'liqlik funktsional bo'lsa, qaysi usuldan foydalanilmaydi?

a) korrelyatsion va regression tahlil
b) zanjirli almashtirish hamda indeks
c) qayta hisoblash hamda muvozanat
d) integral

4. Parchalab o'rganilgan jarayonlarni umumlashtirish -

a) sintez
b) analiz
c) deduktsiya
d) induktsiya

5. Tahlil vujudga kelgandan buyon qo'llanilib kelinayotgan usullar qanday usullar?

a) an’anaviy
b) matematik
c) doimiy
d) tahliliy

6. Tashqi iste’molchilar o‘tkazadigan tahlil qanday tahlil?

a) moliyaviy
b) iqtisodiy
c) boshqaruv
d) stoxastik

7. Odatda tahlil ..... dan boshlanadi?

a) taqqoslash
b) guruhlash
c) omillarni aniqlash
d) modellashtirish

8. y-x1*x2*x3*…*xn. Bu formula qaysi modelda ifodalangan?

a) multiplakativ
b) additiv
c) kasrli
d) matematik

9. y-x1 +x2+x3+…+xn. Bu formula qaysi modelda ifodalangan?

a) additiv
b) jamlash
c) kasrli
d) matematik

10. Xususiylikdan umumiylik sari o‘rganish -

a) induksiya
b) analiz
c) deduksiya
d) sintez

III BOB. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI, AXBOROTLAR MANBAALARI VA IQTISODIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL ETISH

1. Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari, ularning tasnifi va tavsifi
2. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan axborotlar tizimi.
3. Korxonalar moliyaviy hisobotlari va mazmuni.
4. Buxgalteriya balansi: tuzilishi tarkibi va mazmuni.
5. Moliyaviy hisobotlarning shakllari va ularning o‘zaro bog‘liqligi.

3.1. Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari, ularning tasnifi va tavsifi

Iqtisodiy tahlil mazmun va mohiyati jihatidan turli shakllarga xillarga ega. Ammo ko‘pgina iqtisodiy adabiyotlarda ular farqlanmasdan ishlatiladi. Ammo ular mazmun jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Iqtisodiy tahlilning turi deganda ma’lum belgilari, xossalari, vazifasi va shu kabilar bilan umumiy bo‘lgan guruhlar yoki bir butunlikni tashkil etgan yaxlit xillari tushuniladi.

Iqtisodiy tahlilning shakli deganda uning o‘ziga xos bo‘lgan tashqi ko‘rinishi, sirtqi qiyofasi, bilan birga o‘ziga xos mazmuni, ya’ni uni amalga oshirish yo‘llari, usullari tushuniladi.


Iqtisodiy tahlilning turi va shakli mazmun jihatidan bir-biriga juda yaqin, chunki ularning ikkalasi ham tahlil qiluvchining o‘z oldigan qo‘ygan maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ammo ular bir-biridan ma’lum belgilari, shakli va mazmuni bo‘yicha farqi bor. Tahlilning turi necha xil bo‘lishidan qatiy nazar ularda bir-biriga juda yaqin va o‘xshash usullardan foydalaniladi. Tahlilning shaklida esa har birida o‘ziga xos usullar majmuasi qo‘llanilishi mumkin.

Iqtisodiy tahlilning turi uning belgilari bo‘yicha guruhlanadi. Bu tahlilga qaysi nuqtai nazardan qarashga bog‘liq. Masalan, iqtisodiy tahlil mazmun jihatidan qaralsa u glabal, lokal va tematik tahlilga bo‘linadi. Bularning hammasida bir xil usullardan foydalanish mumkin. Ammo iqtisodiy tahlilning shaklini ko‘radigan bo‘lsak, uni makon va zamon nuqtai nazaridan qarab, unda qo‘llaniladigan o‘ziga xos usullarning majmuasidan kelib chiqiladi. Masalan, kompleks tahlilda qo‘llaniladigan kompleks baholash usullari funksional qiymat tahlilida (FQT) qo‘llanilmaydi. FQT da qo‘llaniladigan usullar omilli tahlilda qo‘llanilmasligi mumkin va h.k..

Iqtisodiy tahlil turli belgilari bo‘yicha tasniflanadi. Bu masala turli darslik va adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Ko‘p adabiyotlarda 2-3 ta,

ba’zilarida 6-7 ta, ba’zilarida 8 ta belgilari bo‘yicha tasniflanadi. Ta’kidlanganidek, ko‘pgina adabiyotlarda iqtisodiy tahlilning turi bilan shakli farqlanmagan holda berilgan.

Tadqiqotlar natijasida iqtisodiy tahlilning turlarini tasniflashda quyidagi belgilardan foydalanish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi. Bularga: mazmuni bo‘yicha tasniflash; makon nuqtai nazaridan qarash bo‘yicha; tahlil qiluvchilar subekti bo‘yicha; tarmoq tamoyili bo‘yicha; zamon nuqtai nazaridan tasniflash bo‘yicha; ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha; kengaytirilgan taror ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha; kompyuterlashtirish darajasi bo‘yicha tasniflash kabi belgilari kiradi. Bu quyidagi chizmada keltirilgan (3.1-chizma).



3.1 - chizma. **Iqtisodiy tahlil turlarini tasniflashda qo‘llaniladigan belgilar**

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu mavzu bo‘yicha turli takliflar mavjud. Ularni o‘rganib va umumlashtirib hamda bu soha bo‘yicha uzoq yilik tajribadan kelib chiqib ushbu holatga to‘xtaldik. Bu bizning fikrimizcha iqtisodiy tahlilning turlariga bo‘lgan nazariy va amaliy jihatdan qo‘yiladigan talabni ma’lum darajada qondiradi deb o‘ylaymiz.

Iqtisodiy tahlil mazmuni bo‘yicha uch guruhga bo‘linadi: glabal, lokal va temmatik.

Glabal tahlil deganda xo‘jalik yurituvchi sub’ektning faoliyatini atroflicha to‘liq yaxlit holda o‘rganish tushiniladi.

Lokal tahlil deganda xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining alohida bir tarkibiy qismini o‘rganish tushiniladi. Misol tariqasida aksiyadorlik jamiyati xo‘jalik faoliyatini olish mumkin. Uning tarkibiga bosh korxona va oltita sho‘ba korxonalari kiradi deb faraz qilamiz. Hammasining holatini yaxlit holda bir hisobot davri mobaynida erishilgan natijalari bo‘yicha tahlil qilish global tahlilga misol bo‘lishi mumkin. Uning alohida bo‘linmalarini tahlil qilish lokal tahlilga misol bo‘lsa, shu bo‘linma ichida alohida bir mavzuni o‘rganishga bag‘ishlangan tahlil tematik tahlilga misol bo‘lishi mumkin.

Demak, tematik tahlil deganda xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini alohida mavzusi bo‘yicha tahlil qilish tushiniladi. Bunga aksiyadorlik jamiyatining bozor faolligini, ish faolligini, moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili kabilarni misol keltirish mumkin.

Bular o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi chizmada keltirilgan (10.2 - chizma).


Iqtisodiy taxlilning to‘rlari va shakllarini tasniflashda uning alohida xillari shartli ravishda olingan. Bunda tasniflash belgilari va ularga kirituvchi iqtisodiy tahlil turlari mualliflar nuqtai nazaridan tahlilning nazariy va amaliy jihatlarini hisobga olgan holda yondoshilgan.

Vaqt - betakror boylik. Agar u yo‘qotilsa qayta tiklanmaydi. SHu tufayli vaqtni yo‘qotmaslik lozim. Vaqtning o‘tishi bilan ishlab chiqarish jarayoni davom etadi. Ma’lum bir davrda natija hisob-kitob qilinadi, chamalanadi, tegishli kamchiliklar va yutuqlar aniqlanadi. SHu tufayli har bir vaqtda sodir bo‘lgan jarayonni uzluksiz ravishda tahlil qilib turish lozim. SHu jihatdan iqtisodiy tahlil uchga bo‘linadi: tezkor tahlil, joriy tahlil, istiqbol tahlili.

Tezkor tahlil deganda hisobot davri davomida, u tugamasdan o‘tkaziladigan tahlil tushiniladi. Masalan, hisobot davri bir chorak deydigan bo‘lsak, uning tomom bo‘lishini kutish uchun uch oy kerak. Ammo shu muddatda qanday natijaga erishish mumkinligini aniqlash uchun shu davr ichida tezkor tarzda har kuni, har haftada, har o‘n kunlikda, har oyda tahlil qilib borish lozim. Bu aynan shu hisobot davrida (chorak ichida) amalga oshiriladi. SHu tufayli ushbu tahlil tezkor tahlil hisoblanadi.

Joriy tahlil deganda hisobot davri tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobot ma’lumotlari va boshqa axborot manbalariga asosan o‘tkaziladigan tahlil tushiniladi. Masalan, hisobot davri chorak bo‘lsa, u tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlar tuziladi. Hamda ular tegishli tashkilotlarga (soliq idorasiga, moliya, statistik

bo‘linmalarga) topshiriladi. asl nusxasi shu xo‘jalik yurituvchi sub’ektda qoladi. Ana shu hisobot ma’lumotlariga asosan ushbu xo‘jalik yurituvchi sub’ektning faoliyati joriy tahlil qilinadi.




3.2 - chizma. **Iqtisodiy tahlilning mazmunini qamrab olish bo‘yicha tasnifi**

Joriy tahlilning qo‘layligi shundaki, u ma’lum bir davr o‘tgach barcha natijalar jamlangan, xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qonuniylashgan bo‘ladi. Ammo shu bilan birgalikda aniqlangan kamchiliklar o‘tgan davrga tegishli bo‘ladi. uni bartaraf qilish uchun vaqt o‘tgan bo‘ladi. Lekin shu kamchiliklarga endilikda yo‘l qo‘ymaslik uchun tegishli chora tadbirlar qo‘llaniladi.

Istiqbol tahlili deganda xo‘jalik yurituvchi sub’ektning kelgusi faoliyatini oldindan o‘rganish, bo‘ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan iqtisodiy jarayonlar sodir bo‘lmasdan oldin o‘tkaziladigan tahlil tushuniladi. Masalan, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt biznes-rejani tuzish uchun o‘z faoliyatini nima bilan yakunlanishi to‘g‘risida aniq tushuncha va ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kerak. Bu esa istiqbol tahlili orqali amalga oshiriladi. Hozirgi paytda uni loyixa tahlili ham deb atamoqdalar.

Ularning tasnifi va tavsifi quyidagi chizmada keltirilgan (3.3-chizma).




3.3 - chizma. **Iqtisodiy tahlilining zamon nuqtai nazaridan tasniflanishi**

Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida ham, hozirgi bozorli iqtisodiyot sharoitida joriy tahlilga juda katta ahamiyat berilib kelinmoqda. Bu bejiz emas albatta, chunki tahlil uchun axborotlar tizimi shakllanishi lozim. Bu esa hisobot davri tugagandan keyin amalga oshiriladi.

Jahon tajribasida ham joriy tahlilga katta ahamiyat beriladi, chunki bor narsani o‘rganish bu kelgusi faoliyat uchun asos bo‘ladi. SHu tufayli korxonaning moliyaviy hisobotini o‘rganish uchun ham birqancha

usullarni o‘ziga jamlagan “Moliyaviy tahlil” shakllangan. Bunday tahlil bizda ham shakllanmoqda.

Ushbu holatlardan kelib chiqib joriy tahlil bevosita hisobot davriga moslashadi. Buning shakli quyidagi chizmada keltirilgan (3.4-chizma).



3.4 - Chizma. **Joriy tahlil tasnifi.**

Iqtisodiy tahlilning ob’ekti bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardir. Bularni falsafiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak makon deb qarash mumkin. Makon nuqtai nazaridan iqtisodiy tahlil ikkiga bo‘linadi: ichki va tashqi.


Ichki iqtisodiy tahlil deganda shu xo‘jalik yurituvchi sub’ekt xodimlari tmonidan o‘tkaziladigan tahlil tushiniladi. Masalan, aksiyadorlik jamiyati xo‘jalik faoliyati tahlilini oladigan bo‘lsak, uni faqat shunga daxldor kishilar tomonidan o‘tkaziladigan tahlildir.

Tashqi iqtisodiy tahlil deganda shu xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini boshqa tashqi sub’ektlar tomonidan o‘tkaziladigan tahlil tushiniladi. Masalan, aksiyadorilk jamiyati xo‘jalik faoliyatini assotsiatsiya, soliq idoralari, bank xodimlari, statistik va moliya organlari tomonidan tahlil qilinishi mumikn. Bu tahlil tashqi tahlilga misob bo‘ladi va ular moliyaviy hisobotlarga asosan tahlil qiladilar.

Ushbu tahlilning tasnifi va tavsifi ushbu chizmada keltirilgan (3.5-chizma).


Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini juda ko‘p mutaxassislar, mulkdorlar, davlat idoralari xodimlari tahlil qiladilar. Bu kimningdir ko‘rgazmasi yoki buyrug‘i bilan amalga oshmaydi, balki ob’ektiv zaruriyat natijasidir. SHu tufayli kimning tahlil qilishiga qarab iqtisodiy tahlil birqancha turlarga bo‘linadi. Bularga ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, auditorlik tahlili, moliyaviy-iqtisodiy tahlil,

texnik iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy ekologik tahlil, marketing tahlili kabilar kiradi.



3.5 - chizma . **Iqtisodiy tahlilning makon nuqtai nazaridan tasnifi**

Ushbu guruh tahlil turlari va har birini kimlarning o‘tkazishi mumkinligi ko‘rsatilgan chizma quyida keltirilgan (3.6-chizma).



	- iqtisodiy tashxis qo‘yuvchilar - auditor firmalari
3. Moliyaviy iqtisodiy tahlil	- korxonaning moliya xizmati xodimlari - buxgalteriya xodimlari (bosh buxgalterlar)
4. Texnik - iqtisodiy tahlil	- texnik xizmati xodimlari - texnologlar - ilmiy bo‘lim xodimlari
5. Iqtisodiy - statistik tahlil	- statistik idoralar xodimlari - mehnat birjalari xodimlari - kadrlar bo‘limi xodimlari
6. Iqtisodiy - ekologik tahlil	- atrofni muvofaza qiluvchi tashkilot xodimlari - ekologiya xizmati xodimlari - menejerlar
7. Marketing taxlili	- korxonaning marketing xizmati xodimlari - bosh buxgalterlar

3.6 - chizma. **Iqtisodiy tahlilning tahlil qiluvchilar subekti bo‘yicha tasniflash**

Ushbu chizmadan ko‘rinib turibdiki turli iqtisodiy tahlilni turli kasb egalari, mutaxassislar amalga oshirar ekan. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil bilan statistik idoralari, boshqaruv idoralari xodimlari, sotsiologik tadqiqotlar labaratoriyalari, menejerlar, iqtisodchilar, buxgalterlar shug‘illanandilar. Auditorlik tahlili bilan esa auditorlar, korxona faoliyatiga iqtisodiy jihatdan tashxis qo‘yuvchi xodimlar, auditor firmalari kabilar shug‘illanadilar. Xuddi shu tarzda boshqa tahlil turlari ham keltirilgan.

Hozirgi sharoitda tahlil turlaridan biri marketing tahlilidir. Har bir korxona ushbu tahlilni amalga oshirishi lozim. Chunki bozorni o‘rganmasdan turib ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki ish boshqarish jarayonini amalga oshirib bo‘lmaydi. Endi tovarlar (ishlar, xizmatlar) ombor uchun emas, balki bozor uchun ishlab chiqariladi. Bu esa korxona marketing xizmati xodimlari, ya’ni marketologlarning marketing tahlilini amalga oshirishini taqozo qiladi. Marketing va boshqa tahlil turlari bilan korxonaning (firmaning) bosh buxgalteri ham


shug‘illanadi. Xullos qaysi tur tahlil bilan kimlar shug‘illanishi qisman yuqoridagi chizmada keltirilgan.

Bozor munosabatlari sharoitida ham ma’lum darajada tarmoqlar saqlanib qoladi. Shu tufayli iqtisodiy tahlil ham shu tamoyil bo‘yicha tasniflanadi.Iqtisodiy tahlil tarmoq tamoyili bo‘yicha ikki guruhga bo‘linadi: alohida tarmoqlar tahlili va tarmoqlar aro umumiy tahlil.

Alohida tarmoqlar tahlili faqat ayrim tarmoqlargagina tegishli. Ular shu tarmoqning xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi va boshqa tarmoqlarga ularni bevosita qo‘llash qiyin bo‘ladi. Masalan,sanoat korxonalari iqtisodiy tahlilini olaylik. Ushbu tahlilni qishloq xo‘jaligi yoki savdo korxonalari xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishga qo‘llash qiyin va aksincha.

Tarmoqlararo umumiy tahlilni deyarli barcha tarmoqlarga u yoki bu xususiyatini inobatga olgan holda ozgina o‘zgartirishlar bilan qo‘llaverish mumkin. Masalan, korxonaning moliyaviy tahlilini olaylik. Bu bevosita moliyaviy hisobot ma’lumotlariga asosan o‘tkaziladi. Moliyaviy hisobot esa O‘zbekistonda deyarli barcha tarmoq va soha korxonalari uchun bir xil qilib belgilanadi. Xuddi shunday gaplarni “Moliyaviy hisobotni iqtisodiy o‘qish va tahlil qilish” bo‘yicha ham aytish mumkin.


Ushbu guruhga kiruvchi tahlil turiga “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” ham kiradi. Ushbu fanda barcha tur tahlilning metodologik va nazariy asosi yoritilgan. Makroiqtisodiy tahlilda barcha tarmoqlar majmuasi natijalari tahlil qilinadi. Keltirilgan tahlil tasnifi ushbu chizmada ifodalangan (3.7-chizma).



3.7-Chizma. **Iqtisodiy tahlilni tarmoq tamoyili bo‘yicha tasnifi**

Kengaytirilgan ishlab chiqarish jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil qiladi. U to‘rtta bosqichdan iborat. Birinchisi moddiy va nomoddiy ne’matlar ishlab chiqarish bo‘lsa, ikkinchisi uning taqsimotidir. Uchinchi bosqich, muomila bosqichi va nihoyat oxirgi bosqich iste’moldir. Hamma bosqichlarda o‘ziga xoslik bir. Shu tufayli ushbu soha bo‘yicha ham tahlil turlari mavjud. Ular ishlab chiqarish sohasi tahlili, taqsimot sohasi tahlili, muomila sohasi tahlili va iste’mol sohasi tahlilidir.

Bularning tasnifi quyidagi chizmada keltirilgan (3.8-chizma).



3.8 -chizma. **Iqtisodiy tahlilni kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha tasnifi.**

Shuni etirof etish kerakki, ushbu guruhga kiruvchi tahlil turlari alohida fan yoki tahlil turi sifatida o'qitilmaydi. Amaliyotda ham bu tahlillar alohida mavjud emas. Ammo har bir bosqich tahlili turli tarmoqlar tahlilida o'z ifodasini topadi. Masalan, ishlab chiqarish sohasining tahlili sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish kabi ishlab chiqarishga oid sohalar tahlilida o'z aksini topgan. Muomala sohasining tahlili ham savdo korxonalari (ulgurji, chakana) xo'jalik faoliyatining tahlilida o'z ifodasini topadi. Xuddi shunday gaplarni boshqa sohalar uchun ham aytish mumkin.


Hozirgi paytda, ayniqsa kelajakda, tahlilni kompyuterlarsiz tassavur qilish mumkin emas. Shu tufayli iqtisodiy tahlil shu belgisi bo'yicha ham tasniflanadi va ular uch guruhga bo'linadi: odatdagidek, kompyuterlashtirilmagan tahlil, qisman kompyuterlashtirilgan tahlil va to'liq kompyuterlashtirilgan tahlil.

Odatdagidek, kompyuterlashtirilmagan tahlilga hozirgi an'anaviy tahlilni misol qilish mumkin. Bu tahlil buxgalteriya, statistik, tezkor hisob va hisobotlar ma'lumotlariga asosan, an'anaviy hisoblash mashinalari orqali amalga oshiriladi.

Qisman kompyuterlashtirilgan tahlilga yarim kompyuterlashtirilgan yoki ayrim qismlari kompyuterlarda qolgan qismlari odatdagidek hisob-kitoblarda amalga oshiriladigan tahlil kiradi. Masalan, xo'jalik

faoliyatining ayrim qismlari hisobi kompyuterlarda amalga oshiriladigan bo‘lsa shu soha tahlili ham kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. Hozirgi paytlarda ko‘pgina firmalarning ish haqini hisoblash kompyuterlashtirilgan. Shu soha tahlili ham kompyuterlarda amalga oshiriladi. Qolgan qismi esa odatdagidek an’anaviy tarzda amalga oshiriladi.

Ushbu guruh tahlili quyidagi chizmada o‘z aksini topgan (3.9-chizma).



3.9 -chizma. **Iqtisodiy tahlilning kampyuterlashtirish darajasi bo‘yicha tasnifi.**


Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar jamiyatning barcha jabhalarida sodir bo‘ladi. Ularni o‘rganish uchun iqtisodiyotni turli darajalari bo‘yicha tasniflash lozim. Bular shu jihatdan ikkiga: makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajaga bo‘linadi.

Makroiqtisodiyot darajasida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy tahlil o‘rgatadi. Bu mamlakat miqyosida milliy-iqtisodiyot holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. Masalan, yalpi milliy mahsulot, aholining daromadlari, milliy daromad kabi ko‘rsatkichlar shu makroiqtisodiyot darajasidagi ko‘rsatkichlarga kiradi.

Mikroiqtisodiy tahlil esa bevosita xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu tahlilda korxona, birlashmalar

faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘rganiladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi, foyda, rentabellik darajasi, mehnat unumdorligi, korxonalar ish va bozor faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va h.k.

Iqtisodiy tahlilning ushbu guruhi bo‘yicha tasnifi quyidagi chizmada keltirilgan (3.10-chizma).



3.10 - chizma. **Iqtisodiy tahlilning ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha tasniflash**

Shuni ta’kidlash joizki, hozirgacha makroiqtisodiy tahlil bilan birqancha tahlilga oid bo‘lmagan fanlar (iqtisodiy nazariya, statistika kabilar) shug‘ullanadi. Ammo ushbu fanlardan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning holati o‘rganiladi, xolos. Ammo hozirgi paytda O‘zbekiston uchun makroiqtisodiy tahlil ob’ektiv zaruriyatga aylandi. Hozir UzR Vazirlar Mahkamasida, barcha hokimliklarda “Axborot va tahlli” guruhlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning vazifasi bevosita makroiqtisodiy tahlil bilan shug‘illanishdan iboratdir. Ammo hamon makroiqtisodiy tahlil metodologiyasi ishlab chiqilmagan.


Makroiqtisodiy tahlilda makro darajadagi ko‘rsatkichlarning holati bilan birga ularning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar ham o‘rganiladi. Bu faqat makroiqtisodiy tahlilning vazifasi, maqsadi va ob’ektiga kiradi. shu tufayli makroiqtisodiy tahlilning metodologik va nazariy asosi yaratilishi lozim.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati odatda batafsil tahlil qilinadi. Ammo ba’zi hollarda uni batafsil o‘rganishga hojat bo‘lmasligi mumkin.

Bunday hollarda xo‘jalik faoliyatining bir qismini tanlab tahlil qilish mumkin. Masalan, auditorlar uchun xo‘jalik faoliyatini batafsil tahlil qilib o‘tirishiga hojat yo‘q. Ular faqat ayrim ko‘rsatkichlari bo‘yicha auditorlik tahlilini o‘tkazsa etardi. Yoki marketing tahlilini olish mumkin. Bunda ham xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi barcha ko‘rsatkichlarni tahlil qilishga xojat yo‘q. Faqat bozor faolligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tanlab olingan holda tahlil qilinsa etarli.

Shu tufayli iqtisodiy tahlil o‘rganilayotgan ob’ektni qamrab olish darajasi bo‘yicha qilinadigan bo‘lsa ularni ikki guruhga batafsil tahlil va tanlab o‘tkazilgan tahlilga bo‘lish mumkin.

Ushbu guruh tahlilning turlari tasnifi va tavsifi quyidagi chizmada keltirilgan (3.11-chizma).



3.11- chizma. **Iqtisodiy tahlilning o‘rganilayotgan ob’ektini qamrab olish darajasi bo‘yicha tasnifi**

Batafsil tahlilda xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini ifodalovchi barcha ko‘rsatkichlar hisobot davrida to‘liq o‘rganiladi. Tanlab o‘tkaziladigan tahlilda iqtisodiy jarayonlarning bir qismi o‘rganiladi va u orqali butun xo‘jalik faoliyatiga taxminiy baho berish mumkin. Shuningdek iqtisodiy tahlilning ushbu turi ayrim hollarda tematik tahlilga ham o‘xshab ketadi.

Shuni e’tirof etish kerakki, iqtisodiy tahlil darsligini yaratishda uning metodologiyasini keltirilgan ushbu turlariga moslashtirgan holda yozish maqsadga muvofiqdir. Chunki iqtisodiy tahlil bitta fan. Uning turlari

ushbu fanga qaysi nuqtai nazardan yondoshishga qarab o‘zgaradi. Masalan, iqtisodiy tahlil usulini yaratishda batafsil tahlil qilish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Ammo shu metodologiyadan tanlab qilinadigan tahlilda ham foydalanish mumkin.

Yana bir misol. Iqtisodiy tahlilni zamon nuqtai nazaridan tasniflaganda uning uchga bo‘linishini (tezkor, joriy. istiqbol tahlili) ko‘rdik. Bu holda iqtisodiy tahlil joriy tahlil tarzida yoritiladi. Ammo uning metodologiyasidan tezkor va istiqbol tahlillarida ham foydalanish mumkin.

Ammo shuni e’tirof etish kerakki, barcha bir tur tahlillar ham bir xil metodologiyaga asoslanishi qiyin. Masalan, Makroiqtisodiy tahlil bilan mikroiqtisodiy tahlil metodologiyasi bir-biridan farq qiladi yoki tarmoqlar tahlili bilan tarmoqlararo tahlil o‘rtasida ham ma’lum darajada farq bir. Lekin ularning metodologik asosi iqtisodiy tahlil nazariyasida o‘z ifodasini topmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda “Iqtisodiy tahlil nazariyasi”da yoritiladigan nazariy va metodologik asoslar barcha tahlil turlarining talablariga javob berishi lozim.

Yuqorida ta’kidlanganidek iqtisodiy tahlil turlari uning shakllaridan farq qiladi. Iqtisodiy tahlilning shakllari esa bir-biridan ma’lum darajada o‘ziga xos bo‘lgan usullari, ketma-ketligi, maqsadi va vazifalari bilan ham farq qiladi. Masalan, kompleks tahlilda xo‘jalik faoliyati makon va zamon nuqtai nazaridan batafsil tahlil qilinadi. Unda asosiy usullar tariqasida kompleks baholash usullari qo‘llaniladi. Ushbu tahlil ma’lum darajada omilli tahlildan farq qiladi.

Omilli tahlilda xo‘jalik faoliyatiga tv’sir qiluvchi omillarning ta’sirini aniqlash usullari o‘rganiladi. Bu juda ko‘p tahlil shakllarida qo‘llanilishi mumkin. Ammo boshqa tahlilda omilli tahlil usullari asosiy bo‘lmasdan, balki xulosani chuqurlashtirish uchun foydalaniladi.

Shu ikki tahlil shaklidan farqi o‘laroq funksional-qiymat tahlili (FQT) ham mavjud. FQT da ikki tahlilda ham qo‘llanilmaydigan, qo‘llanilsa ham kam qo‘llaniladigan usullardan foydalaniladi. Boshqa tahlillar asosan ma’lum ko‘rsatkichlar, aniq raqamlarga asoslansa, FQT da ko‘p hollarda mantiqiy evristik tahlil usullaridan foydalaniladi.

Xuddi shunday holatni boshqa tahlil shakllari bo‘yicha ham keltirish mumkin. Demak iqtisodiy tahlilning turlarida ma’lum darajada metodologik mushtaraklik bo‘lsa, shakllarida o‘ziga xoslik ustuvordir.

Iqtisodiy tahlilning shakllari va har birining qisqacha mazmuni ushbu chizmada keltirilgan (3.12-chizma).

Iqtisodiy tahlil

SH A K L L A R I	M A Z M U N L A R I
1. Kompleks tahlil	Xo‘jalik yurituvchi subekt faoliyatini makon va zamin nuqtai nazaridan barcha tuzulmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir.
2. Solishtirish tahlili	Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatini yaxlit holda, alohida tuzulmalari yoki mavzularini baho va vaqt jihatidan solishtiriladigan holatga keltirilib amalga oshiriladigan tahlildir.
3. Omilli tahlil	Xo‘jalik faoliyati natijasiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta’sirini hisoblash usullari majmuasini o‘zida aks ettirgan tahlildir.
4. Funksional - qiymat tahlili	Har bir bajariladigan funksiyani (asosiy, yordamchi va nokerak) qiymat jihatidan baholab mahsulotning (ish,xizmat) sifatini oshirgan holda nokerak funksiyalarni bartaraf qilish evaziga ichki imkoniyatlarni (rezervlarni) topish va ishga solishgaqaratilgan tahlildir.
5. Marjenal tahlil	Barcha xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlarga bo‘lib ishlab chiqariladigan mahsulotlarning (bajariladigan ishning ko‘rsatiladigan xizmatning) biznesda ko‘zda tutilgan foydaga erishish uchun zarur bo‘lgan miqdorini aniqlash va samarador-ligini oshirishga qaratilgan tahlildir.
6. Staxostik tahlil	Xo‘jalik faoliyatida natija va omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik funksional bog‘liq bo‘lmagan sharoitda ularning bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan tahlildir.

7. Loyiha tahlili	Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar istiqboli-ni, biznes rejasini, investitsiya loyihala-rini asoslash uchun hali sodir bo‘lmagan, ya’ni bo‘lishi kutilayotgan iqtisodiy jarayonlarni o‘rgatadigan tahlildir.
8. Moliyaviy tahlil	Xo‘jalik yurituvchi subekt moliyaviy natijalari va moliyaviy xolatini o‘rganishga bag‘ishlangan tahlildir.
9. Boshqaruv tahlili	Korxona rahbariyati, egasi va mutaxassislari tomonidan ichki imkoniyatlarni ishga solish va samaradorlikni oshirish maqsadida qilinadigan tahlildir.
10. Xo‘jalik faoliyati tahlili	Korxonalar xo‘jalik faoliyatini o‘rganishga qaratilgan iqtisodiyotning mikroiqtisod darajasini o‘rganishga qaratilgan tahlildir.
11. Auditorlik tahlili	Xo‘jalik yurituvchi subektlar moliya - xo‘jalik faoliyatini audit qilganda to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun auditorlar tomonidan o‘tkaziladigan tahlildir.

3.12- chizma. **Iqtisodiy tahlilning shakllari va ularning mazmuni**

Iqtisodiy tahlilning shakllari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ularning har biri ma’lum darajada mustaqil usullarga va tushunchalarga ega. Shu jihatdan uning turlari ma’lum bir belgilari bo‘yicha tasniflansa, shakli esa o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy tahlilning turlarida, asosan, tahlilda qo‘llaniladigan barcha usullardan foydalanilsa, usullarida esa o‘ziga xos turlaridangina foydalaniladi. Yuqoridagi jadvalda iqtisodiy tahlilning 11 ta shakli keltirilgan. Masalaning qo‘yilishi, ma’lum bir maqsadga erishish uchun bu tahlil shakllaridan ayrim sub’ektlar alohida foydalanishlari ham mumkin.

Ushbu tahlil shakllarining o‘ziga xosligi to‘g‘risida ma’lum bir tushuncha berish uchun ularning ayrimlariga to‘xtalishni maqsadga muvofiq deb topdik.

3.2. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan axborotlar tizimi

Korxonaning moliyaviy hisoboti uning xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar manbai bo‘lib hisoblanadi.

Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlab va rag‘batlantirish ko‘plab yangi-yangi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bu firmalarning rahbarlari yaxshi g‘oyalar va ularning moliyaviy ta’minlanishi korxonalarning samarali faoliyat ko‘rsatishi hamda juda ko‘p foyda topishiga asos bo‘ladi, deb o‘ylashadi. Tajriba ko‘rsatmoqdaki, ko‘pchilik biznesmenlarimiz yangi bir ishga kirishishdan oldin uni aniq hisob-kitob va nazorat tizimi zarurligi to‘g‘risida unchalik bosh qotirishmaydi. Aslida esa, ular ishni avvalo yaxshi malakali hisobchi topishdan boshlashlari kerak.

Bordi-yu, shunday qilinmasa, oxir oqibatda rahbar boshi berk ko‘chaga kirib qolishi, moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanaolmasligi, ishni ilgari siljitolmasligi, tashqaridan qaralganida faoliyati durustgina bo‘lib ko‘ringan korxonasida moliyaviy talon-tarojlar sodir bo‘lishiga yo‘l ochilishi mumkin.

SHu tufayli tashkilotning ahvoli ifoda etilgan axborotlar tizimidan to‘g‘ri foydalana oladigan hisobchi ayniqsa erkin iqtisodiyot sharoitida o‘ta muhimdir.

Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan axborotlar odatda ikkiga bo‘linadi: hisoblanadigan va hisoblanmaydigan.

Hisoblanadigan axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

* buxgalteriya hisobi va hisoboti;
* statistika hisobi va hisoboti;
* tezkor hisob va hisobot;
* tanlab kuzatilgan hisob ma’lumotlari.

Buxgalteriya hisobi va hisobotida xo‘jalik operatsiyalari, xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalari ifodalanadi.

Statistika hisobi va hisobotida hodisa va jarayonlar umumiy majmuasining miqdoriy jihatlari ifodalanadi.

Tezkor hisob va hisobotlarga hisobot davri ichida olish mumkin bo‘lgan axborotlar majmuasi kiradi.

Tanlab kuzatish natijasida olingan ma’lumotlar hisobotdagi ko‘rsatkichlarni chuqurlashtirish hamda hodisa va jarayonlarni alohida o‘rganish imkonini beradi.

Hisoblanmaydigan ma’lumot manbalariga quyidagilar kiradi:

* ichki idora va idoradan tashqari taftish ma’lumotlari;
* ichki va tashqi audit hisobotlari;

* laboratoriya va tibbiy-sanitariya nazorati materiallari;
* soliq xizmati xodimlarining tekshirish natijalari;
* mehnat jamoasining majlis va yig‘ilish qarorlari.

Shuningdek, tahlil jarayonida tasdiqlangan reja, biznes-reja va boshqa me’yoriy hujjatlar ham qo‘llaniladi.

Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan axborotlar oshkoraligi nuqtai nazaridan yopiq va ochiq ma’lumotlarga bo‘linadi. Buxgalteriya va statistik hisobotlarda ifodalangan ma’lumotlar tashqariga, boshqa sub’ektlarga taqdim qilinadi va ular ochiq ma’lumotlarga kiradi.

Bozor munosabatlari sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘zining me’yoriy ko‘rsatkichlarini, ta’riflari, limitlari va ularni baholash yo‘llarini ishlab chiqadi. Bu ko‘rsatkichlar xo‘jalik sub’ektining tijorat, texnologik, ishlab chiqarish siri bo‘lib hisoblanadi.

Korxona hisobotlari yillik va choraklik moliyaviy hisobotlar shaklini tuzish bo‘yicha ko‘rgazmaga amal qilgan holda tuziladi. Ammo unda xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Buni aniqlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Buxgalteriya balansi ko‘rsatkichlarini bosh kitob ko‘rsatkichlaridagi raqamlar bilan solishtirish. Ular bir-biriga mos ravishda to‘g‘ri kelishi lozim.
2. Buxgalteriya balansidagi har bir bo‘limning moddalaridagi so‘mmasi shu bo‘lim jami so‘mmasiga va aktiv qismining passiv qismiga to‘g‘ri kelishi aniqlanadi.
3. Buxgalteriya balansidagi moliyaviy hisobot tarkibiga kiruvchi boshqa hisobot ko‘rsatkichlari bilan to‘g‘ri kelishi tekshiriladi.
4. Buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotning O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1994 yil 26 martda ishlab chiqilgan 164-sonli «Buxgalteriya hisoboti va balansi to‘g‘risidagi Nizom»ga va 1997 yil 25 yanvarda tasdiqlangan «Korxona va tashkilotlarning yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarini to‘lg‘azish bo‘yicha Qo‘llanma»ga to‘g‘ri kelishi ko‘rib chiqiladi. Bu qo‘llanmaga har yili qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilib boriladi.

Rahbar moliyaviy hisobotni tasdiqlashda shu qo‘yilgan talablarning hammasini yoki muayyan qismini tekshirib ko‘rinishi va ishonch hosil qilgandan so‘ng, unga imzo chekishi mumkin.

3.3. Korxonalar moliyaviy hisobotlari va mazmuni

Korxonaning moliyaviy hisoboti O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining har yilgi o‘zgarishlarni o‘zida ifoda etadigan «Korxona

(tashkilot)larda yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarning shakli va hajmini tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘iga asosan tuziladi.

Ushbu buyruqqa asosan barcha huquqiy shaxslar (byudjet, sug‘urta, bank muassasalaridan tashqari) tegishli tashkilotlarga o‘zlarining moliyaviy hisobotlarini topshiradilar.

Yillik hisobotlarning tarkibiga quyidagilar kiradi:

1-shakl «Buxgalteriya balansi»

2-shakl «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»

2a-shakl «Debitorlik va kreditorlik qarzlar to‘g‘risida ma’lumotnoma»

4-shakl «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot»

5-shakl «O‘z mablag‘lari (kapitali) to‘g‘risidagi hisootb»

Yarim yillik hisobot tarkibiga:

1-shakl «Buxgalteriya balansi»

2-shakl «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»

2a-shakl «Debitorlik va kreditorlik qarzlar to‘g‘risida ma’lumotnoma»

4-shakl «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot»

Choraklik hisobot tarkibiga:

1-shakl «Buxgalteriya balansi»

2-shakl «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»

2a-shakl «Debitorlik va kreditorlik qarzlar to‘g‘risida ma’lumotnoma».

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1998 yil 25 iyundagi 79-sonli buyrug‘i bilan moliyaviy hisobotlar tarkibiga 2-b shakl «Moliyaviy-iqtisodiy holat to‘g‘risida» ma’lumotnoma kiritilgan. Bu ma’lumotnoma korxonaning choraklik va yarim yillik hisobotlari bilan birgalikda topshiriladi. Ushbu hisobot va ma’lumotnomalardan foydalangan holda, korxona rahbari moliya-xo‘jalik faoliyatining ahvoli joriy yilda qanday ekanligi to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi.

Biroq moliyaviy hisobotning barcha imkoniyatlaridan foydalanish bevosita undan foydalanuvchilarning malakasi, bilim saviyasi va shaxsiy sifatlariga bog‘liq. Rahbar korxonaning umumiy iqtisodiy muammolarini yaxshi bilish bilan birga, buxgalteriya balansi va boshqa moliyaviy hisobotlarni o‘qiy olishi, ular o‘rtasidagi bog‘liqliklarni ham bilishi lozim.

Masalan, «Buxgalteriya balansi» va boshqa moliyaviy hisobotlar ma’lumotlariga asosan korxona rahbari mablag‘larning miqdorini, ularning shakllanish manbalarini, umumiy mablag‘larda o‘z mablag‘lari

va chetdan jalb qilingan majburiyatlar hissasini, uzoq muddatli va oborot aktivlarining ulushini, xo‘jalik faoliyatidagi ishtirok etayotgan o‘zining aylanma mablag‘lari, ulardan qancha foyda olganligi, byudjetdan qancha qarzdor ekanligi, debitor va kreditor qarzlarning holati, shundan qanchasi muddati o‘tganligi, balansning likvidliligi, korxonaning moliyaviy barqarorligi kabi muhim ko‘rsatkichlarni aniqlashi, bilishi va shular bo‘yicha korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida zudlik bilan xulosa chiqarishi lozim.

Rahbar «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» 2-shakl ma’lumotlariga asosan korxonaning daromadi, xarajatlari va sof foydaning shakllanish yo‘llarini aniqlashi mumkin.

4-shakl - «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot»dan korxona pul mablag‘larining turlari bo‘yicha hisobot davridagi kirimi va chiqimi to‘g‘risida ma’lumotlarni olish mumkin. Bunda pul oqimlari barcha faoliyat turlari bo‘yicha alohida ko‘rsatiladi. SHuningdek, korxonaning valyuta mablag‘lari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham ushbu hisobotda o‘z aksini topgan.

5-shakl - «O‘z mablag‘lari (kapitali) to‘g‘risida hisobot»da korxona mablag‘lari, ularning tarkibi, harakati, hisobot davridagi o‘zgarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ifodalanadi.

Hozirgi paytda moliyaviy hisobotlarning eng muhimlaridan biri «Debitorlik va kreditorlik qarzlar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma» - 2a-shakldir. Bu hisobotda davlatimiz ichidagi va tashqarisidagi korxonalarning ushbu qarzlar bo‘yicha ma’lumotlari o‘z ifodasini topgan. Har biri bo‘yicha muddati o‘tgan debitorlar va kreditorlar ham ushbu hisobotda ko‘rsatilgan. Ushbu hisobot bugungi kun talabidan kelib chiqqan hujjatdir. Chunki millionlab pul mablag‘i muddati o‘tgan debitor va kreditor bo‘lib, oborotdan chetlashtirilgan. Bu esa korxonaning ham, davlatimizning ham iqtisodiy qudratini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu tufayli ushbu ma’lumotlarga korxona rahbarlari alohida ahamiyat berishlari va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqishlari lozim.

Yaqinda joriy qilingan «Moliyaviy-iqtisodiy holat to‘g‘risidagi ma’lumotnoma»da quyidagilar: korxona xo‘jalik mablag‘larida davlat mablag‘larining hissasi; xodimlar soni; ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti; ishlab chiqarishga jalb qilingan xom ashyoning chetdan keltirilgan va mahalliy manbalari bo‘yicha ulushi; eksport qilinayotgan mahsulotlar hajmi kabi axborotlar o‘z aksini topgan.

Ushbu moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan oqilona foydalana bilish katta samaralar keltiradi. Axborotlar shunchaki axborotlar uchun emas, balki ulardan to‘g‘ri foydalanib, korxonaning ahvolini o‘rganib tegishli xulosa chiqarish va shu asosda uning samaradorligini oshirish maqsadida maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun qo‘llanilishi lozim.

3.4. Buxgalteriya balansi: tuzilishi, tarkibi va mazmuni

Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning asosiy qismlaridan biridir. Shuning uchun korxona rahbari uni iqtisodiy jihatdan o‘qiy olishi, har bir moddasida ifoda etilgan ma’lumotlar asosida korxonasi ahvolini ko‘ra bilishi, mablag‘lar qaerdan kelib tushdi, ular qaerga joylashtirildi, samarali ishlash uchun shu mablag‘lar etarlimi degan savollarga javob topa olishi lozim. Shu savollarga javob berish uchun korxona rahbari balans to‘g‘risida to‘liq tushunchaga ega bo‘lishi kerak.

«Balans» atamasi lotincha bis ikki marta, banx - tarozi pallasi so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, ikkala palla degan ma’noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Buxgalteriya balansining har xil turlari mavjud bo‘lib, ular quyidagi belgilari bo‘yicha tasniflanadi: tuzilish vaqti, axborot hajmi, mulkchilik shakli, aks ettirish ob’ekti, tozalash usuli.

Tuzilish vaqtiga ko‘ra buxgalteriya balanslari: kirish, joriy, tugatish, bo‘lish va birlashtirish balanslari bo‘lishi mumkin.

Kirish balansi korxonaning paydo bo‘lish vaqtida tuziladi. Unda korxona o‘z faoliyatini boshlayotgan paytdagi boyliklar so‘mmasini belgilaydi.

Joriy balanslar korxona faoliyatini ifoda etib, qonunda belgilangan muddatda mavjud vaqt mobaynida tuzilib turiladi.

Tugatish balanslari korxona tugatilganda tuziladi.

Bo‘lish balanslari yirik korxona bir necha mayda korxonalarga bo‘linish vaqtida yoki shu korxonaning bir yoki bir necha tarkibiy bo‘linmasining boshqa korxonaga berilishi vaqtida tuziladi. SHuning uchun bu balans ba’zida berish balansi ham deyiladi.

Birlashtirish balansi bir necha korxonalar bir korxonaga birlashganda (qo‘shilganda) tuziladi.

Axborot hajmi bo‘yicha balanslar bir martalik va yig‘ma balanslarga bo‘linadi. Bir martalik balans faqat bitta korxona bo‘yicha joriy hisob asosida tuziladi.

Yig‘ma balans bir martalik balanslar asosida tuziladi va birlashmalar (vazirliklar, firmalar, aksiyadorlik jamiyatlari va shu kabilar)ning xo‘jalik mablag‘larini aks ettiradi.

Mulkchilik shakllariga ko‘ra davlat, korporativ, xususiy, aralash va qo‘shma korxonalar, shuningdek, jamoat tashkilotlari balanslariga bo‘linadi.

Aks ettirish ob’ektiga ko‘ra balanslar mustaqil va alohida balansga ajratiladi. Mustaqil balansni huquqiy shaxs bo‘lgan korxonalar tuzadi. Alohida balansni korxonaning tarkibiy bo‘linmalari (filiallar, sexlar, korxonaning avtotransport va turar joy-kommunal xo‘jaliklari va shu kabilar) tuzadi.

Tozalash usuliga ko‘ra - balanslar balans-brutto va balans-nettoga ajratiladi.

Balans-brutto - tartibga soluvchi moddalarni o‘z ichiga oluvchi balansdir. Asosiy vositalarning haqiqiy qiymatini (tannarxi yoki qoldiq qiymatini) aniqlashda qilinadigan so‘mmalar, boshqa moddalar miqdoridagi so‘mmalardan chegiriladigan moddalar tartibga soluvchi moddalar deyiladi. Masalan, asosiy vositalar qoldiq qiymatini aniqlash uchun «Asosiy vositalar» so‘mmasidan «Asosiy vositalarning eskirishi» so‘mmasi chegiriladi. Balans-bruttoda tartibga soluvchi moddalar so‘mmasi balans yakuni qiymatiga kiritiladi.

Balans-nettoda - balansning umumiy qiymatidan tartibga soluvchi moddalar so‘mmasi chegiriladi. Bu jarayon balansni «tozalash» deyiladi. O‘zbekistondagi barcha korxonalar hozirgi paytda balans-netto tuzmoqda, ya’ni balans yakuniga: asosiy vositalar, yarzon va tez eskiruvchan buyumlar qoldiq qiymati, qayta sotiladigan tovarlar esa tannarxi bo‘yicha kiritilmoqda.

Buxgalteriya balansiga qo‘yiladigan asosiy talablar: to‘g‘rilik, reallik, yaxlitlik, izchillik va tushunarlilikdir.

Balansning to‘g‘riligi uning tuzish jarayonida asos qilib olingan hujjatlarning to‘laligi va sifati bilan ta’minlanadi. Agar hisobot davrida xo‘jalik faoliyatining barcha faktlari o‘z vaqtida hujjatli rasmiylashtirilmagan yoki noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan bo‘lsa, unda balans korxona ishining huquqiy yakunini aks ettirmaydi. Buxgalteriya balansining har bir moddasi hujjatlar, buxgalteriya hisobi raqamlaridagi yozuvlar, buxgalteriya hisob-kitoblari bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Buxgalteriya balansi ma’lumotlarini qasddan buzish niqoblash deyiladi. Balansni niqoblash qonunlarining buzulganligini yashirish yoki korxona faoliyatining ayrim tomonlarini bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadida tuzilgan

balans bo‘lib hisoblanadi. Buni ayrim hollarda amaldagi qoidalardan bexabarlik oqibatida bilmasdan qilishi ham mumkin.

Balans realligi moddalar bahosining ob’ektiv voqelikka muvofiq kelishini anglatadi. Balansning «to‘g‘riligi» va «realligi» tushunchalarini bir-biriga aralashtirmaslik kerak. Balans to‘g‘ri, ammo noreal bo‘lishi mumkin. Ya’ni balans ma’lumotlari hujjatlar asosida tuzilgan bo‘ladi va haqiqatda mavjud mablag‘larni ko‘rsatadi, ammo uning ayrim moddalari real holatni, masalan, asosiy vositalar - ma’naviy eskirganlikni, debitorlik qarzlarini talab qilib olib bo‘lmasligini, uning qancha qismi umidsiz debitor ekanligini ifodalovchi vaziyatlarni ko‘rsatmaydi.

Balans birligi balansni yagona hisobga olish va baholash tamoyillari bo‘yicha tuzilishini, ya’ni korxonaning barcha tarkibiy bo‘linmalarida va tarmoqlarida buxgalteriya hisobi hisobraqamlari (schetlari)ning yagona nomenklaturasi ularning bir xildagi mazmuni, ikki yoqlama buxgalteriya yozivuning amalga oshishi va shu kabilar qo‘llanilishini anglatadi.

O‘zbekistonda **balansning yaxlitligiga** erishilgan. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 1997 yil 15 yanvarda tasdiqlangan qaroriga asosan buxgalteriya balansining yagona shakli qabul qilingan, buxgalteriya schetlarining 2002 yildan boshlab yagona rejasi qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan. Moliyaviy hisobotning barcha shakllari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida buxgalteriya hisobi va hisoboti uslubiyati va ularni tashkil etish boshqarmasi ishlab chiqqan «Korxonalarda choraklik va yillik moliyaviy hisoboti shakllarini to‘ldirish bo‘yicha ko‘rsatmalar» asosida tuziladi.

Balans davomiyligi har bir keyingi balans oldingi balansdan kelib chiqishi tamoyiliga asoslanadi. Masalan, oldingi yil yakuniy balansi (yil oxiridagi ma’lumotlar) hisobot yili balansida yil boshidagi ma’lumotlar sifatida ifodalanadi. Chunki hisobot yili oldingi o‘tgan yilning davomi hisoblanadi.

Balans aniqligi - balansni tuzuvchilar va uni o‘qiydigan hamda tahlil qiladigan kishilarning tushunishi uchun qulayligidir. Balansni aniq va tushunarli qilish uchun moddalar rekvizitlari va nomlari ikki tilda (o‘zbek va res tilida) bayon qilingan, uning shakli ancha soddalashtirilgan.

Buxgalteriya balansi ikki qismdan **aktiv va passivdan** iborat bo‘ladi.

Uning **aktiv qismida** korxona sarmoyasining tarkibi va joylashtirilishi, **passivida** - aktivlarni tashkil etish manbalari, ya’ni o‘z sarmoyasi va majburiyatlari, boshqa korxona yoki jismoniy shaxslarning vaqtincha jalb qilingan mablag‘lari ko‘rsatiladi.

Shunday qilib, buxgalteriya balansi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Korxona egalik qiladigan vositalarni aks ettiruvchi aktivlar.
2. Korxona tasarrufidagi o‘z mablag‘lari.
3. Keyinchalik qaytarilishi lozim bo‘lgan aktivlarni sotib olish, hosil qilish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlar.

Buxgalteriya balansida korxona aktivlari ikki guruhda: **uzoq muddatli** va **aylanma aktivlarda** aks ettiriladi.

Uzoq muddatli aktivlarga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, sarmoya qo‘yilmalari, sotib olingan aksiyalar va zayomlar kiritiladi. Korxonaning ishlashi bilan bu vositalar o‘z qiymatini o‘zgartirmaydi. Masalan, asosiy vositalar qiymati qisqa vaqt mobaynida miqdor jihatidan o‘zgarmaydi.

Joriy aktivlar, naqd pul mablag‘larni, iste’molchilar hisobvaraqlarini va naqd pul mablag‘lari shaklini egallashi lozim bo‘lgan zaxiralarni o‘z ichiga oladi. Joriy xo‘jalik davri mobaynida bu aktivlar doimo o‘zgarishi mumkin. Naqd pul mablag‘lariga aylantirilishi oson bo‘lgan joriy aktivlar va oson realizatsiya qilinadigan aktivlar kiritiladi.

Korxona balansi aktivlarini o‘rganishda quyidagilarni aniqlash mumkin:

* balansni tuzish kunida korxonada bo‘lgan vositalarni (asosiy vositalar, tovar zaxiralari, pul mablag‘lari va hokazolar);
* ularning joylanishini (asosiy vositalarda, kapital qurilishda, debitorlik qarzida va hokazolarda);
* ularning xo‘jalikdagi asosiy rolini (aylanma, asosiy yoki jalb etilgan mablag‘lar).

Balans passivi ma’lumotlari asosida quyidagilarni bilib olish mumkin:

* mablag‘ qaysi manbadan kelib turganligini;
* mablag‘lar kimga tegishli (o‘zinikimi yoki jalb qilinganmi) ekanligini;
* mablag‘larning belgilangan maqsadi qanday ekanligini (uzoq muddatli yoki qisqa muddatli qo‘yilmalar).

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997 yil 15 yanvardagi «Korxonalar (tashkilotlar) yillik va yil choragi moliyaviy hisobotlarining shakllari hamda hajmini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 5-sonli buyrug‘iga muvofiq 1997 yil 1 yanvardan boshlab choraklik hisobotining yangi shakllari joriy etildi.

Balans aktivi va passivida barcha balans moddalari ikkita yirik bo‘limga guruhlangan (16.1-jadval).

Balans aktivida mablag‘lar quyidagi bo‘limlar bo‘yicha tasdiqlangan:

1-bo‘lim. Uzoq muddatli aktivlar;

2-bo‘lim. Aylanma aktivlar.

Balans passivida ham mablag‘lar manbalari ikki bo‘limga bo‘linadi;

1-bo‘lim. O‘z mablag‘lari manbalari;

2-bo‘lim. Majburiyatlar.

Balans aktivining 1-bo‘limi «Uzoq muddatli aktivlar»da uzoq foydalaniladigan aktivlar (moddiy-ashyoviy vositalar, qimmatli qog‘ozlar, uzoq muddatli investitsiyalar) aks ettiriladi. Balansda ular quyidagi moddalar bo‘yicha guruhlangan:

Asosiy vositalarga uzoq vaqt mobaynida (bir yildan ortiq) shaklini o‘zgartirmagan holda ishlatiladigan, o‘z qiymatini qisman

yo‘qotadigan moddiy-ashyoviy boyliklar kiradi. Balansda ular dastlabki qiymati bo‘yicha, eskirishi va qoldiq qiymati bo‘yicha ham ko‘rsatiladi.

Nomoddiy aktivlarga er, suv va boshqa tabiiy resurslardan binolar, inshootlar, aqliy intelektual mulk, tovar zaxiralari, ixtirolar, «nau-xau» va boshqalardan foydalanishga doir mulkiy huquqlar kiradi. Balansda ularning dastlabki va qoldiq qiymati eskirish so‘mmasi va qoldiq qiymati aks ettiriladi.

Sarmoya qo‘yilmalariga xo‘jalik yoki pudrat usulida amalga oshirilayotgan tugallanmagan qurilish qiymati, shuningdek, geologik-qidiruv ishlariga va korxonalarga ana shu maqsadda berilgan mablag‘lar so‘mmasi kiradi.

Uzoq muddatli investitsiyalarga korxonalarning boshqa korxona ustav fondiga bir yildan ortiq muddatga qo‘yilgan omonatlari kiradi. Bundan tashqari, bu bo‘limda sotib olingan aksiyalar, boshqa korxonalarga berilgan qarzlar alohida moddalar bilan ko‘rsatiladi.

Balans aktivining 2-bo‘limi «Aylanma aktivlar» deb ataladi. Bu aylanma mablag‘larning 3 guruhiga ajratish mumkin bo‘lgan barcha so‘mmasidir.

1. Zaxiralar va sarflar - ishlab chiqarshi zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, qayta sotiladigan tovarlar, davr xarajatlari.

2. Pul mablag‘lari - kassadagi, valyuta mablag‘lari, qisqa muddatli qo‘yilmalar, qayta sotib olingan o‘z aksiyalari.

3. Debitorlar - xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar, uyushgan korxonalar bilan hisob-kitoblar, ta’sischilar va boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar.

Balans passivi ham ikki bo‘limdan iborat bo‘ladi:

1. O‘z mablag‘lari.
2. Majburiyatlar.

Balans passivining birinchi bo‘limida o‘z mablag‘lari aks ettirilib, ular quyidagi moddalar bo‘yicha guruhlangan:

* ustav sarmoyasi;
* qo‘shilgan sarmoya;
* zaxira sarmoya;
* taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar);
* maqsadli tushumlar va fondlar;
* kelgusi xarajatlar va to‘lovlar zaxiralari;
* kelgusi davr daromadlari.

Oxirgi ikkita modda oldingi yillar balansida qisqa muddatli majburiyatlar sifatida 2-bo‘limida ko‘rsatiladi. Aslida esa bu mablag‘lar o‘z mablag‘lariga kiritilishi kerak.

Ustav sarmoyasi, odatda, uning ta’sischilari qo‘shgan badallari evaziga tashkil bo‘ladi. Uning ko‘payishi xo‘jalik faoliyati davomida oladigan foyda evaziga amalga oshadi. Zarur hollarda ta’sischilarning maqsadli badallari evaziga ham ko‘payishi mumkin.

Ustav sarmoyasiga badal sharoitida asosiy vositalarni (bino, inshootlar, jihozlar, qurilmalar) va boshqa moddiy ne’matlarni hamda nomoddiy aktivlarni (er, suv va boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish huquqi, nau-xau, tovar belgilari kaiblar)ni qo‘shish mumkin.

SHuni ta’kidlash joizki, ustav kapitalining miqdori ta’sis hujjatida qayd etilgan hajmidan oshib ketmasligi lozim.

Qo‘shilgan sarmoya (kapital) - bu aksiyaning birinchi marta nominal qiymatidan ortiqcha sotish evaziga olingan emission daromaddir.

Zaxira sarmoyasi korxona ustaviga asosan foyda hisobidan tashkil qilingan zaxiralardan, inflyasiya zaxiralaridan mulkni qayta baholash uchun qayta tashkil qilingan, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mulklardan iborat bo‘ladi.

Zaxira sarmoyasi miqdori ta’sischilar tomonidan belgilangan ustav sarmoyasining 25 foizigacha miqdorda tashkil qilinishi mumkin. Zaxira sarmoyasini kelgusi xarajatlar va to‘lovlar zaxirasi bilan aralashtirmaslik va almashtirmaslik lozim. Bu zaxira korxona ustavi va qonun asosida

tashkil qilinadi. Ushbu zaxira xarajatlar va to‘lovlarga bir xil miqdorda qo‘shib berish uchun to‘planadi. Masalan, xodimlar ta’tili uchun to‘plangan mablag‘, uzoq ishlaganligi uchun to‘lanadigan rag‘batlantirishga mo‘ljallangan mablag‘, mavsumiy xarajatlar uchun to‘lanadigan mablag‘, asosiy vositalarni ta’mirlash uchun ajratilgan xarajatlar va hokazo.

Taqsimlanmagan foyda korxonaning o‘tgan va hisobot yilida taqsimlanmay qolgan foyda miqdorining ma’lum bir muddatga qoldig‘ini ifodalaydi.

Maqsadli tushumlar va jamg‘armalar - bevosita biror maqsadli tadbirlarni o‘tkazishga qaratilgan mablag‘larni o‘z ichiga oladi. Bularga: bolalar bog‘chalari, yashash va boshqa binolar qurish, ilmiy-tadqiqot ishlarini ta’minlash kabi tadbirlarga mo‘ljallangan mablag‘lar kiradi.

Kelgusi davr daromadlari kelgusi davr uchun shu joriy yilda olingan daromadlardir. Bunga: kamomadlar bo‘yicha kelgusida to‘planadigan tushumlar, aybdor shaxslardan kamomad chiqqan ne’matlarning balans qiymati miqdorida o‘ndirib olingan mablag‘lar kabi moddalar kiradi.

Balansning passiv tomonidagi ikkinchi bo‘limida huquqiy va jismoniy shaxslardan olingan va ma’lum muddatdan keyin qaytarilishi shart bo‘lgan majburiyatlar jamlangan. Bu majburiyatlar qisqa va uzoq muddatli kreditlar va zayomlardan hamda turli kreditor qarzlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Uzoq muddatli majburiyatlarga to‘lanish muddati bir yildan ortiq, qisqa muddatlilarga bir yildan kam bo‘lgan qarzlar kiradi.

Buxgalteriya balansida uzoq muddatli majburiyatlar ikkita moddada ko‘rsatiladi: «Uzoq muddatli zayomlar» va «Uzoq muddatli kreditlar».

3.1 - jadval

Buxgalteriya balansi chizmasi

(ming so‘m)

AKTIV				PASSIV			
Balans bo‘limi va moddalari soni	**Satr raqami**	**Yil boshida**	**Yil oxirida**	**Balans bo‘limi va moddalari soni**	**Satr raqami**	**Yil boshida**	**Yil oxirida**
1. Uzoq muddatli aktivlar				**1. O‘z mablag‘lari manbalari**			
Asosiy vositalar	010-012	9065	9739	Ustav, qo‘shilgan va zaxira sarmoya	320-380	294	548
Nomoddiy aktivlar	020-022	-	-	Taqsimlanmagan foyda	350	1362	3459
Sarmoya qo‘yilmalar	030	3923	3175	Maqsadli tushumlar va fondlar, bo‘lajak xarajatlar zaxiralari	360-380	294	548
Sotib olingan aksiyalar va zayomlar, uzoq muddatli investitsiyalar	040-100	39	37				
1-bo‘lim bo‘yicha jami	110	13027	12971	1-bo‘lim bo‘yicha jam	390	19882	21703
1. Aylanma aktivlar				**2. Majburiyatlar**			
Zaxiralar va sarflar	120-160	11520	12631	Uzoq muddatli qarzlar va kreditlar	400-410	95	
Pul mablag‘lari	170-190	351	304	Qisqa muddatli qarzlar va kreditlar	420-430		97
Qisqa muddatli qo‘yil-malar va qayta sotib olingan o‘z aksiyalari	200-210	2249	3631	Kreditorlar	440-530	7170	7737
2-bo‘lim bo‘yicha jami	300	14120	16566	2-bo‘lim bo‘yicha jam	540	7265	7834
BALANS	310	27147	29537	BALANS	550	27147	29537

«Uzoq muddatli zayomlar» moddasida banklardan boshqa korxona va tashkilotlardan olingan muddati bir yildan ortiq bo‘lgan qarzlar kiradi.

«Uzoq muddatli kreditlar»ga bir yildan ortiq bo‘lgan muddatga banklardan olingan qarzlar kiradi.

«Qisqa muddatli kreditlar» moddasida banklardan bir yilgacha olingan qarzlar ko‘rsatiladi. Ushbu moddada banklarning ushbu korxona xodimlariga uy-joy qurilishi uchun bergan krediti hamda tovarlarni kreditga sotib olganda uning qoldiq miqdori ko‘rsatiladi.

Qisqa muddatli qarzlarga «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar (hisob raqamiga tushganlar)» hamda «Kreditorlar» guruhiga kiruvchi balans moddalari kiradi.

«Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar (hisob raqamiga tushganlari)» moddasida boshqa tashkilotlardan kelgusi davr hisob-kitoblari uchun olingan so‘mmalari ko‘rsatiladi. Ayniqsa, hozir barcha to‘lovlar oldin amalga oshirilmoqda. Bu esa ushbu moddada pul bo‘lib turishiga asos bo‘ladi.

«Kreditorlar» guruhida turli tashkilot va korxonalardan, byudjet, sug‘urta, tovar junatuvchilar va pudratchilardan qarzlar, ishchi v axizmatchilar ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar kabi kreditlar ko‘rsatiladi.

Ko‘rinib turibdiki, buxgalteriya balansida korxonaning muayyan sanadagi (yil boshi va oxiri) xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalari aks ettirilgan.

3.5. Moliyaviy hisobotlarning shakllari va ularning o‘zaro bog‘liqligi

Buxgalteriya balansi moddalari moliyaviy hisobotning muayyan shakllari ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liqdir. Zero, 2-son «Moliyaviy natijalar haqidagi hisobot» shaklida korxona tomonidan bir yilda olingan foyda hisob-kitobi beriladi. Foydaning barcha 5 turi bo‘yicha hisob-kitob keltiriladi. Bu shakl ma’lumotnomasida esa byudjetga barcha to‘lovlar ko‘rsatiladi.

Buxgalteriya balansining passiv qismi 1-bo‘limi «O‘z mablag‘lari manbalari»da taqsimlanmagan foyda so‘mmasi ko‘rsatiladi. Aktivning 2-bo‘limida debitorlik qarzdorligida turlari bo‘yicha so‘mma beriladi. OTAJning debitorlik qarzdorligi yil oxirida 3644 ming so‘mni tashkil etdi. U bir yilda 1396 ming so‘mga oshgan. Balans passivining 2-«Majburiyatlar» bo‘limida bir yilda muddati o‘zaytirilgan debitorlik va kreditorlik qarzdorligi 85 ming so‘mga ko‘paygan va 6014 ming so‘mni tashkil etgan kreditorlik qarzdorligi qayd etilgan.

Nazorat qilish uchun moliyaviy hisobotda maxsus «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma’lumotnoma» bor. Unda debitorlik va kreditorlik qarzdorligining vujudga kelishi aks ettiriladi. Ya’ni ular qanday korxonalar bo‘yicha tashkil etilganligi va so‘mmasi ko‘rsatiladi. Misolimizda butun so‘mmada muddati uzaytirilgan debitorlik qarzdorligi 2383 ming so‘m yoki butun qarzdorlarning 65,4 foizini, kreditorlik qarzdorligi 4033 ming so‘m yoki 67,1 foizini tashkil etgan. Bunday holat qoniqarsizdir, chunki katta mablag‘lar muzlatilgan bo‘lib, ulardan xo‘jalik faoliyatida foydalanilishi mumkin emas.

4-shakl «Pul oqimlari haqidagi hisobot»da pul mablag‘larining barcha turlari - xo‘jalik faoliyati, dividendlar, soliqqa tortish, investitsiyalar va boshqalar haqidagi axborotlar ko‘rsatiladi. 4-shakl buxgalteriya balansi bilan o‘zaro bog‘liq. Buxgalteriya balansining 170, 180 va 190-satrlar bo‘yicha qoldiq pul mablag‘lari 4-shaklda 070 va 080-satrlardagi pul mablag‘lari qoldiqlariga tengdir. «Valyuta mablag‘lari harakati haqidagi ma’lumotnoma»da (090 va 120-satrlar) valyuta mablag‘lari qoldig‘i ko‘rsatiladi. Bu buxgalteriya balansida 180-satr bo‘yicha ko‘rsatiladi.

5-shakl «O‘z sarmoyasi haqidagi hisobot»da ustav sarmoyasi, qo‘shilgan ustav sarmoyasi, rezerv sarmoyasi, taqsimlanmagan foyda harakati haqidagi ma’lumotlar beriladi. Balans passivining 1-bo‘limi «O‘z mablag‘lari manbalari»da ularning yil boshi va oxiridagi ahvoli ko‘rsatilgan. Bunday shaklga asoslanib, korxonaning o‘z sarmoyasi tashkil bo‘lishi va harakati, shuningdek tuzilmasi tahlil qilinadi. Korxona moliyaviy holatini tahlil qilishda shu tarzda moliyaviy hisobotning barcha shakllaridan foydalanish zarur.

Ular bir-birini to‘ldirib boradi. Mazkur ma’lumotlar moliyaviy hisobotning shakllari o‘rtasidagi oddiy bog‘liqlikni ifodalash bilan cheklanmaydi. Ular korxonani boshqarish va ma’lumotlarni nazorat qilish uchun ham o‘ta muhimdir.

3.6. Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish muammolari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashishi, islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Chunki mulkdor iqtisodiy jarayonda asosiy sub’ekt sifatida ishtirok etadi. U o‘z mulkining ko‘payishidan, ko‘proq foyda olishidan manfaatdir. Bunga o‘z-o‘zidan erishib qolmaydi. Bu uchun tadbirkorlik, izchillik, ziyraklik va aql bilan ish ko‘rish lozim. Bu esa o‘z navbatida mulkining holatini,

ishlatilishi va saqlanishishni tahlil qilishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil eng avvolo mulkdor uchun kerak ekan.

Mulkdor o‘z mulkini ishlatish uchun turli korxonalarga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa boshqa kishilarni, mutaxassislarni, xodimlarni yollashiga to‘g‘ri keladi. Ular mehnat jamoasini tashkil qiladi. Korxonaning yaxshi, samarali ishlashi mehnat jamoasining farovonligini ta’minlaydi. Korxona qancha ko‘p daromad qilsa mehnat jamoasi a’zolari shuncha ko‘p mehnat haqi oladi.

Bu esa mehnat jamoasining o‘zlari ishlayotgan korxona xo‘jalik faoliyatini muntazzam tahlil qilib borishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil bevosita mehnat jamoasi uchun ham kerak ekan.

Har bir korxonaning xo‘jalik faoliyati natijasidan davlat ham manfaatdor. Chunki har bir korxona o‘z mulkidan, qilgan oboroti va olgan foydasidan soliq tulaydilar. Shu tufayli davlat nomidan soliq idoralari ham korxona faoliyatini chuqur tahli qilib borishdan manfaatdir. Demak, iqtisodiy tahlil soliq idoralari xodimlari uchun ham kerak ekan.

Ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy jarayonning, ya’ni korxona yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati natijasidan kim manfaatdor bo‘lsa u mazkur sub’ekt faoliyatini o‘rganishga, tahlil qilishga qiziqadi. Shunday qilib iqqtisodiy tahlil investorlarga, hamkorlarga, birlashmalarga, uyushmalarga, sug‘urta, bank, moliya idoralariga ham kerak ekan.

Odatda kimga nima kerak bo‘lsa o‘sha shu ish bilan shug‘ullanadi. Ammo har bir korxonada maxsus mutasaddi shaxslar borki, ularga xo‘jalikni boshqarishda u yoki bu soha topshirilgan bo‘ladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlil bilan korxonadagi deyarli hamma mutaxassislar shug‘ullanadi. Ammo hammasi ham korxona to‘g‘risida jamlangan batafsil axborotga ega emas. Hamma o‘zi bajarayotgan u yoki bu soha bo‘yicha axborotga ega. Shu jihatdan hamma o‘zining sohasini muntazam tahlil qilib boradilar.

Lekin shuni e’tirof etish kerakki, xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida butun faoliyatni o‘zida jamlagan axborotlar buxgalteriyada to‘planadi va qayta ishlanadi. Shu tufayli korxonaning kompleks iqtisodiy tahlili bilan buxgalteriya xodimlari, bevosita bosh buxgalterlar shug‘ullanadilar. Chunki unda korxonaning xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi barcha ko‘rsatkichlari mavjud. Ular moliyaviy hisobotlarda o‘z aksini topganlar. Iqtisodiy tahlil uchun asosiy ma’lumot manbai bo‘lib moliyaviy hisobotda ifoda etilgan ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ularning kompleks tahlili bilan bosh buxgalterlar shug‘ullanadi. Ammo alohida sohalari


bo‘yicha tahlil kimga kerak bo‘lsa o‘shalar shug‘ullanadilar. Tahlil tahlil qilish uchun emas, balki kerak sohani o‘rganish uchun qilinadi. Demak kimga nima kerak bo‘lsa u shu sohani tahlil qilish bilan shug‘ullanar ekan.

Korxonalar xo‘jalik faoliyatini chuqur o‘rganish uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:


* korxonalarning tashkiliy-texnik holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar
* ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar
* moliyaviy natijalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar
* korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensiali) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar
* korxonaning moliyaviy salohiyati (potensiali) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar
* korxonaning to‘lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar
* korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar
* korxonaning mustaqilligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar
* korxonaning iqtisodiy nochorligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar
* korxonaning faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Korxonaning tashkiliy-texnik holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarga uning tashkiliy holatini, texnik ta’minot darajasini va ishlab chiqarish jarayonining texnologik holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar kiradi. Bularning tasviri quyidagi chizmada o‘z aksini topgan (3.13-chizma).

Korxonaning mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarishi va sotishi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari ham tahlilda muhim o‘rin egallaydi. Bularga mahsulotni (ish,xizmatni) ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi kiradi. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarga ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi (natural miqdori va qiymatida), tovar mahsuloti kabilar kiradi. Hozirgi erkin iqtisodiyot sharoitida mahsulotni (ish, xizmatni) ishlab chiqarish masalaning bir tomoni. Eng asosiysi ularni sotishdir. Shu tufayli iqtisodiy tahlilda mahsulotni (ish, xizmatni) sotish hajmi muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli ko‘pgina hisobotlarda faqat sotilgan mahsulot hajmi ko‘rsatiladi, xolos. Ushbu ko‘rsatkichlar tizimi quyidagi chizmada ifoda etilgan (3.14-chizma).




3.13.-chizma. **Korxonaning tashkiliy - texnik holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**



3.14 - chizma. **Mahsulotni (ish, xizmatni) ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar**


Moliyaviy natijalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar iqtisodiy tahlilda o‘rganiladigan asosiy ko‘rsatkichlardir. Bular tarkibiga daromadlar, xarajatlar, foyda va rentabellik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar kiradi. O‘z navbatida daromadlarning ham birqancha turlari bor. Xuddi shunday xarajatlar ham, foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari ham turlicha. Qaysi ko‘rsatkichni qo‘llash tahlilning qaysi sohani o‘rganishiga va nima maqsadda amalga oshirishiga bog‘liq. Ushbu ko‘rsatkichlar bog‘liqligi quyidagi chizmada ifoda etilgan (3.15-chizma).



3.15 - chizma. **Moliyaviy natijalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi**

Daromadlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarga yalpi daromad, asosiy faoliyatdan olinadigan daromad, moliyaviy faoliyat daromadi, tasoddifiy daromad kabi ko‘rsatkichlar kiradi. Xarajatlarning ham birqancha turlari bor. Bu xarajatlar to‘g‘risidagi Nizomda o‘z aksini topgan. Foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari ham turlicha. Masalan aktivlar tahlil qilinsa aktivlar rentabelligi, xarajatlar samaradorligi tahlil qilinsa xarajatlar rentabelligi, mehnat ko‘rsatkichlari tahlil qilinsa mehnat rentabelligi kabi ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati (potensiali) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilda keng qo‘llaniladigan muhim ko‘rsatkichlardir. Ushbu ko‘rsatkichlarning hajmi korxonaning moliyaviy xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida batafsil ma’lumot beradi. Ushbu guruh ko‘rsatkichlarga asosiy vositalar, aylanma mablag‘lar, nomoddiy faollar (aktivlar) va mehnat potensiali (salohiyati) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar kiradi. Har bir guruh ko‘rsatkichlar ham o‘z navbatida birqancha ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Ularning qisqacha chizmasi quyidagicha ifoda etilgan (3.16-chizma).




3.16 - chizma. **Korxonaning iqtisodiy salohiyati bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar**

Korxonaning moliyaviy salohiyati (potensiali) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish bo‘limidagi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Chunki ular bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar korxona moliyaviy manbasining tarkibi, uning holati va samarali ishlatilishini ifodalaydi. Mazkur guruhga korxonaning o‘z mablag‘lari va unga tenglashtirilgan mablag‘lar hamda chetdan jalb qilingan uzoq va qisqa muddatli mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar kiradi. Ushbu mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ham asosan buxgalteriya balansining passiv qismida ko‘rsatiladi. Ularning


tahlili mazkur xujjatga va moliyaviy hisobotning boshqa turlariga asosan amalga oshiriladi. Mazkur ko‘rsatkichlar tizimi quyidagi chizmada ifodalangan (3.17-chizma).

Korxonaning to‘lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar erkin raqobat sharoitida o‘ta muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko‘rsatkichlar tizimini tahlil qilish orqali hamisha korxonaning bankrotlik holatiga tushib qolmasligining oldini olishga erishish mumkin. Ushbu guruh ko‘rsatkichlarga korxona balansining likvidligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, kreditni to‘lashga qodirlik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar kiradi.



3.17 - chizma. **Korxonaning moliyaviy salohiyati (potensiali) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi**

Ularning qisqartirilgan chizmasi quyidagicha ifodalangan (3.18-chizma).




3.18 - chizma. **Korxonaning to‘lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**

Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish korxona faoliyatining qanday rivojlanganligini bugungi ahvoli qanday va kelajakda qanday bo‘lishi

mumkinligini ifodalaydi. Ushbu guruh ko‘rsatkichlar tizimi juda keng. Ular quyidagi besh guruhga bo‘linadi:

* korxonaning o‘z mablag‘lari (xususiy kapital) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
* chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
* harakatdagi mablag‘lar bilan bohliq ko‘rsatkichlar;
* asosiy vositalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
* aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar.

Ularning tuzilishi quyidagi chizmada o‘z aksini topgan (3.19-chizma).




3.19 - chizma. **Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi**

Korxonaning mustahkamligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismidir. Ular o‘z mazmuni va mohiyati jihatidan ikki guruhga bo‘linadi:


* korxonaning iqtisodiy mustahkamligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
* korxonaning moliyaviy mustahkamligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar.

Ushbu ko‘rsatkichlarning bog‘liqligi quyidagi chizmada o‘z aksini topgan (3.20 - chizma).




3.20 - chizma. **Korxonaning mustahkamligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**

Korxonaning iqtisodiy nochorligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ham mulkdor va korxona menejeri uchun muhim ko‘rsatkichlardir. Shu tufayli mazkur guruh ko‘rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ularga korxonaning iqtisodiy nochorligini ifodalovchi va bankrotlik ehtimolini aniqlaydigan ko‘rsatkichlar tizimi kiradi. Ularning bog‘liqligi quyidagi chizmada keltirilgan (3.21 - chizma).



3.21 - chizma. **Korxonaning iqtisodiy nochorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**

Iqtisodiy tahlilda qo‘laniladigan ko‘rsatkichlardan yana biri **korxonaning faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlardir.** Korxona faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ikki yirik guruhga bo‘linadi: korxonaning ish faolligni ifodalovchi ko‘rsatkichlar va korxonaning bozor faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘z navbatida o‘nlab ko‘rsatkichlarni o‘zida jamlagan. Ularning qisqartirilgan chizmasi quyidagicha ifodalangan (3.22 - chizma).



3.22 - chizma. **Korxona faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**

Korxona ish faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘z navbatida yana uch guruhga bo‘linadi:

* iqtisodiy salohiyatdan foydalanish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
* moliyaviy salohiyatdan foydalanish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
* korxona faoliyati samaradorligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar.

Korxonaning bozor faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi ham uning turli bozordagi ishtiroki va o‘rnini belgilash imkonini beradi:

* korxonaning ishlab chiqarish vositalari, ya’ni texnologiya bozoridagi faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
* korxonaning xom-ashyo bozoridagi faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
* korxonaning mehnat bozoridagi faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
* korxonaning moliya va investitsiya bozoridagi faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
* korxonaning xalq iste’moli va ishlab chiqarish iste’moli bozoridagi faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

Mazkur ko‘rsatkichlarni baholash va tahlil qilish usullari ham muallifning «Moliyaviy tahlil» kitobining 244-186 betlarida yoritilgan.

Korxonaning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish bu iqtisodiy ishlarning tarkibiy qismi sifatida o‘zining boshlanishi va adog‘iga ega. Bu jarayon birqancha bosqichlardan iborat:

1. Tahlilni o‘tkazishning maqsadini aniqlash va dasturini tuzish;
2. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarni to‘plash
3. Axborotlarni tahlil maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda qayta ishlash, tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirish va jadvallar tuzish;
4. Jadval ma’lumotlari asosida dastlabki xulosalar chiqarish;

5. Xulosani chuqurlashtirish maqsadida lozim bo‘lgan holatlarni chuqurroq o‘rganish uchun ularning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta’sirini hisoblash;

6. Xo‘jalik faoliyati yoki o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar haqida mufassal xulosaga kelish;

7. Korxona xo‘jalik faoliyatini yoki o‘rganilayotgan ko‘rsatkichni yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqarish va shu tadbirlarni amaliyotga tadbiq etish.

Mazkur bosqichda tahlilning boshlanishi va adog‘igacha bo‘lgan jarayon ko‘rsatildi. Amalda doim faoliyat ko‘rsatuvchi korxona bo‘lsa tahlil ham har bir hisobot tuzilgandan keyin va yangi davrni boshlashdan oldin uzluksiz muntazam ravishda o‘tkazilib turiladi. Unda barcha bosqichlar aynan shu holatda takrorlanishi mumkin. Faqat ko‘rsatkichlarning raqamlari o‘zgaradi. Shu tufayli iqtisodiy tahlilning mantiqiy ketma-ketligini ta’minlagan holda uni kompyuterga kiritish va tahlil usulini dasturlash ham mumkin.

Albatta shuni e’tirof etish kerakki tahlil ishlarini dasturlashda va uni avtomatlashtirishda O‘zbekistonda ayrim tajribalar ham bor. Bu bo‘yicha I.O.Voljin va V.V.Ergashbaevlarning «Moliyaviy tahlil» (Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998 yil) kitobini misol keltirish mumkin.

Odatda tahlilni shunchaki tahlil qilish uchun emas, balki korxona xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida batafsil xulosaga kelib va boshqarishni takomillashtirish uchun qilinadi.Chunki tahlil jarayonida o‘rganilgan ko‘rsatkichlar, qilingan hisob-kitoblar korxona xo‘jalik faoliyatining u yoki bu jihatinigina ifodalaydi. Xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida to‘liq tushunchaga ega bo‘lish uchun barcha ko‘rsatkichlar tahlilini jamlab ularni umumlashtirish lozim. Ular umumlashgach korxona xo‘jalik faoliyatining qaysi qismida yaxshi natijalarga erishilgan, qaysi qismida kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgani aniq bo‘ladi.

Kamchilikka yo‘l qo‘yilgan qismlarga asosiy e’tiborni qaratib shu kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish yo‘llarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Bu jarayon iqtisodiy tahlilning pirovard natijasi va asosiy maqsadidir.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish tahlilning muhim bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Bunda barcha hisob-kitoblar asosida tahliliy jadvallar tuziladi. Mazkur jadvallar korxona xo‘jalik faoliyatini to‘liq ifoda etishi lozim. Shuningdek jadvallar bitta korxonada har safar, korxonaning bo‘linmalarida bir vaqtning o‘zida yagona kelishilgan

shaklda tuzilishi lozim. Bunday yondoshuv ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish va umumlashtirish imkonini beradi.

Jadvallar odatda, egasi va kesimiga ega. Uning egasisda asosan ko‘rsatkichlarning nomi, kesimida esa qaysi davrda amalga oshirilayotganligi, ularning farqi, o‘zgarish sur’atlari kabi ifodalar ko‘rsatiladi.

Jadvallar natija o‘zgarishiga ta’sirini hisoblash jarayonida ham tuziladi. Bu holda jadvalning egasida ta’sir qiluvchi omillar bilan birga natija ko‘rsatkichining nomi ifodalanadi. Uning kesimida esa qaysi davr natijalari tahlil qilinayotganligi, shu davrda yuz bergan o‘zgarishlar va ularga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun hisob-kitob qilinadigan usullarning aloqadorligi ko‘rsatiladi.

Hozirgi paytda hisob-kitob ishlari asosan kompyuterlarda amalga oshirilmoqda. Buning imkoniyati juda katta. Shu tufayli tahlilda amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari jadvallar bilan birgalikda turli chizmalar va diogrammalarda ham ifoda etilmoqda. Bu esa korxona xo‘jalik faoliyatidagi o‘zgarishlarni juda tez ilg‘ash imkonini beradi. Mazkur usullar iqtisodiy tahlilning u yoki bu jihatini aniqlashda qo‘llaniladi. Masalan, chizmalar (grafiklar) ko‘rsatkichlarining dinamikasini ifodalashda juda qo‘lay. Korxona xo‘jalik faoliyatidagi tarkibiy tuzilmalar, ularning o‘zgarishi diogrammalarda ifodalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chizma va diogrammalarning qulayligi shundaki, u korxona xo‘jalik faoliyati natijasini har qanday kishi uchun ham tez va tushunarli tarzda ifoda etadi. Masalan, korxonada beshta bo‘linma bo‘lsa ularning utgan yilga nisbatan birorta ko‘rsatkichning o‘sishini ustunli diogramma qilinsa eng yuqori natijaga erishganligi eng baland ustun sifatida yoqqol ko‘rinib turadi. Bu har bir bo‘linma xodimlarining aqliy-ruhiy kayfiyatiga ham ta’sir qiladi. Eng yuqori ustunga erishgan bo‘linma xodimlarida faxrlanish, mag‘rurlik hissi tug‘ilsa eng past ustunga ega bo‘lgan bo‘linma xodimlarida o‘z jamoasi uchun istirob hissi bo‘lishi mumkin. Unisi ham bunisi ham ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun kurashish tuyg‘usini o‘yg‘otishi tabiiy. Bu ichki omillar o‘ta muhim, ortiqcha mablag‘ talab qilmaydigan, ammo korxona xo‘jalik faoliyatiga ijobiy ta’sir qilib, uni yaxshilaydigan omillardir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, islohatlarning chuqurlashuvi korxonalar o‘rtasida erkin raqobat muhitini tug‘dirmoqda. Bu esa o‘z navbatida korxona xo‘jalik faoliyatini tezkor tarzda kundalik natijalarni o‘rganib borishni taqozo qiladi. Bu ham hisob-kitoblarga kompyuterlarni

qo‘llash natijasida ancha osonlashadi. Har kuni ish kunining oxirisida xo‘jalik faoliyatining bir kunlik natijasi qanday bo‘lganligini aniqlash mumkin. Bu esa yutuq va kamchiliklarni juda tez anglash, yutuqlarni ko‘paytirish, kamchiliklarni bartaraf qilishga asos bo‘ladi. Tahlilning ushbu shakli boshqaruvni ham tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

Kunlik natijalar har kuni jamlanib borilsa hisobot davrining xoxlagan kunida qanday natijaga erishganligini bilib olish mumkin. Masalan, bir oyning o‘n oltinchi kuni qanday natijaga erishganligini kunlik hisobotni jamlab borish orqali aniqlash mumkin. Shu, 16-chi kuni qanday natijaga erishdik va o‘tgan 16 kun mobaynida erishgan umumiy ahvolimiz qanday degan xulosani chiqarish uchun ham tegishli axborot mazkur kompyuterda mavjud bo‘ladi. Bu esa korxona xo‘jalik faoliyatini tezkor boshqarish, kamchiliklarni o‘z vaqtida, hisobot davri tugamasdan bartaraf qilish imkonini beradi.

Agar korxonaning barcha bo‘linmalarida kompyuterlar o‘rnatilgan va ular yagona setga ulangan bo‘lsa boshqarishda yangi usulni, ya’ni qog‘ozsiz va jonli muloqotsiz boshqarish usulini joriy qilish mumkin. Korxona menejeri har bir bo‘linmadan tegishli axborotlarni olib bir joyda umumlashtiradi va xulosa chiqaradi. Xulosa natijasida ishlab chiqarilgan chora-tadbirlar va tegishli topshiriqlarni ham kompyuter orqali set bilan junatish mumkin. Bu mutaxassis va bo‘linma rahbarlarining turli majlislarga, yig‘ilishlarga ketadigan vaqtini ham tejaydi.

Hisobot davri tugagach tahlil natijasi tezkor tarzda jadvallarda, chizmalarda, turli diogrammalarda tuzilib qog‘ozga chiqariladi va mutaxassislar tomonidan yozma ravishda xulosa yoziladi. Xulosada barcha erishilgan yutuqlar bilan birga yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, ularning sabablari va qanday oqibatga olib kelganligi ko‘rsatiladi. Ayniqsa yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarda kim aybdorligi ochiq-oydin ko‘rsatilishi lozim. Chunki bu tadbir kelajakda mazkur shaxsning shu kamchilikka yo‘l qo‘ymasligini ta’minlaydi.

Iqtisodiy tahlilning natijalari bo‘yicha tuzilgan barcha axborotlar, yozma xulosalar jamlanib korxona rahbariga, mulkdorga topshiriladi. Rahbar tahlil natijasiga asosan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Qaror qabul qilishda birqancha mutaxassislarni, bo‘linmalar rahbarlarini taklif qilib chuqur o‘ylangan va puxta ishlangan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Agar korxona yirik bo‘lsa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda «Fikrlar hujumi» usulidan ham foydalanishi mumkin. Bu uchun mazkur

korxonada ijodiy guruh tashkil qilingan bo‘lishi lozim. Mazkur ijodiy guruhning vazifasi korxona xo‘jalik faoliyatini yaxshilashga qaratilgan bo‘ladi. Mazkur masala «Funksional qiymat tahlili» bo‘limida atroflicha yoritilgan.

Iqtisodiy tahlil natijalari boshqaruv bilan birga auditorlarning xulosa chiqarishi uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Auditorlar oldingi taftishchilardek taftish bilan emas, endilikda tahlil bilan shug‘ullanishlari lozim. SHu tufayli tahlil usullarini, uni amalga oshirish metodologiyasini buxgalterlar qancha bilsa, auditorlar ularga nisbatan ikki karra ko‘p va puxta bo‘lishlari shart. Zero, auditorlik xulosasini chiqarish uchun faqat tahlil natijalaridan foydalanish mumkin xolos.

“Iqtisodiy tahlilning turlari axborot manbaalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish” mavzusi bo‘yicha TAYANCH IBORALAR

- Iqtisodiy tahlil turlari va shakllari to‘g‘risida tushuncha;
- Iqtisodiy tahlil turlarining tasniflash belgilari;
- Iqtisodiy tahlilni iqtisodiy mazmuni bo‘yicha tasniflash;
- Iqtisodiy tahlilni zamon nuqtai nazaridan tasniflash;
- Iqtisodiy tahlilni makon nuqtai nazaridan tasniflash;
- Iqtisodiy tahlilni tahlil qiluvchi sub’ektlari bo‘yicha tasniflash;
- Iqtisodiy tahlilni tarmoq tamoyili bo‘yicha tasniflash;
- Iqtisodiy tahlilni kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha tasniflash;
- Iqtisodiy tahlilni kompyuterlashtirish darajasi bo‘yicha tasniflash;
- Iqtisodiy tahlilni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha tasniflash;
- Iqtisodiy tahlilni o‘rganilayotgan ob’ektni qamrab olish darajasi bo‘yicha tasniflash;
- Iqtisodiy tahlilning shakllari;
- tahlil uchun zarur axborotlar va ularning turlari;
- iqtisodiy axborotlari;
- ilmiy texnikaviy axborotlar;
- tabiiy – ekologik axborotlar;
- tahlil uchun kerak bo‘lgan axborotlarga qo‘yilgan talablar va ularni to‘g‘riligini tekshirish;
- buxgalteriya hisobi axborotlari;

- iqtisodiy tahlil kimga kerak;
- iqtisodiy tahlilda o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar;
- iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bosqichlari;
- tahlil natijalarini rasmiylashtirish

“Iqtisodiy tahlilning turlari axborot manbaalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish” mavzusi bo‘yicha NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari, ularning tasnifi va tavsifi?
2. Iqtisodiy tahlilda qo’llaniladigan axborotlar tizimi nimalardan iborat?
3. Korxonalar moliyaviy hisobotlari va mazmuni hamda tahlil jarayonida foydalanilishi?
4. Buxgalteriya balansi: tuzilishi tarkibi va mazmuni?
5. Moliyaviy hisobotlarning shakllari va ularning o’zaro bog’liqligini baholang?

“Iqtisodiy tahlilning turlari axborot manbaalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish” mavzusi bo‘yicha TEST SAVOLLARI

1. Omilli tahlil...?

a) omillar ta’sirini tahlili

b) sabablar natijadorligi tahlili

c) masalalar tahlili

d) evristik tahlil

2. Tahlil natijalariga bevosita daxldorlarni qanday guruhlarga ajratiladi?

a) tashqi va ichki

b) moliyaviy va bank

c) bank va soliq

d) joriy va istiqbolli

3. Trend tahliliga ta’rif bering.

a) moliyaviy hisobot elementlari va ko‘rsatkichlarini joriy davrga bo‘lgan holatini bazis yili yoki asosiy yili ko‘rsatkichi bilan o‘rganish

b) moliyaviy hisobot asosida tahlil

c) operativ ma’lumotlar asosida o‘tkaziladigan tahlil

d) tarkibiy tahlil bo‘lib, tahlil qilinayotgan ob’ektni barcha qismlari bo‘yicha o‘rganish

4. Tezkor tahlil deganda nimani tushunasiz?

a) kunlik, smenalik va o‘n kunlik ish yakuni bo‘yicha o‘tkaziladigan tahlilni

b) milliy iqtisodiyotning tarmoqlari bo‘yicha bir butunlikda o‘tkaziladigan tahlilni

c) milliy iqtisodiyot bo‘yicha o‘tkaziladigan qismlarga ajrtatgan holdagi tahlilni

d) yillik ish yakuni bo‘yicha o‘tkaziladigan tahlilni

5. Tashqi iste’molchilar o‘tkazadigan tahlil qanday tahlil?

a) moliyaviy

b) iqtisodiy

c) boshqaruv

d) stoxastik

6. Tahlil uchun kerak bo‘lgan ko‘rsatkichlar turi hamda miqdori ...

a) o‘rganilayotgan iqtisodiy jarayonning mazmuniga, hajmiga, davriga bog‘liq

b) o‘rganilayotgan iqtisodiy jarayonga aloqasi yo‘q

c) o‘rganilayotgan iqtisodiy jarayonning shakliga hamda vujudga kelish manbasiga bog‘liq

d) foydaga bog‘liq

7. Tahlil jarayonida qanday turdagi axborot manbalaridan foydalaniladi?

a) iqtisodiy, huquqiy-me’yoriy, ilmiy-texnologik, tabiiy-ekologik va boshqa turdagi ma’lumotlar

b) iqtisodiy va huquqiy

c) iqtisodiy

d) huquqiy va tabiiy ekologik

8. Qaysi manba xususiy kapital tarkibiga kirmaydi?

a) dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv, ishchi kapital

b) ustav kapitali

c) taqsimlanmagan foyda hamda maqsadli tushumlar

d) rezerv kapitali

9. O‘zbekiston Respublikasida yillik moliyaviy hisobot shakllariga qaysi shakllar kiritilgan?

a) Buxgalteriya balansi, Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot

b) Buxgalteriya balansi, Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot, ishlab chiqarish qarorlari to‘g‘risidagi hisobot

c) Buxgalteriya balansi, Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, Debitorlik va kreditorlik qarzlar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma, Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot, Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot

d) Buxgalteriya balansi, Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot, Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot, Mehnat hisoboti

10. O‘rganadigan davriga qarab iqtisodiy tahlilning turlari qaysi javobda to‘g‘ri aks ettirilgan?

a) tezkor tahlil, joriy tahlil, istiqbolli tahlil

b) joriy tahlil, boshqaruv tahlili, moliyaviy tahlil

c) tezkor tahlil, ichki tahlil, tashqi tahlil

d) tezkor tahlil, joriy tahlil, funktsional qiymatli tahlil, xo‘jaliklararo tahlil

IV BOB. OPERATSION FAOLIYATNI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH

1. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlilining vazifalari
2. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, sotishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash yo‘llari.
3. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish ko‘rsatkichlarining tahlili.
4. Ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar ta’siri.
5. Ishlab chiqarish jarayonlari tannarxi tahlilining zaruriyati va vazifalari.
6. Ishlab chiqarish jarayonlari tannarxi tahlili.
7. Ishlab chiqarish xarajatlariga ta’sir qiluvchi omillar tahlili.

4.1. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish tahlilining vazifalari.

Jamiyat ehtiyojini yanada to‘laroq qondirish uchun zarur bo‘lgan moddiy ne’matlarni yaratish, asosan ishlab chiqarish korxonalarining zimmasiga tushadi.

Mahsuloti ishlab chiqarishni og‘ishmay o‘stirish natijasida milliy daromad hajmini oshiradi, ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlarining yuksalishi uchun qo‘shimcha manbalarni yaratadi va mehnatkashlarning moddiy farovonlik darajasini yanada oshiradi. Bozor munosabatlari sharoitida eng dolzarb masalalardan biri fan-texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirishdir. Ishlab chiqarishni texnika jihatdan zamonaviy tarzda qayta qurollantirish va qaytadan uskunalash (rekonstruksiyalash), barpo etilgan ishlab chiqarish potensialidan (imkoniyatidan) jadal (intensiv) foydalanish, boshqaruv tizimining xo‘jalik mexanizmini takomillashtirish bozor munosabatlariga o‘tish sur’atlarini va uning samaradorligini oshirish hamda shu asosda xalqning farovonligini yuksaltirishni ta’minlaydi. Binobarin ishlab chiqarish korxonalarining oldidagi bosh vazifasi yana ham ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat. Bu degani, har bir mehnat, moddiy va moliyaviy harajat birligiga ishlab chiqarish hajmi va milliy daromadni keskin tarzda oshirishni taqozo qiladi. Ana shundagina mehnat unumdorligini jadal oshirishga erishish mumkin.

Bozor munosabatlari korxona faoliyatining eng zamonaviy xo‘jalik mexanizmini vujudga keltirish vazifasini o‘rtaga qo‘ydi. Bunday mexanizm korxonani rivojlantirish uchun ta’sirchan ichki omillarni ta’minashi kerak. Iste’molchi uchun ishlashga, resurslarni butun choralar

bilan tejashga, fan va texnika yutuqlarini keng qo‘llashga undashi zarur. Bu mexanizm korxona manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg‘un va chambarchas bog‘lab olib borishni taqozo qiladi.

Mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish bo‘yicha biznes-rejani asoslanganligini va tig‘izligini aniqlash;
- korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha o‘sish sur’ati, tarkibi, nomenklatura, assortimenti, sifati va bir tekisda ishlab chiqarishga baho berish;
- o‘tgan yilga nisbatan mahsulot xajmining o‘sishi va uning sabablarini aniqlash;
- tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni etkazib berish bo‘yicha sotish rejasining bajarilishiga baho berish;
- mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotishni oshirish bo‘yicha rezervlarni aniqlash va uning tarkibi hamda sifatini yaxshilash kabilar.

Ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilishda bir qancha axborot manbalari I-P sonli «Korxona (birlashma)ning mahsulot bo‘yicha yillik hisoboti» qo‘llaniladi. Bundan tashqari oylik, choraklik hisobotlari ham qo‘llaniladi, 5-sonli «Korxonalar (tashkilotlar) mahsulot ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar xarajatlari to‘g‘risida hisobot», yangi texnikani joriy qilish bo‘yicha hisobot, mahsulotning sifati va navi bo‘ycha statistik ma’lumotlar va hokazo.

4.2. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, sotishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash yo‘llari.

Xajm ko‘rsatkichlari orasida mahsulotni realizatsiya qilish ko‘rsatkichi o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, u ishlab chiqarish samaradorligini aniqlovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir.

Darhaqiqat, sotish jarayoni – ishlab chiqarilgan mahsulotning ist’emolchilarning talab va ehtiyojlariga javob berishi demakdir. Bunday sharoitda korxonalar mahsulot assortimentini kengaytirishdan va uning sifatini yaxshilashdan u yoki bu tovarlarga bo‘lgan taklif va talablarni o‘rganishdan manfaatdor edilar, zero ishlab chiqarish sotish jarayoni bilan tugallanishi kerak edi.

Korxonalarning sotish ko‘rsatkichilari orqali ish yuritish tajribasini, jiddiy nuqsonlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Gap shundaki, korxonalar sotish rejasini orttirib bajarganlari holda, ularning ayrim iste’molchilari

bilan tuzilgan shartnoma majburiyatiga asosan tovar etkazib bermaslik hollari ko‘payishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, iqtisodiyotning rivojlanishiga juda katta zarar etkazardi. SHu sababli korxonalarning xo‘jalik faoliyatiga baho berishda muhim ko‘rsatkich sifatida sotish rejasining shartnoma majburiyatlariga nisbatan bajarilishini olish lozim.

Darvoqe, mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha reja bajarilish darajasining eng maqbul miqdori 100 foizdir. Mahsulotni realizatsiya qilish avvalambor, tovar mahsulotini ishlab chiqarishga bog‘liq.

Tovar mahsuloti deganda, barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o‘tagan, to‘la butlangan, texnika nazorati bo‘limidan o‘tgan va omborga topshirilib sotishga mo‘ljallangan mahsulot tushuniladi.

Sotilgan mahsulot deganda, tovarlar iste’molchilarga yuborilganda yoki uning puli tovar yuboruvchilarining bankdagi hisob raqamiga o‘tkazilishi tushuniladi.

Sanoat mahsuloti har xil baholarda, ya’ni rejada qabul qilingan ulgurji bahoda hisoblanilar edi. Bu esa ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan mahsulotni taqqoslash uchun imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari tovar mahsuloti hisobotida amaldagi ulgurji baho bilan ham hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini tannarx, foyda kabi ko‘rsatkichlar bilan bog‘lash uchun imkoniyat beradi, chunki tannarx va foyda ko‘rsatkichlarini o‘lchash uchun asos qilinib amaldagi ulgurji baho olinardi.

Tovar mahsuloti asosan shartnoma bahoda, o‘zgarmas ulgurji va amaldagi ulgurji bahoda hisoblanadi

Tovar va realizatsiya ko‘rsatkichlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘liq. Masalan, hisobot davrida realizatsiya qilinmagan mahsulot (tayyor mahsulot, jo‘natilgan tovarlar)ning yil boshiga bo‘lgan qoldig‘iga ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qo‘shilib realizatsiya qilinmagan mahsulotlarning yil oxiridagi qoldig‘i ayirib tashlanadi.

Sof mahsulot tovar mahsuloti bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar (shu jumladan asosiy ishlab chiqarish vositalarining amortizatsiyasi) summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlaniladi. Bu ko‘rsatkichdan foydalanish mehnat jamoalarini buyumlashgan mehnatni kam sarflab mahsulot chiqarishni ko‘paytirishdan manfaatdor qiladi. Moddiy ishlab chiqarishda barcha taromoqlarning sof mahsulot summasi mamlakatda hosil qilingan milliy daromadni tashkil etadi. Sof mahsulot ko‘rsatkichidan foydalanish chiqimsiz xo‘jalik mexanizmini shakllantirishning yo‘nalishlaridan biridir.

Ayrim hollarda boshqaruv tahlilida to‘g‘ri baho berishga erishish uchun normativ sof mahsulot (NSM) ko‘rsatkichidan ham foydalaniladi. Normativ sof mahsulot ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy va qo‘shimcha ish haqini, sotsial sug‘urta uchun ajratmalar va normativ foydani jamlash orqali aniqlanadi.

Sof mahsulotda bo‘lganidek, NSMning iqtisodiy mazmunini yangidan hosil qilingan qiymat tashkil qiladi.

NSM sof mahsulot singari chiqimsiz xo‘jalik mexanizmining muhim yo‘llaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Lekin NSM bir qancha nuqsonlardan holi emas. Uni qo‘llash doirasi juda ham cheklangan. U asosan mehnat unumdorligining o‘sish sur’atlarini aniqlash va ish haqi normativlarini belgilashda foydalaniladi. Bundan tashqri, u tannarx, foyda, rentabellik, korxonaning daromadi singari moliyaviy holatga doir ko‘rsatkichlari bilan bog‘lanmagan va nihoyat, NSM ko‘rsatkichi mahsulot tarkibidagi strukturaviy o‘zgarish ta’siriga beriluvchi bo‘ladi: ikkinchi darajali, ammo nisbatan ko‘p mehnat talab qiladigan mahsulotlarni ko‘paytirish hisobiga NSMni tovar mahsulotiga nisbatan jadalroq o‘stirishni ta’minlash mumkin.

Shartli sof mahsulot (SHSM) – bu sof mahsulot qo‘shuv asosiy vositalarning amortizatsiyasidir. Bu ko‘rsatkich ham ayrim korxonalarda qo‘llanilishi mumkin. Biroq bozor munosabatlari sharoitida asosiy ko‘rsatkich erkin shartnomaviy narx bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda har bir korxona o‘zining hisob siyosatini mustaqil hal qiladi. Bu esa uning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib qaysi ko‘rsatkichni qo‘llashni o‘zlari mustaqil tanlash imkonini beradi.

4.3. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish ko‘rsatkichlarining tahlili

Korxonalar faoliyatini ifodalovchi hajm ko‘rsatkichlari tahlili iqtisodiy adabiyotlarda etarlicha yoritilgan. Deyarli barcha iqtisodiy tahlilga bag‘ishlangan darsliklarda ushbu masalaga u yoki bu darajada to‘xtalib o‘tilgan.

Ammo bozor munosabatlarining shakllanishi, iqtisodiyotning erkinlashuvi, ko‘pmulkchilikka asoslangan iqtisodiy tizimda kichik biznesga asoslangan xususiy sektor korxonalarining vujudga kelishi bu sohaga yangicha yondoshishni, iqtisodiy tahlilning o‘ziga xos usullarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa iqtisodiyotning hozirgi bosqichida tahlil tahlil qilish uchun emas, balki korxonani bevosita oqilona boshqarish uchun zarur bo‘lmoqda. Shu tufayli iqtisodiy tahlilga

talab va uni amalga oshirish zarurati yanada kuchaydi. Boz ustiga hozirgi iqtisodiy vaziyat ichki imkoniyatlarni axtarib topishni taqozo qilmoqda. Bu esa bevosita omilli tahlil usullarini ham keng miqyosda qo‘llashni talab qilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, xususiy korxonalarda hajm ko‘rsatkichlari ichida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kichik hajmga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarida ushbu ko‘rsatkichlarga ta’sir qiluvchi omillar ham o‘zgaradi. Bu esa ularni tahlil qilish usullariga ham o‘ziga xos tarzda yondoshuvni taqozo qiladi. Ammo yuqorida nomlari zikr etilgan shu sohaning etakchi olimlari adabiyotlarida aynan, xususiy mulkka asoslangan kichik biznes korxonalariga xos tahlil usullari, ayniqsa omilli tahlil etarli darajada yoritilmagan. Shularni inobatga olib mazkur korxonalarda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish, tannarx, foyda kabi natijaviy ko‘rsatkichlar hamda rentabellik, raqobatbardoshlik kabi nisbiy ko‘rsatkichlar o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar tizimini ishlab chiqish va ularni hisoblash yo‘llarini ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida tovarni ishlab chiqarish bilan birga uni sotish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin tovarni sotish qanchalik muhim bo‘lmasin oldin uni ishlab chiqarish lozim. Ishlab chiqarish bo‘lmasa, tabiiyki, sotish bo‘lmaydi. Ammo ishlab chiqarish, oldingidek, faqat ishlab chiqarish uchun emas, balki sotishga qaratilgan, tovar esa iste’molchining talabiga javob beradigan bo‘lishi lozim.

Bu jarayonlar o‘z-o‘zidan ushbu ko‘rsatkichlar tahliliga ham alohida, bugungi zamon nuqtai nazari bilan yondoshishni talab qiladi. Ushbu talabdan kelib chiqib mahsulotni ishlab chiqarish va sotishni tahlil qilish uchun quyidagi umumlashgan jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (4.1-jadval).

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxona mahsulotni ishlab chiqarish bo‘yicha hisobot yilida rejani 100,9 %, sotish hajmi bo‘yicha esa 102,3 % ga bajargan. O‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish sur’ati ham mahsulotni ishlab chiqarish bo‘yicha 107,3 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, sotish bo‘yicha esa 108,9 % ni tashkil qilgan. Sotish hajmining tez o‘sishi sotilmay qolgan tovarning kamayishidan, barcha ishlab chiqarilgan mahsulotning o‘z xaridorini topayotganidan dolalot beradi. O‘tgan yilda barcha ishlab chiqarilgan tovarlarning 98,05 % sotilgan bo‘lsa, hisobot yilida bu ko‘rsatkichning miqdori 99,51 % ga

etgan. Bu ham sotilgan mahsulot bo‘yicha ijobiy natijaga erishilganligidan dalolatdir.

4.1 - jadval

«Turon» ko‘ptarmoqli mas’uliyati cheklangan jamiyatda 2003 yilda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishi va ularning o‘zgarishini aniqlash hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilda	Hisobot yilida		Farqi (+,-)		O‘zgarish sur’ati	
		rejada	haqi-qatda	rejaga nisba-tan	o‘tgan yilga nisba-tan	rejaga nisba-tan	o‘tgan yilga nisba-tan
1. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, shartli banka	41040	43646	44025	+379	+2985	100,9	107,3
2. Sotilgan mahsu-lot hajmi, shartli banka	40237	42815	43811	+996	+3574	102,3	108,9
3. Sotilgan mahsu-lotning ulushi, %	98,05	98,11	99,51	+1,40	+1,46	X	X

Manba: Korxonaning yillik hisobotlari asosida tuzildi.

Ushbu jadval ma’lumotlari ishlab chiqarilgan va sotilgan tovarlar haqida umumiy xulosa qilishga asos bo‘ladi. Ammo ko‘pincha shunday holatlar bo‘ladiki, bu umumiy muvoffaqiyatlarning ichida ayrim kamchiliklar, hali ishga solinmagan imkoniyatlar (rezervlar) yashirinib yotgan bo‘lishi mumkin. Bularni aniqlash uchun ushbu umumiy hajmni alohida tovar guruhlari bo‘yicha ham o‘rganishni taqozo qiladi. Bu uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (4.2-jadval).

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mahsulot ishlab chiqarish rejasi hisobot yilida umumiy hajmi bo‘yicha 100,9 % bajarilgan. Ularni alohida tovar guruhlari bo‘yicha tahlil qilganda shu aniq bo‘ldiki, ishlab chiqarish rejasi umuman bajarilganligi bilan ayrim mahsulot turlari bo‘yicha haqiqiy miqdor rejaga nisbatan ancha kam bo‘lgan. Xususan, o‘rik sharbati bo‘yicha reja atigi 68,4 % bajarilgan, pamidor sharbati ishlab chiqarish bo‘yicha reja bajarilishi 96,0 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, sabzi sharbati bo‘yicha 97,8 % ga teng bo‘lgan. Ko‘rinib turibdiki, etti xil mahsulotning to‘rttasi bo‘yicha reja bajarilgan bo‘lsa, uchtasi bo‘yicha bajarilmagan. Agar shu mahsulotlar bo‘yicha reja bajarilganda edi, haqiqiy natija yana 2844 shartli bankaga (2468+207+169) oshgan bo‘lar edi. U holda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining haqiqiy hajmi 44025 shartli banka emas, balki 46869 shartli bankaga (44025+2844) teng bo‘lar edi. Agar ushbu ichki imkoniyatdan

to‘liq foydalanilganda mahsulot ishlab chiqarish rejasi 100,9 % emas, balki 107,4 % ni (46869:43646 ·100) tashkil qilgan bo‘lar edi.

4.2 - jadval

«Turon» KMCHJda 2003 yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmini alohida tovar guruhlari bo‘yicha reja bajarilishining hisob-kitobi

(natural miqdorda)

Ko‘rsatkichlar	O‘t-gan yil-da	Hisobot yilida		Farqi (+,-)		O‘zgarish sur’ati	
		Reja-da	haqi-qatda	rejaga nisba-tan	o‘tgan yilga nisba-tan	rejaga nisba-tan	o‘tgan yilga nisba-tan
1. Olma sharbati	6253	6640	6711	+71	+458	101,1	107,3
2. O‘rik sharbati	7360	7818	5350	-2468	-2010	68,4	72,7
3. Uzum sharbati	4130	4400	6205	+1805	+2075	140,7	150,2
4. Pamidor sharbati	4815	5119	4912	-207	+97	96,0	102,0
5. Gilos sharbati	6252	6641	7881	+1240	+1629	118,7	126,1
6. Sabzi sharbati	7258	7717	7548	-169	+290	97,8	104,0
7. Behi sharbati	4972	5311	5418	+107	+446	102,0	109,0
Jami:	41040	43646	44025	+379	+2985	100,9	107,3

Manba: Korxonaning buxgalteriya hisobi hisobotlari asosida tuzildi.

Xuddi shunday xulosani o‘tgan yilgi ma’lumotlar bilan solishtirib ham chiqarish mumkin. O‘tgan yilga nisbatan ham o‘rik sharbatini ishlab chiqarish 2010 shartli bankaga yoki 27,3 % ga (100,0-72,7) kam bajarilgan. Bu ham korxonaning ichki imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi.

Albatta, shuni inobatga olish lozimki, shu oxirgi ikki yil mobaynida o‘rikzorlarning xosildorligi Samarqand viloyatida, ayniqsa, shu kichik korxona joylashgan Oqdaryo tumanida yaxshi bo‘lmadi. Ammo bu masalaning oldini olish, ya’ni o‘rikni yaqin Navoiy va Jizzax viloyati tumanlaridan, hosildorlik yaxshi bo‘lgan joylardan tayyorlab olib kelish mumkin edi. Bundan tashqari mazkur korxona o‘rik sharbati etishtirib berish bo‘yicha oxirgi ikki yilda tuzgan shartnoma shartlarini ham to‘liq bajarmadi. Demak, bunday sustkashlik oqibati nafaqat bitta korxonaga, balki ularning hamkorlari faoliyati natijalariga ham salbiy ta’sir qildi.

4.4. Ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili

Mahsulot hajmining natural miqdori bo‘yicha umumiy o‘zgarishiga ham birqancha omillar ta’sir qiladi. Ularning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Birinchisi, mahsulot umumiy natural miqdorining bajarilish koeffitsienti va ikkinchisi, mahsulot assortimentining tarkibiy o‘zgarishi. Tahlil jarayonida shu ikki omilning ham ta’sirini aniqlash lozim. Bularni aniqlash uchun bir qancha hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab qiladi.

Eng avvalo, barcha mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha natural miqdorining umumiy bajarilish koeffitsientini (Knm) aniqlab olish lozim. Bu uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

Umumiy mahsulot natural miqdori rejasining bajarilish koeffitsi-enti (Knm) = **Haqiqiy bajarilgani** / **Rejada ko‘zda tutilgani** = **44025** / **43646** = **1,00868**

Ushbu koeffitsient aniqlangach mazkur omilning mahsulot hajmining o‘zgarishiga ta’sirini (ΔQknm) hisoblash mumkin. Bu uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Q_{knm} = (Q_r * K_{nm}) - Q_r$$

Bunda: *Qr – haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi miqdori va rejadagi bahoda ifodalanishi;*

Knm - mahsulot natural miqdori rejasining umumiy bajarilish koeffitsienti;

Agar ushbu formulani kengaytirib yozadigan bo‘lsak quyidagi formulaga ega bo‘lish mumkin:

$$\Delta Q_{knm} = (q_r * p_r) * K_{nm} - (q_r * p_r)$$

Ushbu formulaning birinchi qismini yana boshqacha ko‘rinishda ham ifodalash mumkin:

Rejadagi baho va rejadagi tarkibdagi haqiqiy tovar mahsulotining miqdori = **Haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi miqdori va rejadagi bahodagi hajmi** X **Knm;**

Ushbu omillarning ta’sirini hisoblash uchun mahsulot hajmining qiymati aniqlanadi va ushbu jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (4.2-jadvalga qaralsin).

U holda olma sharbati bo‘yicha reja bahosidagi tovar mahsuloti haqiqatdagi rejadagi tarkibda Knm.ni qo‘llab quyidagicha hisoblanadi:

2363,8 x 1,00868 = 2384,3 ming so‘m

Xuddi shu tarzda boshqa mahsulotlar bo‘yicha ham hisoblash mumkin (6-ustun).

Tovar mahsuloti hajmining ikkinchi omil, ya’ni tovar guruhlarining tarkibiy tuzilishi o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Q_{tt} = q_h * p_r - (q_r * p_r) * K_{nm}$$

Bunda: ***ΔQtt*** *- mahsulot hajmining o‘zgarishiga ularning tarkibiy tuzilishi o‘zgarishining ta’siri;*

q^h *- mahsulotning haqiqatdagi natural miqdori;*

q^r *- mahsulotning rejadagi natural miqdori;*

p^r *-1 shartli banka mahsulotning rejadagi bahosi.*

Ushbu formulaning birinchi qismini yana quyidagicha ham ifodalash mumkin:

Haqiqatda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining rejadagi bahosi	**Haqiqatda ish-lab chiqaril-gan mahsulot hajmi**	**Mahsulotning rejadagi bahosi**

Ushbu ko‘rsatkichni 4.2-jadvaldagi ma’lumotlardan foydalangan holdagi aniqlanganda olma sharbati bo‘yicha haqiqatdagi mahsulot qiymati rejadagi bahoda quyidagicha bo‘ladi:

6711 x 356 = 2389,1 ming so‘m

Xuddi shu ko‘rsatkich o‘rik sharbati bo‘yicha:

5350 x 741 = 3964,4 ming so‘m va h.k.

1. Agar ushbu omillarni mahsulotning umumiy hajmi bo‘yicha aniqlash lozim bo‘lsa, shu tovar assortimentlari bo‘yicha
2. hisoblangan omillarni jamlash mumkin. Bu uchun quyidagi ikkita formula tavsiya qilinadi:
3. Birinchi omil uchun: $\Delta Q_{knm} = (q_r * p_r) * K_{nm} - (q_r * p_r)$
4. Ikkinchi omil uchun: $\Delta Q_{tt} = q_h * p_r - (q_r * p_r) * K_{nm}$

4.3 - jadval

«Turon» KMCHJda 2003 yilda ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

Mahsulotlarning nomi	Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, shartli bankada			1 shart-li banka mahsulotning rejadagi bahosi	Reja bahosidagi tovar mahsuloti			Farqi		
	Rejada	haqi-qatda	farqi (+,-)		rejada	haqi-qatda reja-dagi tar-kibda	haqi-qatda	Jami	SHu jumladan	
									umumiy miq-dori o‘zga-rishi evaziga	tar-kibi o‘zga-rishi evaziga
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1. Olma sharbati	6640	6711	+71	356	2363,8	2384,3	2389,1	+25,3	+20,5	+4,8
2. O‘rik sharbati	7818	5350	-2468	741	5793,1	5843,4	3964,4	-1828,7	+50,3	-1879,0
3. Uzum sharbati	4411	6205	+1794	652	2876,1	2901,1	4045,7	+1169,6	+25,0	+1144,6
4. Pamidor sharbati	5119	4912	-202	231	1181,3	1191,6	1135,7	-45,6	+10,3	-55,9
5. Gilos sharbati	6641	7881	+1240	852	5658,1	5707,2	6714,6	+1056,5	+49,1	+1007,4
6. Sabzi sharbati	7717	7548	-163	456	3516,2	3546,7	3441,9	-74,3	+30,5	-104,8
7. Behi sharbati	5311	5418	+107	584	3101,5	3128,5	3164,1	+62,5	+26,9	+35,6
Jami:	43646	44025	+379	X	24490,1	24702,8	24855,5	+365,4	+212,7	+152,7

Manba: 4.2-jadval ma’lumotlari asosida tavsiya qilingan usulni qo‘llagan holda hisob-kitob qilindi.

Shu ikki omilning amaliyotda qo‘llanilishini ko‘rib chiqish ushbu nazariy tavsiyalarning amaliy qimmatini oshiradi. Bu uchun yana 4.3-jadvaldan foydalanish tavsiya qilinadi.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining haqiqiy hajmi reja bahosida 365,4 ming so‘mga (24855,5-24490,1) ko‘paygan. Bu o‘zgarishga ikkita omil ta’sir qilganligini ko‘ramiz.

Birinchidan, tovar mahsulotining o‘zgarishiga mahsulot natural miqdorining ko‘payishi ta’sir qilgan. Mazkur ko‘rsatkich rejasi bajarilish koeffitsientining 0,87 foiz bandga oshganligi tovar mahsuloti hajmini 212,7 ming so‘mga ko‘paytirgan:

24702,8 - 24490,1 = + 212,7 ming so‘m

Ikkichidan, tovar mahsulotining o‘zgarishiga ularning tarkibiy tuzilishidagi o‘zgarishi ta’sir qilgan. Uni aniqlash uchun haqiqatdagi tovar mahsulotining rejadagi bahosidagi miqdoridan uning rejadagi tarkibdagi miqdori ayriladi, u holda natija quyidagicha bo‘ladi.

24855,5 - 24702,8 = - 152,7 ming so‘m.

SHu ikki omilning ta’siri natija o‘zgarishining umumiy farqiga teng:

212,7 + 152,7 = + 365,4 ming so‘m.

Tovar mahsuloti o‘zgarishiga ushbu omillardan tashqari yana bir qancha omillar ham ta’sir qilishini inobatga oladigan bo‘lsak mazkur hisob-kitoblarni davom ettirish mumkin. Umuman olganda tovar mahsuloti qiymatining o‘zgarishiga yuqorida ko‘rsatilganlar bilan birga yana bir qancha omillar ta’sir qiladi. Bular jumlasiga:

* tovar mahsulotining natural miqdori;
* tovar mahsulotining tarkibiy tuzilishidagi o‘zgarishlar;
* tovar mahsulotining tannarxi;
* tovar mahsulotining bahosi

kabi omillar kiradi. Ularning ta’sirini hisoblash uchun birqancha hisob-kitoblarni amalga oshirishni tavsiya qilamiz.

Korxonada tovar mahsulotini ishlab chiqarishning natural miqdori oshganligining umumiy qiymatiga ta’sirini ($\Delta T_{M.NM}$) aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta T_{M.NM} = \sum_{i=1}^{n} [T_{mi}^{r} \cdot (Tm.nqi^{h} / Tm.nqi^{r})] - \sum_{i=1}^{n} Tm.i^{h};$$

Bunda: *Tmi.* ^{r} *- i - tovar guruhi bo‘yicha tovar mahsulotining rejadagi qiymati;*

Tm.nqi ^{h} *- i-tovar guruhi bo‘yicha tovar mahsulotining natural miqdori, haqiqatda;*

Tm.nqi$^{\mathbf{r}}$ *- i tovar guruhi bo‘yicha tovar mahsulotining natural miqdori, rejada;*

i - tovar guruhlarining tartib raqami (i=1,n)

n - tovar guruhlarining umumiy soni.

2. Tovar mahsulotining o‘zgarishiga uning tarkibiy tuzilishidagi o‘zgarish (**ΔT$_{M.tt}$**) ham sezilarli darajada ta’sir qiladi. Uni aniqlash uchun haqiqatdagi tovar mahsulotining rejadagi bahosi bilan hisoblangan miqdoridan ($\sum_{i=1}^{n} T_{M.}\text{p}\acute{o}i^{\text{h}}$) haqiqatdagi tovar mahsulotining rejadagi tarkibdagi miqdori ($\sum_{i=1}^{n} T_{M.}i^{\text{r}}$·Knmi) ayriladi. Bu uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$\mathbf{\Delta T_{M.TT} = \sum_{i=1}^{n} T_{M.}\,rbi^{h} - (\sum_{i=1}^{n} T_{M.}\,i^{r} \cdot Knmi);}$$

3. Tovar mahsuloti qiymatining o‘zgarishiga bahoning o‘zgarishi ham alohida ta’sir qiladi. Ushbu ko‘rsatkichni (**ΔT$_{M.B}$**) aniqlash uchun haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi tannarxi bilan hisoblangan hajmidan ($\sum_{i=1}^{n} T_{M.}\text{rtn}^{\text{h}}$) haqiqiy tovar mahsulotining rejadagi bahosida hisoblangan hajmini ($\sum_{i=1}^{n} T_{M.}\text{rbi}^{\text{h}}$) ayirib tashlanadi. Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\mathbf{\Delta T_{M.B} = \sum_{i=1}^{n} T_{M.}\,rtn^{h} - \sum_{i=1}^{n} T_{M.}\,rbi^{h};}$$

4. Tovar mahsuloti hajmining o‘zgarishi bevosita uning tannarxidagi o‘zgarishlarga ham bog‘liq. Agar tannarxi qancha past bo‘lsa bir xil bahoda ko‘p foyda olish mumkin va aksincha. Agar mahsulotning tannarxini kamaytirsak, teng holda, uning narxini pasaytirib ham foyda olishga erishishimiz mumkin. SHu tufayli mahsulot hajmining o‘zgarishiga tannarxning ta’siri ham hisoblanishi lozim. Ushbu omilning ta’sirini ($\Delta T_{M.TN}$) aniqlash uchun tovar mahsulotining haqiqiy miqdoridan ($\sum_{i=1}^{n} T_{M.}^{\text{h}}$) uning rejadagi tannarx bilan hisoblangan miqdori ayriladi

($\sum_{i=1}^{n} T_{M.}\text{rtn}^{\text{h}}$). Bu uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\mathbf{\Delta T_{M.TN} = \sum_{i=1}^{n} T_{M.}^{\,h} - \sum_{i=1}^{n} T_{M.}\,rtn^{h};}$$

Barcha omillar ta’siri natijaning umumiy farqiga teng bo‘lishi lozim:

$$\mathbf{\Delta T_{M.} = \Delta T_{M.NM} \pm \Delta T_{M.TT} \pm \Delta T_{M.B} \pm \Delta T_{M.TN};}$$

Ushbu formulalarga aniq ma’lumotlarni qo‘llab echish uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (4.4-jadval).

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining hajmi hisobot davrida 2195,9 ming so‘mga yoki 9,0 % ga (26686,0 : 24490,1 . 100) ko‘paygan. Ushbu o‘zgarishga bir qancha omillar ta’sir qilgan. Ular quyidagilardan iborat.

1. Ushbu korxonada tovar ma’lumotining natural miqdori 379 shartli bankaga ko‘payishi uning qiymatini 212,7 ming so‘mga oshirgan.

4.4 - jadval

«Turon» KMCHJda 2003 yilda tovar mahsuloti o‘zgarishiga alohida omillar ta’sirining hisob-kitobi

Mahsulotning nomi	Tovar mahsuloti (ming so‘m)				haqi-qatdagi tarkib, tannarx bahoda	farqi (+,-)
	rejada	Haqiqatda				
		rejadagi tarkibda	rejadagi tannarxda	rejadagi bahoda		
A	1	2	3	4	5	6
1. Olma sharbati	2363,8	2384,3	2389,1	2134,1	2496,5	+132,7
2. O‘rik sharbati	5793,1	5843,4	3964,4	3761,1	4215,8	-1577,3
3. Uzum sharbati	2876,0	2901,1	4045,7	3859,5	4300,1	+1424,1
4.Pamidor sharbati	1181,3	1191,6	1135,7	992,2	1286,9	+105,6
5. Gilos sharbati	5658,1	5707,2	6714,6	6391,5	7132,3	+1474,2
6. Sabzi sharbati	3516,2	3546,7	3441,9	3049,4	3781,5	+265,3
7. Behi sharbati	3101,6	3128,5	3164,1	2958,2	3472,9	+371,3
Jami:	24490,1	24702,8	24855,5	23145,7	26686,0	+2195,9

MANBA: Korxonaning buxgalteriya hisobi va hisobotlari hamda 4.2. va 4.3-jadvallar ma’lumotlari asosida hisoblandi.

24702,8-24490,1 = +212,7 ming so‘m

2. Tovar mahsuloti tarkibida narxi qimmat bo‘lgan tovarlarning ulushi kamayganligi uning umumiy qiymatini ancha pasayib ketishiga sabab bo‘lgan. Buning natijasi bizning misolimizda 152,7 ming so‘mga teng:

24855,5 - 24702,8 = +152,7 ming so‘m

3. Mazkur korxona ishlab chiqargan tovar mahsulotini tannarxi hajmida sotganda edi, uning umumiy hajmi 1709,8 ming so‘mga kam bo‘lar edi. Ko‘rinib turibdiki, korxona o‘z mahsulotini qimmatroq bahoda sotib ancha foyda olishga erishgan. Ushbu hisob-kitob bizning misolimizda quyidagicha aniqlangan:

23145,7 - 24855,5 = -1709,8 ming so‘m

4. Mahsulot bahosining oshganligi tovar mahsuloti hajmini 3540,3 ming so‘mga ko‘paytirgan. Bu bizning misolimizda quyidagicha aniqlanadi:

26686,0 - 23145,7 = +3540,3 ming so‘m

Barcha omillar ta’siri natija o‘zgarishining umumiy farqiga teng:

212,7 – 152,7 - 1709,8 + 3540,3 = +2195,9 ming so‘m

Ko‘rinib turibdiki, tovar mahsulotining hajmining o‘zgarishiga to‘rtta omildan uchtasi ijobiy, bittasi esa salbiy ta’sir qilgan. Kelgusida salbiy ta’sir qilgan omillarga asosiy e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi.

4.5. Ishlab chiqarish jarayonlari tannarxi tahlilining zaruriyati va vazifalari

Ishlab chiqarish faoliyati birinchi navbatda jonli va moddiylashtirilgan mehnat xarajatlari, mehnat vositalari va moliyaviy resurslarning ishlatilishiga bog‘liqdir.

Har qanday tadbirkor o‘z faoliyatini boshlayotganda faoliyatiga muvofiq keladigan darajada resurslarga ega bo‘lishi lozim. Ularni ishlab chiqarish jarayoni mahsulotni sotish evaziga daromad olishga tayyor bo‘lishi kerak. Bu daromad ishlab chiqarish xarajatlaridan ko‘p bo‘lishi kerak. Farq qancha katta bo‘lsa, foyda va faoliyatining samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Har bir tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirayotib, uning qilgan xarajatlari ma’lum darajada foyda keltirishga intiladi. Foydasiz va keraksiz xarajatlar iloji boricha yo‘q qilinishi yoki minimumgacha keltirilishi kerak.

Buning hammasiga xarajatlarni rejalashtirish, to‘g‘ri hisobga olish va tahlil qilish orqali uni mohirlik bilan boshqarish natijasida erishish mumkin. Bu esa o‘z navbatida «Xarajat» turlarini va ko‘rsatkichlarini, ularni ifodalovchi hisob usullarini, xarajatlarni rejalashtirish va tahlil qilishni amalga oshirishni talab qiladi.

Hamma xarajatlar qo‘yidagi belgilar asosida kategoriyalarga turkumlanadi:

- boshqaruv sohasidagi roli bo‘yicha;
- xarajatlarni nazorat qilish darajasi bo‘yicha;
- xarajatning funksional o‘zgarishi bo‘yicha;
- iqtisodiy mazmuni bo‘yicha;
- kalkulyasiya moddalari bo‘yicha;

- xarajatlarning hisobi va mahsulot tannarxiga kiritilishi bo‘yicha.

Boshqaruv sohasidagi roli bo‘yicha xarajatlar ikki guruhga birlashtirilgan:

a) ishlab chiqarish xarajatlari;

b) noishlab chiqarish xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Ular o‘z navbatida qo‘yidagi bo‘limlarga ajratiladi;

- materiallarning bevosita xarajatlari;
- mehnat haqi uchun bevosita xarajatlar;
- ishlab chiqarish umumiy xarajatlari.

Materiallarning bevosita xarajatlari va mehnat haqi uchun bevosita xarajatlar birlamchi xarajatlar hisoblanadi, chunki ular bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq va to‘g‘ri mahsulot birligining tannarxiga kiritiladi. Ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari belvosita xarajatlar deyiladi, ya’ni o‘z qiymatini tayyor mahsulotga qisman-qisman o‘tkazib boradigan xarajatlardir. Masalan, asosiy vositalarning tannarxiga kiritiladigan xarajatlari bo‘yicha misol bo‘ladi. Uning natural shakli o‘zgarmaydi. Mahsulot shaklida yoki tarkibida o‘z ifodasini topmaydi. Lekin b xarajatlarga kiritiladi. Birlamchi va bilvosita xarajatlar yig‘indisi mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Noishlab chiqarish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq emas.Ular mahsulot sotish, ilmiy izlanish, ma’muriy boshqaruv xarajatlarini, kredit bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlarini va bevosita korxona ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Xarajatlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlariga bo‘linishi buxgalteriya hisob va tahlilini amalga oshirishda va korxona faoliyati natijalariga ta’sir qiluvchi omillarni hisoblashda inobatga olish zarurligi bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, korxona ular asosiga ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlarning umumiy xarajatlar summasidagi ulushi to‘g‘risida xulosalar qilishda va xarajatlarni qisqartirish va tejash boshqaruv qarorlarini qabul qilishida ham foydalanish mumkin. Noishlab chiqarish xarajatlarining ulushi oshishi foydaning kamayishiga va ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari summasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar moliyaviy hisobotlarning 2 shakl «Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot», 5 shakl «Buxgalteriya balansiga ilova»,

6 bo‘lim «Korxona tomonidan qilingan xarajatlar», shuningdek, «Korxona mahsulotini ishlab chiqarish va sotish to‘g‘risidagi hisobot» nomli statistik hisobotlarida keltiriladi.

Xarajatlarni nazorat qilish darajasi bo‘yicha, ya’ni ob’ekt tannarxning kalkulyasiya qilinishi mumkinligiga qarab to‘g‘ri va egri (to‘g‘ri bo‘lmagan) xarajatlarga bo‘lish mumkin.

To‘g‘ri xarajatlar – bu alohida turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda tannarxiga bevosita kiritiladigan xarajatlar: Aniq mahsulot uchun qilingan to‘g‘ri xarajatlarni va bo‘limlar uchun qilingan to‘g‘ri xarajatlarni farqlay bilish kerak.

Agar xarajatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniq mahsulotga olib borish mumkin bo‘lsa bu ushbu mahsulot uchun to‘g‘ri xarajat bo‘lib hisoblanadi. Korxonaning bo‘limlari bilan bevosita bog‘liq xarajatlar bu bo‘limning to‘g‘ri xarajati xisoblanadi, lekin ushbu bo‘limda chiqariladigan aniq mahsulotga nisbatan ular egri xarajat hisoblanadi.

To‘g‘ri xarajatlar bevosita mahsulot tannarxiga ishlab chiqarish xarajatlari miqdorida olib boriladi. Bu xarajatlar butunlay o‘z qiymatini aniq ishlab chiqarilgan mahsulotga o‘tkazadi.

To‘g‘ri xarajatlarning asosiy moddalari qo‘yidagilar:

- xom ashyo va asosiy materallar;
- sotib olinadigan ashyolar va yarim fabrikantlar;
- ishlab chiqarish xodimlarining asosiy ish haqi;
- elektr quvvati qiymati kabilar.

Egri xarajatlarni, ularni yana bilvosita xarajatlar deyiladi. Ularni mahsulotning aniq turiga bevosita olib borib bo‘lmaydi (agar mahsulotning bir necha turi ishlab chiqarilsa). Bir vaqtning o‘zida mahsulotlarning har xil turlariga olib boriladigan xarajatlar ishlab chiqarishning qo‘shma yoki kompleks xarajatlar deyiladi va egri xarajatlar turkumiga kiradi. Masalan, sex xodimlarining mehnat haqi (sex boshlig‘ining, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning), kommunal xizmati, sex binolarining amortizatsiyasi va umumiy foydalanishdagi uskunalar va boshqalar

Egri xarajatlarning asosiy moddalari qo‘yidagilardir:

- umumsex xarajatlari;
- umumzavod xarajatlari;
- noishlab chiqarish xarajatlarining bir qismi.

Xarajatlar bo‘limlar uchun to‘g‘ri xarajat, shuning bilan birga mahsulot uchun egri xarajat bo‘lishi mumkin. Remont-mexanika sexi

boshlig‘ining mehnat haqi sex uchun to‘g‘ri xarajatdir, lekin shu sexda tayyorlanadigan ko‘plab mahsulot turlari uchun egri xarajat hisoblanadi.

To‘g‘ri xarajatlar bevosita «Asosiy ishlab chiqarish schyotida o‘z aksini topadi, egri xarajatlar esa «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyotiga taalluqlidir va xarajatlarni taqsimlash usuli qo‘llash yo‘li bilan mahsulot turlari bo‘yicha ular oy oxirida «Asosiy ishlab chiqarish» schyotiga olib boriladi.

Korxona rahbariyati to‘g‘ri va egri xarajatlarni tahlil qilganda, mahsulot sifatini pasaytirmay uning tannarxini pasaytirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishiga erishish lozim.

Funksional o‘zgarishi bo‘yicha xarajatlar o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlarga bo‘linadi.

O‘zgaruvchan xarajatlar shunday xarajatlarki, ular ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish xajmining o‘zgarishiga to‘g‘ri proporsional tarzda o‘zgaradi. Masalan, materiallar va xom ashyo xarajatlari, ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi, transport va benzin xarajatlari va boshqalar.

O‘zgarmas xarajatlar bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmi o‘zgarishiga qaramay butunlay o‘zgarmay qoladigan xarajatlardir. Masalan, ma’muriy boshqaruv xarajatlari, ijara xarajatlari, sug‘urta va soliqlar to‘lovi.

Xarajatlarni o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlarga bo‘linishi ularni rejalashtirish, foydalilik nuqtasini aniqlash, rejalashtirilgan foydani hisoblash va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish uchun kerakdir.

Rejalashtirish, tahlil qilish va hisob amaliyotida mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari xarajat elementlari bo‘yicha guruhlashtiriladi va ularning asosiylari qo‘yidagilar hisoblanadi:

- xom ashyo va materiallar;
- yordamchi materiallar;
- chetdan olingan yonilg‘i va elektr quvvati;
- asosiy vositalar amortizatsiyasi;
- sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi fondi;
- ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta’minot ajratiladigan uchun mablag‘lar;
- boshqa pulli xarajatlar.

Xarajatlarni elementlari bo‘yicha bo‘nday guruxlashtirish mahsulot ishlab chiqarish uchun qilinadigan xarajatlar strukturasini aniqlashga, turlari bo‘yicha hajmini rejalashtirishga, zaruriy material, mehnat va moliyaviy resurslar bilan uzluksiz ta’minlanishiga imkon yaratadi.

Xarajatlarni u yoki bu elementlariga egalik qilishiga qarab tarmoq faoliyati mehnat talab, material talab, energiya talab va fond talablarga bo‘linadi.

Mehnat talab korxonalar shunday korxonalarki, unda mehnat haqi xarajatlari hamma xarajatlardan ustun. Ishlab chiqarishga zamonaviy uskunalar kirib kelishi, avtomatlashtirilishi va kompyuterlashtirilishi tufayli eng mehnat talab tarmoqlar asta-sekinlik bilan fond talab tarmoqlarga aylanmoqda va mehnat unumdorligi oshmoqda.

Yuqorida ta’kidlanganidek, korxonaning xarajatlari mahsulot qiymatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular asosida korxonalar o‘z mahsulotini sotishi va kutilayotgan foydani olishi mumkin bo‘lgan qiymat darajasini aniqlaydi. Buning uchun har bir korxona ishlab chiqaradigan mahsulot (ish, xizmat) tannarxi kalkulyasiyasini tuzishi kerak.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish moddalarining eng asosiylari qo‘yidagilar:

- xom ashyo va materiallar;
- ko‘makchi materiallar;
- ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi;
- ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi bo‘yicha ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy sug‘urta;
- texnologik ehtiyoj uchun yoqilg‘i;
- texnologik ehtiyoj uchun elektr quvvati;
- umumishlab chiqarish xarajatlari (sexniki);
- davr xarajatlari (umumzavod xarajatlari);
- boshqa xarajatlar.

Yuqorida keltirilgan moddalardan ko‘rinib turibdiki, umumishlab chiqarish va umumzavod xarajatlaridan tashqari xarajatlarning hamma moddalari to‘g‘ri xarajatlarga tegishli. Bu moddalarni rejalashtirishda normativ metod qo‘llaniladi. Umumiy ishlab chiqarish va umum zavod xarajatlari kompleks xarajatlariga kiradi. Ular hisob siyosati metodikasiga asosan mahsulot birligiga taqsimlanadi.

Mahsulotni haqiqiy tannarxini butunlay yoki ularning moddalari bo‘yicha reja yoki utgan yil bilan solishtirilib mutlaq yoki nisbiy farq va uning sabablari aniqlanadi. Keyin omilli tahlil asosida mablag‘larni samarali taqsimlash bo‘yicha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

«Korxona xarajatlari», korxona va tashkilotlarning hamma xarajatlari 3 guruhga bo‘lingan:

- kundalik (oddiy) faoliyat turlari bo‘yicha xarajatlar;
- operatsion xarajatlar;
- realizatsiya (sotish)dan tashqari xarajatlar.

Kundalik faoliyat turlari bo‘yicha xarajatlar bo‘lib, mahsulot sotib olish, ishlab chiqarish va sotish, xarajatlari hisoblanadi. Bularga yana xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar ham kiradi.

Shartnoma asosida vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish bo‘yicha ijara va boshqalar. Jarayonlar ham korxonalarda kundalik faoliyat turlari bo‘yicha xarajat bo‘lib hisoblanadi.

Kundalik faoliyat turlari bo‘yicha xarajatlar qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

- xom ashyo, materiallar, tovarlar va boshqa moddiy ishlab chiqarish zahiralarini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar;
- moddiy ishlab chiqarish zahiralarini mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmat ko‘rsatish va ularni sotish, shuningdek, mahsulotlarni sotish (qayta sotish) maqsadida (asosiy vositalar va boshqa oborotda bo‘lmagan aktivlarni saqlash va foydalanish bilan bog‘liq xarajatlar, shuningdek, ularni soz holatda saqlash, tijorat va boshqaruv xarajatlari) qayta ishlash jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar.

Iqtisodiy mazmuniga qarab bu xarajatlar qo‘yidagi elementlari bo‘yicha guruhlashtirilgan:

- material xarajatlari;
- mehnat haqi xarajatlari;
- ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar;
- asosiy vositalar amortizatsiyasi;
- boshqa xarajatlar.

Boshqarishni takomillashtirish maqsadida xarajatlar moddalari bo‘yicha buxgalteriya hisobida yuritiladi. Xarajat moddalari ruyxati korxona tomonidan ishlab chiqiladi.

«Material xarajatlari» moddasida xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim fabrikatlarni, mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha turdagi yoqilg‘i, texnologik maqsad uchun mahsulotni qadahlash va o‘rash maqsadida chetdan sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar o‘z aksini topadi. Bu guruhga yana kirim qilingan mahsulotlarning tabiiy kamayishi tufayli yo‘qotishlar ham kiradi.

«Mehnat haqi xarajatlari» moddasida korxonaning asosiy ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi xarajatlari o‘z aksini topadi. Bunga

yana ishchi va xizmatchilarning ishlab chiqarish natijalari uchun mukofatlar, kompensatsiya to‘lovlari, yosh bolasi belgilangan yoshga etgunga qadar tatil bo‘lgan ayollarning konpensatsiyalari, shunigdek, asosiy faoliyatda band bo‘lgan, lekin korxona shtatida bo‘lmagan ishchilarning mehnat haqi xarajatlari ham kiradi.

Ijtimoiy ehtiyoj uchun ajratmalar moddasida qonun bilan belgilangan ijtimoiy sug‘urtaga, pensiya jamg‘armasiga, davlat bandlik jamg‘armasiga va tibbiy sug‘urtaga majburiy ajratmalar o‘z aksini topadi. Bular «mehnat haqi xarajatlari» moddasi bo‘yicha mahsulot (ish xizmat) tannarxiga kiruvchi ishchilar mehnat haqi xarajatlariga kirmaydigan ajratmalardir.

«Asosiy vositalar amortizatsiyasi»ga asosiy ishlab chiqarish vositalarini to‘liq tiklash uchun amortizatsiya ajratmalari summasi o‘z aksini topadi, shuningdek, ularning aktiv qismining tezlashtirilgan amortizatsiyasi so‘mmasi ham kiradi.

«Boshqa xarajatlar» moddasiga soliqlar, yig‘imlar va to‘lovlar (sug‘urtaning majburiy turlari bo‘yicha xarajatlar, shuningdek, mahsulot (ish, xizmat) tannarxi tarkibiga kiruvchi boshqa xarajatlar) o‘z aksini topadi.

Operatsion xarajatlar bu korxona aktivlaridan vaqtinchalik foydalanganligi uchun to‘lov bilan bog‘liq xarajatlar; boshqa korxonalar ustav kapitaliga o‘z xissasini qo‘shishi bilan bog‘liq xarajatlar; tovarlar va mahsulotlarni, asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotilishi va boshqa aktivlarni sotilishi, va xisobdan chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar; korxona tomonidan foydalanishga olingan pul mablag‘lari fondlarini to‘lash; kredit tashkilotlari qilgan xizmatlari uchun haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar; buxgalteriya hisobi qoidalariga asosan tuzilgan dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv (zaxira) va boshqalar.

Sotish bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar; shartnoma shartlarini buzganligi uchun jarimalar, penyalir; korxona tomonidan qo‘rilgan zararlarni qoplami; hisobat yili tan olingan o‘tgan yilgi zararlar; muddati o‘tgan debitorlik qarzlari; kurs farqlari o‘tkazib berilgan mablag‘lar (qo‘yilmalar, to‘lovlar) va boshqa ijtimoiy tadbirlar bog‘liq xarajatlar.

Buxgalteriya hisobi nizomida «Tashkilot xarajatlari» bu kundalik faoliyat turlari bo‘yicha xarajatlardan farqli o‘laroq ularni boshqa xarajatlar deb yuritiladi. Bunday boshqa xarajatlarga; operatsion xarajatlar, sotish bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar, shuningdek, favquloddagi xarajatlar kiradi.

Favqulotdagi xarajatlar buxgalteriya hisobi nizomiga asosan qo‘yidagilarni aks ettiradi; xo‘jalik faoliyatida yuzaga keladigan favqulodda holatlar oqibatlari (tabiiy ofatlar, yong‘in, mulkni milliylashtirish va boshqalar).

Fond bozorida qimmatli qog‘ozlari muommalada bo‘lgan qo‘shma korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari yillik buxgalteriya hisobatlarini halqaro moliyaviy standartlar talablaridan kelib chiqib tuzishi va taqdim etishi kerak. Bu hisobatlarni moliyaviy hisobatlar halqaro standartlarini to‘zuvchi qo‘mitaga, investorlarga va boshqa qiziquvchi shaxslarga taqdim etilishi lozim.

Xalqaro standartlarga asosan hamma xarajatlar to‘rtta guruhga taqsimlangan:

- mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar;
- davr xarajatlariga kiruvchi xarajatlar
- moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar;
- favqulodda zararlar.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar buxgalteriya hisobi nizomida aks ettirilgan «Kundalik faoliyat turlari bo‘yicha xarajatlar» bilan mos keladi.

Davr xarajatlari bu ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan xarajatlardir, ular qo‘yidagi guruhlarga birlashtirilgan:

- realizatsiya bo‘yicha xarajatlar;
- ma’muriy xarajatlar;
- boshqa operatsion xarajatlar.

Bu xarajatlar mahsulot (ish xizmat) bilan bevosita bog‘liq bo‘lmaganligi sababli ularni operatsion xarajatlar ham deyiladi. Ular ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xmzmat) hajmiga bog‘liq emas, balki vaqt va xo‘jalik faoliyati davomiyligiga bog‘liq. Bu xarajatlar yuzaga kelgan hisobot davridagi mahsulot tannarxiga kiritiladi va umumlashtiriladi.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar bu korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlardir, shuning uchun valyuta operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlar realizatsiyasi va ishlab chiqarilishi, kredit va qarz olish, bank operatsiyalari bilan bog‘liq umum xo‘jalik xarajatlardir.

Favqulodda zararlar – bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning odatiy faoliyati chegaralaridan chiqadigan voqea va operatsiyalar natijasida

yuzaga keladigan xalqaro standart (andoza)lar bo‘yicha g‘ayritabiiy xarajatlar moddalaridir.

4.6. Ishlab chiqarish jarayonlari tannarxi tahlili

Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash usuli va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish bilan bog‘liqdir.

Mahsulot birligiga qilingan material, mehnat va moliyaviy xarajatlarning umumiy so‘mmasi mahsulot tannarxi deyiladi.

Mahsulot (ish) tannarxini qo‘yidagi kalkulyasiya metodlarining biri yordamida aniqlash mumkin:

- Xarajatlarning namunaviy kalkulyasiyasi;
- Jarayonli kalkulyasiya;
- Normativ kalkulyasiya.

Tannarxning namunaviy kalkulyasiyasi maxsus buyurtma, bir to‘da tovar va shartnoma tannarxi kalkulyasiyasini ifodalaydi.

Tannarxni namunaviy kalkulyasiya usuli kompaniya iste’molchidan kalkulyasiya qilinayotgan mahsulotning bir guruh yoki bir birligini ishlab chiqarish buyurtmasini olganda qo‘llaniladi, masalan, qurilishda, tipografiyalarda, aviasozlikda, mebel fabrikalarida mashinasozlikda, remont ishlarini amalga oshirishda, auditorlik yoki konsultatsiya xizmatlarini ko‘rsatishda va boshqalar.

Kalkulyasiyaning namunaviy metodi buyurtma bajarish hajmiga bog‘liq holda uch turga bo‘linadi:

1. buyurtma tannarxining kalkulyasiyasi;
2. tovar partiyasi (guruhi) tannarxining kalkulyasiyasi.
3. shartnoma tannarxining kalkulyasiyasi.

Buyurtma tannarxini kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Buyurtmani bajaruvchi korxonalar mahsus bir martalik tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadilar.

Ushbu holatda firma ommabop ishlab chiqariladigan mahsulot sifat standartidan yuqori mahsulotga bo‘lgan talabni qondirishi kerak. Agar bunday sifatli mahsulot ishlab chiqarmasa, ishlab chiqarishga boshqa korxonalarni jalb qilmasligi va mahsus rejalashtirish va uskunalar bilan shug‘ullanmasligi kerak.

Namunaviy metodda kalkulyasiya qilinadigan mahsulotlarga qilinadigan xarajatlarni tahlil qila turib buyurtmalarning kalkulyasiya kartochkasida ko‘rsatilgan haqiqatda qilingan xarajatlarni dastlabki hisoblar bilan solishtirish kerak.

Buyurtmaning kalkulyasiya kartochkasi iste’molchining har bir buyurtmasi bo‘yicha ochiladi va unda qo‘yidagilar ko‘rsatiladi;

- zaxiradan olingan materiallar (buyurtma asosida);
- ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi (buyurtmani bajarishga sarflangan vaqtni hisobga oluvchi tabel kartochkasi asosida;
- to‘g‘ri xarajatlar (schyot fakturalar asosida).

Buyurtmani bajarilishida kalkulyasiya kartochkasida to‘g‘ri xarajatlarning jami so‘mmasi chiqariladi. Bundan keyin bu metodlarning biri asosida ushbu buyurtmaga kiruvchi qo‘shimcha xarajatlar hisoblab chiqiladi.

Agar hisobat davrining oxirida buyurtma tugallanmagan bo‘lsa, jami xarajatlar ma’lum bir sanaga kalkulyasiya kartochkasiga yozib qo‘yiladi va u tugullanmagan ishlab chiqarish hisoblanadi.

Mahsulotning narxi belgilanishga namunaviy usulning tannarx kalkulyasiyasini to‘g‘ri aniqlanishiga bog‘liqdir.

Mahsulot narxining oshib ketishi buyurtmachilarning qochishiga olib keladi. Buyurtma bajarilishi narxining pasayishi foydaning kamayishiga yoki ushbu buyurtmaning zarar keltirishiga olib keladi.

Mahsulot tannarxi yana bir birlik mahsulotga qilinadigan qo‘shimcha xarajatlar ulushining hisobiga, ishlab chiqarish hajmiga ham bog‘liq.

Ishlab chiqarish hajmining oshishi yoki kamayishi har bir buyurtma mahsulotining narxiga ta’sirini ko‘rsatadi.

Shuning uchun, buyurtmalar bo‘yicha mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda mahsulot tannarxini kalkulyasiyasi to‘g‘ri tuzilishi katta ahamiyatga ega va u asosida mahsulot (xizmat) bahosi aniqlanadi.

Tovar partiyasi tannarxini kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Ko‘plab kompaniyalar tannarxining namunaviy kalkulyasiyasini tovar partiyasi tannarxini kalkulyasiyasi bilan birlashtirib yuboradi.

Bunday holatlar mijozning texnologik talabiga muvofiq mahsulot yig‘imini amalga oshiruvchi korxonalarda uchraydi. SHu bilan birga mahsulot yig‘ish, ya’ni konstruksiyaning o‘zi bir qator komplektlovchi detalladan tashkil topadi, ya’ni kompleklovchi detallar partiyasi tayyorlanib hamma xarajatlar mahsus buyumlar partiyasining kalkulyasiya qaydnomasida hisobga olinadi.

Komplektlovchi buyumlar tayyorlanishi tugashi bilan buyurtma-naryad yopiladi va tayyorlangan mahsulot tayyor detallar omboriga jami buyum partiyasi o‘rtacha tannarxda topshiriladi.

Mijozning ma’lum bir ishiga buyurtma-naryad tuziladi.

Tovar partiyasi tannarxini kalkulyasiyasi bo‘yicha xarajatlarni tahlil qilayotganda ushbu buyurtma partiyasi uchun zarur detallar hajmini to‘g‘riligini aniqlash kerak. Uning uchun qo‘yidagilar o‘rganiladi:

- istemol miqdori;
- mahsulotlarni saqlash va foydalanishga tayyor qilish xarajatlari;
- ishlab chiqarish tizimini buzish va o‘rnatish uchun zarur vaqt;
- ishchi kuchi, xizmat va stanoklarning boshqa mahsulotga nisbatan unumdorligi (POM).

Partiyaning optimal miqdorini dastlabki hisobini quyidagilar asosida amalga oshirish mumkin:

-bir birlik mahsulot eng past tannarxini aniqlash maqsadida partiyalarning har xil miqdori bo‘yicha mahsulot birligi tannarxini kalkulyasiya qilish tahlili;

-ishlab chiqarilgan tovarlarni partiyalarini saqlash bo‘yicha ularni ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan tahlili;

-partiyani optimal miqdorini hisobi (POM), quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi

$$\boldsymbol{POM = \frac{X_{o'} * T_y}{X_s}}$$

bunda: T_y *– yillik talab*

$X_{o'}$ *– buzish va o‘rnatish sarfi*

X_s *- saqlash sarfi.*

Tovarlar partiyasi tannarxining kalkulyasiyasida xarajatlarni tahlil qilishning keyingi bosqichi bo‘lib, har bir tovar partiyasining tannarxini o‘rganish hisoblanadi. Bu alohida xarajat turlari: o‘rnatish, stanoklarni ishga tushirish va zahiralarni harakati bo‘yicha zahiralar darajasini saqlanishini rejalashtirish maqsadida amalga oshiriladi, shuningdek har bir tovar partiyasi rentabilligining darajasini saqlash uchun ham qo‘llaniladi.

Shartnoma tannarxini kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili. Har bir shartnoma mahsulotning alohida birligini kalkulyasiya qilinishini anglatadi, shuning uchun har bir shartnoma bo‘yicha xarajatlar buxgalteriya bosh kitobida alohida schyotda yig‘iladi.

Shu tufayli xarajatlar quyidagi modda turlari bo‘yicha yig‘iladi.

1. Asosiy materiallar.
2. Ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi.

3. Ishlab chiqarish qurilmalari uchun sarflar.
4. Sub kontrakt (subshartnoma) bo‘yicha sarflar.
5. Egri xarajatlar.

Kontraktga kiruvchi materiallar o‘z ichiga mahsus sotib olingan materiallarni olibgina qolmay, pudratchi omboridagi mahsulotni ham o‘z ichiga oladi.

Material xarajatlarini tahlil qilishda qurilish maydonchasidan omborga ortiqcha materiallarning kelib tushishi va qaytarilishini hisobga olish qiyinligini inobatga olish kerak. Mahsulotlar sarflanishi hisobi to‘g‘riligini va o‘rnatilgan sarf normasini batafsil sinchiklab tekshirish zarur.

SHartnomaga kiruvchi mehnat uchun sarflar, reja va xujjatlar tuzish bilan bog‘liq ofis ishini, bevosita zavoddagi ishlab chiqarish operatsiyalarini va qurilish maydonchasidagi ishlarni o‘z ichiga oladi. Qurilish joyidagi barcha ishlarga shartnoma bo‘yicha to‘g‘ri mehnat sifatida qaraladi.

Har xil maydonchalardagi quruvchilarning ish vaqtlari mahsus ish vaqtining hisobi tabellarida olib boriladi. Bunday mehnat bilan bohliq barcha xarajatlar shartnoma hisobiga yoziladi.

Materiallar va mehnatdan tashqari shartnoma bo‘yicha to‘g‘ri xarajatlar ham mavjud. Ularga subshartnoma bo‘yicha ishlar va ishlab chiqarish qurilmalari uchun sarflar kiradi.

Ishlab chiqarish qurilmalari va jihozlari uchun xarajatlar maxsus ushbu shartnoma uchun qilingan bo‘lishi mumkin yoki ijarachi foydalanishi uchun berilgan bo‘lishi mumkin.

Agar ishlab chiqarish qurilmalari va jihozlar ushbu shartnoma uchun maxsus sotib olingan bo‘lsa, unda sotib olingan jihozlarning tannarxi butunlay shartnoma hisobiga o‘tadi.

Agar ishlab chiqarish qurilmalari va jihozlar boshqa shartnomalarga berilsa, unda ularning hisobdan chiqarilgan qiymati dastlabki shartnomada qoladi, qolgan summa esa yangi shartnomaga o‘tadi.

Ishlab chiqarish qurilmalari ma’lum bir shartnoma bo‘yicha foydalanish uchun ijaraga olingan bo‘lishi mumkin. Ushbu holatda kompaniya bu ishlab chiqarish qurilmalariga egalik qilaolmasligi uchun ijara summasi shartnoma hisobiga ko‘chiriladi.

Yirik shartnoma yoki ma’lum bir ish turi bo‘yicha mutaxassis faoliyati bilan bog‘liq shartnoma bo‘lsa korxona subpudratchilarni jalb qilishi mumkin. Subpudratchining hamma bajargan ishining tannarxi

shartnomaning to‘g‘ri xarajati sifatida qaralib shartnoma hisobiga olib boriladi.

Ko‘plab pudratchilar o‘z xarajatlarini alohida shartnomalar bo‘yicha taqsimlamaydilar, chunki ular odatda to‘g‘ri xarajatlarga nisbatan muhim hisoblanmaydi. Lekin, alohida hollarda shartnoma bo‘yicha egri xarajatlar alohida shartnomalar o‘rtasida korxona uchun belgilangan usul bo‘yicha taqsimlanishi mumkin.

Har bir shartnomaning qiymati ijrochi va mijoz o‘rtasida kelishib olinadi va u shartnoma qiymati hisoblanadi. Agar shartnomalar yirik bo‘ladigan bo‘lsa, pudratchi mijozdan bajargan ish hajmi va shartnoma qiymatiga mos ravishda oraliq to‘lovlarni olishi mumkin.

Ushbu hollarda shartnomaning bajarilgan ishi bo‘yicha buyurtmachining eksperti xulosa beradi, unda shartnomaning jami qiymatidan bir qismi aniqlanadi va u ijrochiga bajargan ish hajmiga muvofiq ravishda to‘lanishi mumkin. Ijrochi o‘z navbatida buyurtmachiga oraliq to‘lov summasi uchun schet faktura beradi.

Shartnomaning bajarilish davrida ijrochi odatda ekspert xulosasida ko‘rsatilgan qiymatning bir qismini oladi. Buyurtmachi ishlab qoladigan qolgan summa ijrochiga shartnomani bajarilishi bilan va deffektlarni tuzatishi bilan (agar ular bo‘lsa) to‘lab beradi.

Tannarxni jarayonli kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Ishlab chiqarish xarajatlarning jarayonli kalkulyasiyasi bu sanoatda ommabop mahsulot ishlab chiqaruvchi, lekin jarayon doimo takrorlanadigan operatsiyalarga bo‘lingan, ya’ni uzoq vaqt davomida ommabop mahsulot bir nechta qayta ishlaщ bosqichidan o‘tadigan ishlab chiqarishda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hisoblash metodi. Ularga ximik, neftni qayta ishlash, tekstil, lak-buyoq, tegirmon, rezina texnik metallurgiya, shisha, tog‘, sement sanoati korxonalari kiradi.

Jarayonli metod nosanoat sohasida ham qo‘llaniladi, masalan, pochta xatlarini saralashda, o‘z-o‘ziga xizmat qilish kafelarida va boshqalar.

Jarayonli metodda mahsulot bir jarayondan boshqa jarayonga to‘liq tayyor bo‘lmaguncha o‘taveradi. Tayyorlash jarayoni bilan birgalikda ishlab chiqarish xarajatlarini yig‘ilishi jarayoni ham olib boriladi. Har bir texnologik jarayon uchun to‘g‘ri va egri xarajatlar aniqlanishi zarur.

Xarajatlar xuddi kalkulyasiyaning namunaviy metodi quyidagiday aniqlanadi. Hamma material xom ashyo mehnat haqqi uchun to‘g‘ri xarajatlar, shunigdek, ishlab chiqarishning qo‘shimcha xarajatlar hisobga olinadi. Namunaviy metodda egri hisoblangan xarajatlarni katta qismi jarayonli metodda to‘g‘ri xarajat hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarish

jarayonini nazorati uchun sarflar, jarayondagi uskunalar amortizatsiyasi va boshqalar.

Jarayonli metodning namunaviydan farqi xarajatlar hisobi ob'ektining tanlanishidadir. Birlik mahsulotning tannarxini aniqlanishi ikkala metodda ham hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi, ya'ni ishlab chiqarishni jami tannarxini ushbu davrda ishlab chiqarilgan mag‘sulotlar soniga bo‘lish yo‘li bilan asosiy farq maxrajning kattaligida. Namunaviy metodda u kichik (masalan, bitta qadaqlovchi mashina), jarayonli metodda esa katta (masalan, ming metr, birlik, kub, galon va h.k.).

Tannarxni normativ kalkulyasiya qilishda xarajatlar tahlili va baholanishi. Tannarxni normativ kalkulyasiya qilishda xarajatlarni tahlil qila turib normativ xarajat va daromadni haqiqiy natija bilan solishtiriladi. Bu korxona faoliyati samaradorligini oshishi va ularning sabablarini aniqlash uchun ishlatiladigan aniqlash maqsudida amalga oshiriladi.

Xarajatlarni shakllanish asosini tanlanishiga bog‘liq holda normativlar quyidagicha farqlanadi:

- asosiy normativ;
- ideal normativ (eng yuksak);
- erishiladigan normativ;
- joriy normativ.

Asosiy normativ – uzoq muddatda ishlatish uchun o‘rnatilgan normativ bo‘lib, bu asosida joriy normativlar ishlab chiqish mumkindir.

Ideal normativ – bu uskunalarni turib qolishini, yo‘qotishlar, oddiy zararlarni kompensatsiyasiz qulay sharoitlarda erishish mumkin bo‘lgan normativ. U yana potensial normativ ham deyiladi.

Erishiladigan normativ – bu shunday normativki , agar ishning normativ birligi samarali bajarilsa, uskuna va materiallar kerakli joyida ishlatilsa, unga erishish mumkin.

Joriy normativ – bu va qisqa vaqt davrida foydalanish uchun o‘rnatilgan va joriy sharoitga aloqasi bo‘lgan normativdir.

Xarajatlarning normativ ko‘rsatkichlaridan foydalanib normativ tannarx kartochkasi tuziladi va mahsulot borligining normativ tannarxi haqida ma'lumotlarga ega bo‘ladi.

Xarajatlarni tahlil qilishda mahsulot tannarxining normativ ko‘rsatkichlari haqiqiy xarajatlar bilan solishtirish uchun asos bo‘lib hisoblanadi va ular yordamida yo‘l qo‘yilgan farqlari va ularning kelib chiqish sabablari aniqlanadi.

Haqiqiy xarajatlar farqi ularning turlari, mahsulot birligi va xarajatlar umumiy summasining chetlanishini aniqlanishi bo‘yicha hisobga olib boriladi.

Tannarxning normativ kalkulyasiyasi bo‘yicha xarajatlar tahlili quyidagi ko‘rsatkichlar asosida amalga oshiriladi: norma-soat, ishlab chiqarsh hajmi koeffitsienti, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti, ishlab chiqarish quvvati samaradorligi (unumdorligi) koeffitsienti.

Norma-soat – bu normativ unumdorligi bilan bir soatda bajarilishi kerak bo‘lgan ish hajmi, masalan, bir soatda mahsulot ishlab chiqarsh 20 ta mahsulotni tashkil qilsa, unda 100 dona mahsulotni ishlab chiqarish normativi bo‘yicha 5 soat bo‘lishi kerak va ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan haqiqiy vaqtdan qat’iy nazar shu 5 soatning normativ qiymati bo‘yicha baholanadi.

Ishlab chiqarish hajmi koeffitsienti (Kichik) ishlab chiqarishni haqiqiy hajmini (norma-soatda o‘rgangan) rejada ko‘rsatilganligi nisbati orqali aniqlanadi va foizlarda ifodalaniladi:

$$K_{ich.h} = \frac{ICHH_h * 100}{ICHH_r}$$

Bu erda: I/CH.H xaq - mahsulot ishlab chiqarishga haqiqatda sarflangan vaqt;
I/CH.H reja-vaqt sarfining rejaviy hajmi.

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti ($K_i/_{ch}$.quv.foy) rejada ko‘rsatilgan ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini xarakterlaydi. U haqiqatda ishlangan vaqtni (norma-soatda) rejadagiga nisbati orqali hisoblanadi:

$$K_{ich.quv.foy} = \frac{Ish\ vaqti_h * 100}{ICHH_r}$$

Bunda: I_{sh} Vaqt xaq – Ishlab chiqarish quvvatida haqiqatda ishlangan ish vaqti (norma-soatda).

Haqiqatdagi ish vaqtidan foydalanish samaradorligi koeffitsienti haqiqatda ishlangan vaqtni (I/CH,H_{xaq}) ishlab chiqarish quvvatida haqiqatda ishlangan ish vaqtiga nisbati (I_{sh} Vaqt xaq) formulasi bilan aniqlanadi:

$$K_{ishlatilgan\ ish\ vaqti\ haq} = \frac{ICHH_h * 100}{Ish\ vaqti_h}$$

Mahsulot tannarxini normativ kalkulyasiyasi qo‘llaniladigan ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilishda frqlashlar usulidan foydalanish kerak.

Normativ xarajatlardan farqi ko‘zda tutilgan normativ xarajatlar asosida orasidagi farq. Bu metoddan foydalanib foydalanilgan materiallar miqdori (fizik hajmi) va material xarajatlar so‘mmasiga narxning o‘zgarishi ta’sirini aniqlash lozim.

Narxning o‘zgarishini material xarajatlar so‘mmasiga ta’sirini aniqlash fizik va normativ narxlar orasidagi haqiqatda sarflangan materiallar miqdoriga ko‘paytirish kerak:

$$\Delta MX_n = (N_x - N_{nor}) * SMM_x$$

Bunda: ΔMX_n – material xarajatlari so‘mmasini material narxning o‘zgarishi hisobiga chetlanishi;
N_x- sarflangan materiallarning haqiqiy, narxi;
N_{nor} – sarflangan materiallarning normativ narxi;
SMM_x – haqiqatda sarflangan materiallar miqdori.

Xarajatlar so‘mmasiga sarflangan materiallar miqdorini o‘zgarishi hisobiga chetlanishlar ta’sirini aniqlash uchun material xarajatning haqiqiy miqdori va normativ bo‘yicha material xarajatlar,miqdori orasidagi farqni materiallarning normativ qiymatiga ko‘paytirish kerak:

$$\Delta MX_{miq} = (SMM_x - SMM_n) * MN_{nor}$$

Bunda: ΔMX_{miq} – material xarajatlari so‘mmasini sarflangan materaillar miqdorini o‘zgarish hisobiga chetlanishi;
SMM_x – haqiqatda sarflangan materaillar miqdori;
SMM_n – normativ bo‘yicha sarflangan materaillar miqdori;
MN_{nor} – sarflangan materaillarning normativ qiymati.

Mehnat haqi xarajatlari mehnat qiymati va foydalanilgan mehnat qiymati va foydalanilgan mehnat miqdorini hisobga olgan holda aniqlanadi. Shunga bog‘liq holda tahlil mobaynida ikkita omil ta’sirini hisobga olish zarur:

- mehnat haqi o‘rtacha stavkasining o‘zgarishi;
- ishlangan vaqtning chetlanishi.

Mehnat haqi stavkasining o‘rtacha o‘zgarishi ta’sirini aniqlash uchun mehnat haqining haqiqatdagi normativ stavkalar o‘rtasidagi farqni haqiqatda ishlangan vaqtga (agar soatbay mehnat haqi bo‘lsa) yoki ishlab chiqarilgan mahsulot soniga (agar mehnatga ishbay asosida haq to‘lash) ko‘paytiriladi. Uning formulasi:

$$\boldsymbol{\Delta MHCH_{m.h.o'} = \left(MH_{o'r.haq} - MH_{o'r.nor}\right) * Ishlangan\ vaqt_{haq}}$$

Bunda – $\Delta MHCH_{m.h.o'}$ – mehnat haqi bo‘yicha o‘rtacha stavkaning o‘zgarishi natijasida mehnat haqini chetlanishi;
$MH_{o'r.haq}$ - mehnat haqi bo‘yicha o‘rtacha haqiqiy stavkasi;
$MH_{o'r.nor}$ – mehnat haqining o‘rtacha normativ stavkasi;
$Vaqt.ishlan_{haq}$ - haqiqatda ishlangan vaqt (norma-soatda) yoki ishlab chiqarilgan mahsulot soni.

Mehnat unumdorligining ta’siri, ya’ni mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlangan vaqtni o‘zgarishi haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun ketgan haqiqiy (soatda) vaqt va normativ (soatda) vaqt orasidagi farqni ish haqini normativ soatboy stavkasiga (o‘rtacha) ko‘paytiriladi:

$$\boldsymbol{\Delta IX_{i.vaqt} = \left(Ishlan.vaqt_{haq} - Ishlan.vaqt_{nor}\right) * Ish\ haq_{nor.o'r.}}$$

Bunda: $IX_{i.vaqt}$ – ishlangan vaqtni o‘zgarishi natijasida xarajatlarni chetlanishi;
$Vaqt.ishlan_{haq}$ – haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan haqiqatda ishlangan vaqt (soatda);
$Vaqt.ishlan_{nor}$ –haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan normativ vaqt (soatda);
$Ish.haq_{nor.o'r}$ ish haqining normativ soatboy stavkasi.

Keyinchalik haqiqiy xarajatlarni normativdan (rejadan) chetlanish sabablarini aniqlash zarur. Chetlanishlar hisobi – bu faqatgina birinchi qadam.

Rahbariyatga rejalashtirish bo‘yicha qaror qabul qilish va xarajatlar samaradorligini nazoratini amalga oshirish uchun ahborot lozim. Chetlanish mavjudligini bilish kamlik qiladi, uning sabablarini aniqlash zarur.

Sabablari quyidagilar bo‘lish mumkin:

- yomon moliyaviy rejalashtirish;
- yomon o‘lchash yoki noto‘g‘ri hisob;
- tasodifiy omillar;

Materiallar qiymati bo‘yicha chetlanish quyidagilar natijasida bo‘lishi mumkin:

- har xil ta’minot manbai;
- narxning umumiy oshishi;
- har xil nav materiallarni almashtirish;
- katta partiyadagi tovar sotishdagi chegirmalarning o‘zgarishi.
- mahsulotlardan foydalanish bo‘yicha chetlanishlar quyidagilar natijasida bo‘lishi mumkin;
- mahsulot dizaynining o‘zgarishi yuqori yoki kam materiallar sarfi;
- har xil sortli materiallarning almashtirilishi;
- mehnat haqi bo‘yicha chetlanishlar quyidagilar hisobiga bo‘ladi;
- mamlakat miqyosida xukumatning ishchi va xizmatchilarga mehnat haqini oshirish bo‘yicha qarori;
- rejada nazarda tutilmagan ish vaqtidan tashqari bajarilgan ishga va mukofat to‘lovlari;
- har xil murakkab darajali ishning almashtirilishi.

Mehnat unumdorligi bo‘yicha chetlanishlar quyidagilar natijasida sodir bo‘ladi:

- ish sharoitlarini takomillashtirilishi;
- o‘qitish effektining natijalari;
- moddiy rag‘batlantirish tizimi joriy qilinishi yoki xodimlarni o‘qitish;
- har xil murakkab darajali ishning almashtirilishi.

Tahlil qilayotganda bu chetlanishlarni maqsadga muvofiqligini o‘rganib chiqish lozim. Ularning sabablarini aniqlash zarur, korxonaning moliyaviy natijasi va jami xarajat so‘mmasiga ularning ta’sirini aniqlash kerak maqsadga muvofiq.

4.7. Ishlab chiqarish harajatlariga ta’sir qiluvchi omillar tahlili


Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilaturib ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishini jami xarajatlarga va mahsulot birligiga ta’sirini aniqlash lozim. Bu mablag‘larni tejab sarflash bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va umuman korxona faoliyati samaradorligi uchun kerak.

Korxona rahbariyati ishlab chiqarishning har xil hajmdagi xarajatlar hisobiga ega bo‘lishi mumkin.


Yuqorida ta’kidlanganidek, ishlab chiqarish xarajatlari doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga bo‘linadi.

O‘zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish faoliyati darajasiga (ishlab chiqarish hajmiga) to‘g‘ri proporsional ravishda o‘zgaradi. Bu shu bilan bog‘liqki, mahsulot birligi uchun o‘zgaruvchan xarajatlar (xom ashyo, materiallar, ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi va h.k) doimiydir.

Shunday qilib, umumiy o‘zgaruvchan xarajatlar mahsulot hajmiga bevosita bog‘liq, bir mahsulot hajmiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchi xarrajatlar esa, doimiy hisoblanadi. Buni quyidagi chizmada ifodalash mumkin:




4.1-chizma. **Umumiy o‘zgaruvchan xarajatlar.**




4.2-chizma. **Mahsulot birligiga qilingan o‘zgaruvchan xarajatlar**

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarishning turli xil masshtabi uchun ma’lum vaqt davri uchun o‘zgarmay qoladi. Lekin ishlab chiqarish masshtabi o‘zgarishi bilan mahsulot birligi uchun ular ulushi o‘zgaradi. Ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan doimiy xarajatlar so‘mmasi o‘zgarmayd, lekin mahsulotning har bir birligi uchun xarajatlar qisqaradi. Chizmada u quyidagicha ifodalanadi:



4.3-chizma. **Umumiy doimiy doimiy xarajatlarning ishlab ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligi**



4.4-chizma. **Mahsulot birligiga qilingan chiqarish hajmiga bog‘liqligi**

Amaliyotda doimiy xarajatlar har doim ham ishlab chiqarishning barcha darajalari uchun bir xil bo‘lavermaydi. Bir necha yillar bilan o‘lchanadigan solishtirma, uzoq vaqt davri uchun, barcha xarajatlar o‘zgaruvchan hisoblanadi. Shuningdek, faoliyat darajasini katta miqdorda kengayishi xarajatlarning barcha turkumlarini oshishiga olib keladi. Qisqa vaqt davri uchun xarajatlar o‘zgaruvchan yoki ishlab chiqarish darajasi o‘zgarishiga bog‘liq holda doimiy bo‘ladi. Qancha qisqa bo‘lsa, vaqt davri ma’lum bir xarajatlar doimiy bo‘lish ehtimoli katta.

Jami va mahsulot birligiga qilingan umumiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqdir. Faoliyat hajmining oshishi bilan umumiy xarajatlar oshadi, lekin ishlab chiqarish hajmiga proporsional ravishda emas. Mahsulot birligining umumiy tannarxi doimiy xarajatlar moddasi hisobiga kamayadi va mahsulot birligiga qilingan o‘zgaruvchan xarajatlarga intiladi.

Ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan bog‘liq mahsulot birligiga qilingan umumiy xarajatlarning kamayishi korxonalar uchun katta hajmdagi mahsulot buyurtmalariga chegirmalar qilishga imkoniyat beradi.

Mahsulot tannarxini pasayishiga yana aniq davr va ma’lum bir ishlab chiqarish darajasi uchun doimiy hisoblanadigan yarim o‘zgaruvchan xarajatlar kiritiladi, lekin kritik vaqtda ma’lum miqdorga ular oshib yoki kamayib ketadi. Masalan, agar ishlab chiqarish quvvatlari ma’lum kritik ko‘rsatkichgacha ko‘payib ketsa unda qo‘shimcha ishchilar, nazoratchilar va xizmat ko‘rsatish shtati yollaniladi. Agar bu ko‘payish uncha katta bo‘lmasa, qo‘shiimcha xarajatlar qilinmasligi mumkin.

Yarim o‘zgaruvchan xarajatlarga doimiy va o‘zgaruvchan komponentlar kiradi. Bu xarajatlar hech qachon nolga teng bo‘lmaydi, ishlab chiqarish nolinchi darajada bo‘lsa ham.

Amaliyotda xarajatlarni yarim o‘zgaruvchanlarga ajratilishi juda mushkul, lekin zararsizlikni tahlil qilish uchun zarurdir. Buning uchun matematik metodlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$u = a+bx$$

Bunda: u – umumiy xarajatlar;

a – doimiy xarajatlar;

b – bir birlik uchun o‘zgaruvchan (marjinal) xarajatlar;

x – unumdorlik darajasi.

Marjinal daromad realizatsiya hajmidan o‘zgaruvchan xarajatlarni ayirmasiga teng, ya’ni u doimiy xarajatlar va sof foydani o‘z ichiga oladi.

Mahsulot birligiga qilingan o‘zgaruvchan xarajatlar va mahsulot birligining realizatsiya qiymati doimiy hisoblanganligi uchun mahsulot birligidan olinadigan marjinal daromad ham doimiy bo‘ladi.

Har bir sotilgan mahsulot birligidan olingan marjinal daromad doimiy xarajatlarni qoplash uchun ketadi, undan keyin qolgan qismi esa foydani oshirishga ishlatiladi. Bu shunga olib keladiki, ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan mahsulot birligining tannarxi pasayadi, o‘zgaruvchan xarajatlar miqdoriga yaqinlashadi va mahsulot birligining foydasini va doimiy xarajatlari ulushini oshiradi. Bularni hammasini xarajatlarni tahlil qilishda va ishlab chiqarishni zararsizligini aniqlashda hisobga olish kerak.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilishda *minimum* va *maksimum* metodidan foydalanib xarajatlarni o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarga ajritish kerak.

Bu metodning asl mohiyati shundaki, o‘tgan davr unumdorligini va xarajatlarni o‘rganish , mahsulot ishlab chiqarish hajmi darajalarining eng yuqori va eng pastini tanlash va ushbu darajalarda mahsulot ishlab chiqarish nitijasida sodir bo‘lgan xarajatlar o‘zgarishini solishtirish.

Hisobni amalga oshirish uchun quyidagi harakatlar bajariladi:

Hisob boshida hajmning va umumiy xarajatlarini *minimal* va *maksimal* ko‘rsatkichlari orasidagi farq aniqlanadi:

$$\Delta \text{ MICH}_{\text{miq.}} = \text{MICH}_{\text{maks. miq.}} - \text{MICH}_{\text{min.miq.}}$$

$$\Delta \text{Xar}_{\text{um}} = \text{Xar}_{\text{um maks.}} - \text{Xar}_{\text{um.min.}}$$

Bunda: Δ $MICH_{miq}$ - mahsulot ishlab chiqarishning maksimal va minimal hajmlari orasidagi, natura o‘lchamidagi, farq;

ΔXar_{um} - ishlab chiqarishning minimal va maksimal hajmidagi umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining farqi;

$MICH_{maks.miq..}$ – ishlab chiqarilgan mahsulotning maksimal miqdori;

$MICH_{min.miq.}$ ishlab chiqarilgan mahsulotning minimal miqdori;

$Xar_{um.maks.}$ maksimal ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlar;

$Xar_{um.min.}$ minimal ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlar.

2. Keyin xarajatlar orasidagi farqni ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmlari orasidagi farqqa bo‘lish yo‘li bilan mahsulot birligiga qilingan o‘zgaruvchan xarajatlar so‘mmasi ($Xar_{o‘z.ma.bir.}$) aniqlanadi, chunki

umumiy xarajatlar tarkibidagi o‘zgaruvchan xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishi bilan o‘zgaradi;

$$\mathbf{Xar_{o‘z.mah.bir} = \Delta Xar_{um.} : \Delta MICH_{miq.}}$$

3. Hisobning keyingi qadami bo‘lib umumiy o‘zgaruvchan xarajatlarni ($Xar_{o‘z.mah.bir}$) aniqlash hisoblanadi. U mahsulot birligiga qilingan o‘zgaruvchan xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulotlarning maksimal miqdoriga ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblanadi:

$$\mathbf{Xar_{o‘z.um} = Xar_{o‘z.mah.bir} x\ MICH_{maks.miq..}}$$

4. Doimiy xarajatlar so‘mmasini ($Xar_{doim.um.}$) aniqlash uchun umumiy xarajatlar so‘mmasidan o‘zgaruvchan xarajatlar so‘mmasini ayirib tashlash lozim:

$$\mathbf{Xar_{doim.um} = Xar_{um.maks} – Xar_{o‘z.um}}$$

yoki

$$\mathbf{Xar_{doim.um} = Xar_{um.maks} – (MICH_{min.miq}\ Xar_{o‘z.mah.bir.}}$$

Buni aniq bir misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilaylik, 2004 yilning oylar bo‘yicha xarajatlar va ishlab chiqarish darajalari to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar olingan.

Oylar	Ishlab chiqa-rish hajmi, dona	Ishlab chiqarish xarajat-lari, ming so‘m	Minimal ko‘rsatkichlar		Maksimal ko‘rsatkichlar	
			Ishlab chiqarish hajmi, dona	Xarajat lar, ming so‘m	Ishlab chiqarish hajmi, dona	Xarajat lar, ming so‘m
YAnvar	400	1050	400	1050	-	-
Fev-ral	600	1700	-	-	-	-
Mart	550	1600	-	-	-	-
Aprel	800	2100	-	-	-	-
May	750	2000	-	-	-	-
Iyun	900	2300	-	-	900	2300

Ishlab chiqarishning minimal hajmi yanvarda, maksimal hajmi esa iyun oyida.

1. Birinchi o‘rinda maksimal va minimal ko‘rsatkichlar orasidagi farqni hisoblaymiz.

a) mahsulot ishlab chiqarish hajmi – 500 dona

$\Delta MICH_{miq} = 900\text{-}400 = 500$ dona

b) ishlab chiqarish xarajatlari – 1250 ming.so‘m.

$\Delta xar_{um} = 2300 – 1050 = 1250$

2. Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar – 2,5 ming.so‘m.

$Xar_{o‘z.mah.bir} = 1250 : 500 = 2,5.$ ming so‘m

3. Umumiy o‘zgaruvchan xarajatlar – 2250 ming.so‘m
Xar $_{o‘z.um}$ =2,5 . 900 = 2250 ming so‘m

4. Umumiy doimiy xarajatlar – 50ming.so‘m.
$Xar_{doim.um}$ =2300 – 2250 =50 yoki 1050 – (400 . 2,5) =50.

Ishlab chiqarish zararsizligining tahlili. Zararsizlik (Cost – volume –profiI) tahlilini yoki CVP- tahlilini maqsadi - mahsulot ishlab chiqarish vaqt bo‘yicha cheklangan va korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlari o‘zgarmagan holda o‘tgan davr uchun moliyaviy natijalarni ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligini aniqlash.

Shu bilan birga asosiy shartlar quyidagilar bo‘lishi kerak:

1. O‘zgaruvchan xarajatlar va sotish narxi, ya’ni mahsulot birligining marjinal daromadi o‘zgarmas hisoblanadi va ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq emas.
2. Umumiy doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishi bilan o‘zgarmaydi, lekin mahsulot birligi uchun o‘zgaradi.
3. Ishlab chiqarish hajmi o‘zgarish bilan mahsulot biriligining foyda so‘mmasi o‘zgaradi.


YUqorida ta’kidlanganidek ko‘rinadiki, CVP – tahlil zararsizlik nuqtasi va marjinal daromadning tahlili va hisobiga asoslangan.

Zararsizlik nuqtasi - bu realizatsiyadan olingan daromad umumiy xarajatlarga teng bo‘lgan nuqta, ya’ni daromad ham zarar ham yo‘q.

Foyda (zarar) – bu marjinal daromad va doimiy xarajatlar orasidagi farq. Zararsizlik nuqtasi marjinal daromad (MD) doimiy xarajatlarga teng bo‘lgan joyda bo‘ladi. SHunday qilib, yuqorida keltirilganidek nisbat tuzish mumkin.

MD bir birlik uchun (MD_{dona}) = Narx (N) –Xar $_{o‘z.mah.bir.}$
Umumiy MD(MD)=$MICH_{miq}$. MD_{dona}=$MICH_{miq}$. (N-$Xar_{o‘z.mah.bir}$)
MD = Doimiy xarajatlar (Xar $_{doim)}$ + foyda (F)
Buni yana chizmada ham ifodalash mumkin.

Realizatsiyaning zararsizlik hajmi firmaning daromadi xarajatlarga teng yoki ko‘pligidan mahsulot realizatsiyasi va ishlab chiqarish hajmini xarakterlaydi. Realizatsiyaning zararsizlik hajmi zararsizlik nuqtasidan boshlanadi va relevantlik sohasi deb nomlanuvchi firma faoliyatini qamrab oladi.



4.5- chizma. **Marjinal daromad va zararsizlik nuqtasining chizmasi.**

Xavfsizlik marjasi – bu rejaviy sotish hajmi va zararsizlik nuqtusidagi sotish hajmi orasidagi farq. U kompaniya zarar ko‘rishdan oldin realizatsiya hajmi qanchaga qisqarishi mumkinligini ko‘rsatadi. (bu 7-chizmada yaqqol ko‘rinadi).

Zararsizlik marjasini yana foizlarda ifodalash mumkin.

$$Zararsizlik\ marja\ darajasi = 1 - \frac{zararsizlik\ nuqtasining\ sotish\ hajmi}{rejaviy\ sotish\ hajmi} * 100$$

Buni aniq misolda ko‘ramiz.

Mahsulot realizatsiyasining rejaviy hajmi – 80000,0 ming. dona

Realizatsiya narxi - 80 sum .

Mahsulot birligining o‘zgaruvchan harajati – 40 sum

Doimiy xarajatlar 200,0 mln. so‘m

Zararsizlik nuqtasini va zararsizlik marjasi darajasini aniqlash talab qilinadi.

$$Zararsizlik\ nuqtasi = \frac{20000000}{80 - 40}$$


$$Zararsizlik\ marja\ darajasi = 100 - \frac{5000 * 100}{8000} = 100 - 62.5 = 37.5$$

ya’ni firma zarar ko‘rishdan oldin ishlab chiqarish hajmini 37,5 % gacha kamaytirish mumkin ekan.

Shunday qilib ishlab chiqarish xarajatlarining hajmi va tarkibi, ya’ni foyda darajasi va summasi ko‘plab ichki va tashqi omillar ta’siriga bog‘liq: ishlab chiqarish hajmi, xom-ashyo narxi, materiallar, sotib olinadigan yarim fabrikatlar, uskunalar va mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish texnologiyasining o‘zgarishi, favqulotda holatlar, birlashma va mahalliy organlar chiqaradigan qonunlar.

Korxonaning zararsizligini tahlil qila turib bu omillarning barchasini ta’sirini o‘rganib chiqish lozim va ular asosida ishlab chiqarish xarajatlarini samaradorligi va foyda rentabelligini oshirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish kerak.

Foydaning ishlab chiqarish hajmi va xarajatlarga bog‘liqligi 8-chizmada keltirilgan grafikda ko‘rsatilgan.



4.6- chizma. **Foydaning xarajatlar va ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligi.**

“Operatsion faoliyatni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish” mavzusi bo‘yicha TAYANCH IBORALAR

- ishlab chiqarish hajmi;
- mahsulot nomenkulaturasining tavsifi;
- mahsulot assortimentini tahlil etish uslublari;
- mahsulot tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarni aniqlash uslublari;
- ishlab chiqarish maromiyligi;

- ishlab chiqarish maromiyligini buzilish sabablari;
- maromiylikni korxona iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta’siri;
- mahsulot ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi omillar tasnifi;
- tadbirkorlik omili;
- mehnat omili;
- tovar-moddiy zahiralar bilan ta’minlanganlik omili;
- asosiy vositalar bilan qurollanganlik omili
- sotish hajmi;
- sotish hajmiga ta’sir etuvchi omillar tahlilini uslublari;
- mahsulot etkazib berish va sotish shartnomalari;
- shartnoma bajarilishini tahlil etish usullari;
- sifat ko‘rsatkichlari tahlili;
- mahsulot sifatini tahlil etish uslublari;
- reklamatsiya to‘g‘risida tushuncha
- tannarx to‘grisida tushuncha va uni hisoblash uslublari;
- tannarx tahlil etishning mazmuni va maqsadi;
- xarajatlarni turkumlash;
- o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlar;
- mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar;
- 1 so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil etish uslubi;
- 1 so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarga ta’sir etuvchi omillar;
- xarajatlarni iqtisodiy elementi bo‘yicha tahlil etish uslublari;
- ish haqini bank usuli orqali nazorat qilish tartibi;
- ish haqini mutloq farqini aniqlash uslubi;
- ish haqini nisbiy farqini aniqlash uslubi;
- ishchilar ish haqi fondiga ta’sir etuvchi omillar hisoblash uslubi;
- mehnat unumdorligi bilan o‘rtacha ish haqini tahlil etish uslubi;
- materiallar xarajatini tahlili;
- sarf me’yorini ta’sirining aniqlash tartibi;
- material bahosining o‘zgarish sabablari;
- ishlab chiqarish yo‘nalishidagi boshqa xarajatlarni tahlil etish uslubi;
- ayrim mahsulot turlari tannarxni tahlil etish uslubi;
- mahsulot tannarxini pasaytirish bo‘yicha rezervlarni aniqlash tartibi.

“Operatsion faoliyatni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish” mavzusi bo‘yicha
NAZORAT SAVOLLARI

1. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlilining vazifalari nimalardan iborat?
2. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, sotishni ifodalovchi ko’rsatkichlar va ularni aniqlash yo’llari qanday?
3. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va sotish ko’rsatkichlarining tahlilining vazifalari nimalardan iborat?
4. Ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar ta’siri qanday baholanadi?
5. Ishlab chiqarish jarayonlari tannarxi tahlilining zaruriyati va vazifalari nimalardan iborat?
6. Ishlab chiqarish jarayonlari tannarxi tahlilining vazifalari nimalardan iborat?

“Operatsion faoliyatni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish” mavzusi bo‘yicha
TEST SAVOLLARI

1. Normativ sof mahsulot -

a) normativ ish haqi va foyda

b) sof mahsulot va amortizatsiya summasi

c) xaridor va buyurtmachilarga ortib jo‘natilgan va hisob hujjatlari taqdim etilgan mahsulot

d) sotish uchun tayyorlab qo‘yilgan mahsulot

2. Korxonaning yalpi tushumi 1 500 000.0 ming, tannarx 1 115 000.0 ming hamda qo’shilgan qiymat solig’I stavkasi 15% bo’lsa, korxonaning sof tushumini aniqlang.

a) 1 304 347.82 ming

b) 1 208 452.52 ming

c) 1 452 524.42 ming

d) 1 842 563.36 ming

3. Korxonaning yalpi tushumi 1 500 000.0 ming, tannarx 1 115 000.0 ming hamda qo’shilgan qiymat solig’I stavkasi 15% bo’lsa, korxonaning ishlab chiqarish rentabelligini toping.

a) 85.48
b) 58.48
c) 48.85
d) 48.58

4. Korxonaning bir birlik mahsulotga ketadigan o’zgaruvchan xarajati 5 000.0 so’m, sotish bahosi 15 000.0 so’m hamda bir oylik doimiy xarajatlari 50 000 000.0 so’mni tashkil qilsa, korxonaning kritik nuqtasini toping.

a) 5000
b) 5200
c) 7000
d) 8000

5. Korxonaning bir birlik mahsulotga ketadigan o’zgaruvchan xarajati 5 000.0 so’m, sotish bahosi 15 000.0 so’m hamda bir oylik doimiy xarajatlari 50 000 000.0 so’mni tashkil qilsa, korxonaning 50 000 000.0 foydaga chiqarish nuqtasini toping.

a) 12 000
b) 10 000
c) 9 000
d) 11 000

6. Ishlab chiqarish fondlari bo‘yicha rentabellik qanday aniqlanadi?

a) (foyda x 100) / (asosiy vositalar + aylanma mablag‘lar)
b) (foyda x 100) / (aktiv fondlar + passiv fondlar)
c) (foyda x 100) / (balans aktivi 1-bo‘lim + 2-bo‘lim jami)
d) (foyda x 100) / aktiv fondlar

7. Ishlab chiqarish maromi...?

a) grafik asosida bir maromda mahsulot ishlab chiqarish
b) oylik mahsulotning jami yillik mahsulotda tutgan ulushi
c) har oyda ishlab chiqarilgan mahsulot
d) maromiylik koeffitsenti

8. Ishlab chiqarish maromiyligini baholashda qo‘llaniladigan egri ko‘rsatkichlarga nimalar kiradi?

a) brakdan yo‘qotishlar, shartnoma buzilishi tufayli to‘langan jarimalar

b) maromiylik koeffitsenti

c) variatsiya koeffitsenti

d) oylik mahsulotning jami yillik mahsulotda tutgan ulushi

9. Istiqbolli tahlil deganda nimani tushunasiz?

a) kelgusi davr uchun o‘tkaziladigan tahlilni

b) oy, chorak va yil yakuni bo‘yicha o‘tkaziladigan tahlilni

c) milliy iqtisodiyotning tarmoqlari bo‘yicha o‘tkaziladigan tahlilni

d) milliy iqtisodiyot bo‘yicha o‘tkaziladigan tahlilni

10. Jami aktivlarni aylanish koeffitsienti qanday aniqlanadi?

a) mahsulotlar sotishdan tushgan sof tushum / aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati

b) jami aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati /mahsulotlar sotishdan tushgan sof tushum

c) sof foyda / aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati

d) asosiy faoliyatdan olingan foyda / aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati.

V BOB. KORXONANING MOLIYAVIY HOLATINI TAHLILI

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy holatini o‘rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi, tahlil vazifalari va axborot manbalari
2. Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishi
3. Mol – mulk tarkibining tahlili
4. Mablag‘lar manbaini tahlili
5. Aylanma mablag‘larni qoplashga o‘zlik manbalarining etarliligi yoki etishmasliligini tahlili
6. Moliyaviy barqarorlik tahlili
7. Korxonaning to‘lov qobiliyatini tahlili
8. Mol-mulk va mablag‘lar harakatchanligini tahlili
9. Aylanma mablag‘larning aylanishini tahlili

5.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy holatini o‘rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Mustaqillik bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatiga to‘liq erkinlik berdi. Ayniqsa, savdo-sotiqda erkin munosabat yuritish, hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish uchun sherik tanlay bilish, o‘zi ishlab chiqargan mahsulot va uni sotishdan olgan daromadga to‘liq egalik qilish moliyaviy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga bevosita ta’sir etadi.

Yangicha ish yuritish avval uchramagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamroh tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Korxonalarning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash, samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarning ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi, foydalanilmagan resurslarni aniqlab; korxonalarning kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Respublikamiz io‘tisodiyotini bozor munosabatlariga o‘tkazish bilan korxonalar xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishni ahamiyati yanada ortadi, chunki bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarishga joriy etilmagan

resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish eng dolzarb muammoga aylanadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi, rivojlanishi ko‘p tarmqli bozor iqtisodiyotini barpo etish, har xil shakldagi biznesni va ishbilarmonlikni rivojlantirish shunga olib keladiki, korxonalar faoliyatini moliyaviy natijalari - foyda va rentabellik korxonalar faoliyatini asosiy ko‘rsatkichlariga aylanadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda haddan tashqari markazlashtirilgan ma’muriy buyruqbozlik, rasmiyatchilik, rejalashtirish va boshqarish tizimidan voz kechish bozor munosabatlaridan keng frydalanish, korxonalarning iqtisodiy mustaqilligini kengaytiradi, ularning moliyaviy holatiga e’tiborni oshiradi hamda korxonalarning moliyaviy holati bilan shug‘ullanuvchi, undan manfaatdor tashkilot va organlarning tarkibini kengaytiradi.

Agar ilgari korxonalarning xo‘jalik faoliyatini, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish bilan faqat moliya, bank, statistika organlari va yuqori tashkilotlar shug‘ullangan bo‘lsalar, endilikda bu ish bilan yuqorida ko‘rsatilagn tashkilotlardan tashqari soliq organlari, auditorlik idoralari, jamoa tashkilotlari, aksionerlar, ta’minlovchilar, iste’molchilar va boshqa organlar va tashkilotlar ham shug‘ullanishyapti.

Bu holat moliyaviy tahlil, jumladan, uni bajarish uslubi oldiga yangi talablar qo‘ymoqda.

Ma’lumki, sobiq ittifoq davrida korxonalar xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish, jumladan, korxonalarning moliyaviy holatini tahlil etishning uslubiy masalalari markazda - butun ittifoq organlari tomonidan ishlab chiqarilardi, muammolari echilardi va ittifoqdosh respublikalarga foydalanish uchun jo‘natilar edi.

Sobiq ittifoqning tarqatilishi tufayli ittifoqdosh respublikalar mustaqil davlatlarga aylandi, ulardan har bittasi bozor munosabatlariga o‘tish uchun o‘z yo‘lini tanlab, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni davom ettirib, bozor iqtisodiyotini shakllantirmoqda. Ular orasida O‘zbekiston ham o‘zining bozor iqtisodiyotiga o‘tish modelini ishlab chiqib, xalq xo‘jaligini bozor munosabatlari sharoitida rivojlantirgan holda ijobiy natijalarni qo‘lga kiritib kelayotir.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni huquqiy bazasini tashkil qiluvchi Respublika Qonunlari, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining yuzlab qarorlari qabul qilindi va qabul qilinyapti.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri - bu boshqaruv tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bu masalani ijobiy hal etishda korxonalarning xo‘jalik faoliyati va moliyaviy holatini tahlil qilish katta rol o‘ynaydi. Chunki korxonalar faoliyatini tahlil qilish boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bozor munosabatlari davrida bu shartning asosiy qismi bo‘lib korxonalar moliyaviy holatining tahlili hisoblanadi. Respublikada yangi moliyaviy hisobot shakllari qabul qilindi, ularni o‘rganish va ulardan keng foydalanish uslullarini barpo etish katta ahamiyatga ega.

Bozor munosabatlari davrida respublikada bu masalani echish maqsadida moliyaviy tahlil uslubiyatini takomillashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Lekin bu borada hali echilmagan muammolar ham kam emas. Moliyaviy tahlilning o‘tkazishdan manfaatdor tashkilotlar, organlar, mutaxassislar hali ham ilmiy, ham amaliy nuqtai nazardan asoslangan uslub bilan ta’minlangan emaslar. Bu holat, albatta bozor munosabatlarini shakllantirish davrida korxona va tashkilotlarga samarali boshqaruvchilik qilishda salbiy rol o‘ynamoqda.

Korxonalarning moliyaviy holati bu:

- komples ravishdagi tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga keng ko‘rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;
- korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo‘jalik omillarining harakati, ularning o‘zaro aloqadorlik natijasidir;
- korxonalarning mo‘‘tadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasidir;
- korxonalarning boshqa xo‘jalik sub’ektlari, organlari va tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir.

Korxonalarning ichki va tashqi omillar ta’siri ostida shakllangan moliyaviy holati, ularning istiqbolini aniqlash bilan birga, bu korxona bilan aloqada bo‘lgan boshqa tashkilotlar va korxonalarning moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Umuman korxonalarning ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyatini, jumladan ularning moliyaviy holati tahlili asosini bir butun kompleks iqtisodiy fanlar: iqtisodiy nazariya, makro va mikro io‘tisodiyot, menejment va marketing, statistika, buxgalteriya hisobi,

audit, moliya, kredit, pul muomalasi va boshqalar tashkil etadi. Demak, tahlilchi mutaxassis-auditorlar keng iqtisodiy ilmga ega bo‘lishlari lozim.

Korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish, ya’ni moliyaviy tahlil - bu keng ko‘rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir.

Moliyaviy tahlil ko‘p qirrali murakkab jarayon bo‘lib, u tashkil qilinishi, buning uchun esa bir qator talablarga asoslanishi kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat:

* absolyut va nisbiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi aloqalarni borligini bilish;

* moliyaviy tahlil mobaynida absolyut va insbiy ko‘rsatkichlardan birgalikda foydalanish;

* moliyaviy tahlil mantiqiy ravishda amalga oshirilib, u induktiv usulga - alohida hodisalardan umumiy hodisalarga o‘tish, moliyaviy holatning bir shakl ko‘rinishidan umumiy ko‘rinishga o‘tish va deduktiv usulga - umumiy hodisalardan alohida hodisalarga o‘tishga asoslanib tahlil qilish;

- hamma foydalanilayotgan ko‘rsatkichlar bir xil, asoslangan usulda aniqlanishi lozim;
- moliyaviy holatni tahlil qilisha tahlil qilinayotgan korxona ko‘rsatkichlarini boshqa korxonalar, o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichlari va ilg‘or korxonalar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash;
- moliyaviy tahlilning har tomonlama bo‘lishligi va korxonalarning umumiy moliyaviy holatiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil etish;
- moliyaviy tahlilni samarali o‘tkazish uchun kerakli ma’lumotlarni oldindan tayyorlash va bu borada asosiy tasdiqlangan moliyaviy manbalar bilan cheklanmasdan birlamchi buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanish;
- moliyaviy tahlil ob’ektiv ravishda tashkil qilinib, u korxonalarning moliyaviy holati real darajasini ifodalashi lozim;
- moliyaviy tahlil o‘z vaqtida o‘tkazilib, tahlil yakunlariga asoslanib, moliyaviy holatni yaxshilash choralarini o‘z vaqtida amalga oshirishga imkon berish;
- moliyaviy tahlil kompleks ravishda o‘tkazilib, unda moliyaviy holatning hamma shakl va yo‘nalishlari ifodalanishi lozim;
- moliyaviy tahlil o‘z vaqtida va haqqoniy bo‘lib, u moliyaviy holatni ko‘tarishga bag‘ishlangan tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga

oshirishga imkon berishi kerak;

- moliyavi holatni tahlil qilish shunday vaqtda o‘tkazilishi kerakki, tahlil yakunlari quyidagi maqsadni amalga oshirib, korxona boshqaruv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatini tuldirishi lozim;
- moliyaviy tahlil barcha yig‘ilgan va umumlashtirilgan ma’lumotlarga asoslanb, kerakli ko‘rsatkichlardan foydalanib, bu ko‘rsatkichlarning asosliligi to‘g‘ri usullarda aniqlanshi lozim.

Moliyaviy tahlil quyidagi xususiyatlarga ega:

- moliyaviy tahlilning yakunlari ochiq bo‘lib, ulardan hamma foydalanishi mumkin;
- moliyaviy tahlilning sub’ektlari va bu tahlilning yakunlaridan foydalanuvchi organ, korxona, tashkilotlar tarkibi keng;
- moliyaviy tahlil hamma uchun moslangan, nashr etilgan hisobot ma’lumotlariga asoslanadi;
- moliyaviy tahlil korxonalar ichki boshqaruv muammolarini echish uchun o‘tkaziladi;
- moliyaviy tahlilning yo‘nalishi moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan cheklangan bo‘lib, unda chegaralangan bir aniq vazifalar echiladi. Bu moliyaviy mustahkamlik, balans likvidligi, foyda, rentabellik darajasi va boshqalardir.

Ko‘rinib turibdiki, korxonalarning moliyaviy holatini tahlil o‘ilish keng miqyosda va aniq vazifalarni bajarish uchun o‘tkaziladi. Korxonalarni ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilish uchun an’anaviy, qadimdan qo‘llanilib kelinayotgan usullar bilan birga, keng tarzda statistika usullari, moliyaviy holatni ifodalovchi ma’lumotlarni yig‘ish va umumlashtirish, statistik kuzatishlarni o‘tkazish, absolyut, nisbiy, o‘rtacha, dinamik ko‘rsatkichlardan foydalanish, dinamik qatorlardan, iqtisodiy indekslar tizimidan, omillararo korrelyasiya aloqalarni aniqlash, jadval va chizma tizimidan foydalanish lozim.

Ko‘rinib turibdiki, moliyaviy tahlil ko‘p qirrali murakkab va muhim bo‘lganligi sababli u bir qancha talablarga asoslangan bo‘lishi lozim. *YUqorida ko‘rilgan talablarga asoslanib, moliyaviy tahlil korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishda quyidagi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilishi kerak*:

1. Korxonalarning moliyaviy darajasini baholash;
2. Moliyaviy holatning o‘zgarishini aniqlash;
3. Korxonaning to‘lov qobiliyatiga baho berish;

4. Moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qilish;

5. Korxonaning moliyaviy barqarorligi va moliyaviy mustahkamligiga baho berish;

6. Korxona balansi likvidligiga baho berish va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

7. Aylanma mablag‘lar aylanishiga baho berish;

8. Korxonalarda qo‘lga kiritilgan moliyaviy holat darajasini ifodalab, bu borada hali foydalanilmagan imkoniyatlarni, mavjud zahiralarni ko‘rsatib berish.

9. Korxonalarda hali foydalanilmagan imkoniyatlarni safarbar etish maqsadida tavsiyalar, takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini ko‘rsatib berish.

Bajariladigan vazifalar shuni ko‘rsatayaptiki, moliyaviy holatni tahlil qilish korxonalarda shakllanayotgan boshqaruv tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Moliyaviy tahlil boshlanmasdan tahlilning ob’ektlari va predmetlari aniqlanishi lozim. Moliyaviy tahlilning asosiy ob’ekti bo‘lib, xo‘jalik sub’ektlari, alohida korxonalar, tashkilotlar hisoblanadi. Lekin moliyaviy holat korxonalar guruhi, ishlab chiqarish tarmoqlari miqyosida ham aniqlanishi mumkin.

Moliyaviy tahlilning yo‘naltirilganligi nuqtai nazardan moliyaviy tahlil quyidagi shakllarda o‘tkazilishi mumkin:

- gorizontal tahlilda hisobot davridagi moliyaviy holatni ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘tgan davr bilan taqqoslanadi, ya’ni bu ko‘rsatkichlarning dinamikasi aniqlanadi;
- vertikal tahlilda moliyaviy holatga taalluqli bo‘lgan ko‘rsatkichlarning tarkibiy tuzilmasi o‘rganiladi. Masalan, korxona mablag‘larining yoki ularni qoplovchi manbalarining hisobot davridagi tarkibi va uni o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi ifodalanadi;
- nisbiy ko‘rsatkichlar tahlilida moliyaviy holat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi aloqa o‘rganiladi. Masalan korxona mablag‘larining va ularning manbalari o‘rtasidagi aloqa, moliyaviy resurslar va ulardan foydalanish o‘rtasidagi aloqa ifodalanadi;
- taqqoslash tahlilida korxona bo‘yicha moliyaviy holat uning alohida bo‘limchalari moliyaviy holati bilan taqqoslanadi, bu korxonaning moliyaviy holati boshqa korxonalarning moliyaviy holati bilan solishtiriladi va pirovardida, omillar tahlilida korxonaning moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil etiladi.

Korxanalar faoliyatini o‘rganishda buxgalteriya hisoboti asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular moliyaviy ma’lumotlarning umumlashtirilishi natijasida tuziladi hamkorlikda ishlovchilar o‘rtasida bir-birini o‘rganish vositasi bo‘ladi.

Hisobot ma’lumotlari asosida korxona faoliyatini o‘rganishga qiziquvchilarni shartli ravishda bevosita va bilvosita talabgorlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga mulk egalari, qarz beruvchi, mol etkazib beruvchi, xaridorlar, soliqchilar, moliyachilar, korxona ishchi va rahbar xodimlari kiradi. Har bir qiziquvchi o‘zining manfaati va talabiga qarab moliyaviy hisobotlarni tahlil etadi. Mulk egasi sarmoyadan qanchalik samarali foydalanilayotganligi, qo‘shma olinadigan daromad summasi bilan qiziqsa, qarz beruvchi berilgan mablag‘ni qaytarib olish imkoniyatini oldindan bilishga xarakat qiladi. Bilvosita qiziquvchi iste’molchilarga auditorlik firmalari, birjalar, assotsiatsiya vakillari, matbuot xodimlari, kasaba uyushmalari va boshqalar kiradi. Ular moliyaviy holatga aloqador bo‘lmasada, birinchi guruh talabgorlarining manfatini himoyalash maqsadida hisobot ma’lumotlarini o‘rganadilar.

Moliyaviy ma’lumotlardan foydalangan holda korxonalar faoliyatiga to‘g‘ri baho berish muhim vazifadir. Ushbu kitobda buxgalteriya hisoboti asosida korxonalar faoliyatining moliyaviy tahlilini o‘tkazish uslubi bayon etilgan. U moliyaviy hisobotni o‘rganishga qiziquvchi tadbirkorlar, soliq, moliya, bank tizimi xodimlari va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

Bozor iqtisodi sharoitida javdal, jamoa, qo‘shma, kichik hissadorlik, hususiy va boshqa shakldagi mulkka ega bo‘lgan korxonalar moliyaviy ahvolini o‘rganishning mazmuni shundan iboratki, bunda o‘z vaqtida pul tushumlarining kelishi, hisoblashish intizomiga rioya qilish, hususiy va qarz mablag‘larining to‘g‘ri nisbatga bo‘lishini ta’minlash, moliyaviy tartib va intizomga, barcha ishlab chiqarish bug‘inlarida iqtisod va tejamkorlikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarning moliyaviy holati ko‘p jihatdan - baho, kredit, foyda va uni iqtisodiy taqsimlanish mexanizmiga bog‘liqdir. Barqarorlik bo‘lgan joyda barcha xo‘jalik muomalalari va hisob-kitoblar o‘z vaqtida bajariladi. Shu bois bozor sharoitida har qanday korxonaning moliyaviy ahvolini bilish va o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda.

Korxonalarning moliyaviy holatini tahlil etishda moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- korxonaning moliyaviy ahvolini har tomonlama o‘rganib, uning holatiga aniq va holisona baho berish;

- mablag‘ va manbalarning joylanishini tekshirish, ularni to‘g‘ri yo‘nalishda ishlatilganligini aniqlash;

- hisoblashish ishlarining o‘z muddatida bajarilganligi, debitor va kreditorlik qarzlari tarkibini o‘rganish;

- korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘lari bilan qarz mablag‘lari o‘rtasidagi nisbat va aylanma mablag‘larni manbaa bilan ta’minlanganligini tekshirish;

- moliyaviy intizomga qanchalik amal qilishni aniqlash va to‘lov qobiliyatiga baho berish;

- korxona mulkining kadrligi va tez pulga aylana olish darajasini o‘rganish;

- aylanma mablag‘lardan foydalanishga baho berish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo‘yicha takliflar bayon etish va h.k.

Tahlilning asosiy maqsadi - moliyaviy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag‘lardan yanada to‘g‘ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratiladi. Demak, bu mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, harajatlarni tejash, pul-moliya aloqalari va boshqa faoliyatlarning bir-biriga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Moliyaviy tahlilni bajarishda zarur bo‘ladigan manbalarga korxona balansi, unga qilingan ilovalar va boshqa hisobot ma’lumotlari kiradi. SHuningdek, buxgalteriyaning sintetik va analitik schetlari ma’lumotlaridan ham keng foydalanish lozim. Chunki keyingi yillarda tuziladigan hisobotlarning hajmi qisqarib, tahlil imkoniyatlarini chegaralashga olib kelmoqda.

Ayniqsa mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, maxsus va maqsadli mablag‘lar, zahira jamg‘armasi, foyda va zararlar, turli xil hisob-kitoblar, qimmatli qog‘oz va veksellar bo‘yicha ma’lumotlardan ko‘proq foydalaniladi. Bular xo‘jalik faoliyatining to‘g‘ri boshqarilishi, uning moliyaviy barqaror bo‘lishi va to‘lov qobiliyatining yaxshilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

5.2. Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishi

Balans—korxona mablag‘lari va qoplash manbalarining ma’lum davrdagi holatini ko‘rsatadi. Hisob-kitob ishlarini xalqaro an’anaviy talablar bo‘yicha yuritishga oz bo‘lsada yaqinlashtirilishi hamda 1997 yilda joriy qilingan va korxonalar tuzadigan yangi buxgalteriya balansi bozor iqtisodi sari qo‘yilgan dastlabki qadam bo‘lgan edi. Mazkur balans yillar davomida amaliyotda qo‘llanildi va uni takomillashtirish va xalqaro standartlarga yanada moslashtirish zaruriyati tug‘ildi. Shu sababli ham 2002 yilda yangi schyotlarga asoslangan moliyaviy hisobot shakllari,

jumladan, buxgalteriya balansi ham qabul qilindi. Bugungi kunda mazkur balans amalda keng qo‘llanilmoqda.

Zamonaviy ish yuritish shart–sharoitiga mos keluvchi balansda aktiv va passiv tomonlari bo‘ladi. Aktiv tomonida korxona mablag‘lari, passivida esa xo‘jalikning o‘ziga tegishli manbalar, kreditga va qarzga olingan boshqa manbalar ko‘rsatiladi. Aktiv mablag‘larning oshishi, passivdagi manbalar va foyda (daromad)ning ko‘payishi bilan bog‘liqdir. Balansning barcha bo‘lim va bandlarini chuqur o‘rganish moliyaviy ahvolni to‘liq o‘zlashtirishning asosini tashkil qiladi. Quyida bugungi kunda amalda bo‘lgan, ya’ni 2002 yil 27-dekabrda tasdiqlangan buxgalteriya balansining kengaytirilgan shakli keltirilgan.

Balans ma’lumotlarida ishlab chiqarishni uzluksiz olib borish uchun zarur bo‘lgan va hisobot tuzish davriga qiymat shaklidagi mol-mulki hamda uni qoplashga jalb qilingan manbalari o‘z aksini topadi. Bu ko‘rsatkichlar mol-mulk hajmi, tarkibi va qiymatini qay darajadaligini ifodalaydi. Shuningdek, mol-mulkning moliyalashtirish manbalari, ya’ni o‘ziga tegishli manbalar va chetdan qarzga jalb qilingan manbalar holati ham passivda keltirilgan. Balansdagi har bir band va bo‘lim korxonalarning moliyaviy holatiga bog‘liq, shuning uchun ham uni chuqur o‘rganish lozim.

Aktiv qism - asosiy va aylanma mablag‘larning holatini ko‘rsatib, moliyaviy xo‘jalik jarayonini yuritish vazifasini bajarishda bu mulklardan foydalanadi. Mulk to‘plangan moliyaviy hamda davlat tashkilotlari mablag‘i, hususiy shaxslar jamg‘armasi, hissador va ta’sischilarning ulushi, bank krediti, chet ellik sarmoyadorlar va hakozo mablag‘lar evaziga sotib olinadi. Ayrim hollarda ta’sischilar asosiy vosita va moddiy boyliklarning o‘zini berishi ham mumkin. Asosiy va aylanma mablag‘lar ishlab chiqarish faoliyatini uzluksiz yuritishga hizmat qiladi. O‘z-o‘zidan bu faoliyat davomida o‘zgaradi, xarakatda bo‘ladi va tarkibi yanada yangilanadi.

Balansning birinchi bo‘limi **«Uzoq muddatli aktivlar»** deb nomlanib, nomoddiy aktiv va asosiy vositalar boshlang‘ich, eskirish va qoldiq qiymatda, o‘rnatiladigan asbob-uskunalar, tugallanmagan kapital va uzoq muddatli qo‘yilma ta’sischilar bilan hisob-kitoblar va boshqa oborotdan tashqari bo‘lgan aktivlardan iboratdir. Nomoddiy aktivlar korxonaga daromad keltirish yoki uning ishlab chiqarishini yuritishga shart- sharoit yaratuvchi, natural buyum shakliga ega bo‘lgan mulkiy huquqiy qiymatlar, patentlar, mualliflik huquqi, savdo markalari, «Nou-xau», erdan, suvdan va boshqa tabiiy boyliklardan, bino, inshoot va

kurilmalardan foydalanish xuquqlaridan iborat bo‘ladi. Shuningdek, bu bandda hissadorlik jamiyati boshqaruvi kelishuviga muvofiq Nizom jamg‘armasini tashkil qilishi uchun ajratgan nomoddiy aktivlari ham aks etadi. Nomoddiy aktivlar tarkibida korxona manfaati uchun kelgusida ishlatilishi mo‘ljallangan ilg‘or texnologiyadan foydalanish huquqi, ularni olib kelish va ishlatishga tayyorlash harajatlari qo‘shilgan holda aks etadi. Bu holat qo‘shma korxonalardagi O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan yuridik shaxs bilan xorijiy sarmoyadorlar hamkorligi tufayli ko‘proq vujudga keladi.

Ishlab chiqarish va xizmat binolari, inshootlar va uskunalardan foydalanish xarajatlari ijara haqi summasiga teng bo‘ladi. Umuman nomoddiy aktivlar boshlang‘ich bahoda ko‘rsatiladi, xizmat muddatiga qarab uning eskirishi hisoblanadi va balans jamlanganda qoldiq bahodagi summa qo‘shiladi. «Asosiy vositalar» bandida balans tuzilgan vaqtgacha bo‘lgan 0100 schyotlari qoldig‘i ko‘rsatiladi. Bu hisobning betida yil davomida kirim qilingan. Kreditiga esa yil davomida chiqib ketganlari aks ettiriladi. Asosiy vositalar bo‘yicha eskirish hisoblanadi, buni aniqlash murakkab. Shuning uchun to‘liq tiklash uchun hisoblangan amortizatsiya summasiga eskirish teng deb shartli qabul qilinadi. Amortizatsiyani hisoblash maxsus me’yorlar asosida (boshlang‘ich yoki tiklash bahosiga nisbatan foiz hisobida) aniqlanadi. Me’yorlar har bir asosiy vosita turlari bo‘yicha differensiyalashgan, lekin amortizatsiyani hisoblashda asosiy vositalarning xizmat muddati tugaguncha, boshlang‘ich yoki qoldiq qiymatini eskirish sifatida yangi yaratilayotgan qiymatga o‘tkazishi lozim. Hisoblashning tezlashgan me’yorini qo‘llash mumkin, faqat bu tartib faol qatnashuvchi (mashina, uskuna va transport) vositalarga taaluqlidir.

Asosiy vositalarning eskirishi 0200 schyotlarida hisoblangach, shunga qarab amortizatsiyalashgan yoki qoldiq bahodagi asosiy vositalar hajmi aniqlanadi, ya’ni boshlang‘ich bahodan (0100 schyot) eskirish summa (0200 schyot) ayirib topiladi. Shu bandda uzoq muddatga ijara olingan, ishlatilishi yoki konservatsiyada turganligidan qat’iy nazar balansidagi asosiy vositalar qiymati aks etadi. Balansning qolgan qismida kapital qo‘yilmalar, shu’ba korxonalardagi aksiyalar, shu’ba korxonalarga berilgan qarzlar, uyushma korxonalardagi aksiyalar, uyushma korxonalariga berilgan qarzlar, uzoq muddatli investitsiyalar va boshqa aktivlar ko‘rsatiladi. Bu xo‘jalik yoki pudrat usulida bajarilayotgan tugallanmagan kapital qurilish asosiy poda tuzish xarajatlar, moddiy boyliklar qidirish ishlari uchun sarflar va shu

maqsadlarga ajratiladigan mablag‘larni ko‘rsatadi. Kapital xarajatlarni korxona o‘z mablag‘i yoki uzoq muddatli kredit evaziga bajarishi mumkin.

«Uzoq muddatli investitsiyalar» bandida hamkorlikda ishlashga kelishganlarning korxona ustav fondiga qo‘shgan hissasi yoki bergan qarzi, bir yildan ortiq muddatga qiymatli qog‘oz uchun qo‘ygan mablag‘i ko‘rsatiladi. Qimmatli qog‘ozlar mulk egasining huquqini aks ettirib, ma’lum darajadagi qo‘shimcha foydaning foizi daromad keltiradi. Bunday qog‘ozlar boshqa korxonalarning aksiya va obligatsiyalari, davlat tomonidan chiqarilgan ichki zayomlar, bankdan sotib olingan uzoq muddatli jamg‘armali sertifikatlardir. Bu band uchun summani 0600 «Uzoq muddatli investitsiyalar» schyotlari qoldig‘idan olinadi.

Balans aktivining II bo‘limi “**Joriy aktivlar”** deb nomlanib, asosiy o‘rinni «Tovar-moddiy zahiralar» bandi egallaydi. Chunki, bu bandda korxona ishlab chiqarishni yuritishga zarur bo‘lgan buyumlar jamlanadi. Unda xom ashyo va materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va detallar, urug‘, yem-xashak, yoqilg‘i, idishlar va idishbop materiallar, ehtiyot qismlar, qayta ishlash uchun chetga berilgan materiallarning haqiqiy tannarxi (sotib olish va olib kelish bilan bog‘liq harajatlar) ko‘rsatiladi. Ushbu bo‘limning yangi xususiyati shundaki, arzon baholi va tez eskiruvchan buyumlar boshlang‘ich, eskirish va qoldiq baholarda keltiriladi hamda balans jamlanganda faqat qoldiq bahodagi, ya’ni yaroqli qiymati qo‘shiladi.

Pul mablag‘lari, valyuta mablag‘lar, g‘aznadagi pullar, qisqa muddatli qo‘yilmalar bandlarida material shaklida bo‘lmagan boyliklar aks ettiriladi. Bu mablag‘larning hajmi korxonaning ixtisoslashganligi, bozor munosabatlarida ta’minotning tashkillashtirilishi va boshqa ko‘pgina sabablarga bog‘liq. Masalan, sanoatda pul salmog‘i yuqori bo‘lsa, savdo tashkilotlarida esa debitorlar bilan hisob-kitoblar ko‘p bo‘lishi mumkin, chunki bu tovarlarni sotishga borib qadaladi. Eng avvalo debitorlar bilan hisob–kitoblar ko‘rsatiladi, chunki xozirgi sharoitda bu masalani tahlil qilib turish zarurdir. Debitorlar boshqa yuridik (korxona, tashkilot va muassasa) va jismoniy shaxslar to‘lashi lozim bo‘lgan qarzdorlaridir. Qarzdorlarni shartli ikki guruhga ajratish mumkin: odatdagi va asoslanmagan. Odatdagi qarzlarga ishlab chiqarish, tovarlar sotish va xizmat ko‘rsatishga avvaldan qarz berish, da’vo qilish va shu kabi munosabatlar tufayli yuzaga kelgan, ammo to‘lash muddati hali etmaganlari kiradi. Asoslanmagan qarzlar faoliyat davomidagi kamchiliklar, tovar va moddiy boyliklarning kamomadi,

o‘g‘rilik va har xil yo‘qolishlar hisobiga paydo bo‘ladi. Bu holat doimo nazoratda bo‘lib, muntazam tahlil etib borishni talab qiladi. Umuman, debitor qarzlarning mavjudligi moliyaviy ahvolga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois tovar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olingan veksellar bo‘yicha, sho‘‘ba korxonalari, byudjet, xodimlar va boshqa debitorlar bilan bo‘lgan munosabatlar hususida balans tuzilgan davrdagi holat ko‘rsatiladi. II bo‘lim aktivida mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan avanslar va qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar ham keltiriladi.

Mablag‘larni o‘rganishda pul mablag‘larini tahlili alohida o‘rinni egallaydi. Bunday mablag‘lar hisob–kitob, valyuta schyoti va g‘aznadagi pullar tushuniladi. Mazkur mablag‘lar to‘lov majburiyatlarini bajarilishida birlamchi vosita bo‘lib xizmat kiladi. Ayniqsa, hisob-kitob va valyuta schyotidagi mablag‘lar mahsulot etkazib beruvchilar, pudratchilar, ishchi–xizmatchilar, byudjet, bank, sug‘urta va boshqalar bilan bo‘ladigan aloqa manbaidir. Shu tufayli bu masala alohida o‘rganilishi lozim. Shu erda o‘tgan va joriy yildagi ko‘rilgan zararlar ham aks ettirilishi kerak.

Korxona mulki va mablag‘larning kelib chiqish manbalari balansning passivida ko‘rsatiladi. Bular o‘ziga qarashli va chetdan jalb qilingan manbalarga ajratiladi. Jalb qilingan manbalarga bank kreditlari va kreditorlik qarzlari kiradi.

Passiv ham huddi aktiv qism kabi ikkita bo‘limdan iborat. Ya’ni balans passivining birinchi bo‘limi **“O‘z mablag‘lari manbalari”** deb nomlanib, bunda ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar, maqsadli tushum va fondlar kelgusi davr sarflari va to‘lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari aks ettiriladi. Passivning «Ustav kapitali» bandida xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun ajratilgan mablag‘lari ko‘rsatiladi. Hissadorlik jamiyatlarida esa har bir qatnashchining qo‘shgan hissasi ustav fondida ko‘rsatiladi. Divident sifatida taqsimlanadigan sof foyda hajmi ham qo‘shilgan hissaga qarab aniqlanadi. Demak, ustav fondi bozor iqtisodi sharoitida yuridik shaxs sifatida korxonaning o‘ziga tegishli mablag‘i va aksionerlarning qo‘shgan hissasidan iborat bo‘ladi. Har bir qatnashchi shaxsiy hissasiga qarab korxonaning xo‘jalik va moliyaviy faoliyatiga aralashadi. Hamkorlikdagi, hissadorlik, qo‘shma va kichik korxonalarning nizom jamg‘armasi hajmi qatnashchilar qo‘shgan badallar miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Qo‘shilgan kapital, rezerv kapital bandlarida korxonaning boyliklarini qayta baholanishidan, olgan foydasidan tashkil etilgan rezervlardan, qo‘shimcha aksiyalar chiqarish natijalaridan ko‘paygan xususiy manbalar ko‘rsatiladi.

Passiv I bo‘limiga taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) ham kiritiladi. Bu bandning summasi korxonani olgan foydasi miqdoriga va uning taqsimlanishiga bog‘liqdir. Korxona o‘z oldidagi foydadan to‘lashi lozim bo‘lgan majburiyatlarini bajarib bo‘lgandan so‘ng, qolgan qoldiq kelgusida rezerv sifatida foydalanilishini ko‘zlanib qoldiriladi. Taqsimlanmagan foyda bandi o‘tgan yillardagi foydadan qolgan summalarni ham ifodalaydi. Balansda korxonaning o‘z mablag‘lari manbai qancha ko‘p ulushni egallasa, shunchalik moliyaviy ahvol ishonchli bo‘ladi.

Balans passivining ikkinchi bo‘limi «Majburiyatlar» deb nomlanib, unda korxonaning uzoq muddatli va joriy majburiyatlari aks ettiriladi. Uzoq muddatli majburiyatlarga uzoq muddatli bank kreditlari va uzoq muddatli qarzlar va shu kabi uzoq muddatli majburiyatlar kiritiladi. Qarzlar bandida esa boshqa korxonalardan (bankdan tashqari) olingan qarz summalari ko‘rsatiladi. Bu bandlarni to‘ldirish uchun zarur ma’lumotlar «Banklarning uzoq muddatli kreditlari» va «Uzoq muddatli qarzlar» schyotlar qoldig‘idan olinadi.

II bo‘lim passivini o‘rganish ham katta ahamiyatga ega. Balans passivining ikkinchi bo‘limi “Majburiyatlar» deb nomlanib, bu bo‘limda qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlarini, korxona ishchi-xizmatchilari uchun bank kreditlari, tovarlar, bajarilgan ishlar, xizmatlar uchun, berilgan veksellar, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha, ijtimoiy himoyalash, sug‘urta, ta’minot, mulkiy va shaxsiy sug‘urta, byudjet bilan, undan tashqari to‘lovlar, sho‘‘ba korxonalari va boshqalar bilan bo‘ladigan hisob-kitoblar ko‘rsatiladi. Bulardan tashqari haridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar, ko‘zda tutilgan daromadlar, harajatlar va to‘lovlar zahirasi, dargumon qarzlar bo‘yicha zaxiralar va boshqa qisqa muddatli passivlar ham ushbu bo‘limda aks ettiriladi. SHu bo‘lim passivida juda ko‘p buxgalteriya hisobining schyotlarining kredit qoldig‘i keltiriladi. Korxona balansini o‘rganishda asosiy e’tibor yil boshida o‘tgan davrda mulk va mablag‘larning qanchalik o‘zgarganligi hamda aktivdagi har bir band passivdagi manbalar bilan qanchalik ta’minlaganligiga qaratiladi.

5.3. Mol – mulk tarkibining tahlili

Yangicha ish yuritish sharoitida korxonalar mulkining tarkibini o‘rganish va uni ko‘paytirish yo‘llarini aniqlash xo‘jalik faoliyatining tahlilida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa balansga qarab korxona mol–mulki va boyligining tarkibini kuzatish, sof mablag‘ holatini aniqlash, imkoniyat me’yorini o‘lchashga yordam beradi. Odatda, korxona mablag‘lariga asosan vositalar va oborotdan tashqari aktivlar hamda material (me’yorlashtirilgan) aylanma pul mablag‘lari kiradi. Ularni miqdori hissadorlik, hamkorlik, kichik va boshqa korxonalarning katta–kichikligiga, ixtisoslashuvi va bozor sharoiti raqobatlariga bardoshligiga bog‘liqdir.

Moliyaviy tahlilning muhim xususiyatlaridan biri korxona mulki, zahiralar va xarajatlarni har tomonlama o‘rganishdir. Bunday mablag‘lar tarkibiga ishlab chiqarish zahiralari, ya’ni xom-ashyo va materiallar, sotib olingan yarim fabrikatlar va komplektlovchi buyumlar, konstruksiya va detallar, ikkilamchi materiallar va o‘rnatilgan asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, parvarish va boquvdagi chorva mollari, urug‘ va em-xashak, arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlar va boshqalar kiradi. Ular korxonaning bir me’yorida ishlashi hamda mahsulot ishlab chiqarishi va shartnoma bo‘yicha sotish rejasini ta’minlashga etarli bo‘lishi lozim. Shuningdek, zahira va xarajatlar tarkibiga o‘simlik va chorvachilik bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr chiqimlari, tayyor mahsulot va boshqalar ham kiradi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini ham o‘rganish va tahlil etish lozim bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda korxona mulkining hajmi va tarkibi keltirilgan. Uni tuzishda balans ma’lumotlaridan foydalanib, sof, ishlatishga layoqatli boyliklar holati o‘rganiladi. Keltirilgan ma’lumotlar balansning jami summasiga teng bo‘ladi.

5.1-jadval

AVS” aksionerlik jamiyatining buxgalteriya balansini aktiv moddalarining tahlili

Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O‘zgarishi (+,-)		
	So‘mma,ming so‘m	Salmog‘i, %	So‘mma,ming so‘m	Salmog‘i, %	So‘mma-dagi, ming so‘m	Salmoqdagi, %	Yil boshiga nisbatan o‘sishi, %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6\2*100

1. Uzoq muddatli aktivlar	186790	25,99	203491	22,80	+16701	-3,19	+8,94
2. Joriy aktivlar **Shu jumladan:**	531756	74,01	689066	77,20	+157310	+3,19	+29,58
A) Tovar-moddiy zahiralari	470833	65,52	531450	59,54	+60617	-5,98	+12,87
B) Pul mablag‘lari va qisqa muddatli qo‘yilmalar	7657	1,08	9491	1,07	+1834	-0,01	+23,95
V) Debitorlar	53266	7,41	148125	16,59	+94859	+9,18	+178,08
Balans aktivining JAMI	**718546**	**100,0**	**892557**	**100,0**	**+174011**	**-**	**+24,22**

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan “AVS” aksionerlik jamiyatida o‘rganilayotgan joriy davrda jami aktivlar summasi 174011 ming so‘mga yoki 24,22 % ga ko‘paygan. Aktivlarning ko‘payishini ijobiy baholagan holda, ma’lumotlarga e’tibor qiladigan bo‘lsak, aktivlarning ko‘payishi asosan joriy aktivlarning 157310 ming so‘mga ortganligi hisobiga bo‘lgan. Korxonaning uzoq muddatli aktivlari ham 16701 ming so‘mga ortganligini ijobiy baholamoq lozim. Joriy aktivlarning tarkibini o‘rganadigan bo‘lsak, joriy yil oxirida yil boshiga nisbatan tovar-moddiy zahiralar 12,87 % ga ko‘paygan, ya’ni bu 60617 ming so‘mni tashkil etadi. Aksionerlik jamiyatining debitorlik qarzlari ham yil oxiriga kelib 178,08 % ga yoki 94859 ming so‘mga ko‘payganligini salbiy baholamoq kerak. Chunki, debitorlik qarzining bunday tartibda ortib borishi korxonaning aylanma mablag‘larini aylanishini sekinlashtiradi, to‘lov qobiliyatini yomonlashuviga olib keladi. Korxona aktivlari tarkibida asosiy salmoqni tovar-moddiy zahiralari egallamoqda, ya’ni u 60 % ga yaqin aktivlar summasini tashkil etmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada me’yordan ortiqcha tovar-moddiy zahirasi yaratilganligini hamda uning natijasida korxona joriy aktivlarini aylanishi sekinlashishini ko‘rsatmoqda. Aksionerlik jamiyati ma’muriyati mavjud aktivlardan unumli foydalanish choralarini ko‘rishi lozim deb hisoblaymiz.

Bozor sharoitida aylanma mablag‘lar, zahiralar va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi eng kam, sof faoliyat ko‘rsatadigan sharoitiga etarli bo‘lishi lozim. Tahlilda esa balans ma’lumotlari va materiallarni hisoblovchi schyotlardan foydalaniladi.

5.4. Mablag‘lar manbaini tahlili

Balansning passiv qismida korxona mablag‘larining qoplash manbalari ko‘rsatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mablag‘larni to‘ldirish quyidagilardan iborat:

1. O‘zlik mablag‘larning manbalari.
2. Majburiyatlar.

Bunda eng muhim o‘rinni korxonaning o‘ziga qarashli ustav qo‘shilgan, rezerv, kapitallar, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to‘lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari egallaydi. Ustav kapital korxona ixtiyoridagi doimiy berkitilgan asosiy va aylanma mablag‘larning hajmini ko‘rsatadi. U turli xo‘jalik muomalalari ta’sirida o‘zgarib turadi. bunga foydaning taqsimlanishi hisobiga to‘ldirilish, xomiylarning a’zolik badallari, asosiy vositalarning qayta baholanishi va boshqalar sabab bo‘lishi mumkin. mablag‘larning ko‘paytirish manbalari tarkibida foyda alohida o‘rinni egallaydi. Foyda hajmining ko‘payishi eng avvalo Nizom jamg‘armasini to‘ldirishga va boshqa ehtiyot jamg‘armalari yaratilishga olib keladi. Amortizatsiya va boshqa fondlarning tashkil bo‘lishi ham bozor sharoitida mazmunan o‘zgarmoqda. 1991 yildan amortizatsiya hisoblashda tezlashtirgan me’yorlar (aktiv turdagi mashinalar, qurilmalar, transport va boshqa vositalar bo‘yicha) qo‘llanishi va to‘liq tiklash qismi bo‘yicha amortizatsiya hisoblash asosiy vositalarining balans qiymatining mahsulotlar tannarxiga o‘tkazib bo‘lguncha qadar bajarishlik kabi yangiliklar joriy etildi.

Kredit va boshqa mablag‘larga qisqa, o‘rta, uzoq muddatga mo‘ljallab olingan kreditlar, o‘z muddatida uzilmagan ssudalar va boshqa qarz mablag‘lari kiradi. Shuningdek kreditorlar bilan hisoblashishlar va boshqa passivlar ham shu erda inobatga olinadi. Bunda kreditorlik qarzlardan tashqari byudjetga, sug‘urta va mehnat haqi yuzasidan korxonaning qarzlari ko‘rsatadi.

Bozor iqtisodi qonuniyatlari va talabidan kelib chiqqan holda korxonada qarz kam bo‘lgani ma’qul. 5.2-jadvalda korxona mablag‘larining manbalari ko‘rsatilgan.

5.2.-jadval

“AVS” aksionerlik jamiyatining buxgalteriya balansini passiv moddalarining tahlili

Mol-mulkni tashkil topish manbaining tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O‘zgarishi (+,-)		
	So‘mma,ming so‘m	Salm og‘i, %	So‘mma,ming so‘m	Salm og‘i, %	So‘mma-dagi, ming so‘m	Salmoqdagi, %	Yil boshiga nisbatan o‘sishi, %
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6=4-2**	**7=5-3**	**8=6\2*100**
1. O‘z mablag‘larining manbalari	460499	64,09	729410	81,72	+268911	+17,63	+58,39
2. Majburiyatlar **SHu jumladan:**	258047	35,91	163147	18,28	-94900	-17,63	-36,98
a) uzoq muddatli majburiyatlar	-	-	-	-	-	-	-
b) joriy majburiyatlar	258047	35,91	163147	18,28	-94900	-17,63	-36,98
Balans passivining JAMI:	**718546**	**100,0**	**892557**	**100,0**	**+174011**	**-**	**+24,22**

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, biz tahlil qilayotgan “AVS” aksionerlik jamiyatida joriy yilning boshiga nisbatan yil oxirida jami passivlari summasi 174011 ming so‘mga yoki 24,22 % ga ortgan. Korxonada mol-mulkni tashkil etuvchi manbalarning bunday tartibda ko‘payishini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim. Ammo, ushbu manbalar qaysi manbaalar hisobiga ko‘payganligiga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ya’ni manbalarning ko‘payishi o‘z mablag‘lari manbalari hisobigami yoki qarz manbalari hisobiga ekanligini aniqlash lozim. Aksionerlik jamiyatining ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, korxonada korxonada joriy yil oxirida o‘z mablag‘lari manbalari yil boshiga nisbatan 268911 ming so‘mga yoki 58,39 % ga o‘sgan. Bunday natijalarni korxona uchun ijobiy deb baholamoq lozim. Chunki, o‘z mablag‘larining manbalarini ko‘payishi korxonaning moliyaviy mustaqilligini ortishiga, to‘lov qobiliyatining yaxshilanishiga hamda korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi.

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, korxonada joriy yil oxiriga majburiyatlar summasi 94900 ming so‘mga yoki 36,98 % ga pasaygan. Bu esa majburiyatlarning umumiy passivlarda tutgan salmog‘ini 17,63 % ga kamaytirgan. Bundan ko‘rinadiki korxonaning to‘lov likvidligi ancha ko‘tarilgan. Balans passividagi moddalarga e’tibor qiladigan bo‘lsak, asosiy salmoqni, ya’ni 81,72 foizni o‘z mablag‘lari manbalari tashkil etmoqda. Bu korxonaning mustahkam moliyaviy barqaror ekanligidan dalolat beradi. Mazkur korxonada hisobot davrida joriy majburiyatlari, ya’ni kreditorlik qarzlari bir qadar kamayganligini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim.

5.5. Aylanma mablag‘larni qoplashga o‘zlik manbalarining etarliligi yoki etishmasliligini tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy holatini tahlil etishda moliyaviy tahlilning korxona moliyaviy holatini umumiy baholash bosqichidan keyingi eng asosiy bosqich bo‘lib – korxonaning moliyaviy mustahkamligi tahlili bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda korxonaning aylanma mablag‘larini qoplashga korxonaning o‘z mablag‘larini etarli yoki etishmasligi ham o‘rganiladi.

Balans ma’lumotlariga qarab korxonani aylanma mablag‘lari qanday manbalar hisobiga tashkil etilganligi o‘rganiladi. Bunday tahlilning zarurligi shundaki, korxonalarni moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi, kredit olishga layoqatliligini aniqlashda o‘zlik manbalar bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkich muhim ahamiyatga egadir. Quyidagi jadvalda zahira va xarajatlarni qoplashga o‘zlik manbalarning etarliligini aniqlash uslubi keltirilgan.

5.3-jadval

Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli manbalar bilan ta’minlanganlikning tahlili

(ming so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	Faro‘i (+,-)
1	2	3	4
1. O‘z mablag‘larining manbalari	460499	729410	+268911
2. Uzoq muddatli aktivlar	186790	203491	+16701
3. Tovar-moddiy zahiralarni qoplashga tegishli o‘z manbalari (1-2)	273709	525919	+252210
4. Uzoq muddatli kredit va qarzlar	-	-	-

5. Tovar-moddiy zahiralarni qoplashga tegishli o‘zlik va uzoq muddatli qarz manbalari (3+4)	273709	525919	+252210
6. Qisqa muddatli kredit va qarzlar	258047	163147	-94900
7. Tovar-moddiy zahiralarni qoplashga tegishli jami manbalar (5+6)	531756	689066	+157310
8. Tovar-moddiy zahiralarining jami	470833	531450	+60617
9. Tovar-moddiy zahiralarni o‘oplashga o‘z manbalarining etarliligi (+) yoki etishmasligi (-), (3-8)	-197124	-5531	-191593
10. Tovar-moddiy zahiralarni qoplashga o‘z va uzoq muddatli qarz manbalarining etarliligi (+) yoki etishmasligi (-), (5-8)	-197124	-5531	-191593
11. Tovar-moddiy zahiralarni qoplashga jami manbalarning etarliligi (+) yoki etishmasligi (-) (7-8)	+60923	+157616	+96693

Mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, biz tahlil qilayotgan “AVS” aksionerlik jamiyatida hisobot yili boshiga nisbatan yil oxirida 268911 ming so‘mga o‘z mablag‘lari manbalari ko‘paygan. Aksionerlik jamiyatining uzoq muddatli aktivlari esa yil boshiga nisbatan 16701 ming so‘mga ortgan. Buning natijasida korxonada joriy yil oxiriga kelib tovar-moddiy zahiralarni qoplashga tegishli o‘zlik manbalari hajmi 252210 ming so‘mga ko‘paygan. O‘zlik manbalarning ko‘payishini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim. Aksionerlik jamiyatida joriy yil boshida va oxirida uzoq muddatli majburiyatlari bo‘lmagan. Qisqa muddatli majburiyatlari esa yil boshida 258047 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib 163147 ming so‘mni tashkil etgan, ya’ni qisqa muddatli majburiyatlari 94900 ming so‘mga kamaygan. Bunday holat esa korxonaning tovar-moddiy zahiralarini qoplashga tegishli manbalarini qisqarishiga ta’sir etgan. Mazkur aksionerlik jamiyatida tovar-moddiy zahiralari hajmi birmuncha yuqori bo‘lganligi uchun joriy yil boshida ham, yil oxirida ham tovar-moddiy zahiralaini qoplashga o‘z manbalari hamda o‘z va uzoq muddatli qarz manbalari 191593 ming so‘mga etarli bo‘lmagan. Faqatgina qisqa muddatli majburiyatlar hisobigagina tovar-moddiy zahiralarini qoplashga jami manbalar 96693 ming so‘mga ortiqcha (etarli) bo‘lgan. Bundan ko‘rinadiki, korxonaning moliyaviy barqarorligi joriy yilning boshida ham, yil oxirida ham nobarqaror holatda bo‘lgan. Bunday natijalar bozor iqtisodiyoti sharoitida unchalik yaxshi natija deb hisoblanilmaydi. SHu sababli ham, korxona ma’muriyati moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun tegishli

chora-tadbirlar ko‘rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda korxonaning moliyaviy barqarorligi yil boshiga nisbatan yil oxirida biroz bo‘lsada yaxshilanganligini ko‘rishimiz mumkin.

5.6. Moliyaviy barqarorlik tahlili

Korxonalar moliyaviy holatini umumiy baholashdan keyingi moliyaviy tahlil bosqichi bo‘lib, korxonalarning moliyaviy mustahkamligi (barqarorligi) tahlili hisoblanadi. Moliyaviy mustahkamlikni tahlil etishdan oldin moliyaviy mustahkamlikning mazmuni to‘g‘risida kelishib olishimiz lozim.

Iqtisodiy adabiyotlarning ko‘pchiligida moliyaviy mustahkamlikka (barqarorlikkka) va balans likvidligiga bir xil ta’rif berishadi va anio‘lanayotgan ko‘rsatkichni yoki moliyaviy mustahkamlik yoki balans likvidligi, ya’ni korxonalarning olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egalik deb tushuniladi. Moliyaviy mustahkamlik va balans likvidligi – bu o‘z mazmuniga ega bo‘lgan ikki xil moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘lib, korxonalar moliyaviy faoliyatini har xil nuqtai nazardan ifodalaydi. *Bu haqda respublikamizning eng yirik iqtisodchi olimlaridan biri hurmatli ustozimiz E.Akromovning «Korxonalarning moliyaviy holatini tahlili» deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasida shunday deyiladi:*

Moliyaviy mustahkamlik ko‘rsatkichi kompleks sifatidagi ko‘rsatkich bo‘lib, u:

- Korxonalarning murakkab bozor munosabatlari davrida ishlab chiqarishni saqlanib qolish imkoniyatini;
- Korxona mablag‘laridan erkin ravishda foydalanish imkoniyati borligini;
- Ishlab chiqarishni to‘xtatmasdan, mahsulot sotish imkoniyati borligini;
- Korxonalar faoliyatining umumiy mustahkamliligini;
- Korxonalar faoliyatiga to‘g‘ri boshqaruvlik qilinayotganligini;
- Korxonalarda mavjud moliyaviy resurslarni bozor munosabatlarining talablariga javob berishligini;
- Korxonalarning zahira va xarajatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qoplovchi manbalar borligi darajasini ko‘rsatadi.

Demak, moliyaviy mustahkamlik korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga korxonalarning butun xo‘jalik,

ishlab chiqarish faoliyatining hamma yo‘nalishlari ta’sir ko‘rsatadi. Unga ham ichki, ham tashqi omillar, shart-sharoitlar ta’sir etadi.

Ichki omillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

- Korxonada ishlab chiqarishning barqarorligi;
- Ishlab chiqarishni tashkil qilish;
- Ishlab chiqarishni boshqarish;
- Korxona ustav jamg‘armasining hajmi;
- Korxona xarajatlari va daromadlarining nisbati;
- o‘zlik mablag‘larining manbalari va korxona majburiyatlarining nisbati;
- korxona aylanma mablag‘lari tarkibi.

Korxonalar o‘z faoliyati davomida boshqa xo‘jalik sub’ektlari bilan iqtisodiy aloqalarda bo‘lar ekan, *korxonalar moliyaviy barqarorligiga tashqi omillar ham ta’sir etadi.. Bunday omillar tarkibiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:*

- korxonaning tovarlar bozoridagi holati;
- korxonaning eksport va import aloqalari;
- korxonaning boshqa korxonalar bilan ishga doir aloqalarda aktivligi;
- bank organlari, debitor va kreditor korxonalar bilan aloqalar;
- respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat, soliq, narx-navo va moliya, bank siyosati, texnika, texnologiya siyosati.

Shunday qilib moliyaviy mustahkamlikka korxona ichidagi va undan tashqaridagi vaziyat, omillar, shart-sharoitlar ta’sir ko‘rsatar ekan, bundan ko‘rinadiki, moliyaviy mustahkamlikning darajasi korxonalarning hozirgi va kelgusidagi faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xo‘sh, yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib siz talabalar oldiga shunday muammoli savolni qo‘ymoqchimiz. *Korxonaning moliyaviy mustahkamlik (barqarorlik) ko‘rsatkichlarining darajasiga binoan korxonadagi qanday muammolarni echish mumkin bo‘ladi?* Bu savolga siz talabalarning munosabatingiz qanday.

Demak, moliyaviy mustahkamlik bir qancha omillar, shart-sharoitlar ta’sirining yakuni bo‘lib, u o‘z navbatida korxona faoliyatining ko‘p tomonlariga ta’sirini ko‘rsatar ekan. *Moliyaviy mustahkamlik tahlilini boshlamasdan oldin yana bir muammoni hal qilib olsak. Bu moliyaviy mustahkamlik atamasining mazmuni haqidagi muammodir.* Ushbu muammoli savolni echish maqsadida quyida iqtisodchi olimlarning fikrlari bilan tanishib chiqsak.

Moliyaviy mustahkamlikning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy mustahkamlikni o‘lchash, baholash uchun foydalaniladigan ko‘rsatkichlar tizimini chegaralab olish lozim.

Bunga ko‘ra, V.G.Artemenko, M.V.Bellendirlarning fikricha moliyaviy mustahkamlik korxona moliyaviy resurslarini shakllanish, taqsimlanish va foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Lekin, ma’lumki, korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanish, taqsimlanish va foydalanish samaradorligi ularning umuman moliyaviy holati bo‘lsa, moliyaviy mustahkamligi korxonalar faoliyatini faqat bir shaklini, yo‘nalishini ifodalaydi.

A.D.Sheremet, R.S.Sayfulinlarning fikricha moliyaviy mustahkamlik va to‘lashga qodirlik bir mazmunga ega bo‘lib, to‘lashga qodirlik moliyaviy mustahkamlikning tashqari ko‘rinishini ifodalaydi deb ta’kidlanadi.

Xuddi shu fikrga A.N.Li. va S.I.SHevchenkolar ham ega. Ular o‘z maqolalarida moliyaviy mustahkamlik koeffitsientining tahlili to‘g‘risida to‘xtalib, to‘lashga qodirlik ko‘rsatkichii tahlil etganlar.

Haqiqatda moliyaviy mustahkamlik va to‘lashga qodirlik har xil mazmunga ega bo‘lib, bu moliyaviy ko‘rsatkichlar turli usulda aniqlanadi. Undan tashqari A.N.Li. va S.I.SHevchenkolar moliyaviy mustahkamlikni moliyaviy barqarorlik deb qabul qilishgan. Bu ham bizning fikrimizcha noto‘g‘ri. Moliyaviy barqarorlik bu – korxonalarning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishini, pasaymasligini ifodalaydi. Moliyaviy mustahkamlik to‘g‘risida gap borar ekan, yana ikkita narsaga e’tibor berish lozim. Bu moliyaviy mustahkamlikning kriteriyasi va moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi. A.N.Li. va S.I.SHevchenkolarning fikricha, moliyaviy mustahkamlikning kriteriyasi aniqlanishi lozim va bu kriteriya sifatida korxonalarning bankrot bo‘lishi ehtimolligining past darajasi tavsiya etiladi. Bizningcha esa, avvalambor, moliyaviy mustahkamlikning darajasiga binoan korxonalarning bankrot bo‘lish ehtimolligi aniqlanilmaydi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy ko‘rsatkichlarni, shu jumladan, moliyaviy mustahkamlik bo‘yicha ham kriteriyalar emas, optimal yoki me’yoriy darajalari tasdiqlanishi kerak.

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy mustahkamlik darajasini o‘lchash uchun har xil ko‘rsatkich tizimlari tavsiya etiladi. A.N.Li. va S.I.SHevchenkolar moliyaviy mustahkamlikni aniqlash uchun korxona kapitalining tarkibiy ko‘rsatkichlari, V.G.Artemenko va M.V.Bellendirlar

esa moliyaviy mustahkamlikni tahlil etishda nisbiy ko‘rsatkichlar bilan birga absolyut ko‘rsatkichlardan ham foydalanishgan.

Moliyaviy mustahkamlik albatta, nisbiy ko‘rsatkichlar, zahiralar va xarajatlar hamda ularni qoplovchi manbalar nisbati bilan aniqlanishi lozim. Zahira va xarajatlar bilan ularni qoplovchi manbalar o‘rtasidagi absolyut farq esa – moliyaviy mustahkamlikni ko‘rsatmaydi. Ulardan faqat moliyaviy mustahkamlikni aniqlash uchun axborot bazasi sifatida foydalaniladi. Shunday qilib, iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishda eng asosiy muammo, uning iqtisodiy mazmuni bo‘yicha iqtisodchi olimlar o‘rtasida kelishuvchanlik hali mavjd emas ekan.

Bozor sharoitida moliyaviy barqarorlik va to‘lovga qobiliyatlilik korxonaning muhim iqtisodiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik balansdagi ma’lumotlar asosida o‘rganiladi. Undagi ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslab, mablag‘lar o‘rtasidagi nisbat va o‘zaro bog‘lanish aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligini belgilovchi eng muhim ko‘rsatkichlar quyidagilardan iboratdir:

1. *Jami mablag‘dagi korxonaning o‘ziga o‘arashli mablag‘ ulushini qanchaligini hisoblashdir yoki bu quyidagi tartibda topiladi:*

$$(\boldsymbol{A})\ \frac{\boldsymbol{korxonaning\ o‘ziga\ qarashli\ mablag‘}}{\boldsymbol{jami\ mablag‘}\ (\boldsymbol{balans\ jami})}$$

Bunda o‘ziga qarashli mablag‘ qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik moliyaviy barqarorlik yuqori bo‘ladi.

2. *Korxonadagi o‘ziga qarashli mablag‘ bilan qarzga olingan mablag‘lar o‘rtasidagi nisbat yoki bu quyidagi tartibda topiladi*:

$$(\boldsymbol{B})\ \frac{\boldsymbol{qarzga\ olingan\ mablag‘}}{\boldsymbol{o‘ziga\ qarashli\ mablag‘}}$$

O‘ziga qarashli mablag‘ ulushi ortgan sari moliyaviy barqarorlik kuchaya boradi.

3. *Uzoq muddatli qarzlardan foydalanish koeffitsienti, ya’ni uzoq muddatli qarz mablag‘larini korxonaning o‘ziga qarashli va qarz mablag‘lar summasining yig‘indisiga bo‘linadi yoki bu quyidagi tartibda aniqlanadi:*

$$(V)\ \frac{\textbf{uzoq muddatga olingan qarz mablag‘}}{\textbf{korxonaning o‘ziga} + \textbf{uzoq muddatga olingan qarashli mablag‘}\quad \textbf{qarz mablag‘}}$$

4. *Korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘larning chaqqon harakatchanlik koeffitsienti yoki bu quyidagicha topiladi:*

$$(G)\ \frac{\textbf{o‘ziga qarashli aylanma mablag‘}}{\textbf{o‘ziga qarashli jami mablag‘}}$$

5. *Eskirishning jamlanish koeffitsienti yoki bu quyidagicha topiladi:*

$$(D)\ \frac{\textbf{asosiy vositalarning eskirish summasi}}{\textbf{asosiy vositalar+nomaterial aktiv}}$$

Bu ko‘rsatkich balans ma’lumotlari bo‘yicha topiladi:

6. *Korxona mulki tarkibidagi asosiy vositalarning aniq qiymati koeffitsienti, bu ko‘rsatkich balans ma’lumotlari asosida hisoblanadi va quyidagicha topiladi:*

$$(E)\ \frac{\textbf{asosiy vositalar (qoldiq bahoda)}}{\textbf{jami sof mulk}}$$

7. *Korxonadagi jami mulkning xarakatchanligi (chaqqonlik) koeffitsienti, buni hisoblash quyidagicha bo‘ladi:*

$$(K)\ \frac{\textbf{aylanma mablag‘lar (zaxira va pul mablag‘lari)}}{\textbf{jami mulk (balans jami)}}$$

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash va uning ahvolini baholashga yordam beradi.

5.4-jadval

Moliyaviy koeffitsientlar tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	O‘zgarishi (+,-)
1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	0,641	0,817	+0,176
2. To‘lov qobiliyati koeffitsienti	2,061	4,223	+2,162
3. Qarz va o‘z mablag‘lari o‘rtasidagi nisbat koeffitsienti	0,560	0,223	-0,337
4. Zahira va xarajatlarni o‘z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsienti	0,978	1,372	+0,394
5. Mablag‘larning chaqqon harakatchanlik koeffitsienti	0,594	0,721	+0,127

Buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida moliyaviy koeffitsientlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\boldsymbol{O‘z\ mablag‘larining\ manbalari}\ (\mathbf{480}\ \boldsymbol{satr})}{\boldsymbol{Balans\ jami}\ (\mathbf{780}\ \boldsymbol{satr})}$$

2. To‘lov qobiliyati koeffitsienti quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\frac{\boldsymbol{Joriy\ aktivlar}\ (\mathbf{390}\ \boldsymbol{satr})}{\boldsymbol{Majburiyatlar}\ (\mathbf{770}\ \boldsymbol{satr})}$$

3. Qarz va o‘z mablag‘lari o‘rtasidagi nisbat koeffitsienti quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\frac{\boldsymbol{Majburiyatlar - uzoq\ muddatli\ majburiyatlar}}{\boldsymbol{O‘z\ mablag‘larining\ manbalari}\ (\mathbf{480}\ \boldsymbol{satr})}$$

4. Zahira va xarajatlarni o‘z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsienti quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\frac{\boldsymbol{O‘z\ mablag‘lari\ manbalari + uzoq\ muddatli\ majburiyatlar - uzoq\ muddatli\ aktivlar}\ (\mathbf{480 + 490 - 130}\ \boldsymbol{satr})}{\boldsymbol{Tovar - moddiy\ zahiralar}\ (\mathbf{140}\ \boldsymbol{satr})}$$

5. Mablag‘larning chaqqon harakatchanlik (manyovrlashganlik) koeffitsienti quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\frac{\boldsymbol{O'z\ mablag'lari\ manbalari\ +\ uzoq\ muddatli\ majburiyatlar\ -\ uzoq\ muddatli\ aktivlar}\ (\mathbf{480+490-130}\ \boldsymbol{satr})}{\boldsymbol{O'z\ mablag'larining\ manbalari}\ (\mathbf{480}\ \boldsymbol{satr})}$$

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga ko‘ra, “AVS” aksionerlik jamiyatining moliyaviy ahvoliga to‘g‘ri baho berish uchun buxgalteriya balansiga asoslangan holda moliyaviy koeffitsientlardan foydalanamiz. Shunga ko‘ra, korxonaning moliyaviy mustaqillik koeffitsienti yil boshiga nisbatan 0,176 koeffitsientga yoki 17,6 % ga o‘sgan. To‘lov qobiliyati koeffitsienti yil boshiga nisbatan 2,162 koeffitsientga o‘sgan. Mazkur koeffitsientlarning bunday tartibda o‘zgarishi korxonaning moliyaviy holatini joriy yil boshiga nisbatan yil oxirida bir muncha yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari korxonada majburiyatlarning o‘z mablag‘lariga nisbatan ulushini pasayganligini ham ijobiy baholamoq lozim, ya’ni bu korxonaning majburiyatlarini qisqarganligidan dalolatdir. Mablag‘lar harakatchanligi esa yil boshiga nisbatan yil oxirida 0,127 koeffitsientga o‘sgan. Bu esa korxonada aylanma mablag‘larga bo‘lgan talabni yanada to‘laroq qondirib borish imkonini beradi. Umuman olganda korxona ma’lumotlari asosida uning moliyaviy koeffitsientlari o‘rganilganda, ushbu koeffitsientlarning o‘zgarishi ijobiy bo‘lgan.

5.7. Korxonaning to‘lov qobiliyatini tahlili

Korxonalar ko‘p turdagi iqtisodiy aloqalarni, jumladan, xom-ashyo va materiallar sotib olish, tayyor mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan hisob-kitoblarni bajarishadi. Shuningdek, davlat byudjeti, moliya, bank, sug‘urta va kreditorlar bilan munosabatda bo‘linadi. Ularga hisob berishni belgilangan muddatda amalga oshirish, moliyaviy tartib intizomiga rioya qilish katta ahamiyatga ega.

To‘lov qobiliyati deyilganda, xo‘jalikning muddati kelgan to‘lov majburiyatlarni bajarish uchun zurur bo‘lgan mablag‘larni etarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lishi muhim va bu uning o‘z vaqtida zarur bo‘lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi. Korxona balansi ma’lumotlarga asoslanib, to‘lov qobiliyatining qay

ahvoldagi hisoblanadi. Buning uchun korxonaning to‘lash uchun zarur bo‘lgan mablag‘lari bilan qarz majburiyatlarini solishtirish mumkin.

To‘lov mablag‘lariga pul mablag‘lari, jo‘natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor sotishdagi tushum va boshqalar kiradi. shuningdek qisqa muddatga olingan ssudalar ham vaqtincha to‘lov majburiyatlarni amalga oshirish uchun manbaa bo‘lishi mumkin. Qiymatli qog‘oz, aksiya, obligatsiya sotishdan olingan mablag‘ va qo‘shimcha korxonalarda qatnashishdan kelgan daromadlar ham to‘lov majburiyatlarini bajarishdagi manba bo‘lishi kerak. To‘lov majburiyatlariga mol etkazib beruvchi va pudratchilarga, byudjet va sug‘urtaga, mehnat haqi, turli xil kreditorlarga bo‘lgan va boshqa turdagi qarzlar kiradi. Korxonaning ma’lum bir kundagi to‘lov qobiliyatini aniqlash uchun shu muddatdagi to‘lov majburiyatlari bilan mablag‘lar solishtiriladi.

5.5-jadval

“AVS» aksionerlik jamiyatining to‘lov qobiliyatini tahlili

To‘lash uchun mablag‘lar	Satr raqami	Hisobot yili oxiriga so‘mmasi, ming so‘m	To‘lov qarzlari	Satr raqami	Hisobot yili oxiriga so‘mmasi, ming so‘m
1	2	3	4	5	6
1. Pul mablag‘lari, ya’ni kassadagi va hisob raqamidagi pul mablag‘lari	330-340	9374	1. Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar (qarzlar)	610	90387
2. Valyuta mablag‘lari	350	117	2. Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlari	680	400
3. Qisqa muddatli investitsiyalar, boshqa pul mablag‘lari va joriy aktivlar	360-380	12009	3. soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar	650	-
4. Tayyor mahsulot	170	167464	4. Mulkiy va shaxsiy sug‘urta bo‘yicha qarzlari	700	
5. Debitorlik qarzlari	210	148125	5. Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar	690	6721

			7. Mexnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlar	720	5007
			8. Qisqa muddatli kredit va qarzlar	730-740	35593
			9. Boshqa joriy majburiyatlar	-	25039
Jami to‘lash uchun mablag‘lar	xxx	337089	Jami to‘lov qarzlari	xxx	163147
Qarz to‘lov majbu-riyatlarning ko‘pligi	xxx	-	To‘lov qarzlaridan to‘lov mablag‘larining ko‘pligi (ortiqchaliligi)	xxx	173942
Balans	xxx	337089	Balans	xxx	337089

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, biz tahlil qilayotgan “AVS” aksionerlik jamiyati joriy davrda to‘lov qobiliyatiga ega hisoblanadi. YA’ni, korxonaning jami to‘lov mablag‘lari 337089 ming so‘m bo‘lgani holda, jami to‘lov qarzlari 163147 ming so‘mni tashkil qilgan. Bundan ko‘rinadiki korxonada to‘lov qarzlariga nisbatan to‘lov mablag‘lari 173942 ming so‘mga ko‘p bo‘lgan. Bu esa korxonaning mutloq to‘lov qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari to‘lov mablag‘lari tarkibiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, uning asosini tayyor mayosulotlar (167464 ming so‘m) hamda debitorlik qarzlari (148125 ming so‘m) tashkil qilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxona ayni vaqtda tez to‘lov qobiliyatiga ega emas ekan. To‘lov qarzlarining asosini esa mol etkazib beruvchilardan bo‘lgan qarzlar hamda boshqa shu kabi majburiyatlar tashkil qilmoqda. Bu esa ushbu qarzlarni qisqa muddatlarda to‘lab beish lozimligini bildiradi. Korxona ma’muriyati to‘lov qobiliyatini yaxshilash uchun mavjud tayyor mahsulotlarini sotish choralarini ko‘rishi hamda debitorlik qarzlarini undirib olish choralarini ko‘rishi lozim bo‘ladi. Aks holda, korxonaning to‘lov qobiliyati bundanda yomonlashishi mumkin.

Korxonaning to‘lov layoqatini baholashda odatda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

- Mutloq to‘lov layoqati koeffitsienti;
- Oraliq to‘lov layoqati koeffitsienti;
- Joriy to‘lov layoqati koeffitsienti.

Mutloq to‘lov layoqati ko‘rsatkichi korxonaning joriy aktivlarida harakatchan aktivlarning to‘lov majburiyatlarini qoplashiga etarliligi yoki etishmasliligini; oraliq to‘lov layoqati ko‘rsatkichi joriy aktivlarda harakatchan va tez pulga aylanadigan aktivlarni to‘lov majburiyatlarini qoplashga etarliligi yoki etishmasliligini; joriy to‘lov layoqati ko‘rsatkichi esa joriy aktivlarda barcha aylanma aktivlarning to‘lov majburiyatlarini to‘lashga etarliligi yoki etishmasliligini tavsiflaydi.

Korxonaning to‘lov layoqatiga baho berishda muqobillik variantlarini ham qo‘llash lozim bo‘ladi. YAngi ochilgan va hali faoliyat boshlamagan korxonalarga kredit berish yuzasidan qaror qabul qilishda, uning biznes reja ko‘rsatkichlari va u bo‘yicha aniqlangan to‘lovga qodirlikning ehtimolligiga, korxonaga maqsadli, markazlashgan kredit resurslarining tushirilishiga, texnik loyihalar asosida kredit ajratilishi va hakozolarga ahamiyat berilishi muhimdir.

5.6-jadval

Korxonaning to‘lov layoqati ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi

Ko‘rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh
1. Mutloq to‘lov layoqati koeffitsienti	$\boldsymbol{Km = \frac{PM + QQ}{QMM}}$	PM- pul mablag‘lari QQ- qimmatli qog‘ozlar QMM- qisqa muddatli to‘lov majburiyatlari
2. Oraliq to‘loa layoqati koeffitsienti	$\boldsymbol{Ko = \frac{PM + QQ + DM}{QMM}}$	DM- debitorlik majburiyatlari
3. Joriy to‘lov layoqati koeffitsienti	$\boldsymbol{Kj = \frac{PM + QQ + DM + TMZ}{QMM}}$	TMZ- tovar-moddiy zahiralar

Korxonaning to‘lov qobiliyatini tahlil etishda qisqa muddatga to‘lov qobiliyati va uzoq muddatga to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari ham o‘rganiladi. *Shunga ko‘ra qisqa muddatli to‘lov qobiliyat quyidagicha aniqlanadi:*

$$=> \frac{\textbf{Pul mabalag‘lari + qisqa mud.qim.qog‘ozlar}}{\textbf{Qaytarish mud.etgan kreditor qarzlar}}$$

Uzoq muddatli to‘lov qobiliyat esa:

$$=> \frac{\textbf{Oborot aktivlar}}{\textbf{Majburiyatlar}} = \frac{125152}{35772} = \mathbf{3.4}$$

Demak, korxona yuqori to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan. Bu korxona faoliyati uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Korxonaning mavjud pul mablag‘lari doim to‘lov majburiyatlarini qaytarishga tayyor bo‘lgan manba bo‘lganligi uchun hamda qimmatli qog‘ozlar ham shu maqsadga ishlatilishi mumkinligini hisobga olinib, to‘lov qobiliyatini belgilovchi koeffitsient hisoblaniladi. Shuningdek, turli aylanma mablag‘larning pul shakllariga o‘tish muddati har xilligini e’tiborga olinganda, tayyor mahsulot zahiralari tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlar va yarim fabrikatlarning pulga aylantirish tezligini o‘rganish zurur. Bundan tashqari to‘lov qobiliyatining o‘zgarishida debitorlik qarzlarining pulga aylanish tezligi, bankdagi to‘lov hujjatlarini o‘z vaqtida rasmiylashtirilishi va ularning tez harakat qilishiga bog‘liqdir. Agarda debitor mablag‘larni qarz majburiyatlarini uzishga yo‘naltirilsa, oraliq to‘lov qarzlarini qoplashlik koeffiitsenti ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Demak, korxona qisqa muddatli to‘lov majburiyatlarini qoplashga o‘zining barcha aylanma mablag‘larini, ya’ni, zahiralar, pul mablag‘lari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlarini jalb etishi lozim bo‘ladi.

Kelgusi yilda korxonaning to‘lov qobiliyatida yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni bilish uchun mahsulotlar sotishdan keladigan tushum hajmini tahlil qilish lozim. Jami tushum hisobiga sarflangan xarajatlar qoplanadi, majburiy to‘lovlar bajariladi va ehtiyot rivojlantirish jamg‘armalari yaratiladi. Sof tushum bevosita korxona oborotida qatnashadi, bunga asosiy vosita eskirishi va sof foyda kiradi.

Korxonaning to‘lov qobiliyatini tahlil qilishda sof tushum koeffitsientini hisoblash muhimdir, bu ko‘rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

$$\frac{\textbf{Sof foyda} + \textbf{asosiy vositalar eskirishi} (\textbf{amortizatsiya})}{\textbf{sotishdan tushum}}$$

Hissadorlik, kooperativ, kichik va hamkorlikda ishlaydigan korxonalarda o‘ziga qarashli mol-mulkni ko‘paytirish ahamiyatli. Ayniqsa, hissadorlik va boshqa jamg‘armalarni to‘ldirib borish zururdir. Bu hissadorlar, ustav fondi qatnashchilari va a’zolarning badallari hisobiga to‘ldiriladi. Shuning uchun ham a’zolarning kelishuviga muvofiq, qonun bilan belgilangan ustav fondining hajmi kamaytirilmasligi va u to‘ldirib borilishi zarur. Korxona balansini o‘rganishda albatta Nizom jamg‘armasining o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish sabablari tahlil qilinadi. Demak, ustav fondining ko‘payishi ham moliyaviy barqarorlik yaxshilanganligi belgisi hisoblanadi.

5.8. Mol-mulk va mablag‘lar harakatchanligini tahlili

Erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida balans ma’lumotlari asosida korxona aktivlarining holatini o‘rganishda ularning pulga aylanuvchanligiga baho berish tahlilning muhim vazifasi hisoblanadi. Bunday tahlilning zaruriyati bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda qattiq moliyaviy cheklanishlarning paydo bo‘lishi va olingan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini o‘z vaqtida hisoblab baho berishda ko‘rinadi. Ayniqsa, to‘lov majburiyatlarining muddati korxona mulki faoliyat natijasida pulga aylanish muddatiga mos kelishi moliyaviy holatni yaxshilanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois korxona aktivlarining harakatchanligini tahlil qilgan holda qarzlarni qaytarishga etarli yoki etishmasligi muntazam o‘rganilishi lozim.

Likvidlik deganda, avvalo, mablag‘larning joylanishi, ularning pulga aylanish darajasi, yaqin va uzoq davriylikdagi to‘lov majburiyatlarining oqlanishi, joriy aktivlar va passivlarning o‘zaro farqlanishidagi zaruriy shartlarning saqlanishiga aytiladi.

Iqtisodchi olim E.Akramovning fikricha, balans likvidligi bu – balansning aktiv tomonidagi bir davrga borib naqd pulga aylanadigan mablag‘lar bilan shu davrda qaytariladigan majburiyatlarni solishtirish demakdir.

Pulga aylanish tezligiga qarab, korxona aktivlari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Doimiy xarakatdagi aktivlar.
2. Tez sotiluvchi aktivlar.
3. Sekin sotiluvchi aktivlar.
4. Qiyin sotiluvchi aktivlar.

Doimiy harakatdagi aktivlar guruhiga balansdagi barcha pul mablag‘lari va qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar, ya’ni qimmatli qog‘ozlari kiradi. Bunday aktivlar doimo qarz majburiyatlarni to‘lash uchun tayyor turgan mablag‘ hisoblanadi va pul mablag‘i ko‘p bo‘lgan korxonalar bilan iqtisodiy aloqalarni o‘zaro hisob-kitoblarni kelishilgan muddatlarda bajarish imkonini beradi.

Tez sotiluvchi mulklarga balansning II bo‘lim aktividagi debitor qarzlar va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Bu mablag‘lar ham zarur bo‘lgan hollarda to‘lov vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Sekin sotiluvchi aktivlarga balansning «Tovar-moddiy zahiralari» jami tushunilib, naqd pul mablag‘lari etishmagan hollarda to‘lov majburiyatlarni qoplashga sarflanishi mumkin. Qiyin sotiluvchi guruhlarga esa «Asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlar» kiradi. Bu mulk turli ishlab chiqarishda uzoq muddat qatnashib, o‘z qiymatini asta-sekin yaratilayotgan mahsulotlarga o‘tkazib beradi. SHuning uchun ham asosiy vositalarning pulga aylanib, to‘lov vositasi va majburiyatlarni uzishga manbaa bo‘lishi ko‘p vaqtni talab etadi.

Korxona aktivlari, albatta, o‘z va qarz kapitali hisobiga manbalanganligi bois uning passiv tomoni ham to‘lov majburiyatlarining muddati va shartidan kelib chiqqan holda tarkibiy o‘rganishni talab etadi. *Shu ma’nola likvidlik sharti bo‘yicha passivlar quyidagi moddalar bo‘yicha turkumlab chiqiladi*:

1. Muddati kelgan to‘lov majburiyatlari;
2. Qisqa muddatli to‘lov majburiyatlari;
3. Uzoq muddatli to‘lov majburiyatlari;

4. Doimiy passivlar.

Balansning birinchi guruh to‘lov majburiyatlariga balansning II bo‘lim passividagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar va o‘z vao‘tida o‘aytarilmagan ssudalar kiradi. Qisqa muddatli passivlar guruxiga esa II bo‘lim passivdagi qolgan bandlar, ya’ni bankning qisqa muddatli kreditlari, korxona xizmatchilari uchun bank kreditlari, qisqa muddatli qarzlar kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlar zahirasi, dargumon qarzlar bo‘yicha zahiralar va boshqa qisqa muddatli passivlar kiradi. O‘rta va uzoq muddatli passiv deyilganda uzoq muddatli bank kreditlari va uzoq muddatli qarz bandlari tushuniladi. Doimiy passivlar guruxiga esa I bo‘lim passividagi barcha bandlar, ya’ni ustav fondi, zaxira jamg‘armasi, maxsus maqsadlarga mo‘ljallangan fondlar, maqsadli moliyalashtirish va tushumlar, ijara majburiyatlari, ta’sischilar bilan bo‘ladigan hisob-kitoblar, o‘tgan va hisobot yildagi taqsimlangan foyda kiradi.

Mablag‘larning aylanish holatini tahlil qilishda joriy va kelgusi davrda kutiladigan harakatchanlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish zarur. Mablag‘larning joriy harakatchanligi doimiy va tez sotiluvchi aktivlar bilan muddati etgan to‘lov majburiyatlar va qisqa muddatli passivlarni taqqoslash orqali aniqlanadi. Kelajakda kutiladigan harakatchanlik ko‘rsatkichi esa sekin sotiluvchi aktivlar bilan o‘rta va uzoq muddatli passivlarni solishtirish orqali o‘rganiladi. Bunda korxonaning kelgusida muljallangan har xil tushumlar bilan kelajak to‘lovlarini oldindan bashorat qilish mumkin.

Korxona balansining likvidlilik darajasiga har xil omillar, korxona aktivlarining, passivlarining tarkibiy o‘zgarib turishlari ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillarning ta’sirini bilish uchun balans likvidligini tahlil qilishda yana bir guruh ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ular quyidagilar:

1. *Umumiy kapitalning chaqqonlik koeffitsienti*. Bu koeffitsient korxonaning umumiy aylanma aktivlarini uning mol-mulki qiymatiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanib, u korxonaning umuman mablag‘lar bilan ta’minlanganligini va o‘z majburiyatlaridan qutulish salohiyatini ko‘rsatadi. Bu quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\textbf{Tovar} - \textbf{moddiy zahiralar} + \textbf{pul mablag‘lari va debitorlik qarzlari}}{\textbf{Balans jami}}$$

2. *Ishlab turgan kapitalning chaqqonlik koeffitsienti*. Bu koeffitsient korxonaning zahiralari va xarajatlarini, korxonaning zahira va xarajatlarga bo‘lgan ehtiyojini qoplovchi o‘zlik mablag‘lar manbalariga bo‘lish bilan aniqlanadi. Bu quyidagi tartibda bo‘ladi:

$$\frac{\textbf{Tovar – moddiy zahiralar}}{\textbf{O‘z mablag‘larining manbalari – Uzoq muddatli aktivlar}}$$

3. *O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlik koeffitsienti.* Bu quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\textbf{O‘z mablag‘lari manbalari – Uzoq muddatli aktivlar}}{\textbf{Balans jami}}$$

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, biz tahlil qilayotgan korxonada balans likvidligiga qo‘yilgan to‘rtta shartdan birinchisi yil boshida ham, yil oxirida ham bajarilmagan. Ya’ni, korxonaning doimiy harakatdagi aktivlari uning muddati kelgan to‘lov majburiyatlarini qoplashga etishmas ekan. Bu esa korxona balansining tez likvidlikka ega emasligidan dalolat beradi. Qolgan shartlar esa yil boshiga ham, yil oxiriga ham bajarilgan. Bundan ko‘rinadiki, korxona balansi mutloq likvidlikka ega bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, korxona balansining likvidligi yil boshiga nisbatan yil oxirida bir qadar yaxshilangan. Bunday natijalarni ijobiy baholsak ham bo‘ladi.

Umuman olganda, *quyidagi shartlarga amal qilinsa, korxona mablag‘i harakatchan deb baholanadi:*

a) doimiy xarakatdagi aktivlar > muddati kelgan to‘lov majburiyatlar;

b) tez sotiluvchi aktivlar > qisqa muddatli passivlar;

v) sekin sotiluvchi aktivlar > o‘rta va uzoq muddatli passivlar;

g) qiyin sotiluvchi aktivlar < doimiy passivlar

5.7-jadval

Balans aktiv va passiv moddalarining harakatchanligini (likvidligini) tahlili

(ming so‘mda)

Aktiv	Yil boshiga	Yil oxiriga	Passiv	Yil boshiga	Yil oxiriga	To‘lash uchun mablag‘larning etarliligi (+) yoki etishmasliligi (-)	
						yil boshiga	yil oxiriga
1	2	3	4	5	6	7=2-5	8=3-6
1. Doimiy harakatdagi aktivlar	7657	9491	1. Muddati kelgan to‘lov majburiyatlari	249458	127554	-241801	-118063
2. Tez sotiluvchi (pulga aylanuvchi) aktivlar	53266	148125	2. Qisqa muddatli passivlar	8589	35593	+44677	+112532
3. Sekin sotiluvchi (pulga aylanuvchi) aktivlar	470833	531450	3. Uzoq muddatli passivlar	-	-	+470833	+531450
4. Qiyin sotiluvchi (pulga aylanuvchi) aktivlar	186790	203491	4. Doimiy passivlar	460499	729410	-273709	-525919
BALANS	**718546**	**892557**	**BALANS**	**718546**	**892557**	**0**	**0**

Ma’lumotlarga asoslangan holda quyidagi shartlarni bajarilishini tekshiramiz.

	Yil boshiga	Yil oxirida
1. $A_1 > P_1$	1. 7657 $<$ 249458	1. 9491 $<$ 127554
2. $A_2 > P_2$	2. 53266 $>$ 8589	2. 148125 $>$ 35593
3. $A_3 > P_3$	3. 470833 $>$ 0	3. 531450 $>$ 0
4. $A_4 < P_4$	4. 186790 $<$ 460499	4. 203491 $<$ 729410

5.9. Aylanma mablag‘larning aylanishini tahlili

Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi deganda ularning pulga aylanish tezligi tushuniladi. Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi koeffitsienti joriy aktivlarning moddiy aktivlar va debitorlik qarzlariga bo‘lgan nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko‘rsatkichlar bevosita korxonaning bozordagi faolligini tavsiflaydi. Aylanma mablag‘larning aylanuvchanligi korxona faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkich bo‘lib, u asosda biznesni boshqarishda resurslar cheklanganligi va ulardan unumli foydalanish darajasi tahlil qlinadi va uning muhim yo‘nalishlari belgilanadi. *Aylanma mablag‘lardan samarali foydalanishning muhim yo‘nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:*

- mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmini o‘stirish;
- mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat)larni iste’molchilarga etib borishi va ular bo‘yicha hujjatlar aylanishini tezlashtirish;
- aylanma mablag‘lar bo‘yicha me’yoriy zahiralar saqlanishiga amal qilish;
- aylanma mablag‘larning me’yordan ortiqchaligini maqsadli boshqarishni yo‘lga qo‘yish (mollarni imtiyozli shartlarda sotish, ijaraga berish va hakozolar);
- aylanma mablag‘larni qayta baholashni balans tuzish sanasiga hisobga olish va to‘g‘ri belgilash;
- aylanma mablag‘larni hisobdan chiqarishning xalqaro usullaridan foydalanish;
- korxonaning hisob siyosatini, shuningdek, aylanma mablag‘larini baholash usulini belgilashda tarmoq rivoji va texnologik jarayonlarning murakkabligiga ahamiyat berish;
- tugallanmagan ishlab chiqarishni to‘g‘ri baholash;
- aylanma mablag‘lar normativini belgilash;
- aylanma aktivlar aylanishini tezlashtirish maqsadida tovar va moddiy boyliklarni sotish bo‘yicha hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;
- mahsulotlarni markazlashgan holda sotib olish, sotuvchi va sotib oluvchining monopolligini cheklash;
- moddiy aylanma mablag‘lardan samarali foydalanishda texnik va texnologik yangilanishni ta’minlash va hakozolar.

Moliyaviy tahlilning muhim qismi aylanma mablag‘lardan samarali foydalanganlikni o‘rganish egallaydi, bunda, aylanma mablag‘lar ayniqsa ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, debitorlik qarzlari, pul va valyuta mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar xarakatini o‘rganish muhimdir.

Aylanma aktivlarning aylanishi va ularning samaradorligiga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

- mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum summasining o‘zgarishi;
- moddiy aylanma mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymatini o‘zgarishi va hakozo.

Aylanma mablag‘larning aylanishini tahlil qilganda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlanadi:

$$\boldsymbol{a)\ \text{aylanish koeffitsienti} = \frac{\text{mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdansof tushum}}{\text{tovar} - \text{moddiy zaxiralari}}}$$

$$\boldsymbol{b)aylanish\ kuni = \frac{tovar - moddiy\ zaxiralar * hisobot\ davri\ kuni\ (360)}{\text{mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdansof tushum}}}$$

$$\boldsymbol{v)\ aylanish\ salmog'ikoeffitsenti = \frac{tovar - moddiy\ zaxiralar}{\text{mahsulot (ish,xizmat)lar sotishdansof tushum}}}$$

Bu koeffitsientlardan tashqari aylanma mablag‘larning samaradorligini aniqlash maqsadida har bir yoki ming so‘mlik zahira va xarajatlar hisobiga olingan yalpi mahsulot, sof tushum va hisobot yilning sof foydasi kabi ma’lumotlar ham tahlil etiladi.

5.8-jadval

“AVS” aksionerlik jamiyatining aylanma mablag‘larini aylanishini tahlili

Ko‘rsatkichlar nomi	O‘tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+,-)
1	**2**	**3**	**4=3-2**
1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum, ming so‘mda	1452513	3040381	+1587868
2. Jami tovar – moddiy zahiralari, ming so‘mda	470833	531450	+60617
3. Tovar modddiy zahiralarining (aylanma mablag‘larning) aylanish koeffitsienti (1\2)	3,085	5,721	+2,636
4. Tovar moddiy zahiralarining (aylanma mablag‘larning) aylanish davri, kun hisobida	116,7	62,9	-53,8
5. Aylanish salmog‘i koeffitsienti (2\1)	0,324	0,175	-0,149
6. Aylanishni tezlashishi yoki sekinlashishidan mablag‘larning bo‘shashganligi (-) yoki qo‘shimcha (+) jalb qilinganligi:			
a) kun hisobida	**x**	**x**	**-53,8**
b) summada, ming so‘mda	**x**	**x**	**-454368,02**

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan “AVS” aksionerlik jamiyatida joriy yilda mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum miqdori 1587868 ming so‘mga ortgan. Bunga mos ravishda tovar-moddiy zahiralarining qiymati ham 60617 ming so‘mga o‘sgan. Bularning natijasida tovar-moddiy zahiralarining aylanish koeffitsienti o‘tgan yilgi 3,085 koeffitsientdan hisobot yiliga kelib 5,721 koeffitsientga ko‘tarilgan. Aylanish davri esa o‘tgan yilga nisbatan 53,8 kunga qisqargan, ya’ni tezlashgan. Korxonaning tovar-moddiy zahiralarini aylanishini tezlashishi natijasida korxona oborotidan mablag‘larning bo‘shashishi 454368,02 ming so‘mni tashkil etgan. Bunday natijalarni korxona uchun ijobiy baholamoq lozim.

“Korxonaning moliyaviy holatini tahlili” mavzusi bo‘yicha TAYANCH IBORALAR

- buxgalteriya balansini tahlil etishdan maqsad;
- tashqi foydalanuvchilarni o‘ziga jalb ettiruvchi balansdagi asosiy ko‘rsatkichlar;
- balans aktivining bo‘linishi;
- asosiy vositalar;
- joriy aktiv (mablag‘)lari;
- moddiy aktivlar;
- nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy qo‘yilmalar (uzoq muddatli);
- zaxiralar;
- pul mablag‘lari;
- qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar;
- debitorlik qarzlar;
- o‘z kapitali;
- qarz mablag‘lari (majburiyatlar);
- joriy mablag‘lar aylanish tezligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- joriy mablag‘larini ayrim moddalari bo‘yicha aylanish tezligini aniqlash tartibi;
- aylanish davri o‘zgarishining iqtisodiy natijasi;
- moliyaviy holatni mustahkamlash yo‘llari;

“Korxonaning moliyaviy holatini tahlili” mavzusi bo‘yicha NAZORAT SAVOLLARI

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy holatini tahlil qilishdan maqsad nima?
2. Moliyaviy tahlilning uslubi deganda nimani tushunasiz va ularning tarkibiga qaysi usullar kiritiladi?
3. Moliyaviy tahlilning axborot manbai va ularga qo‘yiladigan huquqiy talablar deganda nimani tushunasiz?
4. Moliyaviy tahlilda umumlashtirilgan moliyaviy hisobot shakllari va ularning tahlili qanday amalga oshiriladi?
5. Moliyaviy tahlil sub’ektlari deganda kimlarni tushunasiz va ularning maqsadi nima?

6. Korxona balansi qanday tahlil o‘ilinadi?
7. Korxonaning to‘lov layoqati deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil qilinadi?
8. Korxona moliyaviy barqarorligi deganda nimani tushunasiz va uning tahlili qanday bajariladi?
9. Likvidlilik ko‘rsatkichlarini ko‘rsatib o‘ting?
10. Korxona balansi likvidliligi deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil qilinadi?
11. Bank kreditidan foydalanish darajasini tahlil qilinayotganda nimalar o‘rganiladi?
12. Aylanma mablag‘lar samaradorligi deganda nimani tushunasiz va ular qanday tahlil etiladi?
13. Aylanma mablag‘lar aylanishiga ta’sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?
14. Xo‘jalik sub’ektlarining ish faolligi qanday aniqlanadi va tahlil qilinadi?
15. Xo‘jalik sub’ektlarining iqtisodiy nochorligini aniqlash tartibini ko‘rsatib bering?
16. Xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy holatini yaxshilash imkoniyatlarini ko‘rsatib bering?

“Korxonaning moliyaviy holatini tahlili” mavzusi bo‘yicha TEST SAVOLLARI

1. Uzoq muddatli aktivlar 18 000 000 so‘mga, joriy aktivlar 42 000 000 so‘mga va xususiy kapital 20 000 000 so‘mga teng bo‘lsa korxonaning majburiyatini toping?
   a) 40 000 000
   b) 45 000 000
   c) 35 000 000
   d) 55 000 000
2. Uzoq muddatli aktivlar 48 000 000 so‘mga, joriy aktivlar 52 000 000 so‘mga va korxonaning majburiyatini 62 000 000 ga teng bo‘lsa korxonaning to‘lovga layoqatlilik koeffetsentini toping?
   a) 0.84
   b) 0.94

c) 0.51

d) 0.91

3. Uzoq muddatli aktivlar 48 000 000 so‘mga, joriy aktivlar 52 000 000 so‘mga va korxonaning majburiyatini 62 000 000 ga teng bo‘lsa uzoq muddatli aktivlarni umumiy aktivlardagi ulushini aniqlang?

a) 48%

b) 51%

c) 35%

d) 50%

4. Uzoq muddatli aktivlar 48 000 000 so‘mga, joriy aktivlar 52 000 000 so‘mga va korxonaning majburiyatini 62 000 000 ga teng bo‘lsa joriy aktivlarni umumiy aktivlardagi ulushini aniqlang?

a) 52%

b) 42%

c) 35%

d) 50%

5. O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanganlik koeffientining meyoriy ko‘rsatkichini toping?

a) 0.6-0.8

b) 0.4-0.5

c) 0.1-0.2

d) 1-1.2

6. O‘z mablag‘lari va uzoq muddatli qarz mablag‘lari bilan ta’minlanganlik koeffitsientining meyoriy ko‘rsatkichini toping?

a) Minimum 1.0 ga teng

b) Minimum 2.0 ga teng

c) Minimum 3.0 ga teng

d) Minimum 4.0 ga teng

7. Moliyaviy mustaqillik (avtanomiya) koeffitsenti qanday aniqlanadi?

a) o‘z mablag‘lari manbayi/balans

b) balans/ o‘z mablag‘lari manbayi

c) o‘z mablag‘lari manbayi/qarz mablag‘lari

d) qarz mablag‘lari/ o‘z mablag‘lari manbayi

8. Bankrotlikka olib keluvchi tashqi olimlarga kirmaydigan omilni toping?

a) ortiqcha qarz majburiyatlarining mavjuddigi
b) iqtisodiy (davlatdagi krizis, inflyasiya)
c) siyosiy omillar
d) demografik omillar

9. Firma va kompaniyaning to‘lov layoqati koeffitsenti qanday aniqlanadi?

a) Joriy aktivlar/Muddati kelgan to‘lov majburiyatlari
b) Aktivlar/Muddati kelgan to‘lov majburiyatlari
c) Balans/Muddati kelgan to‘lov majburiyatlari
d) Uzoq muddatli aktivlar/Muddati kelgan to‘lov majburiyatlari

10. Moliyaviy mustaqillik (avtanomiya) koeffitsenti qanday aniqlanadi?

a) o‘z mablag‘lari manbayi/balans
b) balans/ o‘z mablag‘lari manbayi
c) o‘z mablag‘lari manbayi/qarz mablag‘lari
d) qarz mablag‘lari/ o‘z mablag‘lari manbayi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Pespublikasi Qonunlari

1.1. O‘zbekiston Pespublikasi Konsititutsiyasi. 1992-yil.

1.2. O‘zbekiston Pespublikasining «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida»gi http://lex.uz/docs/40123 qonuni. 24.05.1997 yil.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. «O‘zbekiston ovozi» gazetasi 1996-yil 17-sentyabr.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. 26.05.2000. O‘z.R. BAMA., 2001.

1.5. O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahrir). 2003-yil 24-aprel. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi, 2003 yil 5-son.

1.6. O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi Qonuni. Xalq so‘zi, 2004-yil 23-yanvar.

1.7. O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik sub’ektlariga soliq solish va ularning hisobot berish tizimi tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-yil 51-son.

1.8. O‘zbekiston Pespublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni. 2012-y. 6 –yanvar.

1.9. O‘zbekiston Pespublikasining “Tadbirkorlar faoliyati erkinligi kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. 02.05.2012-yil. O‘PQ-328-son.

II. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning farmonlari va qarorlari

2.1. 2017-yil 7-fevpalda qabul qilingan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Pespublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar stpategiyasi “ to‘g‘risidagi Farmoni.

2.2. O‘zbekiston Pespublikasi Ppezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini taminlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chopa-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

2.3. O‘zbekiston Pespublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chopa-tadbirlar to‘g‘risida”gi 7-mapt 2019-yil PQ-4235- sonli Qarori.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni pivojlantirishga doir qo‘shimcha chopa-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. PQ-4231. 07.03.2019 yil

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chopa-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. PQ-4525. 20.11.2019 yil.

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini taminlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. PQ-4273. 09.04.2019 yil.

2.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subektlarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili institutini tasis etish to‘g‘risida”gi Farmoni. 05.05.2017 yil. PF-5037-son.

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tovar-xom ashyo birjalari faoliyati samaradorligini oshirish va birja savdosi mexanizmlarini yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi Qarori. PQ-4484. 08.10.2019 yil.

2.9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-aprelda qabul qilgan “Koronovirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5978-sonli Farmoni.

2.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-martda qabul qilgan “Yuqori likvidli va monopol tovarlarni sotish jarayonlariga bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5031-sonli Qarori.

2.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrda qabul qilgan “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risi”dagi PF-5544 Farmoni.

2.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvarda qabul qilgan “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy

siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5614 Farmoni.

2.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-mayda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729 Farmoni.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va nutqlari

3.1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil yakunlari bo‘yicha Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

3.2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi 24-yanvar 2020-yil.

3.3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy pivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir pahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kepak”. –T.: O‘zbekiston,16.01. 2017. – 104 b.

3.4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-2017 yillarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisi, Vazirlar Mahkamasining yig‘ilishdagi maruzasi. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. –T.: O‘zbekiston, NMIU, 2017. – 572 b.

3.5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir pahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kepak. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 15-yanvar

3.6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 3-appel kuni koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan inqirozga qarshi kurashish sharoitida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi.

3.7. Uzbekistan 2035/uz/2019/05/ Концепция – Развития - Узбекистана-uzb/pdf O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish stpategiyasining konsepsiyasi.

3.8. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet.

3.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 28-may kuni iqtisodiyotda raqobat muhitini ta’minlash va iste’molchilar huquqini himoya qilish bora-sidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi. https://uza.uz/oz/politics/ra-obat-bozor- iqtisodiyetiga-atiy-tish-zharayenida-printsipi-28-05-2020

IV. Asosiy adabiyotlar

4.1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi Statistik to‘plami. Toshkent 2022-yil.

4.2. Samarqand Viloyati Statistika boshqarmasining 2000-2022 yillardagi ma’lumotlari

4.3. Астахов В.П. «Анализ финансовой устойчивости фирмы (процедуры связанный с банкротством)». М.; «Финансы и статистика» 1996.

4.4. Бархатов А.П. Бухгалтерский учет внешнеэкономической деятельности. –М.: Дом Дашков и К, 2006, 309 с.

4.5. Bekmurodov A. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 1-5-qismlar. -T.: TDIU, 2005.

4.6. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Ishonqulov N.F. “Moliyaviy va boshkaruv tahlili”. Darslik. T.; “SHarq”, 2005 y.

4.7. Войтоловский Н.В. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. Учебник.-М.: Высшее образование, 2005.

4.8. Донцова Л.В. Анализ финансовой отчетности: Учебник.-М.: Дело и Сервиз, 2005.

4.9. Дымова И.А. Международные стандарты бухгалтерского учета. – М.: Главбух, 2000.

4.10. Жилкина А.Н. Управление финансами. Финансовый анализ предприятия. Учебник.-М.: ИНФРА-М, 2005.

4.11. Иброхимов А.Т., Рахимов М.Ю. «Бошқарув таҳлили». Т., ТМИ босмахонаси 2004 й.

4.12. Калинина А.П. и др. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. Учебник. – М.: Высшее образование, 2005.

4.13. Ковалев В.В. Финансовая отчетность. Анализ финансовой отчетности.-М.: Проспект, 2005.

4.14. Кожинов В.Я. Бухгалтерский и налоговый учет: Управление прибылью. - М.: Экзамен, 2005.

4.15. Косоруков О.А. Методы количественного анализа в бизнесе: Учебник.-М.: ИНФРА-М, 2005.

4.16. Куликов С.В. Финансовый анализ страховых организаций: Учебное пособие. – Ростов на Доне.: Феникс, 2006. – 224 стр.

4.17. Кутер М.И. Теория бухгалтерского учета: Учебник. 3-е изд., перераб и доп./ М.И. Кутер. - М.: Финансы и статистика , 2004. - 592 с

4.18. Майкл Портер. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей и конкурентов. 5- издание. Издательство-Альпина Паблишер, 2016 г. 456 с.

4.19. Макарьева В.И. Анализ финансово-хозяйственной деятельности организации. Учебник.-М.: «Финансы и статистика», 2005.

4.20. Медведев М.Ю. Учетная политика: бухгалтерская и налоговая : 3-е изд., перераб и доп./ М.Ю. Медведев. - М.: ИД ФБК-ПРЕСС , 2004. - 328 с.

4.21. Палий В.Ф. Современный бухгалтерский учет/ В.Ф. Палий. - М.: Бухгалтерский учет , 2003. - 792 с.

4.22. Pardayeva M.Q., Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2022. – 252 bet

4.23. Pardayeva M.Q., Xolikulov A.N., Jumayeva G.J. Investitsion loyihalar tahlili. O‘quv qo‘llanma. T.: “Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. – 587 bet.

4.24. Pardayev M, Xasanov B., Ispoilov J., Pulatov M., Eshboyev O‘, Xoliqulov A.N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O‘quv-qo‘llanma, T.: CHo‘lpon, 2012, 400 bet

4.25. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N. Iqtisodiyot sub’ektlarida omilli tahlilni takomillashtirish. Monogpafiya. Navro‘z. – Toshkent. 2014, 236-bet

4.26. Pardayev M.Q., Pardayev O. Xoliqulov A.N., Babanazarova S.A. Raqobatbardoshlikni mustahkamlashda klaster va sinergetik samaradoklik tahlili. O‘quv-qo‘llanma, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2022, 256 bet.

4.27. Pardaev M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Boshqaruv tahlili. O‘quv-qo‘llanma, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2022, 256 bet.

4.28. Pardayev M.Q., Isroilov B.I., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Mehnat ko‘rsatkichlari tahlili. O‘quv-qo‘llanma, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2022, 148 bet.

4.29. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoev T.I. Moliyaviy va iqtisodiy ma’lumotlarni tahlil qilish. O‘quv-qo‘llanma, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2022, 138 bet.

4.30. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N., Raximov X.A., Berdiqulova I.R., Babanazarova S.A. Korxonalar moliyaviy hisobotlari tahlili. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Samarqand. SamISI, 2022, 84 bet.

4.31. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N., Oltaev Sh.S. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Samarqand. SamISI, 2022, 84 bet.

4.32. Попов В.М. Финансовый бизнес – план. Учебное пособие. – М.: «Финансы и статистика». 2005.

4.33. Рябенькая Т. Ю. Бухгалтерская (финансовая) отчетность: практические рекомендации по составлению. «Юридический Дом «Юстицинформ»». –М.: 2006. -210 стр.

4.34. Рожкова О.В. Международные стандарты бухгалтерского учета и финансовой отчетности. - М.: ЭКЗАМЕН, 2003.

4.35. Robert D. Gatewood, Robert R. Taylor O.C. Ferrell Management /Comperehension, Analysis, and Application/ IRWIN, 1995

4.36. Савицкая Г.В. Теория анализа хозяйственной деятельности: Учебное пособие.-М.: ИНФРА-М, 2006.

4.37. Титов В.И. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности. Учебник.-М.: Дашков и К, 2005.

4.38. Фляйшер К. Стратегический и конкурентный анализ. Методы и средства конкурентного анализа в бизнесе. Учебное пособие.-М.: БИНОМ, 2005.

4.39. Шагиясов Т «Теория экономического анализа». ТМИ., 2005 й.

4.40. Шеремет А.Д. «Теория экономического анализа». М., ИПО «МП», 2002.

4.41. Шевченко И.Г. Практическое руководство по упровленческому учету и анализу. Учебное пособие.-М.: Управление персоналом, 2005.

4.42. Шредер Н.Г. Управленческий учет: анализ типичных ошибок. Учебное пособие.-М.: Специальный выпуск журнала «Современный управленческий учет», 2005.

V. Qo‘shimcha adabiyotlap

5.1. Горбунов А. Национальная конкурентоспособность. – М.: «Анкил», 2010. - 256с.

5.2. Jumaniyozov K. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash muammolari. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 2004.

5.3. Ibodov K.M. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. Samarqand.: “Zarafshon” nashriyoti, 2019. – 339 bet

5.4. Karlibayeva R.X., Temirov A.A. Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. – T.: Iqtisodiyot, 2019. -155 bet.

5.5. Костюнина Г.М. Форум «Азиатско-Тихоокеанское экономическое сообщество» (АТЭС) / Г.М. Костюнина // Международная экономическая интеграция : Учебное пособие / Под ред. Н.Н. Ливенцева. – М. : Экономистъ, 2006. – С. 191-217

5.6. Лоренцо Ди Т. Миф о естественной монополии // Экономика и организация промышленного производства. - 2001. № 4. - С. 81-98.

5.7. Мазилкина Е.И, Паничкина Т.Г. Управление конкурентоспособ-ностью. Учеб. пособ. - «Омега-Л», 2009. - 325 с.

5.8. Макконнелл К.Р., Брю Стенли Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т.: Пер. с англ. 11-го изд. Т.1. - М.:Республика, 1992.-399с.

5.9. Немченко О.Н., Хачатурян Н.М., Бакланова А.Ф. Конкурентоспособность и конкурентные преимущества предприятия. Вестник Волжского университета им. В.Н. Татищева. 2010. 279-284 с.

5.10. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N., Raximov H.A. Mehmonxona xo‘jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari. Monogpafiya. Iqtisodiyot. – Toshkent. 2013, 210-bet

5.11. Портер М. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей и конкурентов / М. Портер. – М. : Альпина БизнесБукс, 2005

5.12. Rizayev N.K. Nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini takomillashtirish “Monografiya” - T.: Fan va texnologiya 2005.

5.13. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народа. Петрозаводск: Петроком, 1993.

5.14. Тарануха Ю.В. «Конкуренция и конкурентная стратегия». Учебное пособие. М6 2008. - 270 с.

5.15. Фатхутдинов Р.А., Конкурентоспособность; экономика, стратегия, управление. - М.: ИНФРА-М, 2000

5.16. Xolbekov R. Ishlab chiqarish hisobini tashkil qilish tamoyillari va uslubiyoti. Monografiya. -T.: Fan, 2005.

5.17. Xoliqulov A.N. Birlashish va qo‘shib olish. O‘quv qo‘llanma Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2022, 216 bet

5.18. Xoliqulov A.N,Usmanova D.Q., A.O.Qarshiyev. Tarmoqlar sohasini tartibga solish va raqobat. O‘quv qo‘llanma. Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2022, 174 bet

5.19. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. O‘quv qo‘llanma. Samapqand.: “Turon nashr” nashriyoti, 2021. – 212-bet.

5.20. Xoliqulov A.N., Berdiqulov V., Ibodov K.M. Taqqoslama menejment. O‘quv-qo‘llanma, T.: Iqtisod-moliya nashpiyoti, 2021 yil – 162 bet

5.21. Xoliqulov A.N., Urazov S.SH. Biznes hujjatlarni tuzish. O‘quv-qo‘llanma, Samarqand: Fan bulog‘i nashpiyoti, 2022 yil – 150 bet

5.22. Xoliqulov A.N., Maxmudova D.P. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirish sharoitida kichik biznesni boshqarishni takomillashtirish. Monogpafiya. Samapqand, SamDCHTI nashr-matbaa markazi, 2020 yil – 126 bet

5.23. Xudayberdiyev U.X., Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishi va muammolari. Monogpafiya. Samarqand, SamISI, 2020 yil – 124 bet.

5.24. Xudayberdiyev U.X. Xoliqulov A.N., Babanazarova S.A. Statistika. Darslik, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti uyi, 2022, 352 bet

5.25. Xudayberdiyev U.X. Statistika. O‘quv qo‘llanma. T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022 yil – 262 bet.

5.26. Чемберлин Э. Теория монополистической конкуренции: (Реориентация теории стоимости). Пер. с англ./Под ред. Ю.А. Ольсевича. – М., 1996. – 351 с.

5.27. Шаститко А.Е. Новая институциональная экономическая теория. — 3-е изд., перераб. и доп. М.: Экономический факультет. МГУ, ТЕИС, 2002. — 591 с.

5.28. Yadgarov A.A., Yuldashev G‘.T. Peal sektorda mahsulot

sifati va raqobatbardoshligi.– Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – T: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2019 -162 b.

5.29. Yaxshiyeva M.T. Hozirgi zaman raqobat nazariyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 280 b.

5.30. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: SHarq 2006.

5.31. O‘rmonov N.T. Monopoliyaga qarshi boshqaruvning institutsional asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 261 b.

VI. Intepnet ma’lumotlari

6.1. “Norma” (Me’yoriy-xuquqiy programma ta’minoti) 2005 yil.
6.2. www. gaap.ru (Xalqaro buxgalteriya standartlari).
6.3. www. buhgalt.ru (“Бухгалтерский учет” журнали (РФ)).
6.4. http://www.nevod.ru./
6.5. http://www.audit-it.ru./
6.6. http://www.books/bankir.ru./
6.7. http://www.finanaliz.kiev.ua./
6.8. http://www.preiskurant.ru.
6.9. http://www.books.listsoft.ru./
6.10. http://www.finctat.ru./
6.11. http://www.cs.karelia.ru./
6.12. www.stat.uz
6.13. www.sam.stat.uz
6.14. www.lex.uz
6.15. www.iqtisodiyot.uz
6.16. http://www.gias.ru.
6.17. yoshtadbirkorlar.blogspot.com
6.18. www.biznes-daily.uz
6.19. parliament.gov.uz
6.20. www.interfinance.uz

MUNDARIJA

KIRISH 3

I BOB. IQTISODIY TAHLILNING PREDMETI, VAZIFALARI VA MAZMUNI 5

1.1. Iqtisodiy tahlil fanining mohiyati 5

1.2. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti va ob'ekti 7

1.3. Iqtisodiy tahlil fanining bozor iqtisodiyoti sharoitida zaruriyati 10

1.4. Erkin iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlilning vazifalari 14

II BOB. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA UNDA QO'LLANILADIGAN USULLAR 23

2.1. Iqtisodiy tahlil fanining metodologik asoslari va ularning tavsifi 23

2.2. Tahlilda analiz va sintez, induksiya va deduksiya va boshqa uslublardan foydalanish 26

2.3.Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullar 30

2.3.1. Solishtirish usuli. 30

2.3.2. Muvozanat usuli. 33

2.3.3. Qayta hisoblash usuli. 35

3.3.4. Zanjirli almashtirish usuli. 38

2.3.5. Nisbiy miqdorlardan foydalanish usuli. 44

2.3.6. Indeks usuli. 45

3.3.8. Integral usul. 53

2.3.9. Kichik sonlardan foydalanish usuli. 59

2.4. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan matematik modellarning tiplari .. 61

III BOB. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI, AXBOROTLAR MANBAALARI VA IQTISODIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL ETISH 66

3.1. Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari, ularning tasnifi va tavsifi ... 66

3.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar tizimi 83

3.3. Korxonalar moliyaviy hisobotlari va mazmuni 84

3.4. Buxgalteriya balansi: tuzilishi, tarkibi va mazmuni 87

3.5. Moliyaviy hisobotlarning shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi .. 95

3.6. Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish muammolari 96

IV BOB. OPERATSION FAOLIYATNI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH 112

4.1. Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish tahlilining vazifalari. 112

4.2. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, sotishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash yo‘llari. 113

4.3. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish ko‘rsatkichlarining tahlili 115

4.4. Ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili 118

4.5. Ishlab chiqarish jarayonlari tannarxi tahlilining zaruriyati va vazifalari 125

4.6. Ishlab chiqarish jarayonlari tannarxi tahlili 133

4.7. Ishlab chiqarish harajatlariga ta’sir qiluvchi omillar tahlili 142

V BOB. KORXONANING MOLIYAVIY HOLATINI TAHLILI . 153

5.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy holatini o‘rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi, tahlil vazifalari va axborot manbalari 154

5.2. Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishi 161

5.3. Mol – mulk tarkibining tahlili..... 167

5.4. Mablag‘lar manbaini tahlili 169

5.5. Aylanma mablag‘larni qoplashga o‘zlik manbalarining etarliligi yoki etishmasliligini tahlili 171

5.6. Moliyaviy barqarorlik tahlili..... 173

5.7. Korxonaning to‘lov qobiliyatini tahlili 179

5.9. Aylanma mablag‘larning aylanishini tahlili 191

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 198

A.N. XOLIQULOV

IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir: Z. Meliyev
Musahhih: Z.N. Bobodustov
Texnik muharrir: D. Hamrayev

O‘quv qo‘llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2023 yil 28 apreldagi 9-sonli qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

© «FAN BULOG’I» nashriyoti, Samarqand - 2023

ISBN: 978-9943-5608-8-8

Nashriyot lisenziyasi:
№ 4341-5160-642c-944b-ab74-5062-3969
Bosishga ruxsat etildi: 14.08.2023 y.
© «FAN BULOG’I» nashriyoti, Samarqand sh.
S.Buhoriy ko’chasi, 1-11 uy.

Qog‘oz bichimi A5, 60x84¹/₁₆, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 13,06
Buyurtma № 0063A/23 Adadi 200 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.